7. Турсунов М.А., Умаров Б.Б., Эргашов М.Я., Аvezов К.Г. Синтез и кристаллическая структура комплекса никеля (II) с ароилгидразоном этилового эфира 5,5-диметил-2,4-диоксогексановой кислоты. *ЖСХ* 61(1). 2020. С.78-90.

ТИРИК ОРГАНИЗМДАГИ КООРДИНАЦИОН БИРИКМАЛАР

¹Низамова С.А., ²Бабаев Т.М.

¹п.ф.д., Турин политехника университети хузуридаги академик лицей кимё фани ўқувчиси

²К.ф.д., проф., Ўзбекистон Миллий университети

Аннотация: ушбу мақолада координацион бирикмаларнинг жонли ва жонсиз табиатда тарқалиши ва уни саноат, қишлоқ хўжалиги, фан ва тиббиётдаги аҳамияти ҳамда Ўзбекистондаги ривожланиш тенденциялари бўйича маълумотлар баён этилган.

Таянч сўзлар: координацион бирикмалар, микроэлементлар, ферментлар, металл ионлари, ферментларнинг функциялари.

Комплекс (координацион) бирикмалар табиатда кенг тарқалган бўлиб, қишлоқ хўжалигида, саноатда ва тиббиётда кўп қўлланилади. Шунингдек комплекс бирикмалар аралашмалари моддалар, ҳайвонлар ва ўсимликлар ҳаётида, тирик организмларнинг фаолияти учун жуда катта аҳамиятга эга.

Органик, ноорганик моддаларнинг янги ҳосилалари билан металлларни координацион бирикмаларини олиш ва уларнинг хоссаларини ўрганиш ҳозирги замон координацион кимёсининг долзарб муаммоларидан бири ҳисобланади.

Координацион бирикма шундай бирикмаки, унинг молекуласи ёки иони марказий ион ёки атомга эга бўлиб, буни бир неча ион ёхуд молекулалар, яъни лигандлар қуршаб туради. Координацион бирикмалар эритма, кристалл ва газ ҳолатида бўлади. Комплекс бирикмалар геометрик, чизиқли, тетраэдрик, квадрат, планар ва саккиз қиррали шаклга эга. Комплекс бирикмалар тузилишини электростатик кучлар жиҳатидан мураккаб ион металл атоми билан лигандлар томон ёндашув бир сабаб бўлиши билан тушунтирилади ва уларнинг хоссалари марказий атомнинг табиатига боғлиқ бўлади [1].

Узоқ вақт олиб борилган тадқиқотлар натижасида XIX асрнинг охирига келиб, барча кимёвий бирикмалар икки туркумга бўлинади: буларнинг бири атомли (ёки содда) бирикмалар ва иккинчиси молекуляр (ёки мураккаб) бирикмалар номини олди [2]. Кейинроқ биринчи хил бирикмалар биринчи тартибдаги бирикмалар иккинчиси эса юқори тартибдаги бирикмалар деб аталади. CuCl_2 , BF_3 , NH_3 , FeCl_3 каби биринчи тартибдаги бирикмалар қаторига киритилди; уларнинг ҳосил бўлиши валентлик қоидасига бўйсунди. Юқори тартибдаги бирикмалар бирор содда бирикманинг бошқа содда бирикма билан ўзаро бирикиши натижасида ҳосил бўлади. Вақт ўтиши билан юқори тартибдаги бирикмаларнинг сони кўпайиб борди ва кейинчалик, юқори тартибли бирикмаларнинг нисбатан барқарори комплекс (координацион) бирикмалар деб аталди. Одатда, оддий кимёвий бирикмаларнинг ўзаро бирикишидан мураккаброқ координацион бирикмалар вужудга келади.

Координацион бирикмалар формуласини ёзганда ташқи сфера ионлари квадрат қавсдан ташқарига чиқарилади. Марказий атом билан бевосита боғланган ионлар ёки молекулалар сони унинг координацион сони (к.с.) деб аталади. Мас, $\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$, $(\text{TiCO})_7$ ва $[\text{Cu}(\text{NH}_3)_4]\text{SO}_4$ да марказий атомларнинг координацион бирикмалар 6,7 ва 4 га тенг. Комплекс бирикмаларни ўрганиш шуни кўрсатадики, комплекс ҳосил бўлиш ҳодисаси айрим элементлардагина учрамасдан, балки Д.И. Менделеев даврий системасининг кўпчилиги элементларига хос бўлган ҳодисадир.

Д.И. Менделеев даврий системасининг катта даврлари ўртасидаги (оралиқ) элементлар (Ti, V, Cr, Mn, Fe, Co, Ni, Cu, Zn, Zr, Nb, Mo, Tc, Ru, Rh, Pd, Ag, Cd, Hf, Ta, W, Re, Os, Ir, Pt, Au, Hg, нодир ер элементлари, актиноидлар), баъзи металлмаслар, масалан: B, P, Si кўпинча комплекс бирикма ҳосил қилувчи марказий атомлар бўлиб, кислоталарнинг анионлари (F^- , Cl^- , Br^- , S^{2-} , WO_4^{2-} , SO_4^{2-} , PO_4^{3-} ва б.), шунингдек, O, N, P, S, Se, C атомларига эга бўлган нейтрал органик ва аорганик молекулалар ҳамда радикаллар лигандлар бўлиб қатнашиши мумкин.

Узоқ вақт олиб борилган тадқиқотлар натижасида XIX асрнинг охирига келиб, барча кимёвий бирикмалар икки туркумга бўлинди: буларнинг бири атомли (ёки содда) бирикмалар ва иккинчиси молекуляр (ёки мураккаб) бирикмалар номини олди. Кейинроқ биринчи хил бирикмалар биринчи тартибдаги бирикмалар иккинчиси эса юқори тартибдаги бирикмалар деб аталади. CuCl_2 , BF_3 , NH_3 , FeCl_3 каби биринчи тартибдаги бирикмалар қаторига киритилди; уларнинг ҳосил бўлиши валентлик қоидасига бўйсунди. Кейинчалик, юқори тартибли бирикмаларнинг нисбатан барқарори комплекс (координацион) бирикмалар деб аталди. Тассэр 1798 йилда биринчи бўлиб комплекс бирикма ($\text{CoCl}_2 \cdot 6\text{NH}_3$) ни ҳосил қилди. А.Вернер 1893 й нинг координацион назарияси таклиф қилинган, академик Гринберг

таърифига мувофиқ – қаттиқ ва эриган ҳолда ҳам таркиби ўзгармас ва мураккаб бирикмалар-комплекслар деб аталади [1]. Вақт ўтиши билан юқори тартибдаги бирикмаларнинг сони кўпайиб борди ва юқори тартибли бирикмаларнинг нисбатан барқарори комплекс (координацион) бирикмалар деб аталди. Тирик организмда- ги энг муҳим металл комплексларининг биологик роли ҳақидаги асосий фикрларга қуйидагиларни олиш мумкин: металл ионлари ва бошқа ноорганик компонентларни (трансферрин, албумин, гемосиянин, гемоглобин ва бошқалар) ташиш; калций, магний, рух, марганец (карбонат ангидраз карбоксипептидаза ва бошқалар) бўлган металлоферментлар томонидан гидролиз реакцияларини катализлаш; рух, темир, мис, молибден, магний (дегидрогеназалар, цитохромлар, каталаза, пероксидаза, ферредоксин, серулоплазмин, аскорбин оксидаза ва бошқалар) бўлган металлоферментлар билан оксидланиш-қайтарлиш реакцияларини катализлаш; электрон узатиш (цитохромлар, цитохром оксидаза ва бошқалар); гуруҳ ўтказиш (киназалар, сиянокобаламин ва бошқалар); танадаги металллар омбори (ферритин, металлотионин); ферментларни фаоллаштириш ва ингибе қилиш (карбоксипептидаза, карбоник ангидраза, киназалар); металл лиганд гомеостазадир.

Транспорт вазифасини бажарувчи оксиллар металллар билан осон комплексларни ҳосил қилади. Қон зардобдаги албумин қондаги Ca^{2+} ионларининг 50% гача бирикади, ҳазм бўлиши керак бўлган озик махсулотларни Cu^{2+} ионлари ошқозон-ичак трактдан жигарга олиб боради. Cu^{2+} ионларининг тескари тақсимланиши серулоплазмин томонида, Fe^{3+} ионлари эса трансферрин ферменти орқали амалга оширилади. Бунда темир ферменти гемоглобин ва миоглобин кислородни тўқималарга ташишда иштрок этади. Организм ичидаги моддаларни тақсимлашда мембрана оксиллари, трансмембран каналларни ҳосил қилувчи поринлар ва транслоказлар катта аҳамиятга эга. Тирик организмда бундай муҳим вазифаларни бажарувчилар бирикмалар-координацион бирикмалардир.

Координацион бирикмаларнинг хоссаларни ўрганиш нафақат хориж, МХД олимлари томонидан олиб борилган бўлиб, балки Ўзбекистонлик олимларнинг хиссалари беқиёсдир. Ўзбекистонда биринчи бўлиб координацион бирикмаларнинг хоссаларини ўрганиш бўйича асосчи академик Н.А. Парпиевдир. Академик Н.А. Парпиевнинг илмий мактаби бу соҳа ривожига катта ҳисса қўшиб келаётганлиги нафақат Ўзбекистон, балки хориждаги кимёгар олимларига ҳам яхши маълум. Ҳозирги кунда Н.А.Парпиевнинг координацион бирикмалар кимёси илмий мактаби чет эл ва МДХ давлатлари олимлари томонидан кенг тан олинган. Шунингдек, бу илмий мактабнинг шаҳобчалари ЎЗР ФА Умумий ва ноорганик кимё институтида, Самарқанд, Бухоро ва Термиз Давлат университетларида, Ўзбекистон Миллий университетида, Тошкент кимё технология институтида ривож топмоқда. Илмий мактаб асосчиси ва иштирокчиларининг кўп йиллик меҳнатлари туфайли координацион кимёнинг назарий асослари ва амалий ечимлари исботламоқда ва ривожлантирмоқда. Ўзбекистонда биринчи бор 1996 йилда ўзбек тилида «Координацион бирикмалар кимёси» дарслиги нашр этилиб, ҳозир кимё йўналишидаги барча олий ўқув юртларида фойдаланилмоқда. Шунингдек, 2000-2002 йилларда ўзбек тилида нашр этилган «Аноорганик кимёнинг назарий асослари» ва «Аноорганик кимё» дарсликлари пайдо бўлиши ҳам Н.А.Парпиевнинг илмий мактаби билан боғлиқ. Комплекс (координацион) бирикмалар табиатда кенг тарқалганлиги, қишлоқ хўжалигида, саноатда ва тиббиётда кўп қўлланилиши мумкинлигини ҳисобга олган ҳолда Н.А.Парпиевнинг илмий мактаби билан боғлиқ бўлган жуда кўп илмий тадқиқот ишлари амалга оширилган [3,4].

Комплекс (координацион) бирикмалар кимёвий синтез натижасида: доривор моддалар - коамид, феррамид ва б; металллардан: олтин, кумуш, никель, кобальт, мисни ажратиб олиш ва тозалашда; нодир ер элементлари, ишқрий металлларни ажратишда; кимёвий анализда; нафас, фотосинтез, биологик оксидланишда, ферментатив катализда ва бошқалар зарур биологик жараёнларини амалга оширишда; ванадил, кобальт ва мис ионларини аминокислоталар, амидлар ва гидразонлар билан бирикмаларини камқонликда, ванадилни сарколизин, глютамин билан ва кобальт, никелни гидроксам кислоталари билан бирикмалари

эса саратон касалига қарши қўлланилиши тавсия этилди. Бундай натижаларга эришган илмий мактабларнинг иши келажакда янада ривожланиб, ҳар томонлама тобора тармоқ отиб, Ватанимиз кимё фани ривожланишига хисса қўшади деб умид қиламиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Парпиев Н.А., Муфтахов А.Г., Рахимов Х.Р. Анорганик кимё. - Тошкент: “Ўзбекистон”, 2003. - 504 б.
2. Низамова СА. Кимё дарсларида ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш имкониятлари. Современное образование (Узбекистан). 2018(5):46-51.
3. Ш.А.Кадирова, О.Ф.Ходжаев. Координацион бирикмалар кимёси илмий мактаби. «Комплекс бирикмалар кимёсининг долзарб муаммолари» мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция материаллари. Тошкент. – ЎзМУ. – 2021 г. 14-15 сентябрь. – Б. 3-7
4. Б.Б. Умаров, Ў.М. Мардонов. Академик Н.А. Парпиев раҳбарлигидаги Бухоро координацион бирикмалар мактаби ва унинг истиқболлари. «Комплекс бирикмалар кимёсининг долзарб муаммолари» мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция материаллари. Тошкент. – ЎзМУ. – 2021 г. 14-15 сентябрь. – Б. 8-12

Mn(II) IONINING 2-(DIETILAMINO)ETIL-4-AMINOBEZOAT BILAN KOORDINATSION BIRIKMASI SINTEZI


¹Matmurodova F.K., ²Xudoyberganov O.I., ³Hasanov Sh.B., ⁴Taxirov Y.R.
¹PhD doktorant, ²PhD., ³k.i.x., k.f.n., ilmiy ishlar bo'yicha rais o'rinbosari, k.f.n., dots.
^{1,2,3}Xorazm Ma'mun akademiyasi
⁴Urganch davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu ishda 2-(dietilamino)etil-4-aminobenzoat (Novakain)ning Mn^{2+} ioni bilan kompleks birikmasi sintezi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Xona sharoitida kompleks birikmaning sinteziga tasir qiluvchi omillar o'rganildi. Jumladan, reaksiyaning vaqtga bog'liqligi, harorati ta'siri, konsentratsiyaga bog'liqligi amalda tadqiq qilindi. Sintez qilingan kompleks birikma IQ-Furye-spektroskopiya, element analiz, mass-spektrometriya, TG-DSK va rentgen strukturaviy tahlil usullari yordamida o'rganilib, uning kimyoviy tuzilishi aniqlandi va tegishli parametrlari Mercuriy dasturi yordamida o'rganildi.

Kalit so'zlar: Novakain, marganest(II) xlorid, ligand, sintez, kompleks birikma, struktura, metall kompleks, rentgen strukturaviy analiz, kristall, element analiz, antimikrob, monokristallar, hirshfeld sirt yuzaviy tahlil.

Jahon amaliyotida 2-(dietilamino)etil-4-aminobenzoat asosidagi kompleks birikmalar funktsidlar, mikroblarga qarshi vositalar va o'simliklarning o'sish stimulyatorlari sifatida keng qo'llaniladi. Bu molekular tarkibida ikkita koordinatsion markazning mavjudligi raqobatli koordinatsiya qonunlarini o'rganish uchun katta imkoniyatlar ochadi. Bundan tashqari, ushbu koordinatsion birikmalar guruhi ko'plab metall atomlarini ushlab turishi tufayli alohida klasterlar hosil qilish xususiyatiga ega, ular tirik organizmlarda turli xil moddalarni tashuvchisi sifatida ham ishlatilishi mumkin.


Marganets (II) xlorid (0,13 g, 0,001 mol) va novakain (0,472 g, 0,002 mol) 20 ml sirka kislotasida eritildi va cho'kma 30 daqiqa davomida to'liq erib ketguncha aralashtirib qizdirildi. Eritma filtrlanib, rotorli bug'latgichda quruq qoldiq qolguncha bug'latildi, quruq qoldiq 15 ml DMFA da eritildi va mahsulotni tozalash uchun eritma yana bug'latildi. Natijada kompleks birikmaning qizg'ish sariq rangli kristallari 14 kun o'tib hosil bo'ldi. Olingan kompleks birikmaning monokristallari o'stirilib, unga tegishli parametrlar merkuriy dasturi yordamida yechildi.



1-rasm. Olingan $2(C_{13}H_{21}N_2O_2)$, $Cl_4 Mn li$ kompleks birikmaning tasviri. Mnli-kompleks birikmaning kristallografik ma'lumotlari va strukturasi aniqlik kirituvchi parametrlar.

1-Jadval.

	Mn li-kompleks birikma		
Formula	$2(C_{13}H_{21}N_2O_2)$, $Cl_4 Mn$	Kristall o'lchami, [mm]	$0.35 \times 0.25 \times 0.22$
Molekulyar massa	671.38	T, °K	293
Singoniya	monoklinik	θ , °grad.	2,12; 27,00
Fazoviy guruh	P2/a	Interval h,k,l	999:-99 ; 999:-99 ; 999:-99
a, Å	14.6565(5)	Refleks	5072
b, Å	14.9019(7)	Sindirish ko'rsatkichi	1563
c, Å	15.6896(6)	R_{int}	0.0753
α, β, γ , deg	90; 103.8(4); 90	$F^2 \geq 2\sigma(F^2)$ Kriteriy	$R_1=0.056$
V, Å ³	3327.9(2)	Parametr	3682
Z	4	Muvofiqlik mezonlari (F^2)	1404
D_x , g/cm ⁻³	1.340	$R_1, wR_2(I > 2\sigma(I))$	$R_1=0.0652$, $wR_2=0.1542$
$\mu(CuK\alpha)$, mm ⁻¹	0.753		



2-rasm. $2(C_{13}H_{21}N_2O_2)$, $Cl_4 Mn li$ kompleks birikmaning kristall yacheychda joylashuvi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ashurov JM, Ibragimov AB, Ibragimov BT (2015) Polyhedron 102:441–446
2. Paul A, Thomas J, Johnson R, Varghese S (2015) Chem Sci RevLett 4:292–298
3. Devi J, Batra N (2015) Spectrochim Acta A 135:710–719
4. Ahmad M, Ikram S (2016) Optik-Int J Light Electr Opt127:1738–1742
5. Mercuriy dasturiy ta'minoti.

SYNTHESIS AND CRYSTAL STRUCTURE OF THREE METAL COMPLEXES ON THE BASE OF O-HDROXYBENZOIC ACID AND DMFA.

¹Ruzmetov A.Kh., ²Ibragimov A.B., ³Ashurov J.M., ⁴Kristina Toderich

¹PhD student, ²DSc, prof, ³DSc, prof, ⁴PhD student.

^{1,2}Institute of General and Inorganic Chemistry of Uzbekistan Academy of Sciences


³Institute of Bioorganic Chemistry, Uzbekistan Academy of Sciences

⁴Tottori University, 4-101 Koyama-cho Minami, Tottori, 680-8550, Japan.

Annotation: 2 different coordination compounds of ortho-hydroxybenzoic acid were synthesized in the presence of DMFA $[Cu_2(OHBA)_4(DMFA)_2]$, $[Cu_2(OHBA)_4](DMFA)$. Their structure was studied using an x-ray diffractometer.

Keywords: DMFA, o-hydroxybenzoic acid, monodentant, transformation.

The three types of metal complexes have been obtained from aqueous ethanol and DMFA solutions containing o-hydroxybenzoic acid (OHBA), monethanolamine (MEA) and metal salts. These complexes are: $[Cu_2(OHBA)_4(DMFA)_2]$, $[Cu_2(OHBA)_4](DMFA)$. The crystal structures of these complexes have been determined by X-ray crystallography and structure comparison with CSD data has been conducted.



In all complexes a coordination number of the central metal atom is five. In first metal complexes OHBA and DMFA molecules are coordinated by di- and monodentant modes, *i.e.* they not maximally realize their donating capabilities. The charge compensation of Me^{2+} -ions is reached by same way. In both cases of OHBA involvement to inner coordination sphere neutralization of the charge takes place due to a transformation of the ligand molecule to carboxylate form.

SYNTHESIS AND STRUCTURE OF A NEW COMPLEX BASED ON 5-SULFOSALICYLIC ACID AND CU(II).

¹Normamatov A.S., ²Ibragimov A.B.

¹PhD student, ²DSc, prof.

^{1,2}Institute of General and Inorganic Chemistry of Uzbekistan Academy of Sciences

Annotation: A coordination compound of copper was synthesized under acidic conditions from sulfosalicylic acid, a derivative of benzoic acid. In this case, the coordination number of copper was equal to six. the structure of the complex was studied using a -ray diffractometer.

Keywords: Coordination compounds, sulfosalicylic acid, benzoic acid, x-ray diffractometer, ORTEP, polyhedron.

5-sulfosalicylic acid was found to significantly increase the activity of antioxidants and retain the membrane stability index at higher level resulted in better vase life of plants. Thus, effect of post harvest treatment viz., 5-sulfosalicylic acid and sucrose along with a control on physiological and biochemical changes during senescence of cut liliums was investigated in cultivar avocado of oriental group. It was found that vase life of cut liliums of cultivar avocado was

significantly improved with 5-sulfosalicylic acid. Vase solution contained 5-sulfosalicylic acid resulted in better retention of membrane stability index till 20 days. Based on this, we conducted a systematic study for the synthesis of new biologically active complexes of sulfosalicylic acid. Thus, several complexes of 5-sulfosalicylic acid were synthesized in the form of metal complexes and organic salts. Below we will discuss one of them.




Fig.1. The ORTEP structure of the $[\text{Cu}(\text{C}_7\text{H}_6\text{O}_6\text{S})_2 \cdot (\text{H}_2\text{O})_4]$. An asymmetric part of the complex molecule is numbered and ellipsoids are drawn at 50% probability level.

The complex molecule is situated on an inversion center of the triclinic P-1 system. In it Cu(II) ion coordinates two 5-sulfosalicylic acid (5-SSA) and four water molecules, *i.e.* formula of the coordination compound is $[\text{Cu}(\text{C}_7\text{H}_6\text{O}_6\text{S})_2 \cdot (\text{H}_2\text{O})_4]$ (Fig. 1). The 5-SSA molecules are attached to the metal ion monodentately through oxygen atom O1 of the carboxylic group. Here, the sulfo molecules does not participate in complex formation. But, their they participate in the compensation of the charge of the metal of the central atom, due to the deprotonation of hydrogen from the hydroxyl group.

Polyhedron of the central atom is octahedron which is distinctly distorted (Fig. 1). The distortion is mainly caused by the prolongation of the apical bonds until 2.371 Å due to Jahn-Teller effect. Indeed, four equatorial bonds of a type Cu-O are equal (1.95-1.99) Å and angles with participation of these atoms are $90 \pm 3.05^\circ$.

The carboxylate fragment is tilted to aromatic ring at an angle of 3.53 degrees, while the angle of sulfosalicyl to aromatic ring is equal to 89.02° .

There are 383 structures with participation of 5SSA in Cambridge Structural Database (CSD, version 5.43, November 2021, updated on February 2022). Among them 211 structures are metal complexes.

SYNTHESIS AND STRUCTURE OF THE NEW METAL COMPLEX OF 5-SULFOSALICYLIC ACID

¹Normamatov A.S., ²Ibragimov A.B.

¹PhD student, ²DSc, prof.

^{1,2}Institute of General and Inorganic Chemistry of Uzbekistan Academy of Sciences

Annotation: Coordination compounds of sulfosalicylic acid were synthesized. in the weak acidic condition of the environment, the bond with the central ion is removed from the sulfo group. crystals of the synthesized coordination compound were grown and analyzed using an x-ray diffractometer.

Keywords: Coordination compounds, sulfosalicylic acid, central ion, x-ray diffractometer, ORTEP, polyhedron.

Most biologically active substances are difficult to dissolve in water and this greatly limits their wide practical application. In modern science, a wide range of different methods has been developed to improve water solubility and their bioactivity, but there are few works devoted to the simultaneous enhancement of both solubility in water and the biological activity of substances. In this regard, we are investigating the possibility of simultaneously improving both of these properties using the example of well-known model compounds, for example, 5-sulfosalicylic acid (5-SSA). This work is devoted to the synthesis and structure of a metal complex based on 5-sulfosalicylic acid and copper sulfate.




Fig.1. The ORTEP structure of the compound $[\text{Cu}(\text{C}_7\text{H}_6\text{O}_6\text{S})_2 \cdot (\text{H}_2\text{O})_4] \cdot (\text{H}_2\text{O})$. An asymmetric part of the complex molecule is numbered and ellipsoids are drawn at 50% probability level.

The complex molecule is situated on an inversion center of the triclinic P-1 system. In it Cu(II) ion coordinates two 5-SSA and four water molecules, *i.e.* formula of the coordination compound is $[\text{Cu}(\text{C}_7\text{H}_6\text{O}_6\text{S})_2 \cdot (\text{H}_2\text{O})_4] \cdot (\text{H}_2\text{O})$ (Fig. 1). The 5-SSA molecules are attached to the metal ion monodentately through oxygen atom O1 of the sulfo group. Neutralization of the ionic metal (Cu^{+2}) occurs due to the deprotonation of the sulfo group of 5-sulfosalicylic acid.

Polyhedron of the central atom is octahedron which is distinctly distorted (Fig. 1). The distortion is mainly caused by the prolongation of the apical bonds until 2.517 Å due to Jahn-Teller effect. Indeed, four equatorial bonds of a type Cu-O are equal (1.941-1.948) Å and angles with participation of these atoms are $90 \pm 5.12^\circ$.

The carboxylate fragment is tilted to aromatic ring at an angle of 2.45 degrees, while the angle of sulfo group to aromatic ring is equal to $87,79^\circ$.

There are 383 structures with participation of 5-SSA in Cambridge Structural Database (CSD, version 5.43, November 2021, updated on February 2022). Among them 211 structures are with Cu metal complexes.

SYNTHEIS AND STRUCTURAL OF 2-AMINOBENZOXAZOLE - FUMARIC ORGANIC SALT

¹Kadirova Sh.A., ²Razzokova S.R., ³Ibragimov A.B., ⁴Sadullayeva S.

¹PhD, ²DSc, prof, dean at the department of Chemistry, ³DSc, prof, ⁴Researcher, ^{1,2,4}National university of Uzbekistan

³Institute of General and Inorganic Chemistry of Uzbekistan Academy of Sciences

Annotation: *Complex compounds of 2-aminobenzoxazole with fumaric organic salt were synthesized. Crystal complexes containing both 2-aminobenzoxazole derivatives and fumaric acid have been documented in the CSD.*

Key words: *2-aminobenzoxazole, fumaric acid, co-crystal, salt, molecular and crystal structure.*

Benzoxazole derivatives are important heterocyclic compounds that exhibit broad biological activities, including antibacterial, antimicrobial, antitumor, anti-inflammatory, antitubercular, herbicidal and fungicidal agents. 2-Aminobenzoxazoles have been found to act as ligands for the internal ribosome entry site (IRES) RNA of hepatitis C virus (HCV). The organic acids containing the donor and acceptor groups capable of classic hydrogen bonding are used for multicomponent assembly, so they are frequently chosen as building blocks in supramolecular crystal engineering. Herein, we report on the crystal structure and Hirshfeld surface analysis of a new co-crystal of 2-Aminobenzoxazole - fumaric acid molecular salt. A 1:1 stoichiometric ratio of 2-aminobenzaxazole (0.134 g, 1.0 mmol) and fumaric acid (0.116 g, 1.0 mmol) was dissolved and mixed well in distilled water (3 ml). Hold at 60°C for 10 minutes by stirring. The solution was allowed to stand at room temperature in a beaker with small holes in the cover for evaporation. After about 3 weeks, rectangular single crystals of $[\text{C}_7\text{H}_7\text{N}_2\text{O} \cdot \text{C}_4\text{H}_3\text{O}_4]$ co-crystal appeared.

The new organic salt of two bioactive compounds, 2-aminobenzoxazole and fumaric acid (1:1), was crystallized in the orthorhombic *Pbca* point group using classic evaporation of their solution in water. The common topological analysis revealed 4 classic (N—H···O and O—H···O) and 2 non-classic (C—H···O) hydrogen bonds in the structure. The stacking was found as well for a pair of 2-aminobenzoxazolium anions.




Figure 1. Molecular structure of the title compound.

Crystal data, data collection and structure refinement details are summarized in Table 1. The hydrogen atoms are refined isotropically with a mixed model. Those involved in classic hydrogen bonds are found from the differential Fourier maps and are free from any constraints or restraints. The other hydrogen atoms were refined using "riding" model with $U_{iso} = 1.2U_{eq}$ of the carrier carbon atom.

KOORDINATSION BIRIKMALAR SENTEZI VA XOSSALARI

Xayrullayeva T.Sh., Kurbanova D.S., Isakulova M.Sh.

Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada kordinatsion birikmalar va ularning uchrashi, koordinatsion birikmalarning sintez qilib qay tartibda olishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Koordinatsion birikmalar, koordinatsion birikmalar sintezi, Verner nazariyasi.

Tarkibida murakkab-‘kompleks’ion tutgan birikmalar kompleks birikmalar deyiladi. Yangi kimyoviy bog' hosil qilmasdan yoki yangi elektron jufti yuzaga kelmasdan oddiy molekullardan murakkab molekullar hosil bo'lishi kompleks birikmalarni yuzaga keltiradi. Kompleks birikmalarda olingan va berilgan elektronlarning soniga qarab valentlikni bilib bo'lmaydi. Kompleks birikmalar 2 ta polyar molekullarni o'zaro ta'siridan hosil bo'ladi.

Koordinatsion birikmalar hosil qilish uchun birikish, almashinish, oksidlanish-qaytarilish reaksiyalaridan foydalaniladi. Hosil qilingan koordinatsion birikmani reaksiyon aralashmadan ajratib olish ham katta ahamiyatga ega.

Buning uchun:1) erituvchini bug'latib konsentrlangan reaksiyon aralashma hosil qilib, uni muz va tuz aralashmasi aralashmasi bilan sovutib yoki unga shu moddaning kichik kristallarini tashlab, koordinatsion birikmani kristallga o'tkazishdan; 2)reaksiyon aralashmaga koordinatsion birikmani eritmaydigan,lekin koordinatsion birikmaning hosil bo'lishida ishtirok etgan erituvchi bilan yaxshi aralashadigan boshqa biror erituvchidan oz-oz qo'sha borib cho'ktirishdan ekstraksiya usulidan foydalaniladi

Koordinatsion birikmalar olishda quyidagi sintez usullaridan foydalaniladi:

- 1) Muvozanatli
- 2) genealogik sintezlar.

Muvozanatlar sintezda asosiy rol ni termodinamika munosabatlar bajaradi. Bunda mahsulotlar energetik manfaat jihatidan dastlabki moddalardan ko'ra afzalroq bo'lishi kerak. Bunda reaksiyalarning mexanizmi ikkinchi darajali hisoblanadi. Ba'zan mahsulotlarning tuzilishi dastlabki moddalarning tuzilishidan umuman boshqacha bo'lishi mumkin.

Muvozanatli sintezni olib borish uchun quyidagi shartlarga rioya qilish kerak.

*Koordinatsion birikma hosil bo'lish muvozanat jarayonini ta'minlash uchun zaruriy harorat va boshqa sharoitlar tanlash:

*Muvozanatni mahsulotlar hosil bo'lish tomoniga qarata siljitish choralarini izlash:

*Zaruriyat bo'lsa,dastlabki moddalar energiyasini imkoni boricha oshirish:

*Agar koordinatsion birikma hosil qilish jarayoni mahsulotni saqlash mumkin bo'lmagan sharoitda amalga oshirilgan bo'lsa, <<muvozanatni yaxlatish>> usuli tanlanadi.

*Genealogik sintezda mahsulotning tuzilishi dastlabki moddalar tuzilishiga o'xshash bo'ladi. Bunda reaksiya mexanizmi muhim ahamiyatga ega. Bu holda ham mahsulotning energetik jihatidan afzalligi imkoni boricha o'z kuchini saqlab qoladi.

U yoki bu elementning koordinatsion birikma hosil qilish qobiliyati o'sha element atomining sirtqi elektron qavati tuzilishiga va uning davriy sistemadagi o'rniga bog'liq bo'lib, koordinatsion birikma hosil qiluvchilar jumlasiga asosan sirtqi qavatda yetarli darajada bo'sh orbitallari bo'lgan metal ionlar kiradi.

1893 yilda A.Verner kompleks birikmalarining tuzilishi haqida yangi nazariya yaratdi. Bu nazariya quyidagi uch banddan iborat:

*ayrim elementlar o'zining asosiy valentliklaridan tashqari, yana qo'shimcha valentlik namoyon qila oladi:

*har qaysi element o'zining asosiy va qo'shimcha valentligini to'yintirishga intiladi:

*markaziy atomning qo'shimcha valentligi fazoda ma'lum yo'nalishga ega bo'ladi.

Vernerning fikricha birinchi tartibdagi birikmalar asosiy valentlik hisobiga, koordinatsion birikmalar esa qo'shimcha valentlik hisobiga hosil bo'ladi.

Xulosa: Koordinatsion birikmalar har doim markaziy atom bilan ligandlar orasidagi bog'lanish bir xil kuchga ega bo'larkan. U yoki bu elementning koordinatsion birikmalar hosil qilish qobiliyati o'sha element atomining sirtqi elektron qavati tuzilishiga va uning davriy sistemadagi o'rniga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. N.A. Parpiyev, X.R. Raximov, A.G. Muftaxov. "Anorganik kimyo nazariy asoslari". Toshkent. "O'zbekiston". 2000 y
2. Кукушкин Ю.Н. «Химия координационных соединений» Высшая школа, 1985. — 457 с.
3. Киселев Ю.М., Добрынина Н.А. «Химия координационных соединений» Академия, 2007. — 352 с.

p-NITROANILINNING MIS(II)NITRAT TUZI BILAN YANGI KOMPLEKS SINTEZI

¹Kamolov S.N., ²Babayev B.N., ³Ibragimov A.B., ⁴Kamolov F.Q.


¹O'zbekiston milliy universiteti

²O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti

³Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani XTB tasarrufiagi 36 –maktab

Annotatsiya: Nitroanilinning izomerlaridan biri p-nitroanilin yoki 1-amino-4-nitrobenzol (1-rasm) $C_6H_6N_2O_2$ formulasiga ega bo'lgan organik birikma bo'lib sariq rangli qattiq modda hisoblanadi.

Kalit so'zlar: p-nitroanilin, koordinatsion birikma, korroziya, ingibitor, rentgen strukturaviy tahlil, monokristall, CCDC bazasi.



p-nitroanilin bo'yoqlar, antioksidantlar farmatsevtika, benzin, parrandachilik dori vositalari ishlab chiqarishda oraliq mahsulot sifatda, korroziyaga qarshi ingibitor bo'lib xizmat qiladi. U asosan sanoatda muhim bo'yoq komponenti bo'lgan p-fenilendiaminning kashshofi sifatida ishlatiladi.

Shuningdek, turli xil zararkunandalarga qarshi vositalar olishda keng qo'llaniladi. Bu esa ishlab chiqarishning turli sohalaridagi rivojlanishga olib keladi.

Ushbuni inobatga olgan holda p-nitroanilinning d-metallar bilan hosil qiladigan komplekslarini sintez qilish, hosil qilingan koordinatsion birikmalarining tuzilishini fizik-kimyoviy usullar yordamida aniqlash, biologik faolliklarini o'rganishni asosiy maqsad qilganmiz.

Bu maqolada p-nitroanilin mis(II)nitrat bilan kompleksining sintezi, molekulyar va kristall tuzilishi haqida m'alumolar keltirilgan.

Tajriba qismi: Cu(NO₃)₂ (0,187 g, 1,0 mmol) tuzi bilan p-nitroanilin(0,276 g, 2 mmol)ning spirtli eritmasi aralashtirildi. Buning uchun ligand (p-nitroanilin) absolyut etil spirt (96% li)da eritildi. Metall tuzi esa toza distirlangan suvda eritilib, olingan eritmalar eruvchi moddaning 1:1 mol nisbatida ta'sirlashtirildi filtrlandi. va bug'lanishi uchun xona haroratida qoldirildi. Eritmalardan koordinatsion birikmalarni kristallari hosil bo'lishi va erituvchi bug'lanib ketishi uchun 12-14 kun davomida termostat kamerasiga qo'yildi. Shundan sung yashil kristallar ajratib olindi. Olingan koordinatsion birikmalarning tuzilishini rentgen strukturaviy tahlil yordamida o'rganildi.


Strukturaviy tahlil: Kompleksning molekulyar tuzilishi 2-rasmda ko'rsatilgan.

Olingan kompleksning formulasi [Cu(NO₃)₂(H₂O)₂(PNA)₂] bo'lib markaziy mis (II) ioni kristallografik inversiya markazida joylashgan. Ikki p-nitroanilin molekulasining har biri NH₂ azot atomi orqali metall ionini muvofiqlashtiradi.

Ikki NO₃ guruhi Cu₂₊ ioniga kislorod atomlaridan biri (O3) orqali monodentat tarzda biriktiriladi (3-rasm). Oktaedral koordinatsion sferaning qolgan ikkita pozitsiyasini suv molekulari egallaydi. Ortogonal bog'lanish burchaklari 84,01 (11) - 95,99 (11) oralig'ida, ya'ni ularning ideal qiymatdan maksimal og'ishi taxminan 6 ga teng.

Mis ioni musbat zaryadining kompensatsiyasi ikki NO₃ ionining ichki koordinatsion sferaga kiritilishi bilan sodir bo'ladi.

Molekuladagi intramolekulyar N1— H O4 vodorod aloqasi S1(6) grafik belgilariga ega bo'lgan olti a'zoli halqa hosil qiladi. p-nitroanilinning NO₂ guruhi aromatik halqa bilan deyarli tekislanadi - mos keladigan dihedral burchak atigi 5,8 (6) ni tashkil qiladi.



Xulosa: O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida p-nitroanilin molekulasini mis (II) nitrat tuzi bilan reaksiyaga kiritirilib, yangi kompleksi sintez qilindi va monokristalli o'stirib olindi.

Olingan koordinatsion birikmalarning tuzilishini rentgen strukturaviy tahlil yordamida o'rganildi, tahlillar natijasida p-nitroanilinning mis nitrat tuzi ishtirokida olingan koordinatsion birikmasi yangi ekanligi va CCDC bazasida qayd etilmagani aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Belghith, Y., Mansour, A., Nasri, H. (2014). *Acta Cryst.* E70, m312-m313.
2. Agilent (2014). CrysAlis PRO. Agilent Technologies Ltd, Yarnton, England.
3. Daszkiewicz, M. (2015). *Spectrochimica Acta Part A: Molecular and Biomolecular Spectroscopy*, 139, 102-107.
4. Feng T.-J. (2012). *Acta Cryst.* E68, m1351-1354.
5. Oybek I. Khudoyberganov, Abror Ruzmetov, Aziz B. Ibragimov, Jamshid M. Ashurov, Shodlik B. Khasanov, Erkabay U. Eshchanov, Bakhtiyar T. Ibragimov. *Chemical Data Collections*, Volume 37, 2022, 100802.
6. Abror Kh. Ruzmetov, Aziz B. Ibragimov, Olga V. Myachina, Rimma N. Kim, Laziza E. Mamasalievna, Jamshid M. Ashurov, Bakhtiyar T. Ibragimov. *Volume 38*, 2022, 100845.
7. Ruzmetov, A., Ibragimov, A., Ashurov, J., Boltaeva, Z., Ibragimov, B. & Usmanov, S. (2022). *Acta Cryst.* E78, 660-664.

8. "4-Nitroaniline". St. Louis, Missouri: Sigma-Aldrich. December 18, 2020
9. Turner, M. J., McKinnon, J. J., Wolff, S. K., Grimwood, D. J., Spackman, P. R., Jayatilaka, D. & Spackman, M. A. (2017). CrystalExplorer17. The University of Western Australia.

НЕКОТОРЫЕ ДОСТИЖЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ СОВРЕМЕННОЙ БИОКООРДИНАЦИОННОЙ ХИМИИ ПЕРЕХОДНЫХ МЕТАЛЛОВ

**Штырлин В.Г., Серов Н.Ю., Бухаров М.С., Гилязетдинов Э.М.,
Мохамед А. Ахмед, Гарифзянов А.Р., Мирзаянов И.И., Жернаков М.А.,
Ермолаев А.В., Аксенин Н.С., Уразаева К.В.**

Химический институт им. А.М. Бутлерова, Казанский (Приволжский) федеральный университет, Казань, РФ

Глубокое понимание причин специфичности и селективности процессов в живой природе и связанной с ними биологической активности соединений составляет крупнейшую проблему современной науки. Решение этой проблемы в значительной степени зависит от достижений в области координационной и бионеорганической химии. В плане разработки этой проблемы в настоящей работе представлены результаты синтеза и детальных исследований структуры, термодинамики и стереоселективности образования, а также кинетики реакций замещения гомо- и гетеролигандных комплексов ряда 3d- и 4f-металлов с энантимерно однородными и рацемическими формами аминокислот, природными ди- и трипептидами, новыми изоникотиноил-гидразами, ароматическими N-донорами и синтезированными впервые фосфорилированными дитиокарбаматами на фоне солей разной концентрации при нескольких температурах. Для получения достоверных результатов использован комплекс взаимодополняющих спектральных методов, включая статическую СФ-метрию, КД-спектроскопию, ЭПР, ЯМР, ЯМР-релаксацию, метод остановленной струи со спектральной регистрацией и рН-потенциометрию в сочетании с математическим моделированием путем использования ряда современных программ, в том числе авторских программ STALABS и STALABS-M, при этом широко применялись квантово-химические расчеты методом теории функционала плотности (DFT) и моделирование методом молекулярной динамики (МД). Некоторые из изученных координационных соединений выделены в виде кристаллов, структуры которых установлены методом РСА и сопоставлены с соответствующими структурами в растворах, охарактеризованными спектральными методами. В результате проведенных исследований выявлены основные факторы, определяющие структуру, стабильность и лабильность комплексов, стереоселективность процессов комплексообразования и замещения лигандов в растворах координационных соединений. Создание методологии совместного применения комплекса физико-химических и математических методов открывает перспективы детального описания сложных систем на основе координационных соединений, их практического применения, а также решения фундаментальной проблемы происхождения жизни.

XINOLIN ASOSLI KOMPLEKSLAR OLISH UCHUN IKKILAMCHI AMINLARNI SINTEZ QILISH

¹Qurbanova Sh.R., ²Niyazmetov A.R.

¹magistr, ²PhD, katta o'qituvchi,
Urganch davlat universiteti

***Annotatsiya:** Komplekslar olish uchun ligand bo'lishi mumkin bo'lgan xinolin va uning hosilalarining xususiyatlari, xinolinning turli xil sharoitlarda sintezi, dubaminni nitrolash, aminodubamin olish, Shiff asosini sintezi va xinolin asosida ikkilamchi aminlarni sintez qilish jarayonlari tahlili keltirilgan.*

Kalit so'zlar: Antibiotik, ikkilamchi aminlar, katalizator, mis komplekslari, xinolin, xinolin hosilalari, qaytaruvchi, Schiff asosi.

Xinolin va uning hosilalarining turli xil biologik faolliklari o'rganilgan bo'lib, ular geterotsiklik hosilalarning yangi dori vositalarini yaratish uchun muhim birikmalar sinfi hisoblanadi. Xinolin hosilalarini sintez usullarning samaradorligi, shuningdek, katta miqyosda ishlab chiqarilishi mumkinligi tufayli tibbiyot tadqiqotlarida foydanish keng tarqalmoqda. Xinolin va uning hosilalari odatda bezgakka qarshi (antimalarial), fungitsidlar, antibiotiklar, bo'yoqlar, xushbo'y moddalar, yurak-qon tomir kasallari, saratonga qarshi va yallig'lanishga qarshi vositalar sifatida qo'llanilishida muhim ro'l o'ynaydi. Ko'plab tadqiqotchilar, masalan, Luo Zai-Gang boshchiligida bir qator olimlar OIV-1 integratsiya ingibitorlari sifatida xinolin hosilalarini ishlatilish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan [1]. Shuningdek, ular xinolin hosilalariga o'rinbosarlarni joylashtirish orqali OIVga qarshi asosiy ingibitiv faoliyatga qanday ta'sir qilganini aniqladilar. Xinolin bo'yoqlar ishlab chiqarishda, gidroksixinolin sulfat va nitratlarini tayyorlashda ishlatiladi. 2005 yildagi hisobotga ko'ra, Xinolinlar har yili taxminan 4 tonna ishlab chiqarilmoqda. Uning asosiy qo'llanilishi ko'p qirrali xelatlashtiruvchi vosita va pestitsidlarning kashfiyoti sifatida 8-gidroksixinolin ishlatilgan. Uning 2 va 4-metil hosilalari sianin bo'yoqlari uchun hom-ashyodir. "Assert" nomi ostida sotiladigan gerbitsid xinolin kislotasi (piridin -2, 3-dikarboksil kislotasi) dir.

Xinolin halqasi mavjud birikmalarni sintez qilishning klassik usulidan tashqari Skraup, Doebner-von Miller, Fridlender, Pfitzinger, Konrad-Limpach, Kombs kabi olimlar nomlari bilan ataluvchi usullari mavjuddir. Xinolin hosilalari sintezi uchun CuCN, LiCl kabi metall yoki metalorganik reagentlardan foydalangan holda turli xil yangi usullar ishlab chiqilgan. Masalan: Ruteniy(III) xlorid $RuCl_3 \cdot 5H_2O/3PPh_3$, Itterbiy (III) triflat $Yb(OTf)_3$, volfram viniliden kompleksi $W(CO)_5(THF)$, Bor triflorid eterati $BF_3 \cdot OEt_2$, Benzotriazolin tuzlari va boshqalar xinolin hosilalari sintezi uchun qo'llaniladi.


Xinolin asosli Schiff asoslarini mis komplekslari ko'plab olingan bo'lib, ularni Hep-G2, NCI-H460 va MGC80-3 kabi saraton hujayralariga bo'lgan ta'sir o'ranilgan. Masalan: adabiyotlarda 2-karboksilaldegidning Schiff asoslarining prostata saraton hujayralari va bachadon bo'yni saraton hujayralariga qarshi faolliklari bo'yicha ma'lumotlar ko'plab uchraydi [2].

Bundan tashqari, xinolin halqasiga ega alkaloidlar turli xil tabiiy manbalarda ham uchraydi va turli farmakologik xususiyatlarga ega bo'lgan ko'plab vositalar tayyorlash uchun ishlatiladi. Masalan: Cinchona daraxtlari po'stlog'ida turli biologik faol moddalar mavjud bo'lib, ularni bezgakni davolash uchun ishlatilishi o'rganilgan [3]. G'arbiy Afrikada Chimanindan ajratilgan Rutaceae oilasiga mansub Galipea longiflora daraxtlarining qobig'idan Leyshmaniya parazitlarga qarshi indoloxinolin alkaloidlari mavjudligi aniqlangan [4]. Ko'plab xinolin birikmalari bilan oqsilning konformatsion o'zgarishlari, vodorod bog'lari va Van der Vaals kuchlari yordamida kuchsiz bog'lanishi tasdiqlangan. Ularning o'zaro ta'sirlari spektroskopik usullarda olingan minimal natijalar orqali izohlangan [5].

Xinolinlar sintezi va ularning o'zgarishlari bo'yicha tadqiqotlarni Alyamkina, Bergstrom, Franklin, Born, Jonson, Metyus kabi olimlar olib borishgan [6].

Xinolin hosilalarining suvda eruvchanligini kamligi ularni biologik faolliklarini o'rganishda qiyinchiliklari yuzaga keltiradi. Shuning uchun xinolinlarni turli xil metallar bilan komplekslarini sintez qilish va ularni biologik faolliklarini o'rganish muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Ko'plab kimyogar olimlarning ilmiy izlanishlarini davomi sifatida 2-arilxinolin alkaloidlaridan bo'lgan Dubaminni nitrolash reaksiyasi amalga oshirildi va olingan nitro maxsulot $SnCl_2 \cdot 2H_2O$ yordamida qaytarildi. Amino birikmani etanolda eritib, 1:1.2 mol nisbatda p-nitrobenzaldegidning spirtidagi eritmasi solindi. Reaksiyalar quyidagi sxema asosida boradi:



Nitrodubamin 90%, aminodubamin 92% va ikkilamchi amin 85 % unum bilan ajratildi. Olingan mahsulotlarni tuzilishi IQ, UB, YaMR spektroskopik usullar yordamida isbotlandi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xinolinlarning xossalari va sintez qilishning muhim jihatlari bo'yicha ko'plab adabiyot ma'lumotlarini to'plash, tahlil qilish va amaliy natijalar xinolin va uning birikmalarini ko'plab turdagi kimyoviy reaksiyalarga kirisha olishini va molekulasida turli funksional guruhlar tutgan hosilalarini sintez qilish imkoniyatlari turli metallar bilan komplekslarini olib imkoni mavjudligini ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fournet, A.; Barrios, A.A.; Munoz, V.; Hocquemiller, R.; Cavé, A.; Richomme, P.; Bruneton, J. *Antimicrob. Agents Chemother.*, 1993, 37, 859-863.
2. Kun Hu, *a Chensi Liu, a Jingui Lia and Fupei Liang. Copper(II) complexes based on quinoline derived Schiff-base ligands: synthesis, characterization, HSA/DNA binding ability, and anticancer activity. *J. Name.*, 2013, **00**, 1-3
3. Wright, C.W.; Addae-Kyereme, J.; Breen, A.-G.; Brown, J.E.; Cox, M.F.; Croft, S.L.; Gökçek, Y.; Kendrick, H.; Phillips, R.M.; Pollet, P.L. Synthesis and evaluation of cryptolepine analogues for their potential as new antimalarial agents. *J. Med. Chem.*, 2001, 44, 3187-3194.
4. Nicolaou, K.C.; Gross, J.L.; Kerr, M.A. Synthesis of novel heterocycles related to the dynemicin a ring skeleton. *J. Heterocycl. Chem.*, 1996, 33, 735-746.
5. Chiari, E.; Oliveira, A.B.; Prado, M.A.F.; Alves, R.J.; Galvão, L.M.C.; Araujo, F.G. *Antimicrob. Agents Chemother.*, 1996, 40, 613-615.
6. Lindoy, L. F. "Metal-ion control in the synthesis of Schiff base complexes." *Quarterly Reviews, Chemical Society* 25.3 (1971): 379-391.

ТАРКИБИДА АЗОТ ВА КИСЛОРОД БЎЛГАН КОМПЛЕКС ҲОСИЛ ҚИЛУВЧИ СОРБЕНТ ХОССАЛАРИГА ДАСТЛАБКИ МОДДАЛАР НИСБАТИНИНГ ТАЪСИРИ

¹Умирова Г.А., ²Тураев Х.Х., ³Джалилов А.Т., ⁴Касимов Ш.А.

¹PhD докторант, ²Кимё факультети декани, к.ф.д., проф., ³к.ф.д., проф., ЎзРФА академиги,
⁴к.ф.д., в.б. проф.

^{1,2,4}Термиз давлат университети

³Тошкент кимё технология илмий-тадқиқот институти директори

***Аннотация:** Мақолада эпоксид матричасига аминосирка кислотанинг ковалент бириктирилиши асосида олинган иммобилизация қилинган сорбент хоссаларига дастлабки моддалар нисбатининг таъсири ўрганилди. Тадқиқотлар натижасига кўра 1,5:1:0.05 нисбатда ҳосил қилинган сорбентнинг сорбцион хусусияти юқорилиги аниқланди.*

***Калит сўзлар:** аминосирка кислота, эпоксисмола, сорбент, моддалар нисбати, сорбцион хусусият.*

Микроэлементларни концентрлаш замонавий аналитик кимё олдидаги муҳим вазифалардан биридир. Сўнгги йилларда катта ҳажмдаги сув ёки атроф-муҳитнинг бошқа объектларидан металл ионларини дастлабки концентрлашда сорбентлардан, айниқса, комплекс ҳосил қилувчи полимерлардан кенг фойдаланилмоқда. Уларнинг хусусиятлари, асосан полимер матрицага киргизилган аналитик-функционал гуруҳлар структурасига боғлиқ бўлади. Ушбу мақола оқова сувларни тозалашда оғир металлларни адсорбциялаш учун анъанавий ва янги материаллардан фойдаланиш, назария ва келажак истиқболлари ҳақида қисқача маълумот беради [1]. Ушбу ишда [2] эса, микроғовак анион алмаштиргичларда турли металл ионларини комплекс ҳосил қилиш йўли билан инактивация қилиш учун янги экологик тоза аминополикарбоксилат хелатлаштирувчи воситаси-метилглициндиацетат кислотанинг тринатрийли тузи (МГДА)дан фойдаланиш кўриб чиқилди ва сорбентлар синовдан ўтказилди. Ва ушбу шарҳда [3], адсорбцияга эътибор қаратган ҳолда сувни тозалаш учун биосорбентларни қўллаш соҳасидаги замонавий ривожланиш танқидий баҳоланади. Шунингдек, [4,5] мақолаларда эпоксид смоласи ва турли хил аминокислоталар асосида синтез қилинган қатор сорбентлар хоссалари ҳақида айтиб ўтилган.

Тадқиқотнинг мақсади эпокси матрицага аминосирка кислотани ковалент бириктириш асосида олинган иммобилизацияланган сорбент синтезида унинг физик-кимёвий хусусиятларига дастлабки моддалар нисбатининг таъсирини ўрганишдан иборат. Ишда "тоза" ва "кимёвий тоза" маркали реагентлар ишлатилган. Реагент эритмалари аниқ намунани маълум ҳажмдаги эритувчиларда эритиб тайёрланди. Дастлабки моддалар тузилиши ва хоссаларининг сорбент тузилиши ва хоссаларига таъсирини аниқлаш ҳамда юқори кўрсаткичли эксплуатацион хоссаларга эга бўлган сорбент синтези вариантларини танлаш мақсадида дастлабки моддалар нисбатининг таъсири ўрганилди.

Олинган натижалар. Аминосирка кислотани эпоксисмола билан ковалент иммобилизация қилиш жараёни бошлангич моддаларнинг турли моль нисбатларида 50 °С ҳароратда амалга оширилди, қотирувчи сифатида озгина полиэтиленполиамин қўшилди, реакция давомийлиги 20 минут. Дастлабки моддалар микдорининг ионит хоссаларига таъсирини ўрганиш натижалари қуйидаги 1-жадвалда берилган.

1-жадвал

Аминосирка кислота, эпоксисмола ва полиэтиленполиамин моль нисбатларининг сорбент хоссаларига таъсири

Кўрсаткичларнинг номланиши	Ўлчов бирлиги	Аминосирка кислота, эпоксисмола ва полиэтиленполиамин, моль		
		0.5:1:0.05	1,5:1:0.05	1:2:0.1
Сувда бўлган ОН-шаклдаги	мл/г	2,0	1,8	1,5

ионитнинг солиштирма ҳажми				
Сочма оғирлик	г/мл	0,7	0,63	0,5
NaOH, 0,1 Н, мг-экв/г	-//-	2,3-2,5	3-3,5	2,7-3,0
HCl, 0,1 Н, мг-экв/г	-//-	4,0-4,2	4,8-5,0	3,5-3,9
CuSO ₄ , 0,1 Н, мг-экв/г	-//-	6,5	8,3	7

Аминосирка кислота эпоксисмола ва полиэтиленполиамин билан ўзаро таъсирлашишида нафақат конденсирловчи агент, балки чокловчи агент ҳам ҳисобланади. Уларнинг концентрацияси олинадиган ионитнинг асосий физик-кимёвий ва сорбцион хоссаларига таъсир этади. Чокланиш даражаси турлича бўлган ионитлар олиш учун уларнинг турли намуналари синтез қилинди.

Ушбу таклиф этилаётган усулда олинган сорбент кислотали ва ишқорли эритмаларда, шунингдек, қиздирилганда барқарор бўлган оқ рангдаги махсулот бўлиб, толасимон ёки гранула кўринишидаги полимер сифатида оғир ва нодир металлларни сорбциялаш учун ишлатилиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Y. Sun, S. Zhou, S.Y. Pan, S. Zhu, Y. Yu, H. Zheng, Performance evaluation and optimization of flocculation process for removing heavy metal, Chem. Eng. J. 385 (2020) P 1-11., 123911, <https://doi.org/10.1016/j.cej.2019.123911>.
2. Jachula J., Kołodyńska D., Hubicki Z. Sorption of Cu(II) and Ni(II) ions in the presence of the methylglycinediacetic acid by microporous ion exchangers and sorbents from aqueous solutions // Cent. Eur. J. Chem. 2011. Vol. 9, № 1. P.52-65 DOI:10.2478/s11532-010-0115-y
3. Kapur M., Mondal M.K. Competitive sorption of Cu(II) and Ni(II) ions from aqueous solutions: Kinetics, thermodynamics and desorption studies // J. Taiwan Inst. Chem. Eng. Elsevier, 2014. Vol. 45, № 4. P. 1803–1813. DOI:10.1016/J.JTICE.2014.02.022
4. Umirova G.A., Kasimov Sh.A., Turaev Kh.Kh., Dzhalilov A.T., Sorption of Cu (II) and Zn (II) ions on polyampholytes obtained from amino acids. // Universum: Chemistry and biology :electron. scientific.journ. -2021-№10(88). P. 19-22. DOI: 10.32743/UniChem.2021.88.
5. Umirova G.A., Kasimov Sh.A., Turaev Kh.Kh., Jalilov A.T., Synthesis and study of chelating sorbents based on amino acids.// Uzbek chemical journal. 5/2021.c.11-17. URL: <https://www.uzchemj.uz>.

NMR SPECTROSCOPIC INVESTIGATION OF SUCCINIC ACID DIHYDRAZONE WITH 1-FERROCENYL BUTANEDIONE-1,3

¹Sulaymonova Z.A., ²Sharifova N.A., ³Xatamov U.F.

¹PhD, Associate Professor, ²Teacher, ³Student
^{1,2,3}Bukhara State University

Annotation: Succinic acid dihydrazone 1-ferrocenylbutanedione-1,3 (H₂L) was synthesized by the reaction of dicarboxylic acid dihydrazide with ferrocenoylacetone. The NMR spectra of the synthesized compounds in DMSO-d₆+CCl₄ solution were studied.

Keywords: monoacetylferrocene, dihydrazone, Claisen ester condensation, NMR spectroscopy.

The interaction of an alcoholic solution of 1-ferrocenylbutanedione-1,3 and an ethanol suspension of succinic acid dihydrazide in molar at a ratio of 2:1, a new ligand (H₄L) was isolated, in which two hydrazone fragments are connected via methylene bridges. To establish the composition and structure of the obtained ligand in the solid state, we used the data of elemental analysis, IR spectroscopy, and in solution it was studied using the IR spectroscopy data. The ¹H

NMR spectrum of the H₄L ligand in a DMSO-d₆+CCl₄ solution indicates the retention of the rectilinear diketo form [1,2,3,4,5, 6,7].




Fig. 1. ¹H NMR spectrum of H₄L ligand in DMSO-d₆+CCl₄ solution.

Signals from two bridging $-(CH_2)_2-$ groups bound to amide C=O substituents of the ligand with an intensity of four protons were noted in the region at δ 2.75 ppm. [1,2]. Unequal proton signals of two cyclopentadienyl rings were fixed at 4.46 (2H), 4.78 (2H), and 4.70 (5H) ppm. The signals of protons of two methyl groups (6H) in the spectrum were recorded in the high-field region at δ 1.24 ppm. in the form intense singlet. And protons of the N–H groups (2H) resonate in the region of weak fields in the form of singlet signals at δ 10.01. Thus, the most weak-field signal was assigned by us to the proton of the hydrazone group. After 4-5 minutes, a second set of signals appears, belonging to the enhydrazine form. The change in the H₄L spectra stops after a few days and equilibrium sets in between the stereoisomers of the hydrazone, enhydrazine, and cyclic forms [8,9,10].

The diketone form of the H₄L ligand is confirmed by the ¹³C NMR spectrum (Fig. 2). The ¹³C NMR spectrum of the H₄L ligand showed signals at δ 16.83 (CH₃); 39,52; (CH₂); 67,96 (C^{2,5} Fc); 69,54 (C^{3,4} Fc); 70,60 (5C Fc); 78,72 (C Fc); 171,56 (C=O); 176,36 (C=N) ppm. Low intensity signal at δ 171.56 ppm refers to the carbon atom of the C=O group [11,12,13].




Fig. 2. ¹³C NMR spectrum of H₄L ligand in DMSO-d₆+CCl₄ solution.

References

1. Сулаймонова З. СИНТЕЗ β -ДИКАРБОНИЛЬНОГО ПРОИЗВОДНОГО ФЕРРОЦЕНА-ФЕРРОЦЕНОИЛАЦЕТОНА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
2. Sulaymonova Z.A., Umarov B.B., Choriyeva S.A., Navruzova M.B. Synthesis of Complexes Based On Monocarbonyl Ferrocene Derivatives with Carbonic Acid Hydrases // International Journal of Academic Pedagogical Research (IJAPR). - 2021. - Vol. 5. - С. 134-137.

В случае комплексов II-V $\mu_{\text{эфф.}} \sim 1,8$ М.Б. и не зависимость от температуры. Это означает, что соединения II-V содержат только ионы Cu(II) с $S_i=1/2$. Поскольку нижняя граница температурного интервала $T=77 \text{ К}$, то при наличии обменных взаимодействий в этих соединениях оценки показывают, что обменный параметр не превышает 10 см^{-1} .

Спектры ЭПР поликристаллических образцов I-V представляют собой обменно-суженные линии. Анизотропия g-фактора разрешается только для соединения I, что может объясняться особенностями кристаллической структуры или ослаблением межмолекулярного взаимодействия за счёт сильного внутримолекулярного антиферромагнетизма. В спектрах ЭПР I, кроме того, при $H = 0,17 \text{ Тл}$ наблюдается запрещенный переход $\Delta m = \pm 2$. Как известно [1–3], интенсивность этого перехода $\sim |D|^2$, где D-параметр анизотропного спин-спинового взаимодействия. Отсюда следует, что для I $|D|$ максимален.

Спектры ЭПР замороженных растворов II-IV имеют вид плохо разрешенной анизотропной СТС, что для моноядерных комплексов Cu(II) в общем не типично. Поскольку тонкая структура, обусловленная анизотропными спин-спиновыми взаимодействиями, также не разрешается, такие спектры разумно интерпретировать как суперпозицию сверхтонкой и тонкой структуры (ТС) при близких значениях констант ТС и СТС.

Наиболее интересны спектры ЭПР жидких растворов, представляющие хорошо разрешенную СТС от двух эквивалентных атомов меди(II) наблюдаются впервые, остановимся на их интерпретации подробнее.

Как известно, ЭПР моноядерных комплексов с $s = 1/2$, без учёта дополнительной СТС (ДСТС) от лигандов описывается спиновым гамильтонианом (СГ) [3]:

$$H_i = \beta S_i g_i H + S_i A_i I_i, \quad (1)$$

Где g_i – g-тензор СТС от центрального иона. Если два моноядерных фрагмента образуют димер, в котором парамагнитные ионы связаны изотропным обменом, то СГ в первом приближении принимает вид [1].

$$H = H_1 + H_2 - 2gS_1S_2 = \beta \cdot (S_1 + S_2)gH + (S_1 + S_2)(A/2)(I_1 + I_2) + (S_1 - S_2)(A/2)(I_1 - I_2) - 2gS_1S_2 = \beta SgH + S(A/2)(I_1 + I_2) + (S_1 - S_2)(A/2)(I_1 - I_2) - g[S(S+1) - S_1(S_1+1) - S_2(S_2+1)] \quad (2)$$

где при $S_1=S_2=1/2$ полный спин $S = S_1 = S_2$ принимает значения $S=0$ или ± 1 . Внутри синглетного состояния переходов нет Однако, как показано, например, в [7], при малой величине $|g|$ возможно явление синглет-триплетных переходов или смешивание ядерных состояний синглета и триплета оператором $(S_1 - S_2)(A/2)(I_1 - I_2)$, входящим в (2). В обоих случаях должен наблюдаться спектр, который сильно отличается от простой последовательности семи эквивалентных линий. Поскольку экспериментально наблюдаются именно простые спектры, обменный параметр в (2) должен удовлетворять соотношению $|J| \gg \hbar\nu, |\Delta A|$.

При соблюдении этого условия (2) сводится к эффективному СГ триплетного состояния:

$$H = \beta SgH + S \left(\frac{A}{2} \right) (I_1 + I_2) \quad (3)$$

Из весьма общих соображений следует [3], что СГ (3) должен содержать вклад анизотропного спин-спинового взаимодействия, так что полный СГ для триплетного состояния имеет вид:

$$H = \beta SgH + S(A/2)(I_1 + I_2) + SDS, \quad (4)$$

где тензор D представляет собой сумму так называемых обменных (D_{ex}) и диполь-дипольных (D_{dd}) вкладов. Для D_{ex} справедлива оценка [2]:

$$|D_{ex}| \sim (\Delta g / g)^2 J, \quad (5)$$




Рис.1. Спектры ЭПР для биядерных комплексов меди с $n=2$ (а) и $n=4$ (б), теоретический(в)
В приближении точечных диполей [7]

$$|D_{dd}| \sim \beta^2 / r^3 \quad (6)$$

где r – расстояние металл-металл. В комплексах I-IV величина r , по-видимому, превышает 5 \AA , поэтому для них $|D_{dd}| < 0,01 \text{ см}^{-1}$. Оценка $|D_{ex}|$ зависит от степени анизотропности g -фактора и величины обменного параметра. Как известно [3], для комплексов рассматриваемого типа $(\Delta g/g) \sim 0,1$. Поэтому для них $|D_{ex}| \sim 0,01J$. Отсюда, в частности, следует, что для I $|D_{ex}|$ может достигать $\sim 1 \text{ см}^{-1}$. Столь большая величина $|D|$, по-видимому, и объясняет особенности спектров ЭПР этого соединения. Для II-IV значения J неизвестны. Однако полученные результаты и формула (5) позволяют их оценить.

Оценена величина обменного интеграла по цепочке σ -связей $-(\text{CH}_2)_n-$, где $n = 1-8$, в биядерных комплексах меди(II).

Список литературы

1. Пентин Ю.А., Вилков Л.В. Физические методы исследования в химии. - Москва.- Мир. - 2003.- 683. с.
2. Ларин Г.М., Умаров Б.Б., Минин В.В. и др. Антиферромагнитный обмен по цепочке σ -связей в биядерных комплексах меди // Доклады АН СССР. - 1988.- Т. 303.- № 1.- С. 139–144.
3. Калинин В.Т., Ракитин Ю.В. Введение в магнетохимию. М.: Наука. - 1980.- 302 с.
4. Умаров Б.Б. Комплексные соединения некоторых переходных металлов с бис-5-оксипиразолинами. Дис. ... докт. хим. наук. - Ташкент. - ИУ АН РУз. - 1996.- 351 с.
5. Умаров Б.Б., Турсунов М.А., Минин В.В. Комплексы с производными кетоальдегидов и кетоэфиров. Ташкент. - Нишон-ношир. - 2016. - 350 с.
6. Карлин Р. Магнетохимия. - Москва. - Мир. - 1989.- 400 с.
7. Ракитин Ю.В., Ларин Г.М., Минин В.В. Интерпретация спектров ЭПР координационных соединений. - Москва. - Наука. - 1993.- 400 с.

2-АМИНО-1,3,4-ТИАДИАЗОЛНИНГ ХИРШФЕЛЬД ЮЗАСИ ТАҲЛИЛИ

¹Ганиев Б.Ш., ²Хусенов Қ.Ш., ³Умаров Б.Б., ⁴Ашуров Ж.М., ⁵Шодиева Д.И.

¹PhD докторант, ²к.ф.н., доц, ³к.ф.д., проф, ⁴к.ф.д., проф, ⁵Магистрант
^{1,3,5}Бухоро давлат университети


²Навоий давлат кончилиқ ва технологиялар университети

⁴ЎЗР ФА О.С.Содиқов номидаги Биоорганик кимё интитути

Аннотация: 2-амино-тиадиазол-1,3,4 бирикмасининг рентгенструктур ва Хиршфельд юзаси таҳлиллари тасвирланган. 2-амино-тиадиазол-1,3,4 бирикмаси қуршаган молекулалар аро водород боғланиш (МABБ) 1,993; 1,968; 2,468 ва 2,564 Å га тенглиги ва молекулалар аро таъсир энергиялари ўрганилган.

Калит сўзлар: Комплекс бирикма, 2-амино-тиадиазол-1,3,4, лиганд, тузилиш, рентгеноструктур анализ, Хиршфельд юзаси.

2-амино-1,3,4-тиадиазолнинг қайта кристаллаш билан олинган C₂H₃N₃S таркибга эга эканлиги РСА ёрдамида исботланган [1,2]. Ушбу ишда монокристалнинг Хиршфельд юзаси таҳлили амалга оширилган. Бу моноклин кристалл элементар ячэйкасининг параметрлари: фазовий гуруҳи P 2₁/n, a=5,5718(5), b=13,4573(17), c=5,7875(5) Å, β=109,984(6)°, V=407,826 Å³, Z = 4, 2θ_{max} = 67° R=0,0384 (1a,b-расм).



1-расм. 2-амино-1,3,4-тиадиазол **a**- кристалл тузилиши, **b**- кристалл таҳлами, **c**- Хиршфельд юзаси таҳлили, **d**-молекулалар аро водород боғланиши

2-амино-1,3,4-тиадиазолнинг қуршаган молекулалар аро водород боғланиш (МABБ) 1d-расмда келтирилган бўлиб, улар 1,993; 1,968; 2,468 ва 2,564 га тенг бўлиши CrystalExplorer 17.5 дастури ёрдамида ўрганилди ва адабиётларда келтирилган натижалар билан таққосланди.


1-жадвал

2-амино-1,3,4-тиадиазол молекуласидаги водород боғлар геометрияси (Å, °)

D-H...A	Симметрия элементи	Distance, Å			Angle DHA, deg.	Ref
		D-H	H...A	D...A		
N(2) – H(21) ...	-x+1, -y+1, -z+1	0,87	2.13	2,999(3)	175	[1]

N3						
N(2) – H(22) ... N4	x, y, z-1	0,89	2.08	2.969(2)	172	[2]
N(2) – H(22) ... N4	x+1/2, -y+1/2, z+1/2	0,91	1.968	2.564	171	Ушбу ишда

Кристалл таркибидаги молекулалараро ўзаро таъсирларнинг табиати, CrystalExplorer 17.5 дастури ёрдамида Хиршфельд юзаси таҳлил қилиш ва икки ўлчовли бармоқ излари майдонлари ёрдамида аниқланди [3]. *dnorm* майдони ташқи (*de*) ва ички (*di*) масофаларни энг яқин ядрога ҳисоблаш йўли билан аниқланди ва ҳажми $98,22 \text{ \AA}^3$ да ва юзаси $390,94 \text{ \AA}^2$ майдонда кўрилди, ўлчамлари $-0,887$ (қизил) $0,079$ гача (кўк) (**1c**-расм). Шакл-индекс ва эгри чизиклар жадваллари мос равишда $-0,9944$ дан $0,9963$ а.б. ва -3.1874 дан 0.2011 а.б. гача ҳосил қилинди (**2a,b**)-расм).



2-расм. 2-амино-1,3,4-тиадиазол **a**-шакл кўрсаткичлари майдони, **b**-ўзаро таъсир худудларини кўрсатадиган эгри чизик майдони ва қисмларга бўлиниш майдони тасвири

Асосий энергияни квантлаш, кристалл таркибидаги молекулаларнинг ўзаро таъсири топологиясини тушунишнинг энг яхши усуларидан бири ҳисобланади [4]. Ушбу усул турли хил энергия таркибий қисмларини ҳисоблашга ва таққослашга имкон беради, яъни жуфтлик билан молекулалараро ўзаро таъсир энергиялари топологиясининг анизотропиясига асосланган репульсия (E_{rep}), электр (E_{ele}), дисперсия (E_{dis}), қутбланиш (E_{pol}) ва умумий (E_{tot}) энергия [5] (2-жадвал). $1 \times 1 \times 1$ катак бирлиги учун молекуляр кластер муҳити алмашинуви ва потенциал функциялар Хатри Фок (HF) билан белгиланган HF/STO-3G асосида DFT усули ёрдамида янги тўлқин функцияларини яратиш орқали олинган бирикманинг энергия доирасини ҳисоблашда фойдаланилган [6]


2-жадвал

2-амино-1,3,4-тиадиазол танланган молекуласининг ва бошқа рангли молекулалар орасидаги ўзаро таъсир энергияси (ккаль/моль)

	N	Symop	R	Electron Density	E_{ele}	E_{pol}	E_{dis}	E_{rep}	E_{tot}
	1	-x, -y, -z	5.21	B3LYP/6-31G(d,p)	-7.3	-1.7	-10.6	8.8	-12.8
	2	x, y, z	5.79	B3LYP/6-31G(d,p)	-42.3	-9.3	-9.5	38.5	-36.0
	2	x+1/2, -y+1/2, z+1/2	5.79	B3LYP/6-31G(d,p)	2.2	-0.9	-6.7	6.0	-0.5
	2	x, y, z	5.57	B3LYP/6-31G(d,p)	-0.7	-0.9	-8.4	6.8	-4.6
	1	-x, -y, -z	3.84	B3LYP/6-31G(d,p)	-5.0	-3.9	-20.5	15.5	-16.6
	2	x+1/2, -y+1/2, z+1/2	4.74	B3LYP/6-31G(d,p)	-5.9	-1.5	-12.1	15.5	-8.3
	1	-x, -y, -z	8.07	B3LYP/6-31G(d,p)	9.5	-1.3	-2.9	0.4	6.8
	1	-x, -y, -z	5.54	B3LYP/6-31G(d,p)	-85.5	-19.3	-13.1	72.9	-71.1

	-135	-38,8	-83,8	164,4	-156,7
--	------	-------	-------	-------	--------

Ҳисоб-китоблар натижалари шуни кўрсатдики, дисперсия ўзаро таъсирлари узуклар орқали тахминан стул шаклидаги энергия топологияларини намойиш этади ва максимал энергия қиймати $-83,8$ кЖ/мол га тенг (**3a**-расм) (2-жадвал). Бошқа энергия компонентлари ўзаро итаришиш, электростатик ва кутбланиш энергиялари учун мос равишда $164,4$ кЖ/мол, $-135,0$ кЖ/мол ва $-38,8$ кЖ/мол қийматларига эга. Тўртала асосий компонентлар натижасида ҳосил бўлган ўзаро таъсирнинг умумий энергияси $-156,7$ кЖ/мол (**3b,c**-расм).



3-расм. 2-амино-1,3,4-тиадиазол танланган молекуласининг ва бошқа рангли молекулалар орасидаги ўзаро таъсир энергиялари: **a** – дисперсион таъсир, **b** – электростатик ва **c** – умумий

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Khusenov, K. S., Umarov, B. B., Ishankhodzhaeva, M. M., Parpiev, N. A., Talipov, S. A. & Ibragimov, B. T. (1997). Russ. J. Coord. Chem. 23, 555±559.
2. Boechat, N., Ferreira, S. B., Glidewell, C., Low, J. N., Skakle, J. M., & Wardell, S. M. (2006). 2-Amino-5-trifluoromethyl-1, 3, 4-thiadiazole and a redetermination of 2-amino-1, 3, 4-thiadiazole, both at 120 K: chains of edge-fused R22 (8) and R44 (10) rings, and sheets of R22 (8) and R66 (20) rings. *Acta Crystallographica Section C: Crystal Structure Communications*, 62(1), o42-o44.
3. M.Kinnon, J.J.; Jayatilaka, D.; Spackman, M.A. Towards quantitative analysis of intermolecular interactions with Hirshfeld surfaces//Chemical Communications. – 2007. – №. 37. – P. 3814-3816.
4. N.Q. Muhamadiyev. Kimyoviy birikmalar tuzilishi va xossalari matematik modellash, T. “Cho’lpon”, 2016. 260 б.
5. Turner, M. J., Thomas, S. P., Shi, M. W., Jayatilaka, D. & Spackman, M. A. Energy frameworks: insights into interaction anisotropy and the mechanical properties of molecular crystals//Chemical Communications. – 2015. – T. 51. – №. 18. – P. 3735-3738.
6. Mackenzie, C. F., Spackman, P. R., Jayatilaka, D. & Spackman, M. A. CrystalExplorer model energies and energy frameworks: Extension to metal coordination compounds, organic salts, solvates and open-shell systems. //IUCrJ. – 2017. – T. 4. – №. 5. – P. 575-587.

MIS ASETATNING P-NITROANILIN VA ETILENDIAMIN ASOSIDAGI YANGI KOMPLEKSINI FIZIKAVIY USULLAR ORQALI TADQIQ ETISH.

¹Kamolov S.N., ¹Babayev B.N., ¹Sayfullayev I.B., ²Ibragimov A.B.

¹O’zbekiston milliy universiteti

²O’zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti

Аннотация: So’ngi yillarda O’zbekistonda kimyo fani rivojlanishi bu fanning tarmog’i bo’lgan koordinatsion birikmalar kimyosining rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Koordinatsion birikmalarni sintez qilish va ularni tuzilishini zamonaviy usullar va uskunalar yordamida o’rganish, tur sohalar tarmog’ining talabidan kelib chiqqan holda, ayni soha uchun zarur bo’lgan koordinatsion birikmalar haqida ma’lumotlar to’plash, mahalliy xom-ashyolar asosida yangi, iqtisodiy samarador komplekslarni sintez qilish va tuzilishini o’rganish dolzarblik kasb etadi.

Ma’lumki, faol farmatsevtik moddalarning biofarmatsevtik xossalari (suvda eruvchanligi, bioavailligi va bioaktivligi) metall komplekslarini hosil qilish orqali yaxshilanishi mumkin. Bundan tashqari, metall kompleksining hosil bo’lishi, ayniqsa, xelat tipidagi komplekslarda metallning

ortiqcha miqdorini chiqarib yuborish yoki murakkab molekulalardagi metallning toksikligini kamaytirish uchun xizmat qiladi. O'z navbatida, bu hodisa koordinatsion birikmalardagi xavfli organik moddalarning toksikligini kamaytirishga olib kelishi mumkin.


Yuqorida aytib o'tilgan fikrlarga tayangan holda biz tekshirish uchun zaharli moddalarning metall komplekslarini sintez qilishni oldimizga maqsad qildik va p-nitroanilinni metall ionlari bilan koordinatsion birikmalarini olish va tuzilishini o'rganishni muhim vazifa hisobladik.

Kalit so'zlar: p-nitroanilin, etilendiamin, mis asetat, koordinatsion birikma, rentgen strukturaviy tahlil, IQ-spektr.


Tajriba qismi: p-nitroanilin bilan Cu^{2+} , Ni^{2+} , Co^{2+} , Zn^{2+} ionlarini saqlagan tuzlar 1:1 mol nisbatida reaksiyasi amalga oshirildi. Buning uchun ligand (p-nitroanilin) absolyut etil spirt (96% li) da eritildi. Metall tuzlari esa toza distirlangan suvda eritilib, olingan eritmalar eruvchi moddalarning 1:1 mol nisbatida ta'sirlashtirildi, juda oz miqdorda etilendiamin tomizildi. Natijada Cu^{2+} va Ni^{2+} ionli eritmalar och yashil rangli, Co^{2+} to'q jigarrang va Zn^{2+} ionli eritmalar sarg'ish holatga o'tdi. Eritmalardan koordinatsion birikmalarni kristallari hosil bo'lishi va erituvchi bug'lanib ketishi uchun 10-14 kun davomida termostat kamerasiga qo'yildi. Shundan so'ng yashil kristallar ajratib olindi. Olingan koordinatsion birikmalarning tuzilishini rentgen strukturaviy tahlil hamda IQ-spektroskopiya yordamida o'rganildi.

Olingan natijalar tahlili. $\text{Cu}(\text{CH}_3\text{COO})_2$ tuzini etilendiamin va p-nitroanilin bilan koordinatsion birikmalari sintezlanishi natijasida olingan kompleksning tuzilishini rentgen strukturaviy tahlil yordamida o'rganildi

p-nitroanilinning mis asetat va etilendiaminlar ishtirokida xosil bo'lgan kompleks birikmaning brutto formulasi $[(\text{Cu}(\text{CH}_3\text{COO})_2)_4(\text{EDA})_2(\text{H}_2\text{O})_2](\text{PNA})_2$



1-rasm




2-rasm


$[(\text{Cu}(\text{CH}_3\text{COO})_2)_4(\text{EDA})_2(\text{H}_2\text{O})_2](\text{PNA})_2$ tarkibli kompleksning monomer bo'lagi (1-rasm), kompleksning simetrik o'q bo'ylab joylashuvi (2-rasm).

O'tkazilgan tadqiqotda hosil bo'lgan kompleks tarkibidagi p-nitroanilin molekulasini tashqi legant vazifasini bajarmoqda, bundan tashqari etilendiamin ham mis asetat bilan bog'lanib ichki legant hosil qiladi.

Shuningdek yangi kompleksning kristali IQ-spektroskopiya (BRUKER) yordamida quyidagicha yutilish spektrlarini berdi.



3-rasm.



4-rasm

***p*-nitroanilin (3-rasm), mis asetatning *p*-nitroanilin va etilendiamin (4-rasm) bilan hosil qilgan kompleksining IQ-spektri**

p-nitroanilin IQ-spektrining tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, *p*-nitroanilinning asosiy nur yutilish cho'qqilari vs(-NH₂) guruhi bog'lar uchun 3355.40-3216.56 sm⁻¹, aromatik xalqa uchun 1628.40-1443.36 va n(-NO₂) guruh uchun 1324.98-1110.6 sm⁻¹ yutilish sohasida ko'ringan bo'lsa (2-rasm), *p*-nitroanilin Cu₂₊ ioni bilan hosil qilgan kompleks birkmada yuqorida aytib o'tilgan yutilish sohasidagi o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin (3-rasm). 3480 sm⁻¹ sohada molekula ichidagi suvga tegishli vodorod bog'larga hos bo'lgan spektirlari namoyon bo'ladi 3318 sm⁻¹ sohada koordinatsion birikmalarning tashqi ferasidagi *p*-nitroanilinning -NH₂ guruhiga xos bo'lgan valent tebranishlarni bergan bo'lsa, 3243 sm⁻¹ qo'shimcha ligant hisoblangan, Cu bilan koordinatsialangan etilendiaminning -NH₂ guruhi tebranishlarini namoyon etgan. 3157 sm⁻¹ sohada etilendiamindagi amino guruhning protonlashishi hisobiga xos bo'lgan spektrlar yuzaga kelgan. 2973-2892 sm⁻¹ sohalarda kompleks birikma tarkibidagi asetatdagi -CH₃ guruhning valent va deformatsion tebranishlarni bergan. 1550 sm⁻¹ sohada *p*-nitroanilinning aromatik xalqasidagi valent tebranishlarni, shuningdek 1471 - 1396 sm⁻¹ sohada asetat ionidagi COO⁻ ning valent va difformatsion tebranishlarini, 1200- 1300 sm⁻¹ sohada etilendiamindagi C-H bog'lar deformatsion tebranishini, 1161 -1043 sm⁻¹ sohada aromatik xalqadagi 1,4- almashganda C-H holatlarning tebranishini bermoqda. Barmoq izi sohalardagi yutilish spektirlarining yuqori maksimumga chiqqanligi, ayni sohalardan 533-487 sm⁻¹ eng maksimumga etganligi O-Cu, N-Cu bog'larning hosil bo'lganligini ifodalaydi Bundan tashqari *p*-nitroanilinning IQ-spektridagi yutilish sohasi va intensivligidagi o'zgarishlar uning Cu(CH₃COO)₂ bilan kompleks birikma hosil qilganligini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Belghith, Y., Mansour, A., Nasri, H. (2014). *Acta Cryst.* E70, m312-m313.
2. Agilent (2014). CrysAlis PRO. Agilent Technologies Ltd, Yarnton, England.
3. Daszkiewicz, M. (2015). *Spectrochimica Acta Part A: Molecular and Biomolecular Spectroscopy*, 139, 102-107.
4. Feng T.-J. (2012). *Acta Cryst.* E68, m1351-1354.
5. Oybek I. Khudoyberganov, Abror Ruzmetov, Aziz B. Ibragimov, Jamshid M. Ashurov, Shodlik B. Khasanov, Erkabay U. Eshchanov, Bakhtiyar T. Ibragimov. *Chemical Data Collections*, Volume 37, 2022, 100802.
6. Abror Kh. Ruzmetov, Aziz B. Ibragimov, Olga V. Myachina, Rimma N. Kim, Laziza E. Mamasalievna, Jamshid M. Ashurov, Bakhtiyar T. Ibragimov. Volume 38, 2022, 100845.
7. Ruzmetov, A., Ibragimov, A., Ashurov, J., Boltaeva, Z., Ibragimov, B. & Usmanov, S. (2022). *Acta Cryst.* E78, 660-664.
8. "4-Nitroaniline". St. Louis, Missouri: Sigma-Aldrich. December 18, 2020
9. Тарасевич Б.Н., ИК спектры основных классов органических соединений

10. Hai-Yan Peng, Chi-Keung Lam, Thomas C. W. Mak, Zongwei Cai, Wai-Tang Ma, Yu-Xue Li, and Henry N. C. Wong Publication Date (Web): June 10, 2005.
11. Seidell A. Solubilities of organic compounds. - 3ed., vol.2. - New York: D. Van Nostrand Company, 1941. - С. 400-403

4-ГИДРОКСИБЕНЗОЙ КИСЛОТАСИНИНГ Ni(II) КОМПЛЕКСИНИНГ СИНТЕЗИ, ТУЗИЛИШИ.

¹Рузметов А.Х., ¹Ибрагимов А.Б., ²Тодерич К.Н.

¹ЎзР ФА Умумий ва ноорганик кимё институти

²Тоттори Университети, Япония, Тоттори.


Аннотация: 4-гидроксибензой кислотаси асосида янги комплекс бирикмаларнинг синтези, тузилиши ва биологик хоссалари ўрганилди. 4-гидроксибензой кислотаси карбоксил гуруҳидаги O1 кслород—атоми орқали Ni(II) атомига монодентат координацияланганлиги аниқланди. никелнинг қолган координацион сонларини тўлдириши учун бешта сув молекуласи координацияланганлиги аниқланди. Ni(II) иони +2 зарядга эга бўлиб, унга монодентат боғланган 4-гидроксибензой кислотасининг карбоксил гуруҳи депротонлашганлиги ва ташқи сферада жойлашган пара гидроксибензой кислотаси карбоксилат холатида.

Калит сузлар: 4-гидроксибензой кислота, антибактериал, Тритисум аэстивум, валент бурчаклар, марказий атом.

4-гидроксибензой кислотаси (4-ГБК) антибактериал (Грамм+ве ва Грамм-ве бактерияларга қарши), сув ўтларга қарши, антимулаген, қонда тромблар ҳосил бўлишини олдини олиш ва эстрогеник фаолликка эга. Бундан ташқари, мия ишемияси ва реперфузия (қон оқимининг тикланиши) пайтида гидроксил радикалининг ҳосил бўлишини ўрганиш учун «тутқич» сифатида ишлатилади ва дори воситалари, косметика, фармацевтика, озиқ-овқат ва ичимликларда консервант сифатида кенг қўлланилади. п-гидроксибензой кислотаси қишқи бугдойнинг (Тритисум аэстивум) қурғоқчилик шароитида ташқи абиотик стрессга чидамлилигини ошириши аниқланган. Унинг стимуляторлик ҳусусиятлари бўйича координатсион бирикмалари ўрганилган. Шундан келиб чиққан холда, 4-гидроксибензой кислотаси асосида янги комплекс бирикмаларнинг синтези, тузилиши ва биологик хоссаларини ўрганиш қишлоқ хўжалиги учун зарур бўлган стимуляторларни соҳасини ривожлантиришга хизмат қилади.

4-гидроксибензой кислотаси карбоксил гуруҳидаги O1 кслород—атоми орқали Ni(II) атомига монодентат координацияланган. Шу билан бирга Ni(II) ионига 5 та сув молекуласи ҳам бирикиб, ички сферани ҳосил қилади. Ташқи сферада эса карбоксилат шаклда бир молекула п-гидроксибензой кислотаси ва 3 молекула сув жойлашади (1-расм). Марказий атомнинг координация сони 6 га тенг бўлгани учун олинган янги комплекснинг полиэдри октаэдр. Полиэдрнинг бузилган октаэдр эканлигини қуйида келтирилган валент боғлари узунлиги ва бурчакларининг қийматлари тасдиқлайди. Ni(II) ионига боғланган 5 та сув молекуласи боғ узунликлари 2.05-2.098 А оралиғида, марказий атом билан 4-гидроксибензой кислотаси карбоксил гуруҳидаги O1 кслород атоми орасидаги масофа эса 2.031 А ташкил этади. Валент бурчаклари эса Ni(II) иони, O1 кслориди орасидаги масофа ва O11 кслориди билан 46.41°, O10 кслориди билан эса 44.84 градусни ташкил этади. Марказий атом билан сув молекулалари орасидаги валент бурчаклари 43.29-45.43 градусни ташкил қилади.

Ni(II) иони +2 зарядга эга бўлиб, унга монодентат боғланган 4-гидроксибензой кислотасининг карбоксил гуруҳи депротонлашганлиги ва ташқи сферада жойлашган пара гидроксибензой кислотаси карбоксилат холатида бўлганлиги сабабли бирикма нейтраллашади.



1- **расм** $[\text{Ni}(4\text{-ГБК})(\text{H}_2\text{O})_5](4\text{-ГБК})(\text{H}_2\text{O})_3$ молекуласининг тузилиши.

Ички сферадаги О9 кслориди ва ташки сферада жойлашган 4-гидроксибензой кислотаси карбоксил гурухидаги О5 кслориди орасидаги водород боғининг узунлиги 2.654 Å ташкил қилади.

Марказий атом яъни Ni(II) ионига бириккан О9, О7 ва ташки сферадан жой олган 4-гидроксибензой кислотасининг карбоксилат гурухидаги О5, О6 кслориди ва ташқаридаги О13 сув билан, ички сферадаги 4-гидроксибензой кислотасининг карбоксилат гурухидаги О2 ва ташқаридаги О12 яъни сув молекуласи билан ўзаро молекулалараро водород боғлари ҳосил бўлади. Комплексада ҳаммаси бўлиб 5 та молекулалараро ва 1 та ички водород боғлари бор. Ички сферадаги 4-ГБКга нисбатан ташки сферадаги 4-ГБКси 59.1 градусга бурилган.

ТЕМИР(III) ИОНИНИНГ 6-СУЛФО-1-НИТРОЗА-2-НАФТОЛ РЕАГЕНТИ БИЛАН СПЕКТРОФОТОМЕТРИК АНИҚЛАШ УСЛУБИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ

¹Тоджиев Ж.Н., ²Турабов Н.Т., ³Тўраева Г.С., ⁴Суюнова С.Р., ⁴Инояткулов Ғ.С.

¹Ўзбекистон Миллий университети доценти

²Ўзбекистон Миллий университети профессори

³ТДАУ катта ўқитувчиси

⁴Ўзбекистон Миллий университети магистранти

Аннотация: *Fe(II) ионининг 6-сулфо-1-нитроза-2-нафтол реагенти билан рангли комплексини оптимал шароитлар аниқланди. Темир(III) ионининг 6-сульфо-1-нитроза-2-нафтол реагенти билан ҳосил қилган комплексни даражаланган график тенгламаси ($Y_i = a + bX_i = 0,0178 + 0,0140X_i$) га асосланиб оптик зичликни Темир(III) ионининг концентрациясига боғлиқлиги “киритилди-топилди” усули билан аниқланган ҳамда оптимал шароитларда усулнинг тўғрилиги ва қайта тикланувчанлиги текшириб кўрилган.*

Калит сўзлар: *темир(III), 6-сулфо-1-нитроза-2-нафтол, оптимал шароитлар, Толмачёв усули, Бугер-Ламбер-Бер қонуни, Асмус методи, изомоляр сериялар методи, даражаланган график, танлаб таъсир этувчанлик.*


Замонавий аналитик кимё фани олдида турган муҳим масалалардан бири, бу турли оғир ва захарли металллар, шунингдек, нодир ер элементларининг микромиқдорларини атроф-муҳит объектлари ва тирик организм таркибидан аниқлаш ҳамда уларнинг рухсат этилган миқдорда бўлишини назорат қилишдан иборатдир. Бу талаблар мамлакатимиздаги оғир ва енгил саноат, технологик жараёнлар ҳамда қишлоқ хўжалиги соҳаларининг жадал ривожланиб бораётганлиги сабабли юзага келмоқда. Ҳозирги вақтда оғир ва захарли металлларнинг микромиқдорларини аниқлаш учун, айниқса, спектрофотометрик ва фотометрик усуллари арзонлиги, қулай ва тезкорлиги учун кенг қўлланилади. Ушбу ишда Fe(III)нинг 6-сулфо-1-нитроза-2-нафтол реагенти билан комплекс ҳосил қилиш оптимал шароитлари ўрганилди. Оптимал нур фильтри сифатида 8-нур фильтри $\lambda_{\text{max}}=670\text{nm}$ танлаб олинди. Комплекс бирикма оптик зичлигининг муҳитнинг кислоталилигига боғлиқлиги

Ўрганилди ва оптимал рН=4,0-6,0 оралиғига тўғри келди. Оптик зичликнинг буфер эритма таркибига боғлиқлиги ўрганилди. Бунда рН=4,52 бўлган универсал буфер эритмадан фойдаланилди. Fe(III) нинг реагент билан ҳосил қилган комплекс бирикмасининг вақтга нисбатан барқарорлиги ўрганилди ва 2 соат давомида оптик зичлик қиймати ўзгармади. Комплекс бирикма таркибий компонентларининг қуйилиш тартиби ўрганилди. Бунда компонентларининг қуйилиш тартиби “Темир -реагент- буфер- дист.сув” бўлганда максимал оптик зичликка эришилди. Аниқланаётган металлнинг тўлиқ комплексга боғланиши учун реагентнинг ортиқча миқдорда олишга тўғри келади. Шунини эътиборга олган ҳолда комплекс бирикма оптик зичлигининг қўшилаётган реагент миқдорига боғлиқлиги ўрганилди. Fe(III) нинг 6-сульфо-1-нитроза-2-нафтол билан тўлиқ боғланиши учун 2,5 мл 0,1 %ли реагент эритмаси етарли эканлиги аниқланди. Комплекс бирикма оптик зичлигининг элемент миқдорига боғлиқлиги яъни Бугер-Ламбер-Бер қонунига бўйсунуши 2-45мкг/25 мл оралиғида кузатилди. Ундан юқори концентрацияларда эса тўғри чизиқли боғланишдан четланиш рўй берди.

6-сульфо-1-нитроза-2-нафтол реагенти ва Темир(III) билан ҳосил қилган комплексини танланган оптимал шароитда нур ютилиш спектрлари олинди. Ҳосил қилинган комплекс бирикма ютилиш спектри солиштирма эритмага нисбатан нур ютиш қалинлиги $l=1,0$ см бўлган кварц кюветада, КФК-3 да ўлчанди. Реагентнинг ютилиш спектри эса дистилланган сувга нисбатан олинди. Натижалар 1-расмда келтирилди. 1-расмда келтирилган ютилиш спектри бўйича 6-сульфо- β -нитроза- α -нафтол реагентининг Fe(III) комплексининг максимал нур ютиш соҳаси $\lambda_{\text{комп}}=675$ нм да жойлашган, 6-сульфо-1-нитроза-2-нафтол реагентининг максимал нур ютиш соҳаси қисқароқ спектрал тўлқинлар соҳасида яъни $\lambda_{\text{реагент}}=380$ нм да кузатилди. ($\Delta\lambda=295$ нм). Комплекс бирикманинг максимал оптик зичлиги қийматидан фойдаланиб ($\lambda=675$ нм бўлган соҳада) кўринма моляр сўндириш коэффициентини ($\epsilon_{\text{кўр}}$) аниқланди. Комплекс ва реагентнинг спектрал тавсифи 1-жадвал ва 1-расмда тасвирланган.

1-жадвал

Комплекс ранги	рН	λ , MeR, нм	λ , HR, нм	$\Delta\lambda$, нм	С Fe ³⁺ , МКГ	С Fe ³⁺ , мол/л	A	Сендел бўйича сезгирлик МКГ/см ²
Қизғиш	4,52	675	380	295	45,0	$3,22 \cdot 10^{-5}$	0,345	0,0052



Расм 1. Темир(III) нинг 6-сульфо-1-нитроза-2-нафтол реагенти билан ҳосил қилган комплексининг ютилиш спектри

Усулнинг Сендел бўйича сезгирлиги 0,0052 мг/см² га тенг эканлиги аниқланди. 6-сульфо- β -нитроза- α -нафтол реагенти ва темир(III) нинг комплекс ҳосил қилиш реакциясини тўлароқ ўрганиш учун асосий тавсифларидан комплекс ҳосил бўлиш мувозанат константаси Толмачёвнинг график методи ёрдамида аниқланди. Комплекс таркибини изомоляр сериялар методи ёрдамида аниқланди. Темир (III) билан 6-сульфо-1-нитроза-2-нафтол реагентининг ҳосил қилган комплексининг таркиби Fe:R=1:3 моллар нисбатига тўғри келди. Комплекс таркибини тўғри чизиқли Асмус методи ёрдамида аниқланди. Олинган натижалар шунини кўрсатадики, тўғри чизиқ 1:3

моллар нисбатига тўғри келди. Демак, иккала метод ҳам бир-бирини тасдиқлади ва таркиб Fe:HR=1:3 нисбатда эканлигини кўрсатди. Темир (III) нинг 6-сульфо- β -нитроза- α -нафтол реагенти билан ҳосил қилган комплексининг ҳақиқий моляр сўндириш коэффициенти ва мувозанат константаси Толмачёвнинг график методи ёрдамида аниқланди ($\epsilon_{\text{ҳақ}}=42000$;

$K_{\text{мув}}=1,59 \cdot 10^3$). Темир (III) билан 6-сульфо-1-нитрозо-2-нафтол реагентининг ҳосил қилган комплексини аналитик қўллаш мақсадида даражаланган график натижаларини кичик квадратлар усули ёрдамида математик қайта ишланди ва ҳисобланган натижаларга кўра градуировкали график (даражаланган график) тенгламаси $Y_i=a+bX_i$ яъни $Y_i=a+bX_i=0,0498+0,0116X_i$ кўринишга эга бўлди. Темир(III) ионининг 6-сульфо-1-нитрозо-2-нафтол реагенти билан ҳосил қилган комплексни аниқлашдаги градуировкали график тенгламаси ($Y_i=a+bX_i=0,0178+0,0140X_i$) га асосланиб оптик зичликни Темир(III) ионининг концентрациясига боғлиқлиги “киритилди-топилди” усули билан аниқланган оптимал шароитларда усулнинг тўғрилиги ва қайта тикланувчанлиги текшириб кўрилди. Олинган натижалар шуни кўрсатадики, Темир(III) ионини 6-сульфо-1-нитрозо-2-нафтол реагенти билан спектрофотометрик аниқлаш методикасининг тўғрилиги ва қайта тикланувчанлигини тасдиқлайди. Маълумотлар шуни кўрсатадики, Темир(III) ионини олинган миқдори билан топилган миқдори бир-бирига тўғри келади, бунда нисбий стандарт четланиш (Sr) 0,025 дан ошмади. Темир(III) ионлари 6-сульфо-1-нитрозо-2-нафтол билан $pH=4,52$ да барқарор комплекс бирикма ҳосил қилади. Бундай муҳитда бир неча ионлар Темир(III) ни аниқлашга ҳалақит бериши мумкин. Шунинг учун ишлаб чиқилган методнинг танлаб таъсир этувчанлигини ўрганишда бегона ионлар таъсири ўрганилди. Унга кўра 20 мкг/мл ли темир(III)ни аниқлашга NH_4^+ , Pb^{2+} , K^+ , Na^+ , Al^{3+} , Ba^{2+} , Cl^- , Br^- , цитрат (1:1000), NO_3^- (1:500), Cr^{3+} , Mn^{2+} (1:100), Mg^{2+} , (1:1) тегишли нисбатларда ҳалақит бермайди. Cu^{2+} , Hg^{2+} (1:5), Co^{2+} , Cd^{2+} , Pd^{2+} , Sn^{2+} , Ni^{2+} , CH_3COO^- , (1:10) F^- , $S_2O_3^{2-}$ (1:1) SCN^- (1:0,5) ионлари эса берилган нисбатларда ҳалақит беради. Методнинг тўғрилигини ва қайта тикланувчанлигини текшириш учун “киритилди-топилди” усули қўлланилди ва темир(III) ионини сунъий аралашма таркибидан аниқлаш амалга оширилди. темир(III) ни сунъий аралашмалар таркибидан спектрофотометрик аниқлашда нисбий стандарт четланиш 0,0074 дан ошмади.

Cd(II) НИНГ 2-МЕРКАПТОБЕНЗТИАЗОЛ БИЛАН ХОСИЛ ҚИЛГАН КОМПЛЕКС БИРИКМАСИНИ ТАДҚИҚОТИ

Абдуллаева Г.А., Даминова Ш.Ш.

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

***Аннотация:** Cd(II) ацетатли тузининг 2-меркаптобензтиазол билан комплекс бирикмаси синтез қилинган. Комплекс бирикманинг таркиби ва тузилиши элемент анализ ҳамда ИҚ-спектроскопияси ёрдамида таҳлил қилинган.*

***Калит сўзлар:** 2-меркаптобензтиазол, лиганд, комплекс бирикма, ИҚ-спектроскопия, элемент анализ.*

Ҳозирги кунда металлокомплекс бирикмаларнинг юқори биологик фаоллиги фармаколог тадқиқотчиларда катта қизиқиш уйғотмоқда. Органик лигандлар рух, темир, кобальт каби биометаллар билан комплексларни яратишда элементнинг метаболизм механизмида самарали қатнашишда ва уларнинг биологик фаоллигини оширишида ёрдам беради [1].

2-меркаптобензтиазол ва унинг ҳосилалари гетероциклик бирикмалар синфига кирувчи муҳим бирикмалардир. Биологик фаоллиги туфайли улар кўпинча микробларга, яллиғланишга, силга қарши ҳамда антигельментик воситалар сифатида ишлатилади. Саноатда улар каучук вулканизация тезлатгичлари ҳамда люменесцент материаллар тайёрлашда металл комплекслар учун лиганд сифатида ишлатилади [2].


Ишдан мақсад, кадмий (II) ацетатли тузини 2-меркаптобензтиазол билан комплекс бирикмасини синтез қилиш ҳамда таркиби, тузилиши ва хоссаларини физик-кимёвий тадқиқот усуллари ёрдамида ўрганиш.

Синтез қилинган комплекс бирикманинг таркиби элемент анализ ёрдамида таҳлил қилинди (жадвал) .


Cd(II) билан 2-меркаптобензтиазол комплекс бирикмасининг элемент анализ тахлил натижалари

Бирикма	Топилган/хисобланган %				Брутто формула
	C	N	S	Cd	
$[Cd(C_7H_4NS_2)_2]_n$	45,65/45,12	11,50/11,43	22,53/22,49	20,22/20,17	$CdC_{14}H_8N_2S_4$

Лиганд ва синтез қилинган комплекс бирикмаларнинг ҳосил бўлишдаги ўзгаришларни ИҚ-спектроскопия усули ёрдамида ўрганилди [3]. 2-меркаптобензтиазолнинг ИҚ-спектрида қуйидаги ютилиш частоталари кузатилди (1-расм). 746 cm^{-1} (C-S), 1278 cm^{-1} (C-N), 1588 cm^{-1} (C=N), 1077 cm^{-1} (C=N_{as}), 1028 cm^{-1} (C=N_s).




1-расм. 2-меркаптобензтиазолнинг ИҚ-спектри



2-расм. Cd(II) ацетатли тузини 2-меркаптобензтиазол ИҚ-спектри

Элемент анализ ва ИҚ-спектроскопияси ёрдамида синтез қилинган бирикманинг таркиби ва тузилиши аниқланди, лиганд билан металл иони 1:2 моляр нисбатда ҳосил бўлган деган хулоса қилинди ва комплекс бирикманинг тузилиши қуйидагича тавсия қилинди.



Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Шахмарданова С.А., Галенко-Ярошевский П.А., Шахмарданова С.А., Сеченов И.М., Галенко-Ярошевский. Металлокомплексные соединения цинка CN-алкенилимидазолами: биологическая активность и применение в медицине// Сеченовский вестник. – 2016. -№ 3.
2. Рамазанова П.А., Гаджимурадова Р.М., Мусакадиева Б.Ш., Хибиев Х.С. Реакции 2-меркаптобензотиазола с различными галогеналканами//Вестник Дагестанского государственного университета Серия 1. Естественные науки. 2020. Том 35. Вып. 1. С 93-112.
3. Маткаримова Н.О., Парпиев Н.А., Хасанов Ш.Б. Синтез и исследование координационных соединений двухвалентных кобальта, никеля и меди с 2-меркаптобензотиазолом// Химическая технология. №11 (68), 2019, С. 225

SYNTHESIS AND STRUCTURE OF THE FIRST COORDINATION COMPOUND OF 2-AMINOBENZOXAZOLE COMPLEX WITH CADMIUM

¹Razzokova S., ²Kadirova Sh., ³Ibragimov A., ⁴Sadullayeva S.

¹associate professor of NUU, PhD,

²professor of NUU, DSc,

³Deputy director of the Institute of General and Inorganic Chemistry of the Academy of Sciences of Uzbekistan, DSc.,

⁴Independent researcher of the Faculty of Chemistry of NUU

Annotation: Complex compounds of 2-aminobenzoxazole with cadmium acetate were synthesized. According to the results of IR-spectroscopy and X-ray structure of the structure of the obtained compounds, it was shown that the polydentant ligand is coordinated to the complex-forming element through the fourth nitrogen atom in the triazole ring. In this case, thermally stable and unique crystal lattice complexes are formed.

Key words: 2-aminobenzoxazole, Cu(CH₃COO)₂, complex, solubility, X-ray structure

Benzoxazole is an aromatic organic compound with a benzene-fused oxazole ring structure, and an odor similar to pyridine. Although benzoxazole itself is of a little practical value, many derivatives of benzoxazoles are commercially important. They play an important role in medicinal chemistry and chemical biology and are described as potential therapeutic agents including various enzyme inhibitors. Aminobenzoxazoles, in particular derivatives of 2-aminobenzoxazole, have

anticancer and antibacterial properties. A first coordination compound of 2-aminobenzoxazole [Cd(2-aminobenzoxazole)₂(CH₃COO)₂] has been synthesized on the example of the cadmium complex from ethanol solutions of Cd(CH₃(COO)₂ and 2-aminobenzoxazole. In monoclinic crystals with space group C₂₁/c cadmium ions coordinate two neutral 2-aminobenzoxazole molecules by monodentate fashion through nitrogen atom of the oxazole ring while two acetic acid molecules in the carboxylate form are coordinated through oxygen atoms by bidentate mode. The coordination polyhedron of the central ion is substantially distorted octahedron. There are two sufficiently strong intramolecular H-bonds in the complex molecule. Two intermolecular H-bonds associate complex molecules into columns running in directions (Figure 1.). Cd(CH₃COO)₂·2H₂O (0.266 g, 1 mmol) and 2-aminobenzoxazole (0.268 g, 2 mmol) were dissolved separately in ethanol (5 mL), mixed together and stirred for 1.5 h. The obtained colorless solution was filtered and left for crystallization. Single crystals of the complex suitable for X-ray analysis were obtained by slow evaporation of the solution over a period of 10 days.




Figure 1. The molecular structure of the complex with atom numbering scheme

An analysis of Cambridge Structural Database (CSD, Version 5.43, update of November 2021; Groom et al., 2016) attested that there is no X-ray structure of 2-aminobenzoxazole and its metal complexes in database. Theoretically, in metal complexes 2-aminobenzoxazole may be coordinated through nitrogen or oxygen atoms of the oxazole ring and nitrogen atom of the amino group. In order to define which way of these possibilities will be realized we have obtained coordination complex of 2-aminobenzoxazole with cadmium and report here its molecular and crystal structure

ПОЛИВИНИЛХЛОРИД ВА МОНОЭТАНОЛАМИННИ МОДИФИКАЦИЯЛАШ ОЛИНГАН СОРБЕНТНИНГ ХОССАЛАРИНИ ЎРГАНИШ

¹Бозоров Л.У., ²Тошболтаева Ҳ.А., ²Ражапова Д.Ш.

¹Термиз давлат университети техника фанлари фалсафа доктори,

²Термиз давлат университети магистри

Аннотация: Янги сорбентлар поливинилхлоридни моноэтанолламин билан модификация қилиш йўли билан синтез қилинди ва олинган сорбентнинг тузилиши ИҚ-спектроскопия, дифференциал термик таҳлил ва сорбентлар таркибидаги элементлар миқдорини сканерловчи электрон микроскоп-энергодисперсион анализ усули билан ўрганилди. Олинган комплекс сорбентнинг никел (II), қумуш (I) ионларига алмашиниш қобилияти аниқланди.

Калит сўзлар: поливинилхлорид, моноэтанолламин, модификация, сорбент, полимер, мембрана, диметилформамид.

Поливинилхлорид (ПВХ) барқарорлиги куйи бўлган полимерлардан биридир, аммо унинг истеъмол ҳажми жихатдан у муҳим пластмассалардан ҳисобланади, бугунги шароитда, биринчи навбатда, юқори даражада тўлдирилган ёғоч-полимер композициялари тахта, паркет, пол, дераза токчалари, тўсиқлар кичик меъморчилик шакллари ва бошқалар олишда кенг ишлатилмоқда [1].

Юқори мустаҳкамлик ва афзал физик-кимёвий хусусиятларга эга бўлган янги полимер материалларни олиш бўйича илмий тадқиқотларнинг ривожланиши шуни кўрсатадики, синтезнинг анъанавий усуллари асосан қўшбоғ тутган ва хусусиятлари маълум даражадан анча юқори бўлган полимерлар ва сополимерларни синтез қилиш эҳтимоли сезиларли даражада ошган [2]. Ҳозирги вақтда полимер материалларни олишнинг яна бир йўналиши - полимерларни модификациялаш жадал ривожланмоқда.

Полимер лигандларнинг координацион хоссалари ва уларнинг амалиётда қўлланилиши таркибидаги функционал гуруҳларнинг бир жинсли бўлишига сезиларли даражада боғлиқ. Полифункционал полимер лигандлар аралаш лигандли комплексларни ҳосил қилиши мумкин, уларнинг барқарорлиги монофункционал смолалар ҳосил қилган бирикмалар барқарорлигидан юқори бўлади [3].



Ионалмашиниш жараёнларини амалиётда қўллашда сорбентнинг таловчанлигини кўрсатиб берувчи кинетик хоссаларини ҳисобига муҳим аҳамиятга эга. Бунда масса узатилишининг тўхташ босқичини ўрганиш жараённинг ҳарорат, гидродинамик параметрлари, смоланинг фракцион таркиби каби оптимал шароитларини танлаш учун зарурдир. Ионалмашинувчи смолаларда сорбция мураккаб ва кўп босқичли жараён бўлиб, одатда лимитловчи босқичлар жараённинг умумий тезлигини белгилаб беради [4].

Бугунги кунда комплекс ҳосил қилувчи сорбентлар металлургия саноатида турли саноат эритмаларидаги металл ионларини концентрлаш, оқова сувлар ва чиқинди эритмаларни тозалашда сорбент сифатида кенг қўлланилади. Ҳозирда ионалмашинувчи, комплекс ҳосил қилувчи полимерлар ва полимер мономерларининг катта ассортименти ишлаб чиқилган. Маълумки, бу каби полимер лигандларни олишнинг саноат усуллари турли функциональ гуруҳ тутган мономерларни поликонденсациялаш, полимерлаш ва сополимерлаш ҳисобланади.

Поливинилхлоридни комплекс ҳосил қилувчи реакция фаол бирикмалар билан модификациялаш мақсадида моноэтанолламин билан реакцияси ўрганилди ва маҳсулотнинг таркиби ИҚ спектрал, дифференциал термик таҳлил ва сорбентлар таркибидаги элементлар миқдорини сканерловчи электрон микроскоп- энергодисперсион таҳлил усули ёрдамида тадқиқ қилинди.

Олинган комплекс ҳосил қилувчи сорбентнинг ИҚ-спектрида $\nu(\text{NH}) + \nu(\text{OH})$ 3365 cm^{-1} , $\nu_{\text{as}}(\text{NH})$ 3300 cm^{-1} , $\nu_{\text{as}}(\text{CH}_2)$ 2945 cm^{-1} , Н боғли $\nu_{\text{as}}(\text{OH})$ 2900 cm^{-1} , $(\text{CH}_2) + (\text{CN})$ 1668 cm^{-1} , $\delta_s(\text{N}-\text{CH}_2)$ 1425 cm^{-1} , $\nu(\text{C}-\text{O})$ 1328 cm^{-1} , $\nu(\text{C}-\text{OH})$ 1250 cm^{-1} , 956 cm^{-1} соҳаларда тебраниш частоталари кузатилди.

Сорбентнинг дифференциал термик барорлигини аниқлаш мақсадида тажрибада олинган намуналарни қиздириш жараёнида бирикмалар тузилишининг деструкцияси натижасида масса ўзгариши билан кузатиладиган турли экзотермик ва эндотермик иссиқлик эффектлари дифференциал термик таҳлил ёрдамида ўрганилди. Бир вақтнинг ўзида намунанинг массаси, олинган сорбентнинг парчаланиш массаси ва термик барқарорлиги температура ортиб бориши билан ўзгариши аниқланади. Шундай қилиб, термик анализ натижасида сорбентнинг парчаланишини ва суюқланишини, ва уларнинг комплекс ҳосил қилишининг охириги маҳсулотлари ўрганилди.



Синтез қилинган сорбентнинг термограммаси ва тахминий формуласи

Сорбентлар таркибидаги элементлар миқдорини сканерловчи электрон микроскоп-энергодисперсион анализ (СЭМ-ЭДА) ёрдамида аниқлаш олинган тадқиқот натижаларининг ишончлилигини тасдиқлаш ва аниқ илмий-технологик муаммоларни ҳал қилишда кенг қўлланилади. Поливинилхлорид моноэтанолламин асосида олинган сорбент табиби СЭМ-ЭДА усулида ҳам аниқланди. СЭМ-ЭДА натижасида олинган маълумотлар асосида шундай хулосага келиш мумкинки, поливинилхлоридни моноэтанолламин билан модификациялаб олинган сорбент микроструктурасининг ўзгаришига олиб келади.

Тадқиқотларимиз шуни кўрсатмоқдаки янги сорбентлар поливинилхлоридни моноэтанолламин билан модификация қилиш йўли билан синтез қилинди ва олинган сорбентнинг тузилиши ИҚ-спектроскопия, дифференциал термик таҳлил ва сорбентлар таркибидаги элементлар миқдорини сканерловчи электрон микроскоп-энергодисперсион анализ усули билан ўрганилди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Bekchanov, D.J., Sagdiev, N.J., and Mukhamediev, M.G., Am. J. Polym. Sci., 2016, no. 6 (2), pp. 46–49. <https://doi.org/10.5923/j.ajps.20160602.03>
2. Юсупова Н.М., Гафурова Д.А., Мухамедиев М.Г. Синтез и свойства новых анионитов на основе поливинилхлорида // Узб. хим. Журнал. – 2019, – №1, – С.10-18.
3. Копылова В.Д. Каргман В.Б., Вальдман А.И., Вальдман Д.И. Энтальпия и термокинетика сорбции ионов 3d-металлов иминодиуксусными полиамфолитами // Теория и практика сорбционных процессов. – Воронеж. – 1991. – Изд. АН Россия. Вып. 21. – С. 58-64.
4. Полянский Н.Г., Горбунов Г.В., Полянская Н.Л. Методы исследования ионитов. М. : Химия, – 1976. – 286 с.

Cu(II) VA Zn ТУЗЛАРИНИНГ 2-АМИНОБЕНИОКСАЗОЛ БИЛАН КОМПЛЕКС БИРИКМАЛАРИНИ ТЕРМИК АНАЛИЗ ЁРДАМИДА ЎРГАНИШ

¹Тошов А.А.,¹Садуллаева С.А.,¹Раззоқова С.Р.,¹Қадирова Ш.А.,²Олимова М.И.

¹Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

²ЎЗР ФА Ўсимлик моддалар кимёси институти

Аннотация: Оралиқ металлларнинг таркибида азот тутган гетероциклик лигандлар билан ҳосил қилган координацион бирикмалари фаннинг турли соҳаларида техника, медицина, қишлоқ хўжалиги, кимёвий ишлаб чиқариш ва бошқа жабҳаларида кенг ишлатилади. Бензимидазол ҳосилалари таркибида азот тутган лигандлар ҳисобланиб, унинг комплекслари микробга қарши, раққа қарши, шамоллашга қарши хоссаларни намоён этиши адабиётлардан маълум. Бу гуруҳ вакиллари илмий ва амалий аҳамияти жиҳатидан бошқа органик лигандларга қараганда катта қизиқиши уйғотади, полифункционал лигандларнинг донор марказлари комплекс ҳосил бўлиши мойиллигини оширади ва биологик фаол комплексларнинг синтези, таҳлили координацион кимёнинг янги қирраларини очиш имконини беради.


Калит сўзлар: 2-аминобензиоксазол, 2-аминобензимидазол, $[MnL_2(NO_3)_2] \cdot 2H_2O$ ва $[ZnL_2(NO_3)_2] \cdot 2H_2O$ комплекслари, дифференциал термогравиметрик, ДСК эгри чизиги.

Ишдан мақсад, Mn (II) ва Zn нитратинини лиганд 2-аминобензиоксазол (L) билан комплекс бирикмаларини синтез қилиш ҳамда синтез қилинган комплексларнинг тузилишини физик-кимёвий усуллардан термик анализ ёрдамида ўрганишдан иборат.

$[MnL_2(NO_3)_2] \cdot 2H_2O$ комплексининг синтези сувли спиртли муҳитда олиб борилиб, M:L 1:2 моляр нисбатда 0,001 моль марганец нитратнинг сувли эритмасига 0,002 моль лиганднинг (L) яъни 2-аминобензимидазолнинг нитратли эритмаси қўшилди (pH=7). Реакция 30 минут давомида сув ҳаммомида қиздириш билан олиб борилди, сўнг реакцион аралашма кристалланиш учун қолдирилди. Орадан уч кун ўтгандан сўнг жигар рангдаги

чўкма тушди, улар филтрланиб, бир неча бор этанолда ювилди ва хавода қуритилди. Маҳсулот унуми 85%. $T_{\text{суюк}} = 224-226^{\circ}\text{C}$.

$[\text{MnL}_2(\text{NO}_3)_2] \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ таркибли комплекснинг дериватограммаси 3 та эгри чизикдан иборат. Дифференциал термогравиметрик анализ эгри чизиғи таҳлили шуни кўрсатадики, ДТГА эгри чизиғи умумий парчаланиш оралиғи эса $55,8-878,1^{\circ}\text{C}$ температурага мос келади. Бу дериватографик тадқиқотлар натижаларига кўра массанинг 1.6 мг йўқолади. Термолиз натижасида металл оксиди қолганлиги аниқланди.



3.23-расм. $[\text{MnL}_2(\text{NO}_3)_2] \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ва $[\text{ZnL}_2(\text{NO}_3)_2] \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ комплексининг дериватограммаси Дифференциал термогравиметрик анализ эгри чизиғи ва ДСК эгри чизиғининг батафсил таҳлили жадвалда келтирилган.

Жадвал

$[\text{MnL}_2(\text{NO}_3)_2] \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ комплексининг ДТГА ва ДСК эгри чизиғи натижалари таҳлили

№	Температура, °C	Йўқотилган масса, мг	Модданинг парчаланиш тезлиги, мг/мин	Сарфланадиган энергия миқдори ($\mu\text{V} \cdot \text{c}/\text{мг}$)
1	56.8	5.6	1.15	4.38
2	188.9	5.4	0.54	0.49
3	351.0	3.9	0.25	0.23
4	479.5	3.8	0.17	0.16
5	586.8	2.6	0.09	0.13
6	800.0	2.5	0.06	2.08
7	878.1	1.8	0.04	0.24

$[\text{ZnL}_2(\text{NO}_3)_2] \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ таркибли комплекснинг дериватограммаси 3 та эгри чизикдан иборат. Дифференциал термогравиметрик анализ эгри чизиғи таҳлили шуни кўрсатадики, ДТГА эгри чизиғи умумий парчаланиш оралиғи эса $348.6-1000,1^{\circ}\text{C}$ температурага мос келади. Бу дериватографик тадқиқотлар натижаларига кўра массанинг 1,7 мг йўқолади. Термолиз натижасида металл оксиди қолганлиги аниқланди.

Дифференциал термогравиметрик анализ эгри чизиғи ва ДСК эгри чизиғининг батафсил таҳлили жадвалда келтирилган.

Жадвал

$[\text{ZnL}_2(\text{NO}_3)_2] \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ комплексининг ДТГА ва ДСК эгри чизиғи натижалари таҳлили

№	Температура, °C	Йўқотилган масса, мг	Модданинг парчаланиш тезлиги,	Сарфланадиган энергия миқдори ($\mu\text{V} \cdot \text{c}/\text{мг}$)
---	-----------------	----------------------	-------------------------------	--------------------------------------------------------------------------

			мг/мин	
1	348.6	5.4	0.63	0.35
2	387.1	5.3	0.59	0.31
3	545.6	4.7	0,31	0.19
4	584.5	1.9	0,09	0.06
5	1000.1	1.9	1.83	0.04

Деакватацияга қараганда дегидратация бирмунча куйи температурада боради деб тахмин қилинади. Чунки ван-дер-ва-альс кучига қарши иш координацион боғ узилишига қараганда кам энергия сарфлашни талаб қилади. Кристаллогидрат ва ички сферадаги сувнинг ажралиши бирмунча кенг температура оралиғида боради, шунинг унинг амалий жиҳатдан сув ажралиб чиқа бошлаш температурасини аниқлаб бўлмайди. Ўрганилган $[MnL_2(NO_3)_2] \cdot 2H_2O$ ва $[ZnL_2(NO_3)_2] \cdot 2H_2O$ таркибли комплекслар учун парчаланиш жараёнининг бориши 100-110⁰С соҳаларда намоён бўлади, бу эса комплекс таркибидаги кристаллогидрат сув молекуласига тўғри келади.

Синтез қилинган комплекс бирикмаларнинг термик анализи асосида хулоса қилиш мумкинки, комплекс бирикмалар 55-1000⁰С интервал оралиғидаги ҳароратда парчаланаяди. Ўрганилган комплекслар учун 100-110⁰С да комплекс таркибидаги сув молекуласининг ажралиши кузатилди. Олинган комплекс бирикмалар таркибида кристаллогидрат сув борлиги аниқланди

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Алиев Н.А. Каримов Р.К. Дустмухамедов Т.Т. Органик бирикмаларнинг биологик фаоллиги. Тошкент. 2003.
2. Кукушкин Ю.Н., Ходжаев О.Ф., Буданова В.Ф., Парпиев Н.А. Термолиз координационных соединений. Тошкент: Фан, 1986. 198 с.
3. Katritzky, A.R., Pozharskii, A.F. (2000). *Handbook of Heterocyclic Chemistry* (2nd ed.). Academic Press. ISBN 0080429882.
4. Парпиев Н.А., Кадирова Ш.А., Раззокова С.Р., Алланазарова Д.М. Термический анализ координационного соединения 3d-металлов с 5-(*n*-нитрофенил)-1,3,4-оксадиазолин-2-тионом «Биохилма-хилликни сақлаш ва ривожлантириш» Рес. онлайн ил.амал. кон. мат. тўп. – Гулистон, 17-18 апреля, – 2020, – С. 234-237.

2-МЕРКАПТОБЕНЗТИАЗОЛ БИЛАН Cd(II) КОМПЛЕКСИНИНГ ФИЗИК-ТАДҚИҚОТ УСУЛЛАРИ ЁРДАМИДА ЎРГАНИШ

Абдуллаева Г.А., Примова М.А., Даминова Ш.Ш.


Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

Аннотация: Кадмий (II) ва 2-меркаптобензтиазол лиганди асосида синтез қилинган $[Cd(C_7H_4NS_2)_2]$ комплекс бирикманинг термик барқарорлиги ўрганилди. Ушбу комплекс бирикма таркибида кристаллизация ва координацион сув мавжуд эмаслиги термик анализ ёрдамида хулоса қилинди. SEM-EDX натижаларига кўра лиганд билан металл иони 1:2 мол нисбатда комплекс бирикма ҳосил қилганлиги аниқланди

Калит сўзлар: 2-меркаптобензтиазол, термик барқарорлик, термограмма, эндотермик эффект, масса йўқотилиши, кристаллизация ва координацион сув, SEM-EDX.

Термик анализ асосий физик-кимёвий тадқиқот усули ҳисобланиб, у моддаларнинг термик барқарорлиги, ҳарорат ортиши билан молекулада рўй берадиган фазавий ўтишлар ҳамда масса йўқотилишлари ҳақида маълумот берадиган замонвий тадқиқот усулдир. Ушбу усулда комплекс бирикмалар таркиби ўрганилганда унинг таркибидаги координацион ёки кристаллизация сув молекуласи мавжудлиги ҳақидаги қўшимча маълумотларни ҳам олиш имконини беради [1].


Ишнинг мақсади Cd^{2+} ва 2-меркаптобензтиазол лиганди асосида синтез қилинган $[\text{CdL}_2]$ комплекс бирикманинг термик барқарорлигини аниқлаш.



1-Расм. $[\text{Cd}(\text{C}_7\text{H}_4\text{NS}_2)_2]$ комплекс бирикманинг дериватограммаси

Annotatsiya: *Ilk bor sintez qilingan propil 4-((1-(2-metil-4-nitrofenil)-1H-1,2,3-triazol-4-il)metoksi)benzoat-mis-xlorid (I) kompleksining kristall va molekulyar strukurasi rentgenstrukturaviy tahlil usuli bilan aniqlandi. Aniqlangan molekulalararo C-H...O, C-H...Cl va ichki molekulyar C-H...O vodorod bog'lar kristal strukturani shakllanishida ahamiyatga ega. Hirshfeld sirt tahlili shuni ko'rsatadiki, o'rganilgan kristalda vodorod ishtirokidagi yuqori hissaga ega bo'lgan H...H (38.8%), O-H/H-O (25.1%), C-H/H-C (10%) va Cl-H/H-Cl (8.9%) ta'sirlar mavjudligi aniqlangan.*

Kalit so'zlar: *1,2,3-triazollar, kompleks, monokristall, rentgenstrukturaviy tahlil, Hirshfeld sirt.*


1,2,3-triazollar geterosiklik birikmalarning qiziqarli sinfini o'z ichiga oladi, hamda ayni shu moddalardan ligand asosida 3d metallar bilan komplekslar sintez qilish yanada qiziqarlidir [1]. Xususan, tarkibida karbonil yoki karboksil guruhini o'z ichiga olgan 1,2,3-triazollarga katta e'tibor berilgan, chunki ular ko'plab biologik va farmatsevtik faol molekulalarda mavjud bo'lib, ular keng spektrli xususiyatlarni namoyish etadi [2]. Ko'p yutuqlarga erishilgan bo'lsada, mavjud metodologiyalarning aksariyati odatda bir xil katalizatorni qo'llaydi ya'ni Cu (I) tuzlarini foydalaniladi. Mazkur ishda ilk marotaba sintez qilingan propil 4-((1-(2-metil-4-nitrofenil)-1H-1,2,3-triazol-4-il) metoksi) benzoat mis (II) xlorid kompleksini muhokama qilinadi (1a -rasm).

Sintez qilingan kompleks (I) monokristallini rentgenstrukturaviy tahlili natijasida molekulalararo C-H...O, C-H...Cl va ichki molekulyar C-H...O vodorod bog'lar aniqlandi. Kristalda molekulalararo ta'sirlarni o'rganish uchun CrystalExplorer21 [3] dasturida Hirshfeld sirt tahlil qilindi (1b-rasm).



1-rasm. (a) o'rganilgan **1** kompleksning kristall strukurasi va (b) uning Hirshfeld sirti (d_{norm} ko'rinishida)

Hirshfeld sirt tahlili jarayonida vodorod ishtirokidagi ta'sir(bog')larning o'zaro nisbiy ahamiyatini tushunish uchun ikki o'lchovli "barmoq izlari" diagrammalarini hisoblab chiqdik (2-rasm). Bu diagrammalar, alohida atomlar juftlik ta'sirlarini aniqlab beradi va turli (kuchli va kuchsiz) o'zaro ta'sirlarning hissalarini ajratish imkonini beradi.



2-rasm. O'rganilgan **1** kompleks molekulasining ikki o'lchovli "barmoq izlari" diagrammalarida yuqori hissaga ega bo'lgan o'zaro ta'sirlar:
a) 100 % hamma ta'sirlar, **b)** H-H (38.8%), **c)** O-H/H-O (25.1%), **d)** C-H/H-C (10%), **e)** Cl-H/H-Cl (8.9%)

Propil 4-((1-(2-metil-4-nitrofenil)-1h-1,2,3-triazol-4-il)metoksi) benzoat-mis-xlorid kompleksi molekularining o'zaro ta'sirlarini Hirshfeld sirt tahliliga ko'ra, H-H, O-H/H-O, C-H/H-C va Cl-H/H-Cl ta'sirlar boshqalarga nisbatan, kristall strukturani shakllantirishda yuqori hissaga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Dheer D. *et al.* // *Bioorg. Chem.*, 2017, 71, 30–54.
2. Shu H *et al.* // *Bioorg. Med. Chem. Lett.*, 2009, 19, 891–893.
3. Spackman, P. R., Turner, M. J., McKinnon, J. J., Wolff, S. K., Grimwood, D. J., Jayatilaka, D. & Spackman, M. A. (2021). *J. Appl. Cryst.* 54, 3, 1006–1011

KADMIY YODIDINI 3-AMINO-5-MERKAPTO-1,2,4-TRIAZOL ASOSIDAGI KOMPLEKS BIRIKMASINING TERMİK ANALIZI

¹Doniyorov K.A., ²Xayrullayev G`U., ³Botirova S.A., ⁴Torambetov B.S., ⁵Kadirova Sh.A.
¹Magistranti, ²O`qituvchi, ³Talaba, ⁴PhD, dots, ⁵DSc, prof.
 Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy Universiteti


Annotatsiya: Ushbu ishda 3-amino-5-merkaptto-1,2,4-triazol bilan kadmiy yodid ishtirokida sintez qilingan yangi kompleks birikmasining termik natijalari keltirilgan. Termik analiz kompleks birikmaning termik barqarorligi, miqdoriy tarkibi va tarkibidagi suv molekulasining tabiati haqida malumotlar beradi.

Kalit so`zlar: 1,2,4-triazol, kadmiy yodid, termik analiz, ligand, vodorod yodid.

Kirish. Hozirgi kunda bakteriyalarning qo'llanilayotgan dorilarga ta`siri ortib borayotgani, qolaversa patogenik mikroorganizmlarning yangi dorilarga bioqatlam hosil qilishi rivojlanayotgani dolzarb muammolarga aylanib boryapti [1]. So`ngi o`n yillar davomida bakteriyalar keltirib chiqaradigan kasalliklarni davolashni rivojlantirish uchun antimikrob xossalarga ega bo`lgan komplekslar kimyosiga e`tabor qaratilmoqda [2]. Shu sababli tabiatda va shifoxonalarda tarqaladigan insonning patagonek kassaliklariga yaxshi antimikrob faoliyatga ega bo`lgan triazol hosilalaridan olingan kompleks birikmalar sintez qilinmoqda [3]. 3-amino-5-merkaptto-1,2,4-triazolning d-elementlari bilan sintez qilingan koordinatsion birikmalar turli xil biologik jarayonlarda muhim rol o`ynaydi [4]. Olingan birikmalarning termik xarakteristikalarini termik analiz usuli yordamida (TG, DTA) qizdirish va termodinamik ta`sirlar orqali analiz qilindi.

Kompleks birikmaning termokatalitik tadqiqoti 20°C dan 800°C gacha bo`lgan harorat oralig`ida o`tkazildi. TG va DTA chiziqlari kompleks birikmaning tarkibiy qismlarga parjalanish jarayonini ko`rsatadi. Termal shakllanishning birinchi bosqichi kompleks birikma tarkibida koordinatsiyalangan suv molekularining endotermik chiqib ketishi 160°C gacha sodir bo`ldi. Keyingi bosqichlarda HI ning hosil bo`lishi va ligandimizning parchalanishi sodir bo`ladi. Bu jarayon boshida DTA chizig`ida endotermik ta`sir yodid anionidan vodorod yodid shakllanishi

natijasida sodir bo`ldi. Bu jarayonning keyingi bosqichida ekzotermik effekt ham 280-360°C oraliqda yuqoridagi jarayon bilan birgalikda ko`rindi. Analiz davom ettirilish bilan birikma tarkibida qolgan organik qismlar parchalanishi va kadmii oksidi hosil bo`lishi DTA chizig`ida endotermik jarayonlar hosil bo`lishi bilan davom etdi. 507°C va 730°C da endotermik jarayon ko`zatildi. 730°C dagi endotermik jarayon CdO ning hosil bo`lishi bilan tushuntirishimiz mumkin.



1-rasm. Kompleks birikmaning derivatogrammasi

Xulosa. Termal parchalanish olingan yangi kompleks birikmamiz tarkibidagi koordinatsiyalangan suv molekularining tabiati, kompleks birikmaning tuzilishi va termik barqarorlik intervallari haqida ma`lumot berdi. Tarkibida yod atomi tutgan birikma DTA chizig`ida endotermik jarayon vodorod yodid hosil bo`lishi bilan borar ekan. Kompleksning parchalanishi CdO hosil bo`lishi bilan tugadi. Termoliz mahsuloti sifatidah Hosil bo`lgan kadmii oksidning massasi namuna massasining 21,2 % ni tashkil qildi. Olingan qiymat kompleksning tarkibiy qismi quyidagicha bo`lishini tasdiqlaydi Cd:L:I:H₂O, (1:2:1:4)

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Abdel-Megeed AM, Abdel-Rahman HM, Alkaramany G-ES, El-Gendy MA. Design, synthesis and molecular modeling study of acylated 1,2,4-triazole-3-acetates with potential anti-inflammatory activity. Eur J Med Chem. 2009;44:117–23.
2. Zhan P, Chen X, Li X, Li D, Tian Y, Chen W, Pannecouque C, De Clercq E, Liu X. Arylazolythioacetanilide. Part 8q: design, synthesis and biological evaluation of novel 2-(2-(2,4-Dichlorophenyl)-2H-1,2,4-triazol-3-ylthio)-N-arylacetamides as potent HIV-1 inhibitors. Eur J Med Chem. 2011;46:539–45.
3. Ma L, Lu L, Zhu M, Wang Qingming, Li Y, Xing S, Fu X, Gao Z, Dong Y. Mononuclear copper(II) complexes with 3,5-substituted-4-salicylidene-amino-3,5-dimethyl-1,2,4-triazole: synthesis, structure and potent inhibition of protein tyrosine phosphatases. Dalton Trans. 2011;40:6532–40.
4. Bertini I, Gray HB, Stiefel EI, Selverstone Valentine J. Biological inorganic chemistry structure and reactivity. Sausalito: University Science Books; 2007.

Zn(II) NING 8-OKSIXINOLIN BILAN ARALASH LIGANDLI KOMPLEKS BIRIKMASINING IQ-SPEKTRI NATIJALARI

¹Muqumova G.J., ²Karimova N.J., ²Abdullayeva N.S., ²Xaydarova Z.E.
¹k.f.n. dotsent, ²magistrant, Termiz davlat universiteti

Annotatsiya: Maqolada 8- oksixinolin bilan Zn(II) ionining aralash ligandli kompleks birikmasi sintezi va sintez sharoiti va organik ligandning fizik-kimyoviy xossalari, kompleks birikmaning IQ tahlili o`rganildi.

Kalit so`zlar: 8- oksixinolin, rux sulfat, etilendiamin, infraqizil spektr, geterilkarbon kislotalar, stimulyatorlar va fungitsidlar, biometallar

Hozirgi kunda jahonda yuqori biofaol aril-, geterilkarbon kislotalar va ularning metallokomplekslari orasida yuqori samarali stimulyatorlar va fungitsidlar mavjud bo'lib, ulardan keng miqyosida foydalanilmoqda.

Biometallar va ularning bioligandlar bilan kompleks birikmalarining biologik vazifalari, boshqacha aytganda ularning tirik organizmdagi roli anchadan buyon jadal o'rganilib kelinmoqda [1; 2; 3;]. Biometallarning o'ziga xos xususiyatlari bor, ularning asosiy qismi komplekslar hosil qilish qobiliyatidir. Biometallarning tirik organizmdagi roli hamda ko'plab bioligandlar bilan komplekslar hosil qilishidan go'yoki o'zini "hayot tashkilotchilari"dek namoyon etadi

Rux ko'pchilik fermentlar tarkibiga kiradi, u o'simliklarda xlorofillning hosil bo'lishida ishtirok etadi, vitaminlar sintezini amalga oshiradi. Rux o'simliklar organizmida kechadigan oksidlanish-qaytarilish jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. Uning yetishmovchiligida fosfor almashinuvi buziladi: noorganik (anorganik) fosfat miqdori ortadi, uning organik formalarga aylanishi sekinlashadi, bu o'simlik barglarida xlorotik dog'lar hosil bo'lib, och yashil ba'zi o'simliklarda hattoki oq tusga kirishiga olib keladi. Tabiatda rux birdan-bir barqaror Zn^{2+} ioni shaklida mavjud [4; 5;]. Birinchi bo'lib, bu metallning biologik tizimlardagi roli XXI asrda *Aspergillus niger* mog'or zamburug'i uchun muhim komponent sifatida ajratib olingan. Hozirgi vaqtgacha to'plangan ma'lumotlarga asoslanib ta'kidlash mumkin-ki, rux tirik organizmlardagi fiziologik funksiyalarni amalga oshirishda muhim element hisoblanadi. Odam organizmi to'qimalarida ruxning o'rtacha miqdori 2-3 g atrofida bo'lib, u asosan oqsillar bilan bog'langan ko'rinishida bo'ladi. Odam umumiy genomining taxminan 10% genlarini ruxni biriktirishga qodir oqsillar kodlaydi. Hozirgi vaqtda 300 dan ortiq metalloenzim hamda transkripsiyaning 2000 ta faktori ishlashi uchun rux talab qilinishi aniqlangan.

Jumladan Zn(II) ning 8-oksixinolin bilan hosil qilgan aralash ligandli kompleks birikmasi ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. 8-oksixinolin - rangsiz, o'ziga xos hidli kristall modda. Molekulyar massasi-145,15, suyuqlanish harorati 75—76 °C, qaynash harorati 266,6 °C. Spirt, atseton, xloroform, benzol, kislota va ishqorlarda eriydi, suvda va efirda erimaydi. 40 dan ortiq kimyoviy elementlarni (mas, mass-spektromerik usulda mis, rux, magniy va boshqalar) ajratish va aniqlashda, alyuminiy, rux, vanadiy kabi elementlarni kolorimetrik aniqlashda qo'llanadi. Ba'zi hosilalari fungitsidlar va antiseptiklar sifatida ishlatiladi hamda 8-gidroksixinolinning suvli eritmalarida yomon eriydigan ko'plab metall kationlari bilan intrakompleks tuzlari (xelatlar) hosil qiladi. Masalan, $Mg(C_9H_6ON)_2$, $Al(C_9H_6ON)_3$, ketma-ket Al, Zn, Cd, Mg kabi metallarni aniqlash va ajratish uchun amalda qo'llaniladi.

Ushbu 8-gidroksixinolin va uning hosilalarining metall komplekslari optoelektronik funktsional materiallarning muhim turiga kiradi. Misol uchun $Al(C_9H_6ON)_3$ ning elektroluminesansiyasi xossasi mavjudligi 1987 yilda aniqlangan. [6; 7;].

Metall komplekslarini sintez qilishning odatda ikkita usuli mavjud. Xususan 8-gidroksixinolin uchun: qattiq fazali kimyoviy reaksiya va suyuq fazali usul.

Qattiq fazali usul oddiy va yuqori massa uchun qulay hisoblanadi bunda ishlab chiqarishda metallardan samarali foydalanish imkonini beradi. Ammo hosil bo'lgan mahsulotlarbarqororligi past turg'un xususiyatlarga ega, keyinchalik esa bunday moddalarda emissiyalar paydo bo'ladi, biroz vaqt o'tgandan so'ng bu emissiyalar zaiflashadi [8; 9;].


Suyuq fazali usulda olish yuqori toza mahsulotlar imkonini beradi, lekin tajriba jarayoni biroz mashaqqatli va ko'p vaqt talab etadi [10;]. 8-gidroksixinolinning metall komplekslari

qattiq fazali va suyuq fazali usullar bilan olinishi kerak. Optoelektronik qurilmalarda tekshirilishdan oldin vakuumli bug'lanish orqali tozalanadi bu esa ishlab chiqarish tannarxini sezilarli darajada oshiradi.

Taqqiqot ishi mobaynida Zn(II) inoni bilan 8-oksixinolinning kompleks birikmasi suyuq fazali muhitda monokristallari olindi. $[Zn(C_9H_6NO)2(C_2H_4(NH_2)_2)]$ kompleks birikmasini sintez qilish uchun analitik tarozida kerakli massalari 1:2 molyar nisbatda mos ravishda $ZnSO_4 \cdot 7H_2O$ kristallogidratidan 19.79 mg 8-oksixinolinidan 40 mg tortib olinib tegishli etanol+suvda aralashtirildi, keyin 30 daqiqa davomida 60°C haroratda magnitli aralashtirgich yordamida

aralastirildi. Eritma 7 kun davomida xona haroratida ochiq holatda saqlanadi, eritma erituvchilarining bug‘lanishi hisobiga rentgen tahliliga yaroqli yashil blokka o‘xshash kristallari olindi, olingan kompleks filtirlanib yuvildi. Kompleksning formulasi (1-rasm) va IQ yutilish spektrlarida tebranish chastotalari keltirib o‘tilgan (1-jadval).

1-rasm. Rux(II)ning etilendiamin va 8-oksixinolin bilan hosil qilgan koordinatsion birikmasi formulasi.



1-jadval

8-oksixinolin va uning Zn(II) ioni bilan hosil qilgan kompleks birikmasining IQ yutilish spektrida tebranish chastotalari

8-oksixinolin C ₉ H ₇ NO	Zn(C ₉ H ₆ NO) ₂	Guruh
1058 (1100-1000)	1068	δC-H c.
896 (900-670)	856	δC-H c
709,80 710	667	δC-H c.
1577 (1650-1580)	1602,85	Cp
1577 (1580-1550)	1573	Cπ
3219.19	3257.77	(Ar) =C-H
1433.11	1421.54	CH ₂

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mohamed M.M., Shoukry M.M. Interaction of diphenyltin(IV) dichloride with some selected bioligands // Chem Pharm Bull (Tokyo). -2001. -№49(3). –P. 253-257.
2. Daniele S., Katalin V., Sarolta T., Giovanni M., Eugenio G. VO²⁺ Complexation by Bioligands Showing Keto–Enol Tautomerism: A Potentiometric, Spectroscopic, and Computational Study // Inorg. Chem. -2011. -№50(20). –P. 10328–10341.
3. Frost L., Osman A., Geipel G., Viehweger K., Moll H., Bernhard G. The Interaction of U(VI) with Some Bioligands or the Influence of Different Functional Groups on Complex Formation // The New Uranium Mining Boom. -2011. –P. 595-606.
4. Rink L. Zinc and the immune system // Proc. Nutr. Soc.-2000. –V.59. –P. 541–552.
5. MacDonald R.S. The role of zinc in growth and cell proliferation // J. Nutr. -2000. –V.130. –P. 1500–1508.
6. F. Bray, J. Ferlay, I. Soerjomataram, R.L. Siegel, L.A. Torre, A. Jemal, CA-Cancer J. Clin. 68 (2018) 394–424.
7. Advancing Cancer Therapy, Nat. Can. 2 (2021) 245–246.

8. D.H. Li, Ultrasonication solid state chemical reaction synthesis and characterization of nanocrystalline Zn(Oxin)2·2H2O (zinc 8-quinolinolate), T. Nonferr. Metal. Soc. 16 (2006) s388–s392.
9. B. Mellah, D. Sall, I. Msaddak, Ezzedine Srasra, Intercalation of 8-hydroxyquinoline into Na(I)- and Zn(II)-Tunisian montmorillonites: characterization and luminescence properties of elaborated hybrids, J Incl. Phenom. Macro 94 (2019) 309–318. [10] Q.S. Wang, Y.F. Zhang, T. Hu, X.Y. Jing, C.G. Meng, In situ preparation and optical properties of metal-8-hydroxyquinoline decoration of layered silicate: Self-assembly in the magadiite interface by solid-solid reaction, Micropor. Mesopor. Mater. 246 (2017) 102–113. [11] Y.L. Cao, J.D. Hu, R.F. Wang, D.Z. Jia, Room-temperature solid-state synthesis and fluorescence performance of 8-hydroxyquinoline-based nanomaterial complexes with different morphology, J. Lumin. 190 (2017) 429–435.
10. J.H. Tan, X.Y. Li, Y.Y. Zhan, J.W. Xiong, X.H. Lv, C.Q. Pan, Y.P. Huo, Organic solvents-soluble zinc(II) and cadmium(II) complexes based on 2-aryl substituted-8- hydroxyquinoline: Synthesis, crystal structures, photoluminescence, thermal and theoretical studies, Polyhedron 155(2018)398-406. [13] S.T. Wu, X.M. Zhong, H.Z. Zeng, W. You, W. Zhou, Study on green synthesis and properties of luminescent material bis(8-hydroxyquinoline) calcium (CaQ2), J. Lumin. 195 (2018) 120–125.

ДЕРИВАТОГРАФИЧЕСКИЙ ИССЛЕДОВАНИЕ КООРДИНАЦИОННОГО СОЕДИНЕНИЯ СУКЦИНАТА МЕДЬ И ЦИНКА С МОНОМЕТИЛОЛКАРБАМИДОМ

¹Мукумова Г.Ж., ²Зарипова Р.Ш., ³Муминова Ш.Н., ⁴Рашидова Г.Э., ⁵Каримова Н.Ж., ⁵Абдуллаева Н.С.

¹к.х.н., доцент, ²к.х.н., ³ст. преп., ⁴преп, ⁵магистрант,

^{1,3,4}Термезский государственный университет

²Ташкентский Фармацевтический институт

Аннотация: Определены термические характеристики в образующихся координационных соединениях дериватографическим методом и установлена их термическая устойчивость.

Ключевые слова: координационные соединения, монометилкарбамид, сукцинат металлов, дериватографический анализ, термическая устойчивость, донорные атомы, янтарной кислоты,

Амиды карбоновых кислот, в частности карбамид (К), монометилкарбамид (ММК) дианион которые в своем составе содержат, способствуют образованию координационных соединений с ионами металлов.

Дериватографические данные термолитического разложения комплексных соединений приведены в табл.1. Анализ термического поведения соединений показывает, что все комплексы содержат молекулы воды, причем температура удаления последних значительно отличается друг от друга, что говорит в пользу неравноценного связывания их в структуре. Конечными продуктами термолитического разложения комплексов меди и цинка являются оксиды металлов.

Таблица 1

Дериватографические данные термолитического разложения комплексных соединений

Соединение	Температурный интервал эффекта, °С	Пик эффекта, °С	Убыль массы, %	Природа эффекта, °С	Образующийся соединения
I	58-107	105	8,75	Эндотермический	IV - 2H ₂ O
	107-160	118	4,35	Эндотермический	IV - 3H ₂ O Эндотерм

				мический	
	160-23	228	16,11	Эндотер-мический	Продукт термолиза III - 3H ₂ O
	230-250	237	15,55		Продукт термолиза III - 3H ₂ O
	250-405	370	21,11		Продукт термолиза III - 3H ₂ O
	405-580	530	12,78	Эндотер-мический	CuO
II	90-130	118	2,35	Эндотер-мический	V – 0,5H ₂ O
	130-170	135	4,63	Эндотер-мический	V – 1,5H ₂ O
	170-340	210 245	32,46	Эндотер-мический	Продукт термолиза V–1,5H ₂ O
	340-420	400	5,34		Продукт термолиза V–1,5H ₂ O
	420-500	475	19,37	Экзотер-мический	Продукт термолиза V–1,5H ₂ O
	500-575	535	11,00	Экзотер-мический	ZnO

На основании совокупности данных можно предположить, что комплексы имеют полимерное строение с октаэдрическими окружениями центральных ионов. [2,3,4].

Закключение. Сукцинатный дианион в зависимости от состава комплексов проявляя себя би-или тетраденальным с мостовым способом координации. Молекула ММК в комплексе меда (II) и цинка (II) выступает в роли монодентатного лиганда, координируясь через атом кислорода карбонильной группы. Комплексы ММК разлагаются со ступенчатым удалением органического лиганда. Стабильность термолиза соединений существенно зависит от способа координации амидолигандов, центрального иона и характера строения. Показано, что деаквации соединений сопровождается повышением дентатности сукцинатного дианиона.

Список литературы

1. Мукимова Г.Ж. Синтез и исследование координационных соединений сукцинатов некоторых 3d- металлов с амидами. Автореф. дис... канд. хим. Наук.Ташкент. 1999. с.35-38
2. Набиев М.Н., Азизов Т.А., Шарипов Х.Т., Беглов Б.М., Усманов С. О комплексных соединениях монометилкарбамида с ацетатами металлов //Коорд.химия.-1988.-Т.4.-N2. - С.198-204.
3. Цинцадзе Г.В. , Цинцивадзе Т.В. , Орбеладзе Ф.В., Самсонадзе Л.А. Предварительные рентгеноструктурные исследования кристаллов некоторых комплексных соединения с XCN- группами (X=O,S,Se) . //Журн. Структ.химии. -1975. –Т. 16. N 2.0 –С. 315-318.
4. Азизов Т.А., Махмудов Ж. У., Шарипов Х.Т., Усманов С., Беглов Б.М. Комплексные соединения монометилкарбамида с формиатами некоторых металлов.-Ташкент.-1990.-16 с.Деп. в ВИНТИ 27.11.90.-N 592-B90.

ИЗУЧЕНИЕ МИКРОСТРУКТУРЫ РАЗНОЛИГАНДНЫХ КОМПЛЕКСНЫХ СОЕДИНЕНИЙ НИКЕЛИ (II) С ПРИЗВОДНЫМИ 2-МЕРКАПТОБЕНЗТИАЗОЛА

¹Сиддикова К.Т., ²Даминова Ш.Ш.

¹Каршинский инженерно-экономический институт

²Национальный университет Узбекистана им. М.Улугбека

Аннотация: В статье представлены результаты изучения реакций комплексов никели (II) с производными 2-меркаптобензтиазола. Строение полученных комплексных соединений никели (II) нами были изучены SEM с EDX и ИК-спектроскопия полученных комплексных соединений.

Ключевые слова: 2-меркаптобензтиазола, ИК-спектроскопия, SEM-анализа, лиганд, сера, азота.

Методы сканирующей электронной микроскопии (SEM) для анализа материалов нашли широкое применение в решении конкретных научных и технологических задач вследствие их высокой информативности и достоверности получаемых результатов исследования [1-2]. Известно, что физикомеханические свойства материалов определяются их микроструктурой, которая зависит от электронного строения, химического состава и технологии их получения. Сканирующий электрон микроскоп, предназначенный для получения изображения поверхности объекта с высоким (до 0,4 нанометра) пространственным разрешением, также информации о составе, строении и некоторых других свойствах приповерхностных слоёв.

Целью данной работы является определение микроструктуры и элементного состава комплексов никели (II) с производными 2-меркаптобензтиазола. Для получения информации о микроструктуру полученных комплексных соединений никели (II) нами были изучены SEM с EDX и ИК-спектроскопия полученных комплексных соединений. ИК-спектры лигандов снимали на ИК- спектрофотометре марки «Spectrum Two» (Perkin Elmer, США) (рис.1). Исследования проводились на сканирующем электронном микроскопе JSM-IT200LA фирмы JEOL (Япония) (рис.2). В качестве органических лигандов использовали 2-меркаптобензтиазол (L¹), 2-метилтиобензтиазол (L²), 2-этилтиобензтиазол (L³).




Рис. 1. ИК-спектры лигандов [L₁]

В ИК-спектрах лигандов имеются ряд интенсивных полос, положение которых мало зависит от замены радикала. Сюда относятся полосы, связанные с присутствием группы $\nu(\text{NH})$ (3069 см^{-1}), $\nu(\text{CH})$ (3051 см^{-1}), $\nu(\text{CN})$ ($1307\text{-}1232 \text{ см}^{-1}$), а полоса $\nu(\text{C}=\text{N})$ гетероароматической системы находятся $1455\text{-}1526 \text{ см}^{-1}$. Наличие асимметричной полосы с максимумом при $665\text{-}675 \text{ см}^{-1}$ связано с колебаниями C-S группы. Анализ ИК-спектров комплексов показывает, что при координации лигандов с ионами никели спектры поглощения C-S уменьшаются на $20\text{-}30 \text{ см}^{-1}$, а спектры поглощения C=N группы уменьшается на $10\text{-}23 \text{ см}^{-1}$. После комплексообразования с ионами никели происходит смещение характеристических частот $\nu(\text{C}=\text{N})$ и $\nu(\text{C}=\text{S})$ в низкочастотную область за счет образования координационной связи между металлом и лигандом. Понижение частот $\nu(\text{C}=\text{N})$ и $\nu(\text{C}=\text{S})$ в

комплексе по сравнению со свободным лигандом говорит о координации металла через атомы серы и гетероциклического атома азота. L^1 , L^2 , L^3 выступает как бидентатный лиганд: координируется к металлу через атомы серы и азота с образованием четырехчленного хелатного цикла.

На основании данных SEM и энергодисперсионного анализа можно заключить, что комплексообразование ионов никели с органическими лигандами приводит к изменению микроструктуры лигандов, в частности, на поверхности комплексов зафиксированы многочисленные функциональные группы, что подтверждено EDX (рис. 1). Также на поверхности гранулы появляется отчетливый пик металла никели, что подтверждает комплексообразованию никели с органическими лигандами.




Рис.2. Микроструктура комплексного соединения $[NiL_1]$ и данные ЭДА

Список литературы

1. Гоулдстейн, Дж. Растровая электронная микроскопия и рентгеновский микроанализ: в 2 т. / Дж. Гоулдстейн, Д. Ньюбери, П. Эчлин и др. – М.: Мир, 1984.
2. Weilie Zhou. Scanning Microscopy for Nanotechnology (Techniques and Applications) / Weilie Zhou (Ed.) Zhong Lin Wang (Ed.) Springer. 2006. 522 p.

2,4-DIOKSOPENTAN KISLOTA ETIL EFIRINING 4-DIMETILAMINOBENZOIL GIDRAZONI SINTEZI, KRISTALL TUZILISHI, XIRSHFELD SIRT TAHLILI

Sevinchova D.N., Tursunov M.A., Umarov B.B.


Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: 1,3-ketoefir, ular hosilalarining atsilgidrazoni tarkibi va tuzilishi element tahlil, IQ, 1H -YaMR va RSA kabi zamonaviy tadqiqot usullari yordamida tadqiq qilindi.

Kalit so'zlar: 1,3-ketoefir, 1,3-diketon, asilgidrazon, IQ, 1H -YaMR spektroskopiya, kristall tuzilishi va Hirshfeld sirt tahlili, gidrazon, yengidrazi, halqali 5-gidroksi-2-gidroksipirazolin, halqali-zanjir tautomer shak.

1,3-diketonlarning asil- va benzoilgidrazonlar tautomer muvozanat hosil qilish qobiliyatiga ko'ra juda qiziqarli birikmalar bo'lib, ularga olimlarning qiziqishi doimiy ravishda ortib bormoqda. ^1H -YaMR spektroskopiya ma'lumotlariga ko'ra erkin 2,4-dioksopentanoik kislotaning etil efiri keto-yenol shaklida bo'ladi. Asilgidrazonlar nozik tuzilishiga qiziqish, birinchi navbatda, ular turli tautomer shakllarda bo'lish qobiliyatiga ega. 1,3-diketonlarning asilgidrazonlar qatoridagi dikarbonil komponentining strukturaviy xususiyatlariga qarab, chiziqli (gidrazon, yengidrazin) va halqali 5-gidroksi-2-gidroksipirazolin tautomer shakllari o'rtasida uch halqali-zanjir muvozanatini kuzatish mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, 1,3-ketoeifirlar va 1,3-ketoaldegid hosilalarining atsilgidrazonlari uchun juft prototropik muvozanat kuzatilgan. Biz 2,4-dioksopentan kislota etil efirining *para*-almashingan aromatik kislota gidrazidlari bilan kondensatsiyalanish mahsulotlarining tuzilishini o'rgandik. Bu yerda 2,4-dioksopentan kislota etil efirining 4-dimetilaminobenzoil gidrazoni sintezi, kristall tuzilishi va Hirshfeld sirt tahlili qilindi.

2,4-dioksopentan kislota etil efiri 4-dimetilaminobenzoilgidrazonining tarkibi va tuzilishi elementar tahlil, IQ va ^1H -YaMR spektroskopiyasi usullari orqali tadqiq qilindi. Sintez qilingan ligand monokristali rentgenstruktur analiz usuli bilan o'rganildi. Shunday qilib, IQ, ^1H -YaMR va rentgenstruktur tadqiqotlar natijasiga binoan qattiq holatda sintez qilingan ligand pirazolin halqasi tuzilishiga ega ekanligidan ma'lumot beradi.



Kristall tuzilishida organik molekularlar molekulararo O–H \cdots O, C–H \cdots O vodorod bog'lari hamda 3D kristall tuzilmalarini hosil qiluvchi C–H \cdots p va p–p o'zaro ta'sirlari bilan bog'langan hamda kristall panjaraning barqarorligini ta'minlaydi. Xirshfeld sirt tahlili shuni ko'rsatadiki, kristall panjaraning eng muhim hissasi H \cdots H (58,2%), H \cdots O/O \cdots H (19,5%) va H \cdots C/C \cdots H (14,9%) o'zaro ta'siridan yuzaga keladi.

1-rasm. 2,4-dioksopentan kislota etil efir 4-dimetilaminobenzoil gidrazoni molekulyar tuzilishi

Energiya tizimi hisob-kitoblari dispersiya energiyasining muhim hissasini ochib beradi. Hisoblangan eng yuqori egallangan molekulyar orbital va eng past band bo'lmagan molekulyar orbital energiya bo'shlig'i qiymati 4,522 eV ni tashkil qiladi.

Kristal strukturasi aniqlash uchun ma'lumotlar Oksford diffraksiyon Xcalibur-R CCD diffraktometrida (CuK α -nurlanish, = 1,54184 Å, (\bar{o} -skanerlash rejimi, grafit monoxromatori (293K da)) to'plangan. Struktura dastur yordamida hal qilindi va takomillashtirildi. SHELXT2014/5 va SHELXL2016/6 paketlari dan foydalanildi. Vodorod bo'lmagan barcha atomlar anizotrop usulda tozalandi. Vodorod atomlari hisoblangan pozitsiyalarga joylashtirildi va izotropik termal parametrlar bilan cheklendi. Molekulyar chizmalar MERCURY dasturi to'plami [12stall] tomonidan chizildi. Kristallografik ma'lumotlar Kembrij kristallografik ma'lumotlar markaziga (depozit raqami 2173511) saqlangan. Ma'lumotlarni <http://www.ccdc.cam.ac> orqali bepul olish mumkin. [uk/conts/retrieving.html](http://www.ccdc.cam.ac) yoki Kembrij Kristallografik ma'lumotlar markazidan, 12 Union Road, Cambridge CB2 IEZ, Buyuk Britaniya; faks: (+44) 1223-336-033; yoki elektron pochta: deposit@ccdc.cam.ac.uk.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Турсунов М.А. Комплексы некоторых 3d-металлов на основе производных кетоальдегидов и кетозфиров, их строение и свойства. Дис... PhD по специальности 02.00.01–Неорганическая химия. Бухара.-БухГУ.-2019.-120 с.
2. Умаров Б.Б., Аvezов К.Г., Турсунов М.А., Севинчов Н.Г., Парпиев Н.А. Синтез и кристаллическая структура комплекса никеля (II) на основе бензоилгидразонов 2-трифторацетилциклоалканонов. Координационная химия 40 (7), 415-415.
3. Tursunov M.A., Umarov B.B., Abdiyev B.S., Ganiyev B.S. Synthesis, IR, ^1H NMR spectroscopy and X-RAY diffraction analysis of benzoylacetate aroylhydrazones. Elementary Education Online 20 (5), 7246-7246.

4. Авезов К.Г., Умаров Б.Б. Комплексы меди(II) на основе бензоилгидразонов ароилтрифторацетилметанов: синтез, ИК, ЭПР спектроскопия и РСА. *Universum: химия и биология*, С. 39-44.
5. Умаров Б.Б., Авезов К.Г., Турсунов М.А. Строение и таутомерия ацилгидразонов формилпинаколина. *Бухоро давлат университети илмий ахбороти*, Б. 22-28.
6. Avezov K.G., Umarov B.B., Tursunov M.A., Minin V.V., Parpiev N.A. Copper(II) complexes based on 2-thenoyltrifluoroacetone aroyl hydrazones: Synthesis, spectroscopy, and X-ray diffraction analysis. *Russian Journal of Coordination Chemistry* 42 (7), 470-475.
7. Umarov B., Ergashov M., Tursunov M., Karomatov S. Learning with EPR and IR-A structure of the copper(II) in formylpinacoline and benzoylacetic aldehyde aroyilhydrazones *Scientific Bulletin of Namangan State University* 1 (1), 37-43.
8. T.M. Amonovich, S.D. Nematovna, A.K. Giyasovich, U.B. Bafayevich. Synthesis and ESR Spectroscopy Complexes of Copper(II) with Acyl-and Aroylhydrazones of Methyl Ester of 5,5-Dimethyl-2,4-Dioxohexanoic Acid. *American Journal of Heterocyclic Chemistry* 6 (2), 24-29.

2,4-ДИОКСОПЕНТАН КИСЛОТА ЭТИЛ ЭФИРИ ПАРА-АЛМАШИНГАН АРОИЛГИДРАЗОНЛАРИ СИНТЕЗИ ВА ТУЗИЛИШИ

¹Севинчова Д.Н., ²Умаров Б.Б., ³Амонов М.М.

¹Ўқитувчиси, ²к.ф.д.оқтори, проф., ³талаба.

¹Бухоро тиббиёт институти,

^{2,3}Бухоро давлат университети,

***Аннотация:** Кетоальдегид ва кетоэфирларнинг азотли ҳосилалари, уларнинг синтези, таутомерияси ва комплекс ҳосил қилувчи қобилияти ҳақидаги маълумотлар тўлиқ эмас, мавҳумлигича қолиб кетмоқда, бу эса алоҳида диққатни талаб этади. Натижада комплекслар молекулаларининг электрон ва фазовий тузилишларини ўрганиш оқибатида анча мураккаб тузилишдаги кимёвий бирикмаларнинг “таркиб-тузилиш-хосса” боғлиқлиги сабабларини аниқлашга имкон яратди. Мақолада 2,4-диоксопентан кислота этил эфирининг пара-алмашинган ацилгидразонларининг турли эритувчилардаги тузилиши ва таутомерияси ўрганилган.*


***Калит сўзлар:** кетоэфирлар ацилгидразонлари, бензоилгидразон, β-дикетон, таутомерия, гидразон шакл, енгидразин шакл, пирозолин шакл.*

Кетоэфирлардан 1,3-дикарбонил бирикмаларнинг ҳосилалари прототроп, ҳалқа-занжир ва ҳалқа-ҳалқа мувозанатларни ўрганиш нуқтаи назаридан истиқболли объектлар ҳисобланади. Бу ҳолат мазкур ишда нуклеофиллар сифатида ацилгидразинларни танланди.

Диалкилоксалатлар ва тегишли метилкетонларнинг ўзаро таъсирдан 2,4-диоксокарбон кислоталарнинг этил эфирлари (I) олинди. ПМР спектроскопия маълумотларига мувофиқ, олинган намуна – 2,4-диоксопентан кислотанинг этил эфири кето-енол таутомер шаклда мавжуд бўлади. Бу ҳақда мураккаб эфир фрагментидаги этил радикали метил (СН₃-) ва метилен (СН₂-) гуруҳлари протонларининг δ 2,26 ва 4,36 м.х. да триплет ҳамда квадруплет кўринишдаги сигналлари маълумот беради, карбонил гуруҳдаги СН₃-гуруҳнинг 3 та протонлари сигнали δ 1,30 м.х. да қайд қилинди. Винил ва гидроксил гуруҳлар протонларининг сигнали δ 6,37 ва 7,28 м.х.да кузатилиб, улар хелат ички молекуляр водород боғнинг ҳосил қилади.


2,4-диоксопентан кислота этил эфирининг пара-алмашинган ароматик кислоталар гидразидлари билан конденсатланиш маҳсулотларининг тузилиши ўрганилди. ПМР спектроскопия маълумотларига кўра, эркин 1,3-кетоэфир, айнан 2,4-диоксопентан кислотанинг этил эфири кето-енол шаклда мавжуд бўлади. Кетоэфир асосида олинган

ацилгидразонларнинг ($H_2L^1 - H_2L^3$) таркиби ва тузилиши элемент анализ, ИҚ- ва ПМР спектроскопия усуллари билан аниқланди: $X = H (H_2L^1)$, $NO_2 (H_2L^2)$, $(CH_3)_2N (H_2L^3)$.



$H_2L^1-H_2L^3$ бирикмалар молекуласи β -дикетон қисмининг мураккаб эфир фрагментидаги этил гуруҳнинг $C=O$ боғ валент тебранишлари чизиқлари $1750-1765\text{ см}^{-1}$ да кузатилади. Бу бирикмаларнинг ИҚ спектрлари учун $\sim 3400\text{ см}^{-1}$ $\nu(O-H)$ соҳада валент тебранишларнинг кенг чизиғи характерли ҳисобланади, амидли фрагментнинг валент тебранишлари ютилиш чизиғи $1660-1680\text{ см}^{-1}$ да қайд қилинади. 1633 см^{-1} даги ютилиш чизиғи $C=N$ боғнинг мавжудлигини кўрсатади, қолган ютилиш чизиқлари ароматик халқанинг боғларига ва $N-H$ боғнинг деформацион тебранишларига тегишли. ИҚ спектрларнинг таҳлили шундан далолат берадики, синтез қилинган $H_2L^1-H_2L^3$ бирикмалар қаттиқ ҳолатда халқали 5-гидрокси-2-пиразолин таутомер (В) шаклда мавжуд бўлади.

H_2L^3 лиганднинг $C_{16}H_{21}N_3O_4$ кристаллари моноклин ҳисобланади ва элементар ячейканинг қуйидаги параметрларига эга бўлади: $a=7,9240(11)$, $b=8,2192(9)$, $c=13,987(2)$, $\alpha=81,081(12)$, $\beta=81,939(12)$, $\gamma=62,199(13)^\circ$, $V=1715,2(15)\text{ \AA}^3$, $Z=2$, пр.гр. P-1. 1-расмда халқали 5-гидрокси-2-пиразолин (В) шаклга эга бўлган лигандлар молекуласининг тузилиш схемаси кўрсатилган. Ҳар бир лиганднинг кристалл панжарасида иккита мустақил А ва Б молекулалар бор. C(1)C(2)C(3)N(2)N(1) атомларидан тшқил топган беш аъзоли гетероциклик пиразолин халқалар ва молекуланинг ацил қисмидаги бензол халқалари деярли ясси бўлади.



1-расм. 2,4-Диоксопентан кислота этил эфири *para*-диметиламинобензоилгидразон молекуляр структураси ва молекулалараро водород боғнинг ҳосил бўлиши.

Гетероцикллар теқислигидан атомларнинг максимал четланиши H_2L^1 ва H_2L^3 учун тегишлича $0,0022-0,011\text{ \AA}$ ва $0,0036-0,0067\text{ \AA}$ га тенг, фенил халқалар учун эса бу четланиш $0,0095$ ва $0,0067\text{ \AA}$ ни ташқил қилади. Боғлар узунлигининг таҳлили шуни кўрсатадики, молекулада бир нечта қўшбоғлар мавжуд бўлади: $N(2)=C(3)$ $1,28\text{ \AA}$, $O(1)=C(4)$ $1,20\text{ \AA}$ ва $O(4)=C(8)$ $1,28\text{ \AA}$. $O(1)=C(4)$ ва $O(4)=C(8)$ қўшбоғлар орасидаги боғ узунлигининг фарқини қуйидагича тушунтириш мумкин, яъни $O(4)$ кислород атоми ўзининг бўлинмаган р-электрони билан фенил халқанинг ягона π -орбитали р- π -туташ боғланишда иштирок қилади. $O(1)C(4)O(2)$ $125,57^\circ$, $N(2)C(3)C(7)$ $121,8^\circ$ ва $O(4)C(8)C(9)$ $122,04^\circ$ валент бурчакларнинг катталиклари шундан далолат берадики, C(4), C(3) ва C(8) атомлари sp^2 -гибрид ҳолатда бўлади ва ясси-тригонал конфигурацияни ҳосил қилади. Атом бурчакларнинг катталиклари ва атомлараро боғларнинг узунлиги Хюккельнинг ароматлик қоидаси талабларининг бажарилишини кўрсатади. Молекуланинг ўзига хос хусусиятларидан бири шундан иборатки, пиразолин халқада жойлашган C(2) углерод атоми sp^3 -гибрид ҳолатда бўлади ва шунга мувофиқ, C(1)–C(4) ва C(3)–C(7) боғлар гетероциклнинг турли томонларига тетраэдрик бурчакларга тенг катталиқда четга чиқади. H_2L^3 молекуласида бензоилгидразид қолдиқнинг фенил халқаси пиразолин халқага нисбатан фазода $45,66^\circ$ га буралган бўлади. Молекуладаги

β -дикетон қисмининг мураккаб эфир гуруҳи ва оксипиразолин халқа орасидаги бурчак 136,42° га тенг ва улар битта текисликнинг чегарасида ётмайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Турсунов М.А. Комплексы некоторых 3d-металлов на основе производных кетоальдегидов и кетозэфиров, их строение и свойства. Дис... PhD по специальности 02.00.01–Неорганическая химия. Бухара.-БухГУ.-2019.-120 с.
2. Умаров Б.Б., Авезов К.Г., Турсунов М.А., Севинчов Н.Г., Парпиев Н.А. Синтез и кристаллическая структура комплекса никеля (II) на основе бензоилгидразонов 2-трифторацетилциклоалканонов. Координационная химия 40 (7), 415-415.
3. Tursunov M.A., Umarov B.B., Abdiyev B.S., Ganiyev B.S. Synthesis, IR, ¹H NMR spectroscopy and X-RAY diffraction analysis of benzoylacetic aldehyde aroylhydrazones. Elementary Education Online 20 (5), 7246-7246.
4. Авезов К.Г., Умаров Б.Б. Комплексы меди(II) на основе бензоилгидразонов ароилтрифторацетилметанов: синтез, ИК, ЭПР спектроскопия и РСА. Universum: химия и биология, С. 39-44.
5. Умаров Б.Б., Авезов К.Г., Турсунов М.А. Строение и таутомерия ацилгидразонов формилпинаколина. Бухоро давлат университети илмий ахбороти, Б. 22-28.
6. Avezov K.G., Umarov B.B., Tursunov M.A., Minin V.V., Parpiev N.A. Copper(II) complexes based on 2-thenoyltrifluoroacetone aroyl hydrazones: Synthesis, spectroscopy, and X-ray diffraction analysis. Russian Journal of Coordination Chemistry 42 (7), 470-475.
7. Umarov B., Ergashov M., Tursunov M., Karomatov S. Learning with EPR and IR-A structure of the copper(II) in formylpinacoline and benzoylacetic aldehyde aroyilhydrazones Scientific Bulletin of Namangan State University 1 (1), 37-43.

XINAZOLON-4-ON NITRO KOMPLEKSI SINTEZI VA RENTGEN STRUKTURAVIY TAHLILI

¹Davlatboyev M.O., ²Sattarov T.A., ³Yaqubov U.M., ⁴Ashurov J.M., ⁵Rejapova M.T.

¹PhD doktorant, ²PhD, dots, ⁵Magistrant

^{1,2,5}Namangan davlat universiteti

³O`zR FA O`simlik moddalar kimyosi instituti katta ilmiy xodimi

⁴O`zR FA Bioorganik kimyosi instituti katta ilmiy xodimi

Annottatsiya: Xinazolon-4-on nitro kompleksi sintezining optimal sharoiti o`rganilgan. Sintez qilingan kompleks birikmadan turli sharoitlarda kristall olish jarayoni tadqiq qilingan. Kristallning sturukturasi Olex2-1.5 va Mercury 2021.3.0 dasturiy ta`minotlar yordamida hisoblangan va strukturaning kristall yacheykasida joylashishi o`rganilgan.

Kalit so'zlar: Xinazalin, Xinazolon-4-on, nitro kompleks. RST, a – o`qi, c-o`qi, singoniya, Pbcm fazo, imatinib, lapatinib, erlotinib, afatinib,

Tibbiyot rivojlanishi barobarida kasalliklarning turlari va ko`lami ortib bormoqda. Bu esa ularga qarshi dori vositalarini yetishmovchiligini keltirib chiqarmoqda. Dori vositalarining assortimenti va zaruriy miqdorini ishlab chiqish uchun sintetik dori vositalarini yaratish muammoni bartaraf qilish yo`llaridan biri hisoblanadi. Sintetik dori vositalarining asosiy qismi murakkab funksional guruh tutgan halqali organik birikmalardir. Xinozolin va uning hosilalari ana shunday dorivor hususiyatli moddalar qatoriga kiradi. Uning asosida dori vositalari ishlab chiqarilmoqda. Benzol halqasi bilan kondensirlangan pirimidinlar (xinzolinlar) asosida turli aktiv guruhlar birlashtirish hossalari tufayli ular ustida ko`plab tajribalar o`tkazilib kerakli natijalar olingan. Adabiyotlardan ma'lumki xinozolin va uning hosilalaridan turli xil o`rinbosarlar birlashtirish orqali ko`plab biologik faolliklarga ega dorivor moddalar sintez qilishgan va ular saratonga qarshi,

yallig'lanishga qarshi, antibakterial, analgesia, virusga qarshi, sitotoksinga qarshi, spazmga qarshi, silga qarshi, oksidlanishga qarshi, bezgak, gipertenziyaga qarshi, semizlikka qarshi, antipsikotik, qandli diabetga qarshi va boshqa kasalliklarga qarshi dorivor vositalari ishlab chiqilgan. Biologik faollik hususiyatiga ega organik moddalardan foydalanib ulardan kompleks birikmalar olish biologik faollikni bir necha barobar oshirishi aniqlangan. Shuning uchun dori vositalarini kompleks birikma ko'rinishida ishlab chiqarish dolzarb hisoblanadi.


Xnozalinlar asosida kompleks birikmalarni sintez qilishning maqbul sharoitlarini aniqlash, xinozalinning dorivor hususiyatini bilgan holda kompleks hosil qilish, xususiyatlarini baholash, xinozalinning biologik faollikligini saqlab yoki oshirgan holda yangi kompleks birikmalarini olish ham dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Amaliyotda qo'llanilayotgan xinozalindan tayorlangan dori vositalar tarkibida bir turdagi moddadan ko'ra ikki yoki undan ortiq birikmalarning birgalikdagi ta'siri samarasi yuqori bo'ladi, ya'ni sinergizm kuzatiladi. Shuning uchun tarkibida turli almashingan guruhlar saqlagan xinozalinlarning biofaol komplekslarni sintez qilish va faolligini aniqlash muhim hisoblanadi.

Xinozalin asosidagi dori vositalarning tibbiyotda qo'llanilishini kengaytirishning yo'llaridan biri ularning fiziologik eritmalarda yoki sudagi eruvchanligini oshirish hisoblanadi. Buning uchun ularning nitratli kompleks birikmalarini olish maqsadga muvofiq.


Nitro kompleks sintez qilishda 0,0146 g (0,0001mol) hinazon-4-on 10 ml li tubi yassi flakonda etil spiritda eritildi. Eritmaga 0.0235g (0,0001mol) xrom (III)-nitrat qo'shildi va ultratovushli suv hamomida 40°C haroratda 30 daqiqaga qo'yildi. Hosil bo'lgan mahsulot bir hafta davomida hona haroratida qorong'u joyda saqlandi.

Bugungi kunda kimyo sohasining kompyuter texnologiyalari bilan birlashishi olingan natijalarning matematik modellashtirish natijasida olingan birikmalarning vizuvalashuviga olib kelmoqda. Huddi shunday uskunlardan biri entgenstrukturaviy taxlil (RST) usulida Xinazon-4-on ning nitro guruh bilan vodorod bog'lar hosil qilib birikgan birikmasining kristall strukturasi aniqlandi.




1-rasm. Kristall molekulasining assimetrik yacheykasi (a), kristall taxlanishining fazoviy ko'rinishi (b)

Ushbu modda Monoklinik, $P2_1/c$ fazoviy guruxida kristallanadi. Kristall asimetrik yacheykasi Xinazon-4-on va nitro molekulalardan iborat. Kristalda molekular 001 kristallografik tekislik buyicha vodorod bog'lar orqali bog'lanib yassi qatlamlar hosil qilishi aniqlandi (1-rasm).




2- rasm. Qatlamalar orasidagi vodorod bog`larning ko`rinishi

Har bir qatamlar oralig`ida nitro guruh va hinazon o`zaro vodorod bog`lar hosil qilib birikishi aniqlandi. Vodorod bog`larning bir uchi Xinzolon-4-on molekulasining 4-on holatga birikishi hamda ikkinchi uchi ikkinchi qatlam 2-metilXinzolon-4-on ning 1-holatdagi N (azot) bilan bog` hosil qiladi.(2-rasm) *a* – o`qi bo`yicha ko`rinishida molekulalar alohida alohida bo`lib joylashadi har bir Xinzolon-4-on molekulalri orasida bir donadan nitro guruh vodorod bog` hosil qilib birikgan.(2-rasm)




3- rasm. Kristall struktura taxlanishining *a* – o`qi bo`yicha ko`rinishi (1),
b – o`qi bo`yicha ko`rinishi (2), *c*-o`qi boyicha ko`rinishlari

Xinozolon-4on molekulasi va nitrat ionlari kristall yacheykalarda to`rt donadan bo`lib joylashgan(3-rasm).



4-rasm. Kristallning *a* – o‘qi bo‘yicha vodorod bog‘larini hosil qilish orqali ta‘sirlashuvi

Xinozalon-4-on ning nitro kompleksining molekulyar fo‘rmulasi quyidagicha



Xinazalinlar asosida sintez qilingan dori vositalarinin o‘rganish ularning fizik kimyoviy tahlil qilish yangi hossalarni ochishga sabab bo‘ldi. Xinozalin va uning hosilalarini fizologik eritmada va suvda eruvchan hususiyati ularning qo‘llashda qulaylik yaratadi. Shu sababdan xinozalon-4-on ning suvda eruvchan nitratli kompleksi sintezi muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Davlatboev M.O., Sattarov T.A., Hakimov M.O., Yaqubov U.M., Rejapova M.T. // 2-metilxinozalon-4-on ning akva kompleks sintezi va kristall tuzilishi // NamDU Ilmiy axborotnomasi – 2022-yil 1-maxsus son // 84-97b
2. Chandregowda V, Kush AK, Chandrasekara Reddy G// Synthesis and in vitroantitumor activities of novel 4-anilinoquinazoline derivatives// Eur J MedChem 2009, 44:3046–3055.
3. Alagarsamy V, Solomon VR, Dhanabal K: Synthesis and pharmacologicalevaluation of some 3-phenyl-2-substituted-3H -quinazolin-4-one asanalgesic, anti-inflammatory agents// Bioorg Med Chem 2007// 15:235–241.
4. Baba A, Kawamura N, Makino H, Ohta Y, Taketomi S, Sohda T// Studies on disease-modifying antirheumatic drugs.// synthesis of novel quinoline and quinazoline derivatives and their anti-inflammatory effect1.// J Med Chem1996, 39:5176–5182
5. Rohini R, Muralidhar Reddy P, Shanker K, Hu A, Ravinder V// Antimicrobial study of newly synthesized 6-substituted indolo[1,2-c]quinazolines.// Eur J Med Chem 2010, 45:1200–1205.
6. Chandrika PM, Yakaiah T, Narsaiah B, Sridhar V, Venugopal G, Rao JV, Kumar KP, Murthy USN, Rao ARR: Synthesis leading to novel 2,4,6-trisubstitutedquinazoline derivatives, their antibacterial and cytotoxic activity againstTHP-1, HL-60 and A375 cell lines. Indian J Chem 2009, 48B:840–847.
7. Xcalibur. Oxford diffraction Ltd. CrysAlisPro. Version.1.171.33.44, 2009
8. Computer programs: *SHELXL2018/3* (Sheldrick, 2018)

ДИАЛКИЛ АЛМАШИНГАН ИЗОМЕР 5/6-ХЛОРБЕНЗИМИДАЗОЛЛАРНИНГ КРИСТАЛЛ ТУЗИЛИШИ

¹Охунхўжаева З.Н., ²Жураев Б.Б., ³Элмуратов Б.Ж., ^{4,5}Тургунов К.К., ⁶Тожибоев А.Ғ.

¹Ўзбекистон Миллий университети магистранти

²ЎЗР ФА Ўсимлик моддалари кимёси институти стажёр-тадқиқотчиси

³ЎЗР ФА Ўсимлик моддалари кимёси институти етакчи илмий ходими, к.ф.д.

⁴ЎЗР ФА Ўсимлик моддалари кимёси институти катта илмий ходими, к.ф.н.

⁵Тошкент шаҳридаги Турин политехника университети доценти, к.ф.н.


⁶Геология фанлари университети доценти, к.ф.н.

Аннотация: 1-бутил-2-метил-5-хлорбензимидазол гидрохлорид кристалл тузилиши рентгенструктуравий таҳлил (РСТ) қилиниб, бирикма моноклиник $C2/c$ фазовий гуруҳида кристалланиши ва элементар ячейкасининг асимметрик қисми $C1$, асос катионлари ва H_2O лардан иборат эканлиги аниқланди. РСТ натижаларига асосан, кристаллда $N-H...Cl$, $O-H...Cl$ ва $C-H...Cl$ молекулалараро водород боғлар мавжудлиги аниқланди. Шунингдек, кристаллда катион молекулалари $0.919(4):0.081(4)$ нисбатда бўлиши, кристалл изоморфлар аралашмасидан иборат эканлигини тасдиқламоқда.

Калим сўзлар: 1-бутил-2-метил-5-хлорбензимидазол, кристалл структура, монокристалл, рентгенструктуравий таҳлил, изомер.

Бензимидазоллар муҳим биологик фаол гетероциклик бирикмалар бўлиб, улар асосида яратилган дори воситалари бутун дунёда кенг қўлланилади. Хусусан, уларнинг ҳосилалари микроб ва бактерияларга қарши, юқори антиоксидант хоссаларга эга эканлиги туфайли соҳа мутахассисларида катта қизиқиш ўйғотмоқда. Шунингдек, улар саратонга қарши, антигельминт, цитотоксик, яллиғланишга қарши дори воситалари сифатида амалиётга жорий этилган. Бензимидазол ҳалқаси сақлаган металлокомплекслар ҳам қатор фаолликларга (антифунгал, микробларга қарши, антиоксидант ва каталитик) эга бўлиб, улар ҳам кенг ўрганилмоқда. Бензимидазол металл комплекслари эркин лигандларга нисбатан юқори самарадорликка эга эканлиги аниқланган [1,2]. Юқоридан келиб чиқиб, биз илк бор синтез қилинган 1-бутил-2-метил-5-хлорбензимидазол гидрохлориднинг (**1**) кристалл тузилишини РСТ асосида аниқладик (1-расм).

Ўрганилган бирикма **1** моноклиник, $C2/c$ фазовий гуруҳида кристалланади. Кристалл структура элементар ячейкасининг асимметрик қисми 2 та $C1$, 2 та асос катионлари ва H_2O лардан иборат. РСТ натижалари асосида $N-H...Cl$, $O-H...Cl$ ва $C-H...Cl$ молекулалараро водород боғлар мавжудлиги аниқланди (1-жадвал). Шунингдек, кристаллда катион молекулалари $0.919(4):0.081(4)$ нисбатда бўлиши, **1** кристаллни изоморфлар аралашмасидан иборат эканлигини тасдиқламоқда.



1 - Расм. 1-бутил-2-метил-5/6-хлорбензимидазол гидрохлорид изомерларнинг структуравий формулалари (**1a,b**) ва кристалл структура асимметрик ячейкаси(пастда).

1-Жадвал

Кристаллдаги водород боғларнинг параметрлари (Å, °)

$D-H\cdots A$	$D-H$	$H\cdots A$	$D\cdots A$	$D-H\cdots A$
$O1-H1W\cdots Cl2$	0.84(6)	2.37(6)	3.207(3)	173(6)

O1—H2W···C13	0.87(5)	2.45(5)	3.316(3)	174(5)
N3—H3···C12	0.88(3)	2.13(3)	3.009(2)	180(4)
N3'—H3'···C13	0.902(19)	2.13(2)	3.030(2)	174(2)
C11—H11D···C11B	0.97	2.24	2.997(15)	134
C11—H12E···C11B	0.96	2.78	3.354(15)	119

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Aragón-Muriel A., Liscano Y., Upegui Y. *Antibiotics*. 2021, 10(6), 728.
2. Geiger D.K., Geiger H.C., Moore S.M. *Acta Crystallographica E Cryst. Comm.* 2019. 29, 75.
3. Ranskiy A., Didenko N., Gordienko O. *Chem.chem.Technol.* 2017. 11(1), 11.

SIANUR KISLOTA ARALASH LIGANDLI MIS(II) KOMPLEKSINING ELEKTRON TUZILISHINI DFT METODI YORDAMIDA O`RGANISH

Ganiyev B.Sh., Avezov H.T., Salimov F.G'.

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu ishda sianur kislotasi va tiosemikarbazid asosidagi mis(II) kompleksining elektron tuzilishi kvant-kimyoviy hisoblashning DFT metodi yordamida o`rganilib, kompleks birikmadagi YuBMO va QBMO larning energetik qiymatlarini tahlili natijalari keltirilgan.

Kalit soʻzlar: DFT, HOMO, LUMO, kvant-kimyoviy hisoblash, sianur kislotasi, kompleks birikma.

Barcha kvant-kimyoviy hisoblash ishlari kompyuterda Frisch va boshqalar tomonidan hamualliflikda yaratilgan Gaussian 09W dasturiy taʼminotida amalga oshirildi. Beckning uch parametrlilik funksional gibradini LYP funksional korrelyatsiyasi bilan birgalikda ishlatish (B3LYP) eng mustahkam gibriddan biri hisoblanadi. Shu sababli mis(II) kompleksining elektron xossalarni, YuBMO-QBMO/(HOMO-LUMO) energiyalarni hisoblash funksional zichlik nazariyasi (DFT) (B3LYP) usuli yordamida 6-311G++ (d, p) asosli toʻplam bilan amalga oshirildi. Gaussidagi hisoblangan out fayllari Gauss View dasturi yordamida vizualizatsiyalashtiriladi [1-3].

Molekulyar orbitalning chegarasi molekulaning boshqa turdagi molekular bilan oʻzaro taʼsirini belgilaydi. HOMO (yuqori band molekulyar orbital), elektronlarni oʻz ichiga olgan eng uzoq orbital deb hisoblanishi mumkin boʻlgan elektron donor kabi bu elektronlarni berishga harakat qiladi. Boshqa tomondan olib qaralganda, LUMO (quyi boʻsh molekulyar orbital) ni elektronlarni qabul qilish uchun boʻsh joylarni oʻz ichiga olgan eng ichki orbital deb hisoblash mumkin. Demak, HOMO energiyasi ionlanish potentsialiga bevosita bogʻliq boʻlsa, LUMO energiyasi elektron yaqinligi bilan bevosita bogʻliq boʻladi. HOMO va LUMO orbitallari oʻrtasidagi energiya farqi energiya boʻshligʻi deb ataladi, bu esa hosil boʻlgan molekulaning barqarorligini belgilaydi. LUMO konstruksiyalarining barqarorligi molekulaning kimyoviy reaktivligi va kinetik barqarorligini tavsiflashga yordam beradi. Kichkina boʻshliqqa ega boʻlgan molekula koʻproq qutblangan va yumshoq molekula deb nomlanadi. Soʻnggi paytlarda HOMO va LUMO oʻrtasidagi energiya boʻshligʻi molekula ichidagi zaryad oʻtkazuvchanligidan biologik faollikni isbotlash uchun ham foydalaniladi. Chunki u elektron oʻtkazuvchanlik oʻlchovi hisoblanadi. Sianur kislotasi va tiosemikarbazid asosidagi Cu(II) kompleks birikmasining chegara orbitallari (HOMO, LUMO) B3LYP/6-311G++(d,p) yordamida aniqlandi va 1-2-rasmlarda grafik koʻrsatilgan. HOMO va LUMO orbitallarining energiya parametrlari, shuningdek, oʻrganilayotgan birikmaning boshqa xarakteristikalarini B3LYP/6-311G++(d,p) usuli yordamida hisoblab chiqilgan va 1-jadvalda keltirilgan.


В маркетинговой деятельности идёт использование для упаковочных материалов, рекламной продукции. Они применяются для корпусов приборов, тканей и волокон искусственных и синтетических. Из полимеров производят пленки различного назначения, конструкционные материалы, материалы для электротехнической и радиотехнической индустрии, украшения, ионообменные и эпоксидные смолы, пластики с экстремальными свойствами (жаростойкие и морозостойчивые, повышенной твердости, пожаробезопасные ит.д.). Полимеры широко используются в качестве основы для производства композиционных материалов.

В заключении следует отметить, что необходимо выделить основные направления использования полимерных материалов:

- строительство;
- машиностроение;
- текстильная промышленность;
- пищевая отрасль;
- энергетический и транспортный комплексы;
- нефтегазовая промышленность;
- медицина;
- оборонительный комплекс.

Но при использовании полимерных материалов исследования ведутся в пользу улучшения экологических свойств готовой продукции, так как потребители исходной продукции предъявляют производителям требования о сохранении определённых стандартов экологичности продукции, так как в двадцать первом информационном веке у потребителей свободный доступ к информации о качественных характеристиках той или иной продукции.

Список литературы

1. Вильданов, Ф. Ш., Латыпова, Ф. Н., Красуцкий, П. А., & Чанышев, Р. Р. (2012). Биоразлагаемые полимеры современное состояние и перспективы использования. *Башкирский химический журнал*, 19(1), 135-139.
2. Абдуллаев, А. М., Курпаяниди, К. И., Тешабаев, А. Э., & Солиева, Д. А. (2020). Исследование систем управления предприятием: сущность, методы и проблемы. *Бюллетень науки и практики*, 6(2), 182-192.
3. Tuychieva, O. N. (2022). ISHLAB CHIQRISHNI MODERNIZATSIYALASHTIRISH SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI. *Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali*, 2(4), 83-92.
4. Tuychieva, O. N. (2021). Determining the Cost-Effectiveness of Investments Specific Features. *Central Asian journal of innovations on tourism management and finance*, 2(12), 40-46.
5. Tuychieva, O. (2019). Questions of increasing economic efficiency of production. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(8), 105-108.
6. Musaevna, U. Z., & Anvarjonqizi, X. D. (2021). To the Issues of Improving Personnel Motivation in Industrial Enterprises. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 1, 70-80.

СОРБЦИОННЫЕ СВОЙСТВА КОМПОЗИЦИИ НА ОСНОВЕ ВОДОРАСТВОРИМЫХ ПОЛИМЕРОВ

¹Муталипова Д.Б., ²Амонов М.Р.

¹ассистент, ²д.т.н, проф

^{1,2}Бухарский государственный университет

Аннотация. Изучено свойства связывающие-загушающие композиции на основе водорастворимых полимеров. Выявлено зависимость поверхностного натяжения крахмальных клейстеров различной концентрации крахмала и ПВС.

Ключевые слова: композиция, ткань, свойства, загуститель, адгезия, концентрация, модифицированный крахмал, поливиниловый спирт, свободная поверхностная энергия, реологические процессы.

В настоящее время получены синтетические материалы, например, препараты из синтетических гомо - и сополимеров, которые позволяют вести шлихтование без применения пищевых продуктов. Но эти препараты имеют высокую цену, труднодоступны и не обладают многофункциональностью по отношению к волокнам различного химического строения, трудно вымываются из поверхности ткани, резко увеличивают расход препаратов для

промывки после печати, соответственно возрастает время промывки ткани, кроме того, необходимо отметить важное, что в процессе клеивания шелковой ткани только с синтетическими полимерами в процессе сушки ткани происходит недостаточное взаимодействие загустителя с шелковой и ацетатной волокон, что является основным негативным явлением процесса, который затрудняет осуществление набивки ткани.

Поэтому, с целью снижения расхода пищевого крахмала, поиск и разработка технологий и способов обработки смесовой ткани препаратами из водорастворимых полимеров на основе модифицированного крахмала, ПВС и АЭ весьма актуален, тем более, что по этой проблеме практически отсутствуют научные исследования и он является малоизученным. Вопрос создания загущающих препаратов для смесовой ткани с применением модифицированного крахмала, их сочетания с некоторыми водорастворимыми синтетическими полимерами, введение в их состав текстильно-вспомогательных веществ (ТВВ) специального назначения отражены лишь в незначительных работах [1-3].

Следует отметить, что в процессе набивки загущающими составами протекают сложные физико-химические процессы между компонентами композиции и смесовой ткани препаратами из водорастворимых полимеров на основе модифицированной ткани, которые предопределяются химической природой и надмолекулярной структурой загущающего препарата и состоянием поверхности ткани. Влияние этих факторов, частично, можно описать путем изучения адсорбции загустителя шелковыми и ацетатными тканями, результаты которых представлены на рис.

На рис.1 (кривая 1) видно, что эта изотерма адсорбции на гидрофобной поверхности характерна для мономолекулярной адсорбции Ленгмюра. Изотерма для гидрофобной поверхности (кривая 2) напоминает S-образную кривую полимолекулярную адсорбцию Поляни и БЭТ [4]. Связывание адсорбента не прекращается после образования мономолекулярного слоя, а продолжается дальше.

Тем не менее, адсорбция на гидрофобной поверхности оказалась большей, чем на гидрофильной. По-видимому, основную роль в процессе адсорбции композиции волокон играют не функциональные группы, а основная углеродная цепь, что вызывает на шелковой ткани более высокую адсорбцию, чем на ацетатной.

Как видно из рис., скорость процесса адсорбции композиции на шелковой ткани зависит от физико-химических свойств загущающего препарата, ткани. Экспериментально установлено, что ПВС и АЭ, как и модифицированный крахмал обладают достаточно хорошими пленкообразующими свойствами, поэтому сочетание их с модифицированным крахмалом как загущающего препарата вполне обосновано.

Загущающие композиции на основе модифицированного крахмала, ПВС и АЭ не теряют адгезионную способность в течение длительного времени, т.е. являются кинетически устойчивыми системами. Могут применяться в воде любой жесткости в широком интервале рН 7-8 среды.




Рис. Изотермы адсорбции композиции из водных растворов при 298 К; 1- шелковом ткане; 2- ацетатном волокне

Следует отметить, что при физико-химических параметрах процесса приготовления загустителя возможно взаимодействие между группами полимеров, и реакционноспособными группами ПВС и АЭ. Продукты, образующиеся в результате этого взаимодействия, содержат, в частности, амидные -CONH-, карбамидные-, -NHCONH-, карбаматные -OCONH₂, сложноэфирные -OCO - и др. группы. Наличие их в макромолекулах полимерной композиции позволяет улучшать эластические, структурно-механические свойства, уменьшить электроотрицательность адгезивной пленки, формирующейся на шелковом ткане в процессе набивки ткани.

Исходя из теоретического соображения известно, что необходимым общим условием стабильного существования поверхности раздела между двумя фазами является положительное значение свободной энергии образования поверхности раздела. Свободная поверхностная энергия – работа переноса молекулы из объема жидкости на поверхность. При том свободная энергия, отнесенная к единице площади поверхности, эквивалентна поверхностному натяжению, определяемому как сила, действующая на единицу длины.

Таким образом введение в модифицированные крахмальные клейстеры ПВС и АЭ сопровождается реакцией комплексообразования, что, в свою очередь, приводит к изменениям межмолекулярных взаимодействий. Можно предположить, что поверхностное натяжение системы на основе крахмала при введении в нее ПВС будет значительно меняться. Кроме того, если поверхностное натяжение отдельных чистых жидкостей заметно различается, добавление одной жидкости к другой, обычно, приводит к значительному уменьшению ее поверхностного натяжения.

Список литературы

1. Majidov A.A., Ismatova R.A., Amonov M.R. Complete use of water-soluble polymer composition. Monography. LAP LAMBERT Academic Publishing. – 2020. -168p.
2. Мажидов А.А., Амонов М.Р., Равшанов К.А., Содикова С.Ш. Исследование влияние температуры времени промывки и состава печатной краски на смываемость загусток. Ж.Композиционные материалы 2008. -№ 3. –С. 92-94.

KROTONILIDENIMIN-O-BENZOYNOY KISLOTANING MISLI TUZI YORDAMIDA BARQARORLASHTIRIGAN POLIVINILKLORIDNING TERMIK TAHLILI

¹Nazarov N.I., ²Beknazarov H.S., ³Nazarov S.I., ⁴Baqoyeva M.A.

¹PhD doktorant, ²t.f.d., prof., ³t.f.n., dots., ⁴talaba

^{1,3,4}Buxoro davlat universiteti

²Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti

Annotatsiya: Krotonilidenimin-o-benzoy kislotasi (KBK) misli tuzi sintez qilindi. Sintez qilingan tuzning xossalari termogravimetrik usulda tasvirlanib, KBK ning misli tuzi polivinilxloridga stabilizator sifatida qo'llanildi va sanoatda qo'llaniladigan stabilizatorlarga nisbatan yuqori termobarqarorlikka ega ekanligi aniqlandi.


Kalit soʻzlar: PVX, stabilizator, TGA, DTA, Cu-KBK

Polivinilxlorid (PVX) ko'plab kompozit materiallarning asosi bo'lib, termoplastik polimerlar orasida ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi o'rinlardan birini egallab kelmoqda. PVX asosida olingan polimer mahsulotlar qurilish, qadoqlash, tashqi qoplamalar, derazalar, mebel jihozlari, kiyim-kechak, poyabzal va boshqa turli sohalarda foydalanish uchun tobora ko'proq ishlab chiqarilmoqda. Polivinilxloridni uzoq sinovlar va tadqiqotlar natijasida inson salomatli uchun xavfsiz ekanligi aniqlangan [1]. Ko'pchilik PVX dan olingan quvurlarni xizmat qilish muddati 40 dan ortiq davom etishi mumkin, termostabilizatorlar ushbu polimerni qayta ishlash jarayonida, shuningdek, kislorod, atmosfera, issiqlik va quyosh nuri va boshqa ta'sirlar natijasidan himoya qiladi. Termostabilizatorlar polimer mahsulotlarining ekspluatasion davrini oshirib, xizmat qilish muddatini uzoq yillargacha uzaytiradi [2].

Navoiyazot AJ tomonidan ishlab chiqarilgan savdo markasi SG-5 bo'lgan PVX olindi. Organik erituvchilar sifatida etanol, dimetilformamid (DMFA) va toluoldan foydalanildi. Barcha erituvchilar "chda" sinfli spektroskopik toza yoki taklif qilingan usullar bilan tozalangan erituvchilar hisoblanadi.

Cu-KBK ning sintezi. Tubi dumaloq kolbaga 7,56g (0,04mol) krotonilidemin-o-benzoy kislotaning (KBK) 50ml etanoldagi eritmasi solindi. So'ngra uning ustiga 2,72g (0,02mol) mis-(II) xloridning 40 ml etanoldagi eritmasi solindi. Reaksiyon aralashma teskari sovutgich ulangan holda, aralashtirib turib suv hammomida 2 soat davomida aralashtirildi. Reaksiya tugaganidan so'ng to'rt kunga qoldirildi. Hosil bo'lgan cho'kma filtrlab olindi. Avval etanol bilan so'ngra distillangan suv bilan suv bilan yuvib, vakuumli nasos yordamida ajratildi, undan so'ng quritish pechida quritildi reaksiya unumi 64%. Hosil bo'lgan Cu-KBK qattiq holatda havoda barqaror bo'lib, DMFA, DMSO va issiq etanolda eriydi. 40g PVX olinib, uning ustiga 0,8g (2% PVX massasiga nisbatan) termostabilizator sifatida sintez qilingan Cu-KBK qo'shib yaxshilab aralashtirildi. Hosil bo'lgan aralashma DMFA da eritildi, etanol yordamida barqarorlashgan PVX cho'ktirildi. Cho'kma filtrlab olindi so'ngra distillangan suv bilan bir necha bor yuvib quritildi. Hosil bo'lgan PVX plyonkasining termik barqarorligi termogravimetrik tahlil usuli bilan aniqlandi [3].

Cu-KBK bilan barqarorlashtirilgan PVX namunasining termik barqarorligi SHIMADZU firmasining DTG-60 turdagi termogravimetrik analizatorida (TGA) baholandi. O'rtacha massasi 6 mg ga teng bo'lgan namuna 10 °C dan 800 °C gacha argon atmosferasida qizdirildi (qizdirish tezligi 10 °C/min, argon oqimining tezligi 80 ml/min). Differensial termogravimetrik analizatorida (DTA) tahlili SHIMADZU firmasining DTG-60 turdagi modelida bajarildi. O'rtacha massasi 6 mg ga teng bo'lgan namuna 10 °C dan 800 °C gacha argon atmosferasida qizdirildi (qizdirish tezligi 10 °C/min, argon oqimining tezligi 80 ml/min).



1-rasm. Cu-KBK-bilan stabilizatsiyalangan PVX ning termik tahlil derivatogrammasi

Cu-KBK bilan barqarorlashtirilgan polivinilxloridning derivatogrammasi 1-rasmda keltirilgan bo'lib, u 2 ta egri chiziqdan iborat. Termogravimetrik analiz egri chizig'i (TGA) (1-egri chiziq) tahlili shuni ko'rsatadiki, TGA egri chizig'i asosan 3 ta intensiv parchalanadigan temperatura oralig'ida amalga oshadi. 1-parchalanish oralig'i 17,81-184,41 °C temperaturada sodir bo'ldi bunda massa o'zgarishi 0,434mg 6,117% , 2-parchalanish oralig'i 184,41-356,26 °C temperaturada sodir bo'ldi, bunda massa o'zgarishi 3,624 mg 51,078%, 3-parchalanish oralig'i 355,95 -703,96 °C temperaturada sodir bo'ldi, bunda massa o'zgarishi 1,512 mg 21,311%.

Bu derivatogrof tadqiqotlar natijasida ko'rinadiki 2-parchalanadigan oraliqda intensiv parchalanish jarayoni sodir bo'lib, asosiy massa yo'qolishi 184,41-356,26 °C oralig'ida kechadi unda asosiy massaning 51,078 % ya'ni massaning 3,624 mg yo'qoladi. 703,96 °C dan keyin uzgarish kuzatilmaydi[4].

Krotolidenimin-o-benzoy kislotaning misli tuzi PVX ga stabilizator sifatida qo'llanildi. Stabillangan PVX ning termik tahlili o'rganildi. Termogramma ma'lumotlariga muvofiq, krotolidenimin-o-benzoy kislotasi misli tuzi PVX ning termik barqarorligini yaxshilaganligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Минскер К.С., Федосеева Г.Т. Деструкция и стабилизация поливинилхлорида. – Изд. 2-е, перераб. -М.: Химия, 1979. -272 с., ил.
2. Ebnalwaled A.A., Thabet A. Controlling the optical constants of PVC nanocomposite films for optoelectronic applications // Synthetic Metals. 2016. T.220. С. 374-383.
3. Назаров Н.И., Бекназаров Х.С., Джалилов А.Т., Ширинов Г.К. Новые комплексные соединения в качестве термостабилизаторов поливинилхлорида // Композиционные материалы научно-технический и производственный журнал. -2021. -№4.-С.3-
4. Nazarov N.I., Beknazarov H.S., Mirzoeva G.A. Krotonilidenimin-o-benzoynoy kislotaning kalsiyli tuzi yordamida barqarorlashtirilgan polivinilxloridning termik tahlili // NamDU ilmiy axborotnomasi–2022.-№6.-b.178-182.

XALQ XO'JALIGIDA SANOAT CHIQINDILARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI.

¹Gaybullayeva G.M., ²Abdukarimov A.G'.

¹o'qituvchi, ²talaba

^{1,2}Farg'ona politexnika instituti,

Annotatsiya: Maqolada oziq-ovqat hamda to'qimachilik sanoati chiqindilarini an'anaviy va yangi qayta ishlash usullari tadqiq etilgan bo'lib, mazkur turdagi chiqindilardan foydalanish muammolari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: To'qimachilik chiqindilari, paxta tolasi chiqindisi, kalta tolali chiqindilar, zig'ir tolali chiqindilar, noto'qima mato, chiqindisiz texnologiya.

Dunyo mamlakatlarida aholi sonining o'sib borishi iqtisodiyotning bosh qonuni bo'lmish, cheksiz ehtiyojlarni chegalalangan resurslar orqali qondirish yo'l-yo'rig'ini izlab topish masalasiga yanada chuqurroq e'tibor berish zarurligini ko'rsatmoqda. Evropa va Osiyoning rivojlangan mamlakatlari allaqachon bu masalada ilg'orlab ketgan. Oziq-ovqat mahsulotlarini, to'qimachilik sanoat chiqindilarini qayta ishlab, undan energiya olish Evropada ancha avvaldan boshlanganligini aytishimiz mumkin.

To'qimachilik mahsulotlariga oshib borayotgan talab to'qimachilik sanoat chiqindilaridan foydalanish muammosini keskin ko'tarmoqda. Asosiy yondashish bu to'liq yo'qotish (yoqish, ko'mish) o'rniga chiqindilardan maksimal ishlab chiqarish jarayonida foydalanishdir. Barcha to'qimachilik chiqindilari 4 guruhga bo'linadi:

Birinchi guruhga tolali chiqindilar kirib, ular o'zi hosil bo'lgan ishlab chiqarish korxonasi qayta ishlanadi.

Ikkinchi guruhga faqat ikkilamchi xom ashyoni qayta ishlash korxonalarida qayta ishlanishi mumkin bo'lgan to'qimachilik chiqindilar kiradi.

Uchinchi guruhga kiruvchi to'qimachilik chiqindilari to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda ishlatilmay, faqat artish maqsadlari uchun ishlatiladigan material sifatida qo'llaniladi yoki tashlab yuboriladi.

To'qimachilik to'rtinchi guruhiga ishlab chiqarishning past navli chiqindilari kirib, ulardan to'qimachilik mahsulotlari deyarli olib bo'lmaydi, ya'ni ular foydalanilmaydigan chiqindilar. Bu guruhga ishlash muddati o'tab bo'lgan sanoat filterlari kirib, ularni tozalash va qayta tiklash iqtisodiy jihatdan o'zini oqlamaydi. Chiqindilar ko'pincha termik zararsizlantiriladi yoki poligonlarda ko'miladi. Agar maydalab beradigan uskunalar mavjud bo'lsa, ularni kompozitsion materiallar olish uchun ishlatish mumkin. Bu materiallar o'z navbatida tolali qurilish plitalarni ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Bu guruhdagi chiqindilar tegishli qayta ishlashdan keyin qurilishda ishlatiladigan plitalarda qayta ishlatish mumkin, lekin bunda uskunalarni montaj qilish, ishlab chiqarishda ekologik xavfsizlik, rentabellik va shu kabi boshqa muammolarni hal qilish kerak.

Evropada qattiq mayishiy chiqindilarni qayta ishlash zavodlaridan makulatura, shisha, polimerlar kabi komponentlar olinadi. Faqatgina Donkaste shahridagi (Buyuk Britaniya) ishlab chiqarish quvvati bir sutkada 320 tonna qattiq mayishiy chiqindilarni qayta ishlash zavodida olinadigan komponentlar uchun talluqlidir. Germaniyadagi yana bitta ishlab chiqarish quvvati bir soatda 50 tonnaga teng bo'lgan zavodda to'qimachilik komponentlarni qo'lda saralash ishlari olib boriladi. Qolgan hollarda to'qimachilik chiqindilari boshqa qaytmas chiqindilar bilan birgalikda yoqilg'i briketlariga tushadi va yoqish uchun yuboriladi.

To'qimachilik chiqindilari qayta ishlash davrida bir nechta bosqichdan o'tkaziladi: dezinfeksiya, changsizlantirish kesish, moylash va tolaga ajratish, saralash, yuvish, kimyoviy tozalash. To'qimachilik chiqindilaridan noto'qima matolar, issiqlik va shovqin o'tkazmaydigan materiallar; texnik, tikuv va mebelbop paxta; artish uchun materiallar, filtrlovchi kabi texnik matolar tayyorlanadi, bularga asosan sintetik tolalar chiqindilari ishlatiladi.

Hozirgi paytda qayta ishlanmaydigan ikkilamchi to'qimachilik xom ashyolarni qayta ishlatish bo'yicha yangi texnologiyalarni joriy etish lozim.

To'qimachilik chiqindilaridan foydalanishning noan'anaviy yo'llaridan biri bu ko'p qavatli rulon materiallar, to'qimachilik devor qoplamalari, payvandlovchilar maxsus kiyimi uchun olov va issiqqa chidamli matolarni olish hisoblanadi.

Rossiyada jun ishlab chiqarish chiqindilaridan bog' uylarini isitish uchun ishlatiladigan noto'qima matolar ishlab chiqariladi. Rivojlangan mamlakatlarda rulonli materiallar chiqindilaridan hajmli buyumlar ishlab chiqarish usuli, tolali massa olish usuli, jun ishlab chiqarish chiqindilaridan qo'shimcha oqsilli yem-xashak olishning patentlangan usullari ma'lum.

Chet elda past navli paxta chiqindilari (tarandi, momiq)dan ip ishlab chiqariladi. Jun sanoatining umumiy xomashyo balansida tiklangan jun Gollandiyada - 28%, Italiyada - 18%, Yaponiyada - 7%, AQSHda - 5%, Fransiyada - 3% ni tashkil etadi. Polshada zig'ir tolali chiqindilardan pollar uchun plitalar va qoplama materiallar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Vengriyada zig'ir tolali chiqindilarni ishlatib izolyasiya panellari tayyorlanadi. Germaniya va Belgiyada zig'ir va kanop chiqindilaridan qurilish plitalari ishlab chiqariladi, sintetik tolalarning kalta tolalichiqindilari tom yopish uchun ishlatiladigan qoplamalarni ishlab chiqarishda bog'lovchi sifatida foydalaniladi. Germaniyada gilam to'qish chiqindilarini presslash usuli bilan plitalarga qayta ishlash texnologiyasi yaratilgan. Xom ashyo tarkibiga 70- 85% chiqindilar va 15-30% penopoliuretan kiradi

A.Kogan va V.Butkevichlar tomonidan zig'ir tolali chiqindilarni ishlatib tikuv usulida noto'qima matolar olish texnologiyasi ishlab chiqilgan. V.Galsov va S.Markaryan o'z ishlarida eskirgan paxta va paxta buyumlarni qayta ishlashning o'ziga xos echimlarini taklif etishgan. Issiqlik va shovqin izolyasion plitalarni to'qimachilik chiqindilari va mineral bog'lovchilardan olish texnologiyasi mavjud. Sintetik polimerlarni regeneratsiyalash orqali sintetik tolali to'qimachilik

materiallar chiqindilarini qayta ishlash texnologiyalari ishlab chiqilgan. Mato laxtaklar va trikotaj qiyqimlardan noto'qima matolar olish texnologiyasi mavjud.

Yengil sanoatning kalta tolali chiqindilarini yog'ochsozlik chiqindilari aralashmasidan qurilish materiallari assortimentini kengaytiradigan organo-sintetik tolali plitalarni olish texnologiyasi ishlab chiqildi. Issiq gidravlik pressda gilam ishlabchiqarishining kalta tolali chiqindilaridan tolali plitalar olish texnologiyasi ma'lum. Materialni transport tara elementi sifatida ishlatishga tavsiya etiladi.

Aynan mana shunday sanoat chiqindilaridan oqilona foydalanib, qayta ishlash sanoatini yurtimizda ham yo'lga qo'yish mumkin. Bu iqtisodiyotga arzon materiallarni yetkazib beradi va ekologiyaga zarar yetkazmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Usmankulov A. K., Sadikov F. S. RESEARCH TEPLOFIZICHESKY PROPERTIES OF THE CLAP-RAW AND ITS COMPONENTS //European ScienceReview. – 2018. – №. 7-8. – С. 268-273.
2. Kadirkulovich U. A., Samandarovich S. F. Research teplofizichesky properties of the clap-raw and its components //European science review. – 2018. –№. 7-8.
3. Safarova D. E., Gaybullayeva G. M. O'zbekistonda to'qimachilik korxonalarini rivojlantirishda davlat dasturlaridan foydalanish yo'nalishlari //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 676-682.
4. Safarova D. E., Gaybullayeva G. M. TO'QIMACHILIK KORXONALARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIVAVIY RESURLARDAN FOYDALANISH YO'LLARI //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 1295-1300.
5. Сафарова Дилшодахон Эшмухаммадовна (2022). ЭКОНОМЕТРИКА ВА ИНФОРМАТИКА ФАНЛАРИНИ ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРИГА АСОСЛАБ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИ. Science and innovation, 1 (B3), 234-240. doi: 10.5281/zenodo.6684231
6. Safarova, D. E. (2022). Innovative Changes and Tendencies in the Development of Statistics. American Journal of Economics and Business Management, 5(11), 129-135.

SIANUR KISLOTA HOSILALARINING ANTIPIREN XOSSALARI LABORATOR TAHLILI

Ganiyev B.Sh., Aslonova F.S.
Buxoro davlat universiteti

***Annotatsiya:** Ushbu tezisdan sianur kislotaning mochevina va tiomochevina bilan hosil qilgan ligandlarning yong'inbardoshlilik xususiyatlari va ularning laborator tahlili keltirilgan. Sianur kislota hosilalarining hamda ulaning fosforitlar bilan aralashmasidagi antipirenlik xususiyatlari ustida dastlabki tajribalar amalga oshirildi. Bunda bo'z, qo'g'oz, yog'och qipig'i hamda karton qog'ozlar sinov obyektlari sifatida tanlab olindi va natijalar qayd etib olindi.*

***Kalit so'zlar:** Sianur kislota, mochevina, tiomochevina, antipiren, fosforit.*

O'zbekiston Respublikasida tashkilotlar, binolar, inshootlar va boshqa obyektlar uchun yong'in xavfsizligi chora-tadbirlarini ishlab chiqishda va amalga oshirishda, shu jumladan ular loyihalashtirilayotganda yong'inlar chog'ida odamlarning evakuatsiya qilinishini hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki saqlab qolinishini ta'minlovchi yechimlar nazarda tutilishi keraligi hamda yong'inlarning kuchayishiga (tarqalishiga) to'sqinlik qiladigan va ularni bartaraf etishni ta'minlaydigan sharoitlarni yaratishga doir hukumat qarori qabul qilingan bo'lib, tezisdan keltirilgan tadqiqotlar aynan hozirda talab darajasi yuqori mahsulot – antipirenning yangicha usulda sintez qilinishi hamda tadqiq etilishiga asos bo'la oladi [1-2].


Antipirenlar – yog‘och, mato va boshqa organik materiallarni o‘z-o‘zidan yonib ketishdan himoya qilish maqsadida ularga shimdiriladigan modda yoki aralashmalar hisoblanadi. Antipiren xususiyatli moddalardan asosan qurilish materiallari, to‘qimachilik sanoati mahsulotlari va qog‘oz ishlab chiqarish sanoatida olovga bardoshlilikni kuchaytirish maqsadida foydalaniladi.

Biz tadqiq etgan ishda tarkibida triazin halqasi saqlagan organik birikma – sianur kislotasi va uning mochevina va tiomochevina almashingan hosilalari sintez qilib olindi. Ularning reaksiya qobiliyati kvant-kimyoviy hisoblash usuli orqali va biologik faolligi, turli xossalari PASS analizi, molekulyar doking usuli orqali o‘rganildi [3,4]. Ushbu olingan namunalarning antipiren xossalari turlicha o‘rganilgan past sifatli fosforitlar bilan kompozitsiyalari tayyorlandi va dastlabki tekshiruvlar amalga tegishli sinov obyektlarida amalga oshirildi [5].


Sintez qilib olingan sianur kislotaning mochevina va tiomochevina almashingan hosilalarining antipirenlik xossalarini laboratoriyada o‘rganish uchun dastlabki sinov materiali sifatida surp, bo‘z, oq qog‘oz, karton hamda yog‘och qipig‘ining ma‘lum o‘lcham va shakldagi namunalardan foydalanildi va [6,7] manbarlarga ko‘ra ularning antipiren xossalari o‘rganildi. Buning uchun oddiy oq qog‘oz, karton va bo‘z gazlamalarining 55x55 mm o‘lchamdagi to‘rtburchak shakl qirqib olindi hamda 0,3 gr yog‘och qipig‘idan 10 ta namuna o‘lchab olindi. Tayyorlangan materiallarning barchasi sianur kislotaning mono-, di-, tri- mochevina va tiomochevina almashingan hosilalarining 10 % li eritmalari va ushbu hosilalarning fosforitli aralashmasi eritmalari shimdirildi va quritib olindi. Natijalarni taqqoslash maqsadida xuddi shu shakl va o‘lchamdagi surp, bo‘z, oq qog‘oz, kartondan hamda bir xil og‘irlikdagi yog‘och qipig‘idan o‘lchab olindi. Shimdirib quritilgan namunalarni yoqish uchun o‘rtacha 1 daqiqa yonish vaqti belgilab olindi va shu vaqt oralig‘ida doimiy olovda 5 sm uzoqlikda gorizontal holatda tutib turildi. Jumladan, yog‘och qipig‘i bilan o‘rganilgan CyM1, CyM2, CyM3, CyM1+fosforit, CyM2+fosforit, CyM3+fosforit, CytM2, CytM3, CytM2+fosforit, CytM3+fosforit tarkiblarning belgilangan vaqt oralig‘idagi yonish tezligi tekshirildi.

Tekshiruv natijasiga ko‘ra hech qanday tarkib shimdirilmagan yog‘och qipig‘ining yonishidan oldingi o‘lchangan massasi va 1 daqiqadagi yonishidan so‘ng qolgan massa o‘rtasidagi farq 1,34 g ni tashkil etgan bo‘lsa, shimdirib quritilgan tarkibli 10 xil namunalardagi farq 0,05 g (CyM1); 0,06 g (CyM2); 0,09 g (CyM3); 0,055 g (CyM1+fosforit); 0,03 g (CytM2+fosforit); 0,07 g (CytM2); 0,04 g (CyM2+fosforit, CyM3+fosforit, CytM3+fosforit, CytM3) ni tashkil etdi. Ushbu tajriba jarayonlarini amalga oshirishda chizg‘ich, qaychi, karton, yog‘och qipig‘i, oq qog‘ozi kerak bo‘ldi.

Yog‘och qipig‘i bilan o‘rganilgan tarkiblar o‘rganildi va shu tarkiblar amaliy qismda batafsil bayon etildi. Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, hech qanday antipirenga ega bo‘lmagan yog‘och qipig‘i 1 daqiqa davomida yondirilganda 1,34 g ga kamayishga nisbatan CyM1 tarkib uchun 3.73 % ga, CyM2 tarkib uchun 4.47% ga, CyM3 tarkib uchun 6,71 % ga, CyM1+fosforit tarkib uchun 3.4 % ga, CyM2+fosforit, CyM3+fosforit, CytM3 va CytM3+fosforit tarkiblar uchun 2.98 % ga, CytM2 tarkib uchun 5.22 % ga , CytM2+fosforit tarkib uchun 2.23 % ga yonuvchanligini kamaytirdi. Eng kam massa yo‘qotish bo‘lgan tarkib (CytM2+fosforit) ning ya‘ni tarkibida S, P, N elementlari bo‘lgan namunada antipirenlik xususiyati boshqa namunalarinikiga nisbatan yuqori bo‘ldi. Mana shu namunadan foydalanilsa yuqori samaradorlikka erishiladi.



1-rasm. Antipiren xossalari o`rganilishi



2-rasm. Antipiren xossalari o`rganish maqsadida tayyorlangan namunalalar

Yozuv qog'ozi, bo`z gazlamasi va kartonga surtilib quritilgan antipirenning laboratoriyada o'tkazilgan tajriba natijalari quyidagi 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval

Sianur kislota hosilalarining antipiren xossalari laborator tahlili

O`rganilgan obyekt materiali	CyM 1	CyM2	CyM3	CyM+fosforit			Cyt M2	Cyt M3	CytM+fosforit	
				CyM 1	CyM2	CyM 3			CytM2	CytM3
Yozuv qog'ozi	3 sm tutab yondi	Cho`g`l andi	Tutab yondi	Yon madi	0,5 sm cho`g`l andi	Yon madi	Yon madi	3 sm tutab yondi	Salgina cho`g`l andi	0,5 sm cho`g`l andi
Bo`z gazlama	0,4 sm bujmaydi	0,5 sm tutab yondi	Biroz cho`g`l andi	2 sm tutab yondi	2 sm tutab yondi	2 sm tutab yondi	-	-	1 sm tutab yondi	2 sm tutab yondi
Karton	-	-	-	3x3 sm ² qoraydi	2,5x2,5 sm ² qoraydi	3x2,5 sm ² qoraydi	-	-	yonmadi	3x2,5 sm ² qoraydi
t=1 daqiqa										

Sianur kislotaning mochevina va tiomochevina almashingan hosilalarining sintezi amalga oshirildi va turli fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida o`rganildi. Bundan tashqari, sintez qilib olingan namunalarning antipirenlik xossalari tajriba jarayonida sinovdan o'tkazilganda, ushbu moddalarning ma'lum konsentratsiyali eritmalari olovga nisbatan bardoshlilik darajasi yuqori ekanligi tadqiqotlar natijasida isbotlandi va qog'oz ishlab chiqarish, qurilish va to'qimachilik sanoatlarida tatbiq etish rejaları ishlab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 2009 yil 28 avgustdagi «Yong'in xavfsizligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni haqida» gi 673-I-sonli qarori (<https://lex.uz/docs/-5273216>)
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 20 oktabrdagi «Yong'in xavfsizligi qoidalarini tasdiqlash to'g'risida» gi 649-sonli qarori. (<https://lex.uz/docs/-5056473>)

3. Ганиев, Б. Ш., Холикова, Г. К., & Аслонова, Ф. С. (2022). Изучение энергии различных конформации мочевино замещенных продуктов циануровой кислоты. Таълим ва ривожланиш таҳлили онлайн илмий журнали, 2(4), 161-164.
4. Авезов, Х. Т., Ганиев, Б. Ш., Холикова, Г. К., угли Салимов, Ф. Г., & Аслонова, Ф. С. (2022). Sianur kislotaning mochevina almashingan hosilalarining online molekulyar dokingi va PASS analizi. Журнал химии товаров и народной медицины, 1(3), 82-94.
5. Manzura, M., Iroda, T., Uktam, M., Bakhtiyor, G., Sherali, K., & Faizulla, N. (2022). Study and production of firefighting substances based on acid processing of low-grade phosphorite. Universum: химия и биология, (9-2 (99)), 41-47.
6. А.Н. Баратов, Р.А. Андрианов, А.Я. Корольченко и др. Пожарная опасность строительных материалов. Москва, 1988, С. 158-165.
7. Лазаренков, А. М., and Ю. Н. Фасевич. "Курс лекций по дисциплине" "Охрана труда". Белорусский национальный технический университет, Кафедра "Охрана труда". – Минск: БНТУ, 2019. С.126

TOLASIMON TUZILISHDAGI POLIMER SORBENTLARIGA OG'IR METALL IONLARI SORBSIYASI

¹Muminova X., ²Otaboyev B., ³Sobirov N., ⁴Masharipova A., ⁵Abduraxmonova T.
^{1,2,3}Magistrant, ⁴O'qituvchi, ⁵k.f.n., dotsent
²Urganch davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda kimyo sanoati bilan bog'liq yuzaga kelayotgan ekologik muammolarni hal qilishda tolasimon polimer sorbentlarining ahamiyati, mahalliy xomashyolar asosida sintez qilinayotgan ionalmashinuvchi polimer sorbentlari, ularni qo'llanilishi va ahamiyatiga oid nazariy ma'lumotlar tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: oqava suvlar, tolasimon polimer sorbentlari, nitron tolasi, poliakrilonitril, modifikatsiya, yuqori molekulyar birikmalar, og'ir metall ionlari.

Atrof-muhit ob'ektlarida og'ir metallar miqdorini ruxsat etilgan kontsentratsiyalar darajasida nazorat qilish muhim ekologik tahliliy vazifalardan hisoblanadi. Keng qo'llaniladigan fizik-kimyoviy usullar namunaning matritsa tarkibining ta'siri, shuningdek, aniqlanayotgan elementlarning past kontsentratsiyasi tufayli har doim ham bu vazifani bevosita bajarilishini ta'minlay olmaydi. Katta hajmdagi murakkab tarkibli tuzli eritmalardan moddalarni ajratib olishda oldindan kontsentrlash usullaridan foydalanish mumkin.

Elementlarni aniqlashda, ajratish va oldindan kontsentratsiyalashning istiqbolli usullaridan biri ularni eritmalardan ionalmashinuvchi polimerlar yoki polimer kompleks hosil qiluvchi sorbentlar yordamida sorbsiyalash usulining qo'llanilishidir. Bunday polimer kompleks hosil qiluvchi sorbentlarning xarakterli xususiyati metall ionlari bilan komplekslar, xelatlarini hosil qilish uchun o'zaro ta'sir qilish qobiliyatidir. Sorbentlarning xossalari birinchi navbatda ularning kimyoviy tabiati bilan belgilanadi, shuningdek, ma'lum darajada elementning fizik-kimyoviy xususiyatlariga va sorbsiya sharoitlariga bog'liq. Polimer kompleks hosil qiluvchi sorbentlarning analitik ta'sirining selektivligi sorbent tuzilishiga kiritilgan funktsional-analitik guruhlarning tabiati bilan belgilanadi.

Polimer materiallar asosida ionalmashinuvchi yoki kompleks hosil qiluvchi sorbentlarni maqsadli ravishda tayyorlash, shuningdek, ularni fizik-kimyoviy va kimyoviy-analitik xususiyatlarini o'rganish va ular asosida kam miqdor moddalarni ajratib olish usullarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Hozirgi kunda tolasimon sorbsion polimer materiallari ko'plab ekologik muammolarni hal qilishda, ayniqsa ishlab chiqarish korxonalarida chiqayotgan oqava suvlarni tozalashda qo'llanilmoqda. Tolali tuzilishga ega bo'lgan polimer sorbentlarni tozalash jarayonlarini olib borishda qo'llash granulalangan polimer sorbentlarga nisbatan yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi. Tolasimon ionalmashinuvchi sorbentlarning solishtirma sirt yuzasi granulalangan

polimer sorbentlarnikiga nisbatan ikki karra kata bo'lib, bu ularning moddalarni sorbsiyalash qobiliyatini oshishga olib keladigan asosiy omillardan sanaladi.

Bunday materiallarni olish uchun ma'lum tolalarni xususan, poliakrilonitril (PAN)ni kimyoviy modifikatsiya qilish orqali amalga oshirish mumkin. Bu yo'nalish yuqori molekulyar birikmalarni fizik-kimyoviy xususiyatlarni o'zgartirish uchun istiqbolli bo'lib, ilgari ma'lum bo'lgan polimerning ham tarkibi, ham tuzilishini o'zgartirish orqali maqsadli ravishda polimerga yangi xususiyatlarni berish imkonini ochadi.

Bugungi kunda kimyogar olimlarimiz tomonidan mamlakatimizda mavjud mahalliy xom-ashyolar asosida tolasimon ionalamshinuvchi polimer sorbentlari sintez qilinmoqda. Ana shunday sorbenlardan nitron tolasi ya'ni poliakrilonitril asosida modifikatsiyalangan tarkibida kuchli asosli guruhlar tutgan, kompleks hosil qiluvchi ionalmashinuvchi materiallar hisblanadi. Bunday materiallar oqava suvlarni og'ir metall ionlarini ajratish maqsadida import o'rnini bosuvchi tolali sorbentlar sifatida samarali qo'llanuvchi istiqbolli materiallardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Purzunska Kristina, Martines Calataud.J., Garsia Mateo.J. V. Preconcentration of cadmium with use various of sorbents in system flow-injection analysis // Shem.Anal. 2001. - Vol. 46, №4. - С. 539-546.
- 2.K. Saeed, S. Haider, T. J. Oh, S. Y. Park. Preparation of amidoxime-modified polyacrylonitrile (PAN-oxime) nanofibers and their applications to metal ions adsorption. Journal of Membrane Science. 2008. № 000. P.400
- 3.Гафурова Д.А., Хакимжанов Б.Ш., Химическая модификация полиакрилонитрила с гексаметилендиамином. Узб.хим.журн. 2000.№1. с 54
- 4.Гафурова Д.А., Шахидова Д.Х., Мухамедиев М.Г. Физико химические особенности взаимодействия нитрона с гидразином. Пластические масск №9. 013.с 47

QATTIQ KO'PIK POLIURETANLAR UCHUN POLIEFIR POLIOLLARNI IKKILAMCHI POLIETILENTEREFTALATDAN SINTEZ QILISH

¹Abdusharipova O.S., ²Xudoyberdiyev A.I., ³Jo'rayev A.B.

¹Magistrant, ²Assistent, ³t.f.d., prof.
Toshkent kimyo-texnologiya institute

Annotatsiya: Ushbu maqolada ikkilamchi polietilentereftalatni qayta ishlab qattiq ko'pik poliuretanlarga olish uchun xom-ashyo olishga bag'ishlangan. Ko'pik poliuretanlar uchun xom-ashyo ishlab chiqarish bilan bir qatorda ekologik muammolardan biri plastic chiqindilarnin qayta ishlashham o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Ikkilamchi polietilentereftalat, glitserin, paxta yog'i, poliefir polioliol, fizik-kimyoviy xossalar


Bugun O'zbekistonga 40 ming tonna polietilentereftalat (IPET) import qilinadi. U asosan salqin ichimliklar, moy va boshqa suyuq mahsulotlar uchun idishlar (qadoqlovchi vositalar) ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Bizning davlatimizda ishlab chiqarish korxonalarining deyarli barchasiga xom-ashyolar import maxsulotlardir, shuning uchun o'zimizda mahalliy xom-ashyolarni ishlab chiqarishni rivojlantirishimizda IPETdan foydalanish atrof-muhitni polimer chiqindilaridan tozalash va ikkilamchi mahsulotlardan unumli foydalanish muammosini hal etishning mavjud yechimi xisoblanadi.

Dunyodagi barcha mamlakatlar xususan O'zbekiston oldida turgan dolzarb muammolardan biri atrof muhitni polimer chiqindilari bilan ifloslanishini kamaytirishdir va kimyo sanoatini uchun maxalliy xom-asholarni ishlab chiqarish miqdorini ko'paytirish.

Polimerlar sanoatida dunyo bo'yicha qattiq ko'pik poliuretanlar yuqori o'rinni egallaydi[5].

- [polietilen](#) - 29%,
- [polipropilen](#) - 19%,
- [polivinilxlorid](#) - 11%,
- [polistirol](#) - 6,5%,
- Polietilen tereftalat - 6,5%
- Poliuretan - 7%.
- Boshqa - 20% (rasm)

London shahri atrofida devorlari va tomi poliuretanlar (KPU) bilan ximoyalangan korxonada KPU bilan issiqlikdan ximoya qilingan dunyoda xisoblanadi. 2005-yilda bino buzilgan va BASF ekspertlari issiqlikdan ximoyalovchi qoplamdan namuna olib tekshirib ko'rishgan va KPUning issiqlikdan ximoyalash xususiyatlari deyarli xulosaga kelishgan[1].



1957 yilda ko'pik joylashgan. Bu bino birinchi ob'yekt konserni taxlil uchun mexanik va o'zgarmagan degan

Moskva shahrida 2012-yil 30-yanvarda bo'lib o'tgan "Poliuretanlar-2012" xalqaro anjumanidan olingan ma'lumotlarga ko'ra Rossiyada 2011-yilda 280-350 ming tonna poliuretan mahsulotlari ishlab chiqarilgan, ularning 100 ming tonnadan ortig'i KPU larga to'g'ri keladi.

Mamlakatimizda xom-ashyoning kamyobligi poliuretan sanoati rivoji uchun asosiy to'siq ekani o'rganilgan[2]. Biz ilmiy jamoamiz bilan qattiq ko'pik poliuretanlar (QKPU) rivoji uchun A komponent tarkibidagi murakkab poliefirpoliollarni IPET asosida ishlab chiqishni maqsad qildik.

Dunyo olimlari ilmiy izlanishlarini o'rganganimizda IPETni ko'p atomli spirtlar (etilenglikol, dietilenglikol, propilenglikol, glitserin, pentaeritrit) bilan alkogoliz maxsulotlari QKPUlar olish jarayonida turli-xil noqulayliklarni (qattiq agregat xolati yoki qiyin oquvchan ekanligi, yuqori gidroksil gurux soni) keltirib chiqargani kuzatilgan[3-4].

Oldimizga quyidagilarni amalga oshirishni maqsad qildik:

1. Ikkilamchi polietilentereftalatni glitserin bilan katalizator ishtirokidagi alkogoliz jarayonini o'rganish, fizik-kimyoviy xossalarini tahlil qilish.
2. Ikkilamchi polietilentereftalat alkogoliz maxsulotini paxta yog'i bilan modifikatsiya jarayoni asosidagi poliefirpoliol fizik-kimyoviy xossalarini o'rganish.

Avvalo ikkilamchi polietilentereftalatni glitserin bilan 1:2,2 mol(elementar zveno)/mol nisbatda rux atsetat katalizator ishtirokida 6 soat davomida alkogoliz qilindi. Olgan poliefirpoliolni paxta yog'i bilan 8 soat davomida turli mol nisbatlarda, 240-250°C haroratda modifikatsiya qilindi. Paxta yog'i bilan modifikatsiya qilingan poliefir poliolni gidroksil gurux miqdori, kislota soni, qovushqoqligi o'rganildi (jadval).

Jadval

Modifikatsiyalangan poliefirpoliol fizik-kimyoviy xossalari

No	Poliefir polioliol : paxta yog'i mol/mol	Gidroksil gurux miqdori (%)	Kislota soni (mgKOH/g)	Qovushqoqlik (mPa*s)
1	1:1	10,865	8,09	500
2	1:2	8,211	7,08	330
3	1:4	5,624	8,2	130

Paxta yog'i bilan modifikatsiyalangan poliefir polioliol qovushqoqligi glitserin bilan alkogoliz maxsulotiga qaraganda oquvchan ekanligi xulosa qilindi. Keyingi ilmiy ishlarimizda modifikatsiyalangan poliefir poliolni QKPU ishlab chiqarishda xom-ashyo sifatida

ishlatilinyotgan Laprol-373 o'rniga qo'llab ko'rish va texnologik parametrlarini o'rganishni maqsad qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <http://www.korund-nn.ru/?id=2737> Применение пенополиуретанов в строительстве новая нормативная документация
2. Международная конференция «Полиуретаны-2012» Полимер.матер.: изделия, технол.-2012-№4, -С. 48-50.-Рус. РЖХим 12.09.-19Т.6
3. A.B. Juraev, R.I. Adilov, M.G. Alimuxamedov, F.A. Magrupov. Puti utilizatsii bytovykh otxodov polietilentereftalata// Plasticheskie massy - 2005 № 3 (<https://www.waste.ru/modules/section/item.php?itemid=435>)
4. Abduvoxidov I., Juraev A.B., Alimuxamedov M.G., Magrupov F.A. vliyanie usloviy provedeniya alkogoliza vtorichnogo polietilentereftalata na vyyhod bis(gidroksietil)tereftalata// kimyo va kimyoviy texnologiya 2019-yil №4 s. 54-57
5. <https://mplast.by/novosti/2015-08-11-statistika-mirovogo-proizvodstva-i-potrebleniya-polimerov-po-dannyim-eek/>
6. Худойбердиев А.И. [и др.]. сложные полиэфирполиолы из вторичного полиэтилентерефталаата как перспективное сырье для жестких пенополиуретанов // Universum: технические науки: электрон. научн. журн. 2021. 8(89). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/12147>
7. Khudayberdiev A., Juraev A.B., Alimukhamedov M.G., Magrupov F.A., Adilov R. Iy, Tadjixodjaeva U.B. the study of the alcoholysis regularities of secondary polyethylenethertalate with the mixture of polyatomic alcohols. journal of critical reviews. vol 7, issue 16, 2020. 2924-2928 pp
8. Juraev A.B., Alimuxamedov M.G., Magrupov F.A., Adilov R.I., Nizomov T.A. Synthesis and Research of tubepurposed unsaturated Polyethers of alcoholysis of secondary Polyethylene Terephthalate // Kautschuk Gummi Kunststoffe, 2017, – №6. – P. 70 -74.

TO STUDY THE PHYSICOCHEMICAL BASIS OF THE PROCESSES OF DYEING AND PRINTING OF MIXED FIBER MATERIALS

¹Razzoqov H.Q., ²Shukrullayev Sh.N., ³Askarova G.A.

¹Assoc. Ph.D., ²Master student, ⁴student
Bukhara State University

Abstract: *The article focuses on the preparation and physicochemical properties of dyes for dyeing composite fibers, provides a number of comments and examples, and describes its role in a number of studies. In addition, the physicochemical properties of mixed fibers were studied.*

Key words: *mixed fiber, research, shlixta, mane, dye.*

At present, it is widely possible to increase the range of mixed fiber fabrics and expand their quantity. The widespread use of mixed fiber fabrics requires the development of special methods of preparing them for decoration. When preparing composite fiber fabrics for decoration, we must pay attention to the properties of the fiber in the composite fiber fabric. We know that the purpose of preparing textile materials for dyeing and printing is to remove natural impurities from the fiber, excipients (glue, adhesives), to give them sufficient capillary and whiteness.

Japanese experts have concluded that mixed fiber fabrics can be bleached in both alkaline and acidic environments. The essence of this method is that bleaching first takes place in a weakly acidic environment with pH = 5-7, in the presence of polyphosphoric acid. In addition to polyphosphoric acid, a solution of 100% H₂O₂ with a concentration of 10 g/l is also used. Processing time is 10-30 minutes. Then an alkaline agent is added to the bleaching bath until the pH = 9.5-11. T-1000⁰C, processing time 30 minutes. With such a bleaching method, we can save H₂O₂.

Another modern widely used method is the use of high energy sources in the preparation of textile materials for decoration. This method is a one-step method.

High-quality whitening can be achieved as a result of photochemical activation of oxidants or ultrasonic activation of peroxide baths. Peroxide compounds, chlorine-containing bleaches and chlorine can be used as oxidizers. Ultraviolet radiation accelerates the decomposition of bleach. This speeds up the bleaching process. The whiteness of the fabric reaches 80-82% in 0.1-0.3 minutes.

Under the real conditions of the dyeing process, the main reactions with cellulose and with water occur simultaneously, and some factors accelerate both processes, namely, the binding of the dye to the fiber and its hydrolysis in aqueous solution. Therefore, the following additional requirements are imposed on active paints.

- high reactivity;
- their stability in dry and solution storage;
- strength of covalent bond between dye and fiber;
- high substance content relative to fiber.

When rational dyeing technology is copied and formulated, the correct choice of parameters (temperature, pH, process time, electrolyte concentration, etc.) that ensure maximum absorption of the dye and its minimum loss as a result of hydrolysis is required.

In the process of dyeing mixed fiber fabrics, it is important to prepare a solution of dyes and pay attention to their physicochemical properties.

Dyeing is carried out in an aqueous solution in accordance with a certain modulus (volume). The ratio of the volume of the dye solution to the weight of the dyed fabric is called the modulus. It is found by the following formula: $M = V/m$, where M is the modulus, mg/g, V is the volume of the dye solution, ml, m is the weight of the fabric, g.

Table 1

Modular bath - 50, the amount of dye - 1 g composition of the solution

Name of substances	Quantity, in percentage, relative to the weight of the fabric	The amount of substance in the concentrated solution, g / l, in terms of	The amount of solution to be added, in ml
Dye	3	1	30
Acetic acid	5	50	1
Sodium sulfate	10	100	1
Water	-	-	18

Total: 50 ml

By making one of the components of mixed fiber fabric from VVM, it is possible to improve the appearance, softness and softness, hygienic properties of the product. The purpose of the use of blended fibers is to expand the range of products, improve their quality and solve the problem of replacing natural fibers with chemical fibers, that is, the use of chemical fibers instead of deficient natural fibers. This is because the use of blended fibers often not only reduces the consumption of valuable natural fiber raw materials, but also makes them more comfortable and practical to use. Depending on the type of fibers and their ratio in the mixture, the method and conditions of preparation of fabrics (fabrics) based on different fiber mixtures are selected for each individual case. The conditions of preparation should be chosen in such a way as to allow maximum purification of the mixture after chemical treatment from oils and lubricants, contaminants, etc., without damaging the fibers and without compromising their quality.

Typically, no special equipment is used to make composite fiber-based products, but the equipment used for this range of products, and in some cases combined technical processes, is used.

The widespread use of composite fiber fabrics requires the development of special methods of preparing them for decoration.

References

1. Gan L, Guo H, Xiao Z, Jia Z, Yang H, Sheng D, Pan H, Xu W, Wang Y (2019) Dyeing and characterization of cellulose powder developed from waste cotton. *Polymers (Basel)* 11:1982. <https://doi.org/10.3390/polym11121982>.

2. Razzokov, Kh. K., & Shodieva, M. S. (2016). The mechanism of the formation of metallocomplexes and the structure of hollow fibers. *Uchyonyy XXI veka, (4-4 (17))*, 30-33.

ФТОР БРИКМАЛИ ГАЗЛАРНИ АБСОРБЦИЯЛАШ ЖАРАЁНИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШ


¹Ахроров А.А., ²Ботиров А.А.

¹PhD Докторант, ²талаба
Фарғона политехника институти


Аннотация: Мақолада минерал ўғитлар ва озик-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқаришида ҳосил бўладиган чиқинди газларни тозаловчи ротор-фильтрли аппаратда кечадиган абсорбция жараёни ҳисоблаш схемалари кўринишида берилган. Суюқлик ва газ оқими таъсирлашувида кечадиган масса алмашилиш жараёнига кўра масса бериш коэффициентларининг ҳисоблаш тенгламалари берилган. Шунингдек, водород фторид газининг техник содага ютилиши бўйича олинган тажриба натижалари, масса бериш коэффициентларининг қийматлари берилган.

Калит сўзлар. Абсорбция, масса алмашилиши, масса бериш, масса ўтказиши, водород фторид, натрий фторид, эритма, техник сода, томчи, суюқлик фаза.

Газларни ҳўл усулда тозаловчи ротор-фильтрли аппарат тозаланадиган газ оқими кирадиган диффузор, контакт юза жойлашган цилиндрлик қисми ва тозаланган газ оқимини чиқадиган конфузордан ташкил топган. Аппарат мураккаб гидродинамик характерга эга бўлганлиги учун унда кечадиган абсорбция жараёни ҳам мураккаб тузилишига эга. Аппаратга берилган дастлабки газ оқими ишчи юзанинг юқорги қисмидан бериладиган абсорбент билан таъсирлашади. Бунда, аппарат ичида суюқлик томчилари ҳосил бўлади ва газ оқими билан аралашиб газ-суюқлик тизими ҳосил бўлади. Аппарат барабани сиртида эса суюқлик плёнкаси ҳосил бўлади. Ушбу плёнкага газ оқими урилиши натижасида суюқлик фазада масса бериш жараёни кузатилади. Шундай қилиб аппаратда ҳам томчи ҳам суюқлик плёнкасида масса алмашилиш жараёни содир бўлади [1,2].



1-расм. Ҳўл усулда чангли газларни тозаловчи аппаратда масса алмашилиш содир бўладиган контакт юзаларни аниқлаш схемаси: 1 – суюқлик плёнка қатлами; 2 – суюқлик томчилари; 3 – бирламчи ишлатилган суюқлик.



2-расм. Фильтрловчи материалда суюқлик плёнкаси ва томчиларни газ оқими билан таъсирлашув схемаси: 1 – суюқлик плёнка оқимининг йўналиши; 2 – фильтрловчи материал; 3 – газ оқимининг йўналиши. β_C ; β_{Γ} – суюқлик ва газ фазалардаги модда бериш коэффициентлари, $\text{кмоль} / \text{м}^2 \cdot \text{с}$; δ_{ϕ} – фильтрловчи материал қалинлиги, мм; $\delta_{\text{пл}}$ – ишчи суюқлик плёнкаси қатлами қалинлиги, мм.

Газ фазасидаги компонентни ўтиш тезлигининг фазалар физик– кимёвий хоссалари ва жараён параметрларига боғлиқлиги критериал тенгламалар кўринишида ифодаланади. Ротор – фильтрли аппаратда газ фазасидаги масса алмашиниш жараёнини ҳисоблаш учун Фреслинг таклиф этган критериал тенглама танланди. Ушбу тенглама суюқлик томчиси ва газ ўртасидаги масса алмашинуви бўйича ўтказилган синовлар асосида олинган ва тенгламага кирувчи Рейнольдс ҳамда Прандтл сонининг чегаравий қийматлари бошқа таклиф этилган тенгламалардагига нисбатан катта интервалда ҳисоблаш имконини беради [2].

$$Nu_{\Gamma} = 2 + 0,552 \cdot Re_{\Gamma}^{0,5} \cdot Pr_{\Gamma}^{0,33} \quad (1)$$

бунда, Re_{Γ} – фильтрловчи тешиқлардан ўтувчи газнинг ҳаракатланиш режими; Pr – газ фаза учун Прандтл сони.

Ротор – фильтрли аппарат тузилиши ва гидродинамикасига кўра газ фазада масса бериш коэффициентини ҳисоблаш тенгламаси қуйидагича тузилди [3,4].

$$\beta_{\Gamma} = \frac{2(1 + 0,276 \cdot Re_{\Gamma}^{0,5} \cdot Pr_{\Gamma}^{0,33}) \cdot D_{\Gamma}}{\sum d_x^3 / \sum d_c^2} \quad (2)$$

Ротор-фильтрли чангли газларни ҳўл усулда тозаловчи аппаратнинг фильтрловчи маатериал плёнка қатламидаги масса алмашиниш жараёнини ҳисоблаш учун қуйидаги тенглама олинди, м/с .

$$\beta_C = \frac{0,0021 Re_C^{0,75} (Pr_C)^{0,5} \cdot D_C}{\Delta k \frac{S_{акт}}{S_{нас}} \sqrt{\frac{L_{Ей} \cdot \Gamma \cdot \mu_C}{r_p \cdot \rho_C \cdot \omega_p}}} \quad (3)$$

Bir xil kimyoviy tarkibga ega kompleks $[Mk]CuCl_2$ ilgari olingan va XRD usuli bilan o'rganilgan [2]. Ular, shuningdek, triklinik, fazoviy guruhi hisoblanadi $P\bar{1}$, lekin parametrlari $a=7.705(1)$, $b=9.970(1)$, $c=11.256(1)$, $\alpha=86.24(1)$, $\beta=71.67(1)$, $\gamma=80.89(1)^\circ$, $Z=2$, $V=810.41 \text{ \AA}^3$. Komplekslarning kristall tuzilmalarining o'xshashligini ko'rsatish uchun C-H...C o'zaro ta'siri orqali bog'langan $[Mk]CuCl_2$ ning uchta molekulasini (Kembrij kristalli tuzilish ma'lumotlar bazasidagi YEEYCEJ, CCSD).-ko'rsatilgan. (4-rasm)



4-rasm. Uchta nosimmetrik bog'langan molekularlar $[Mk]CuCl_2$ (YEEYCEJ CCSD-da), oxirgi metil guruhlarining qisqa kontaktlari bilan bog'langan.

C1–C2, C4–C12, C8–C9, C6–C13, C13–S5, C12–S5, N7–C7, N3–C3 bog'lanish uzunliklari 1-jadvalda keltirilgan.. Ushbu bog'lanish uzunliklari 1- va 2- kristall tuzilmalarida kuzatilgan uzunliklarga yaqin joylashgan. 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, bog'lanishlar barcha komplekslarda o'xshash tendentsiyaga ega va $[Mk]^+$ kationining o'xshash rezonans shakli ushbu komplekslarda amalga oshiriladi. Olingan natijalarga asoslanib, $CuCl_2 \cdot 2H_2O$ ning $[Mk]$ bilan mexanokimyoviy reaksiyasi jarayonida uch turdagi komplekslar hosil bo'lishi aniqlandi.(5-rasm)



5-rasm. $[Mk]CuCl_2$ uchun qisqa masofalar diagrammasi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Filip I. H., Gál E., Lupan I., Perde-Schrepler M., Lönnecke P., Surducun M., Găină L. I., Hey-Hawkins E., Silaghi-Dumitrescu L. Tuning the coordination properties of phenothiazine by regioselective introduction of diphenylphosphanyl groups. *Dalton Trans.* 2015, 44, 615–629.
2. Canossa S., Bacchi A., Graiff C., Pelagatti P., Predieri G., Ienco A., Manca G., Mealli C. Hierarchy of Supramolecular Arrangements and Building Blocks: Inverted Paradigm of Crystal Engineering in the Unprecedented Metal Coordination of Methylene Blue *Inorg.Chem.* 2017, 56, 3512-3516.
3. Cawein M., Behlen C. H., Lappat E. J., Cohn J. E. Hereditary Diaphorase Deficiency and Methemoglobinemia. *Arch. Intern. Med.* 1964, 113, 578–585.
4. Wendel W. B. Methylene blue, methemoglobin, and cyanide poisoning. *Pharmacol. Exp. Ther.* 1935, 54, 283–298.
5. Hanzlik P. J. Methylene Blue as Antidote for Cyanide Poisoning. *JAMA* 1933, 100, 357.
6. Brooks M. M. Methylene blue as an antidote for cyanide and carbon monoxide poisoning. *JAMA* 1933, 100, 59.
7. Guttman, P., Ehrlich P. Berl. Ueber die Wirkung des Methylenblau bei Malaria. *Berliner klinische. Klin. Wochenschr.* 1891, 28, 953–956.

8. Coulibaly B., Zoungrana A., Mockenhaupt F. P., Schirmer R. H., Klose C., Mansmann U., Meissner P. E., Muller O. Strong gametocytocidal effect of methylene blue-based co[[Mk]]ination therapy against falciparum malaria: a randomised controlled trial. *PLoS One* 2009, **4**, e5318.
9. Färber P. M., Arscott L. D., Williams C. H., Jr, Becker K., Schirmer R. H. Reco[[Mk]]inant Plasmodium falciparum glutathione reductase is inhibited by the antimalarial dye methylene blue. *FEBS Lett.* 1998, **422**, 311–314.
10. Wischik C. M., Edwards P. C., Lai R. Y., Roth M., Harrington C. R. Selective inhibition of Alzheimer disease-like tau aggregation by phenothiazines. *Proc. Natl. Acad. Sci. U. S. A.* 1996, **93**, 11213–11218.
11. CRYCALIS PRO Software System (version 1.171.40.84a), *Intelligent Data Collection and Processing Software for Small Molecule and Protein Crystallography*, Rigaku Oxford Diffraction: Yarnton, Oxfordshire (U. K.), 2020.
12. Sheldrick G. M. SHELXT-Integrated Space-Group and Crystal-Structure Determination. *Acta Crystallogr.* 2015, **A71**, 3–8.
13. Dolomanov O. V., Bourhis L. J., Gildea R. J., Howard J. A. K., Puschmann H. A Complete Structure Solution, Refinement and Analysis Program. *J. Appl. Crystallogr.* 2009, **42**, 339–341.
14. Sheldrick, G.M. (1992). *Crystallographic Computing*, edited by D. Moras, A. D. Podjarny & J. C. Thierry, pp. 145 - 157. I.U.Cr. and O.U.P.: Oxford, UK.

SARALASH JARAYONINI NOORGANIK ALUMOSILIKAT MODDALAR ASOSIDA KOMPLEKS BRIKMALAR OLISHDAGI TA’SIRI.

Bobojon O.S., Xasanjon S.F.

Farg‘ona politexnika instituti

Annotatsiya. Maqolada saralash jarayonini noorganik alumosilikat moddalar asosida kompleks brikmalarining xom-ashyolarini sarash bu turdagi mahsulotlarning granulometrik tarkiga ijobiy tasir ko‘rsatadi va yuqori temperaturalarga bardoshlilikini oshiradi.

Kalit so‘zlar: noorganik polimer moddalar, saralsh, granulometrik tarkib, Sito-burat, fraksiya.

Olovbardosh dastlabki sun‘iy mahsulot $SiO_2 - Al_2O_3$ sistemasi asosida olingan alumosilikatli va SiO_2 muvozanat diagrammasi asosida hosil qilinadigan kremnezyomli g‘ishtdan iborat bo‘lgan.

Bunday noorganik alumosilikat g‘isht quyish uchun soztuproqni kuydirib hosil qilingan o‘tga chidamli loy ya’ni shamot (jadval) bilan qum juda qo‘l keladi.

Tarkibidagi aluminiy oksidi ko‘p bo‘lgan kuydirilmagan gilga kuydirilgan kaolin yoki shamot aralastirilib, qorilgan loydan quyilgan g‘ishtni maxsus pechda 1350⁰-1500⁰ C haroratda pishirish yo‘li bilan yarim nordon, shamotli va yuqori glinezyomli g‘ishtlar olish mumkin [1,7].

1-jadval.

G‘ishtning turi	Al_2O_3 miqdori, %	Pishirish harorati, $^{\circ}C$	Issiqqa chidamliligi, $^{\circ}C$	Qo‘shilgan eritgich miqdori, %	Deformatsiy alanish harorati, $^{\circ}C$
Shamot kaolini	40-44	1450-1500	1750-1770	1.5-3	1500
Shamot soztuproqli	38-40	1350-1420	1710-1750	5-6	1400
Andaluitli	57	1400-1500	1750 dan ortiq	2.7	1450
Disten sillemanitli	65	1500-1550	1750 dan ortiq	3.5	1570
Diosporli	68	1500-1550	1750 dan ortiq	3.5	1500
Mullitli	73	1550-1650	1750 dan ortiq	3.5	1580

Olovbardosh alumosilikat g'ishtlarning xossalari massa tarkibiga kiruvchi aluminiy (III)-oksidining miqdoriga bog'liq. Tarkibidagi oksid miqdori ortgan sari g'ishtning ko'rsatkichlari ham ortib boradi.

Tadqiqot ob'ekti:

Shuningdek olovbardosh noorganik alumosilikat g'ishning sifatini yaxshilashda uning granulometrik tarkibi alohida ahamiyatga ega. Agar g'isht tarkibidagi mayda donachalar miqdori bir-biriga mutanosib bo'lmasa yuqori haroratga va siqilishga bardoshliligi kamayib boradi. Olovbardosh g'ishtlarning xom-ashyolarini saralashning eng yaxshi va inson salomatligiga salbiy ta'siri kam qurilma bu Sito-Burat SM-237 markali saralash mashinasi.


Ushbu qurilma orqali olovbardosh noorganik alumosilikat g'ishtlarning xom-ashyolarini uch xil fraksiyaga saralab olish mumkin. Yuqori sifatli va mustahkam olovbardosh g'isht ishlab chiqarish uchun uning granulometrik tarkibini, pishirish temperaturasini va pishirish vaqtini etiborga olish zarur bo'ladi. Mahalliy korxonalarda ishlab chiqarilayotgan olovbardosh g'ishtning pishirish vaqti va temperaturasi chet elda tayyorlanayotgan shu turdagi mahsulot bilan deyarli bir hil. [3,4]. Faqat farqli tomoni shundaki 1 tonna shamotli olovbardosh g'ishtning xom ashyosi saralash mashinasidan o'tgan holatida granulometrik tarkibning talab darajasida emasligi. Olovbardosh g'isht ishlab chiqarishda asosan aylanma harakat qiladigan elaklardan foydalaniladi. Mahalliy korxonalarda Sito-Burat SM-237A rusumli xom ashyoni saralash qurilmasi ishlatilib kelinmoqda. Olovbardosh g'isht uchun sito-buratdan o'tgan

- 1 fraksiyadan – 30% (300kg),
- 2 fraksiyadan – 23% (230kg),
- 3 fraksiyadan – 10% (100kg) va
- 4 ikkinchi darajali kaolin – 26% (260kg),
- 5 SP kaolin AKS – 11% (110kg)
- 6 namlik – 5÷8%.

Olingan natijalar:

Olovbardosh noorganik alumosilikat g'ishtlarning xom ashyosi saralash jarayoniga yetib borgunga qadar bir necha bosqichdan o'tib boradi va bu jarayonlarda bajarilgan ishlarning sifati saralash jarayoniga yo salbiy, yo ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Omborga olib kelingan xom ashyo birinchi bosqichda jag'li maydalagichga kelib tushadi, shundan so'ng esa kovushli konveer yordamida begunga yetkaziladi. Keyingi bosqichda xom ashyo saralash mashinasiga kelib tushadi va bu yerda Sito-burat SM-237A qurilmasi yordamida uch xil fraksiyalarga ajratiladi. Sito-burat SM-237Aning konstruksiyasidagi kamchilik unga kelib tushgan xom-ashyo, mashinaning asosiy xossasi bo'lgan xom-ashyoni fraksiyalarga ajratishda donadorlik tarkiblarini bir hilda bo'lmayotgani ya'ni kichik o'lchamli xom-ashyolar yirik o'lchamlilari bilan keyingi qismga o'tib ketayotgani natijada ishlab chiqarilayotgan maxsulotlarning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatyati. Chunki ishlab chiqarilayotgan olovbardosh g'ishtning markasiga qarab fraksiyalardan kerakli miqdorda qo'shiladi.

Sito-buratning ishchi qismida xom ashyo konusning kichik tomonidan katta tomoniga qarab harakatlanadi va shu yo'nalishda fraksiyalarga saralanadi. Birinchi Sito-buratga tushayotgan xom-ashyo mayda setkali qismga ya'ni 1 mm gacha bo'lgan xom-ashyo elash qismiga tushib shunda xalqa qo'yilishidan oldin 1 mm gacha bo'lgan zarrachalar yiriklari bilan keyingi qismga o'tib ketayotgan edi ammo sito-buratning konstruksiyasiga kiritilgan o'zgarish tufayli biz hohlagan o'lchamdagi xom ashyo saralanib olinadi. Shunda boshqa yirikroq o'lchamdagi zarrachalar bilan birgalikda keyingi qismga o'tib ketishini oldini olish uchun 20 mm balandlikda halqa(to'siq) qo'yilsa kichik o'lchamlik xom-ashyo keyingi bosqichga o'tib ketmaydi. [8-12].



1-rasm. Sito-burat SM-237A: 1- gorizontal val, 2 - podshipniklar, 3 –xom ashyo kirish qismi, 4 –turli o‘lchamdagi setkalar, 5 –setkalarning ramalari.

Shu usulda magnezit, dolomit, forsterit, xromit va sun'iy birikmalar asosida tayyorlangan materiallar yuqori harorat ta'siriga chidamliligi jihatdan boshqalardan ajralib turadi. Forsteritli g'ishtning 1750 °C dan yuqori haroratdagina erishi va bir kvadrat santimetr yuzasining 500 kg gacha kuch ta'sirida siqilishga bardosh bera olishi uning yuksak darajada pishiqligidan dalolatdir.

Xulosa: Sito burat SM-237A ning konstruksiyasiga kiritilgan ya'ngi qo'shimcha halqalar orqali mayda o'lchamli fraksiyalarni keyngi bosqichga o'tib ketishining oldi olindi va sifatli olovbardosh noorganik alumosilikat g'isht olinadi

Adabiyotlar:

1. Tojiev, R., Ortikaliyev, B., & Tojiboyev, B. (2019). Improving selecting technology of raw materials of fireproof bricks. *Тенденции и перспективы развития науки и образования в условиях глобализации. Украина*, 27(46), 606-609.

2. Тожиев, Р. Ж., & Ортикалиев, Б. С. (2019). Оловбардош ғишт ишлаб чиқаришда хом ашёларни саралаш жараёнини тадқиқ қилиш. *Журнал Технических исследований*, (2).

3. Tojiyev, R. J., Ortiqaliyev, B. S. O. G. L., Abdupattoyev, X. V. O., & Isomiddinova, D. I. J. Q. (2021). Donador-sochiluvchan mahsulotlarni saralashda sm-237a markali mashinalarini o'rni. *Scientific progress*, 2(2), 1378-1381.

4. Ортикалиев, Б. С., & Тожиев, Р. Ж. Оловбардош ғишт ишлаб чиқаришда хом ашёларни саралаш жараёнини тадқиқ қилиш. *Техник тадқиқотлар журнали-2019 й.*

5. Tojiyev, R., Ortiqaliyev, B., & Sotvoldiyev, K. (2021). Improving the design of the screed for firebricks using solidworks. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, 1(5), 91-99.

6. Ортикалиев, Б. С., & Тожиев, Р. Ж. (2021). Sifatli olovbardosh g'isht ishlab chiqarishda xom ashyolarni saralash jarayonini tadqiq qilish. *Замонавий бино-иншоотларни ва уларнинг конструкцияларини лойиҳалаш, барпо этиш, реконструкция ва модернизация қилишининг долзарб муаммолари*.(1-65), 199-203.

7. Ортикалиев, Б. С., & Тожиев, Р. Ж. (2019). Сито-бурат СМ-237Арусумли оловбардош ғишт хом ашёсини саралаш машинисини иш режмларини таҳлили."

8. Tojiyev, R., Ortiqaliyev, B., Abdupattoyev, X., & G'ulomov, I. (2021). Production of refractory bricks in industrial enterprises and sorting of their raw materials. *Материали конференцій МЦНД*.

9. Tojiyev, R. J., Ortiqaliyev, B. S. O. G. L., & Abdurayimov, A. A. O. G. L. (2021). Saralash mashinalarining qiyosiy tahlili. *Science and Education*, 2(11), 359-367.

10. Rasuljon, T., Azizbek, I., & Bobojon, O. (2021). Studying the effect of rotor-filter contact element on cleaning efficiency. *Universum: технические науки*, (6-5 (87)), 28-32.

11. Ortikaliev, B. S., & Mukhamadsadikov, K. J. (2021). Working width and speed of the harrow depending on soil resistivity. *Web of Scientist: International Scientific Research*.

12. Tojiyev, R., Rajabova, N., Ortiqaliyev, B., & Abduolimova, M. (2021). Destruction of soil crust by impulse impact of shock wave and gas-dynamic flow of detonation products. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2(11), 106-115.

MALON KISLOTA DIGIDRAZONLARI ASOSIDA Cu(II) KOMPLEKS BIRIKMALARI SINTEZI VA TUZILISHI

Abduraxmonov S.F., To'qсанov I.P., Asadov J.I.


Annotatsiya: Ushbu ishda 3-okso-N-fenilbutanamid va malon kislota digidrazidining o'zaro kondensatlanish reaksiyasi asosida olingan bis-tridentat organik birikmalarning sintezi, tuzilishi bayon qilingan.

Kalit so'zlar: kondensatlanish reaksiyasi, bis-tridentat, malon kislota digidrazidi, 3-okso-N-fenilbutanamid, kompleks birikma.



Jahon miqyosida asosiy e'tibor sintetik koordinatsion kimyoda aniq stereokimyoviy tuzilishga ega bo'lgan organik ligandlar sintezi va dizayni muammolariga qaratilgan. Bunday kompleks hosil qiluvchi ligandlar sifatida polidentant organik ligandlar juda ahamiyatli bo'lib, hozirgi vaqtda kimyo sanoati, biologiya, tibbiyot, farmakologiya va qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan kompleks birikmalarning sintezi jadal rivojlanib bormoqda. Shuning uchun polidentat organik ligandlar asosida oraliq metallar ionlarining kompleks birikmalari sintezi, ularning tarkibi, tuzilishi va xossalari aniqlash amaliy hamda nazariy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Dunyo kimyo sanoatida dikarbon kislota digidrazonlari asosida kompleks birikmalarning rejali sintezini amalga oshirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, o'simliklarni o'sishini tezlashtiruvchi va hosildorligini oshiruvchi, bakteritsid va fungitsid preparatlarni olishda samarali usullarini ishlab chiqish, turli reaksiyalarning selektivligini oshirish, dikarbon kislota digidrazidlari asosida organik moddalar sintezi, tautomeriyasi, kompleks hosil qilish qobiliyatini aniqlashga alohida e'tibor berilmoqda.

N-fenil-3-oksobutanamidning dikarbon kislota digidrazidlari bilan 1:1 va 1:2 molyar nisbatda o'zaro ta'siri natijasida yangi organik moddalar sintez qildik. Olingan moddalar uchun keto-, keto-yenol yoki yenol tautomer shakllar mavjud.




N-fenil-3-oksobutanamidning malon kislota gidrazidlari bilan kondensatlanish mahsulotlari erituvchining va diketon molekulasidagi fenilamin guruhi tabiatiga bog'liq ravishda ochiq digidrazon (A) va diyengidrazin (B) tautomer shakllar orasida muvozanat borligi, bundan tashqari ikki juft halqa-chiziqli tautomerlar orasida muvozanatlar: digidrazon (A) – 5-oksipirazolin (D) yoki diyengidrazin (B) – 5-oksipirazolin (D) kuzatiladi. Ayrim hollarda, erituvchi qutbliligi va molekula tarkibidagi o'rinbosarlarning tabiatiga qarab, bu uchta tautomer shakllar orasidagi muvozanat ham bo'lishi mumkin. Element analiz natijalariga asosan olingan N-fenil-3-oksobutanamid malon kislota digidrazidi bilan 1:1 hamda 2:1 molyar nisbatda reaksiyaga kiritilganda kondensatlanish faqat atsetil karbonili hisobidan amalga oshadi. Sintez qilingan moddalarning qattiq holatdagi tarkibi va tuzilishini element analizi va IQ spektroskopik usulda, eritmadagi tuzilishi esa YaMR ^1H spektrlari bilan isbotlandi.



Dipirazolin shakli (D) pirazolin halqalarining 5-holatdagi uglerod atomlari bo‘lgan ikkita xiral markazga ega. Shunga ko‘ra (D) shaklni ikkita diastereomer, ratsemik modifikatsiya (RR, SS) va mezo-shakl (RS, SR) bilan ifodalash mumkin. Birinchi diastereomerning diatsil qismidagi metilen guruhining protonlari diastereotopik, ikkinchisida enantiotopikdir.

Sintez qilingan yangi moddalarning ahamiyatli jihati shundaki u bis-tridentat ligand sifatida Ni(II), Cu(II) va Zn(II) atsetatlari bilan bir qator kompleks birikmalari sintezi amalga oshirildi.

Malon kislota digidrazonining spirtli eritmalari va mis(II) atsetatning suv-ammiakli eritmasi 1:2 mol nisbatda aralastirilganda $Cu_2L \cdot 2NH_3$ kompleks birikmasi hosil bo‘ldi:



Komplekslar piridinda eritilsa, ammiak oson almashinadi va dietilefiri ta’sirida oson cho‘ktirib olinadi.

VITAMIN B₁₂ - TABIATDA UCHRAYDIGAN ENG MURAKKAB TUZILISHLI KOORDINATSION BIRIKMA

Qodirova Z.K., Raximova N.A.

Buxoro davlat universiteti


Annotatsiya. Mazkur maqolada vitamin B₁₂ (sianokobalamin), uning kimyoviy tarkibi, kompleks birikma sifatidagi tuzilish formulasi, biologik ahamiyati, organizmda bu vitamin yetishmaganda kelib chiqadigan kasalliklar va bu vitamanga boy manbalar haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. vitamin B₁₂, sianokobalamin, kobalt atomi, pirrol halqa, CN guruhi.

Kobaltning eng katta biologik ahamiyatga ega bo'lgan kompleksi - vitamin B₁₂ (sianokobalamin) dir. Vitamin B₁₂ - tabiatda uchraydigan eng murakkab tuzilishga ega bo'lgan koordinatsion birikmalardan biri. Bu birikma va unga struktura jihatdan yaqin birikmalar organizmda xilma-xil biologik vazifalarni bajaradi. Odam, hayvon organizmlari va o'simliklar uchun bu vitamin kerakli modda bo'lib, unung kamligi pernitsioz anemiyaga olib keladi.

Kimyoviy tarkibi jihatidan B₁₂ vitamin tarkibida metall atomi kobalt, u bilan bog'langan sian (CN) guruhi bor vitamin bo'lib, siankobalamin deb ataladi. Siankobalaminning asosi 4 ta pirrol halqasidan tashkil topgan korfirin yadrosi bo'lib, pirrol halqalari (III va IV pirrol radikallaridan tashqari) o'zaro metin "ko'prikchalari" orqali bog'langan.

Ikkita metin guruhidagi vodorod atomlari metil radikallari bilan almashingan. Markazda kobalt atomi joylashgan bo'lib, u pirrol halqasidagi azot va CN guruhi bilan bog'langan. Pirrol halqalaridagi vodorod atomlari ham metil guruhlari, sirka va propion kislotamidlari bilan almashgan.



Siankobalamin (B₁₂ vitamin)

Propion kislotamidlaridan birining NH₂ guruhining bitta vodorodi riboza-3-fosfatdagi fosfat kislotasi bilan efir bog'lari orqali bog'langan izopropil spirit radikallariga almashingan. Riboza o'zining birinchi uglerod atomi orqali dimetilbenzimidazolning azoti bilan bog'langan.

3 ta pirrol halqaning azotlari va benzimidazolning azotlaridan biri kobalt atomi bilan koordinatsion bog' orqali bog'langan.

Uning strukturasi D. Xodjkin (1955yil) aniqladi va bu kashfiyoti uchun Nobel mukofotiga (1964 yil) sazovor bo'ldi.

Tabiatda vitamin B₁₂ faqat bakteriyalar bilan sintez qilinadi.

Vitamin B₁₂ organizmdagi organik birikmalarni qaytarish xossasiga va metil guruhni o'ziga biriktirish xossasiga ega. Uning metall - uglerod bog' hosil qilish qobiliyati ajoyib. Vitamin B₁₂ adenzinuchfosfat (AUF) bilan reaksiyaga kirishganda alkilinish va Co - C (adenozin molekulasidagi) bog' hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan birikma Vitamin B₁₂ qatorining kofermenti deb nomlanadi. Koferment boshqa fermentlar bilan har xil organizmda ketadigan reaksiyalarni tezlatadi.

B₁₂ vitamin organizmda o'ndan ortiq reaksiyalarni katalizlovchi fermentlarning kofermenti sifatida qatnashadi.

Kobalamin avitaminozida xavfli kamqonlik rivojlanadi. Bu kasallik vaqtida oshqozon shirasida xlorid kislotasi miqdori juda pasayib ketadi, ba'zan umuman ajralmasligi ham mumkin. Normal tabiiy sharoitda ichak florasi mikroorganizmlari odam organizmi talabiga yetarli miqdorda kobalamin sintez qilib beradi. Bu vitaminning so'rilishi Kastel ko'rsatishicha, ichki faktor deb atalgan oshqozon shirasidagi glikoproteidga bog'liq. Kobalamin shu oqsil bilan bog'lanib, oson so'riladigan ko'rinishga o'tadi. Agar bu mukoprotein ishlab chiqarilmasa kobalamin so'rilishi izdan chiqadi va avitaminoz rivojlanadi.

Jigardan sof holda ajratib olingan B₁₂ vitaminining molekulyar og'irligi (uning tarkibidagi kristallizatsiya suvi miqdoriga qarab) 1360-1575 bo'lishi mumkin. B₁₂ vitamin to'q qizil kristall modda bo'lib, kimyoviy tuzilishining eng xarakterli belgisi tarkibida kobaltning 4,5 % miqdorda mavjud bo'lishidadir. Bu birikma tarkibida azot bilan koordinatsion bog'langan metall bo'lgan yagona vitamindir.

Kobalaminga sutkalik talab 10 – 20 mkg. Bu vitamanga eng boy manba qoramol va jo'janing jigari, shuningdek baliq mahsulotlari hisoblanadi.


Kobalamindagi kobaltni aniqlash

Kerakli asbob va idishlar: pipetkalar, chinni tigellar, suv hammomi, gaz gorelkasi, lakmus qog'oz.

Reaktivlar: Kobalaminning 0,1% li eritmasi, kaliy bisulfat kukuni, distillangan suv, o'yuvchi natriyning 10% li eritmasi, fenolftaleinning 0,1% li eritmasi, natriy atsetat kukuni, sulfat kislotaning 15% li eritmasi α -nitrozo- β -naftolning 0,5% li eritmasi, konsentrlangan nitrat kislotasi, eritmasi α -nitrozodisulfo- β - naftolning 0,5% li eritmasi, vodorod xloridning 10% li eritmasi, α -nitrozo- β - naftolning atsetondagi 1% li eritmasi, natriy gidrofosfatning 10% li eritmasi, konsentrlangan xlorid kislotasi.

Kobalaminning kaliy bisulfat bilan qotishma hosil qilinishi vaqtida, kobalamin parchalanib, kobalt ajralib chiqadi, uni α -nitrozo- β -naftol yoki α -nitrozodisulfo- β - α naftol (1- nitrozo-2-naftol-3,6-disulfonat natriy) bilan beradigan qizil rangli kompleks tuz hosil qilish reaksiyasi yordamida aniqlash mumkin. Kimyoviy reaksiyani bajarayotgan paytda unga sirka kislotaning natriyli tuzi qo'shiladi, chunki kuchli kislotali muhit kompleks hosil bo'lishiga xalaqit berishi mumkin.

Kompleksning tuzilishini quyidagi sxema ko'rinishida tasavvur qilish mumkin (M.A.Ilinskiy).



Ishning bajarilishi

I-variant. 1% li kobalamindan 1 ml (yoki B₁₂ vitaminning bitta ampulasi) chinni tigelchaga quyib, suv hammomida quriguncha qizdiriladi, uning ustiga 0,5 g kaliy bisulfat (KHSO₄) solinadi va ochiq alanga yoki to'r ustida qotishma hosil qilinadi. Qotishma sovitilgandan keyin uni 3 ml distillangan suvda isitish yo'li bilan eritiladi. Hosil bo'lgan eritmani 10% li o'yuvchi natriy eritmasi bilan fenolftalein ishtirokida neytrallanadi. Uning ustiga 0,5 g natriy atsetat, 0,5 ml 15% li sulfat

kislota va 0,5 ml 0,5% li α -nitrozo- β -naftol yoki 0,5 ml α -nitrozodisulfo- β - naftol qo'shiladi. Suyuqlik qizil rangga kiradi.

II-variant. 1% li kobalamindan 1 ml (yoki B₁₂ vitamining bitta ampulasi) chinni tigelchaga yoki probirkaga quyib, ustiga 1 ml konsentrlangan nitrat kislota va 3 ml konsentrlangan xlorid kislota qo'shiladi, song hosil qilingan massa mo'rili shkaf ostida past ochiq alangada quriguncha qizdiriladi. Aralashma sovutilgandan keyin tigelchadagi cho'kma 1 – 2 tomchi suvda eritiladi, uning ustiga α -nitrozo- β -naftolning atsetondagi 1% li eritmasidan 1 tomchi qo'shiladi va lakmus ishtirokida kuchsiz ishqoriy muhit hosil bo'lguncha natriy gidrofosfatning 10% li eritmasidan tomiziladi. Eritmada Co⁺³ ion bo'lsa, qo'ng'ir ranq, agar bu ion bo'lmasa, sarg'ish-yashil rang paydo bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ergashov M.Y., Qodirova Z.Q. Biokimyodan laboratoriya mashg'otlari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2018. -180 b.

2. Юсупов В.Г., Тошев М.Т., Парпиев Н.А. Координацион бирикмалар кимёси. Тошкент.: Университет. 1996

КООРДИНАЦИЯ ПАРАОКСИБЕНЗАЛЬДЕГИДНОГО СЕМИКАРБАЗОНА С МОЛИБДЕНОМ

¹Гулбаев Я.И., ²Холмунинова Д.А., ³Хамидов С.Х., ⁴Абдуллаев А.А.

¹К.х.н., доц., ²Старший преподаватель, ^{3,4}Ассистент
Джизакской Политехнический институт

Аннотация. Сравнением межплоскостных расстояний и относительных интенсивностей тиосемикарбазона, параоксibenзоальдегиди их комплексных соединений состава [MoO₂(СКпОБА-Н)₂]Cl₂ показано, что новые координационные соединения отличаются между собой, а также от исходных компонентов, следовательно, соединения имеют индивидуальную кристаллическую решетку.

Ключевые слова: рентгенограмма, физико-химические методы анализа, термическая устойчивость, семикарбазон парабензоальдегид.

В современной координационной химии в разделе химии твердого тела металлокомплексы, содержащие в лигандном окружении разные N,O-донорные центры, занимают особое место. Интерес к ним обусловлен тем, что исследование таких металлокомплексов развивается в связи с их использованием в качестве молекулярных магнетиков, каталитических систем, компонентов оптических регистрирующих сред и др. Они являются хорошими моделями для изучения проблемы конкурентной координации в химии комплексных соединений благодаря специфическому действию их окружения на стереохимию полиэдров. Комплексные соединения металлов обладая рядом специфических свойств, нашли широкое практическое использование во многих отраслях народного хозяйства.

Известно, что производные семикарбазонов участвуют во многих биологических процессах и в зависимости от количества применяемой дозы проявляют стимулирующую и гербицидную активность в семенах низких растений и зерновых культур. С другой стороны, в жизни растений большое значение имеет молибден. Этот элемент играет важную роль при синтезе белка и в обменных процессах соединений азота у растений. Кроме этого, молибден необходим для нормального усвоения атмосферного азота бобовыми культурами. Использование молибдена в сельском хозяйстве вместе с органическими веществами обеспечивает сохранность фосфора в почве на весь период роста растений. В литературе описано что за счет синергетического эффекта, биологическая активность комплексов

повышается по сравнению с суммарным биологическим эффектом составляющих исходных компонентов.




Рисунок 1. Рентгенограмма молекулы семикарбазона параоксибензальдегид.




Рисунок 2. Рентгенограмма молекулы семикарбазона параоксибензальдегид с молибденом.

Анализ ИК спектров поглощения полученных производных семикарбазонов показал, что в высокочастотной области спектра проявляются частоты, характерные для валентных колебаний связей ОН, NH, N⁺H₂, молекул воды, первичных и вторичных аминных групп. Частоты связей С=Ни С=О проявляются в области 1640-1670 см⁻¹. Полосы, характерные для сульфатного дианиона обнаружены при 1150, 970 и 620-630 см⁻¹. Частоты в области, 1440-1465 см⁻¹ обусловлены колебаниями ароматического кольца. Полосы валентных колебаний связей С-Н замещенного бензольного кольца, плоских и неплоских деформационных колебаний связей С-Н ароматического кольца наблюдаются соответственно при 710-800 см⁻¹.




Рисунок 3. ИК-спектры поглощения молекулы семикарбазона бензальдегид.




Рисунок 4. ИК-спектры поглощения молекулы [MoO₂(СКБА)·Н₂]₂·Сl₂.

В процессе комплексообразования в молекулах семикарбазонов происходят перегруппировки тигридридной части лигандов, т.е. с приближением катиона комплексообразователя разрываются π-связи группы С=С и одновременного протон вторичной аминной группы мигрирует к атому серы и замещается ионом молибдена. В ИК-спектрах диоксокомплексов из-за сложения спектров весьма трудно точно определить изменения характеристических частот координированных лигандов. Однако, имеются определенные отличия и изменения положение частот, по которым следует предложить образование пятичленного хелатного цикла с участием азометинового атома азота и атома серы. Так, в спектрах большинства комплексов в области 600-700 см⁻¹ проявляются новые полосы, отнесенные к валентным колебаниям связи С-S-

Кривая нагревания ДТА соединения СКп-ОБА обуславливается эндоэффектами при 110; 190; 230; 360 и экзоэффектами при 390 и 420°С.

Термолиза Мо(СКп-ОБА)₂·2Н₂О отмечены эндоэффект при 90; 832 и экзотермические эффекты при 210; 390; 500; 545°С. Первый эффект следует отнести к отщеплению двух молекул воды. Убыль массы по кривой ТГ составляет 6.85% (вычислено 6.95%). Природы

других экзотермических эффектов обусловлены интенсивным стадийным разложением комплекса. Общая убыль массы при 600°C составляет 76.0%.

На кривой ДТА комплекса $\text{MoO}_2(\text{СКБА}) \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ отмечены эндоэффекты при 87; 130; 280; 305; 615 и экзоэффекты при 350, 450 и 535°C. Первый эндоэффект соответствует удалению 1.5 молекулы воды. При этом убыль массы по кривой ТГ составляет 6.55% (вычислено 6.49%). Второй эндоэффект характеризуется обезвоживанием комплекса, убыль массы в интервале температур 120-140°C составляет 2.16%. Природа последующих термоэффектов связано интенсивным разложением безводного комплекса диоксомолибдена (VI). Характер двух последних экзотермических эффектов обусловлен окислением продуктов термолитиза молибденового комплекса. Убыль массы в диапазоне температур 450-520°C составляет около 2%. Общая убыль массы при 600°C составляет 73%.




Рисунок 5. Дериватограмма свободной молекулы СКнОБА.

В результате исследования термического поведения соединений установлено, что термические характеристики синтезированных комплексов зависят от природы лигандов, состава соединений, дентатности ацидолигандов и характера внешнесферных анионов. Кристаллизационные молекулы воды удаляются при низких температурах.

Полученные результаты могут быть использованы для синтеза других органических лигандов и координационных соединений d-металлов, а также могут служить в качестве справочных данных для научных сотрудников и работающих в области координационной химии.

Список литературы

1. Иманакунов Б.И. Взаимодействие ацетамида с неорганическими солями. – Фрунзе: Илим, 1976. - 204 с.
2. Сулайманкулов К.С. Соединения карбамида с неорганическими солями. – Фрунзе: Илим, 1976. - 223 с.
3. Abdulkasimovich A. A. et al. SELECTIVELY TRANSFER THE MOLYBDENUM COMPLEX TO THE SOLUTION WHEN WORKING WITH THE SODA METHOD. – 2022.
4. Гулбаев Я.И., Худояров А.Б., Шарипов Х.Т., Азизов Т.А. “Синтез и кристаллическая структура тиосемикарбазона о-оксиацетофенона”. //Узбекский химический журнал. -1997 г. №2. С43-45.

5. Abulkasimovich A. A., Khodyevich K. S. Recycling of molybdenum waste by hydrometallurgical method //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – Т. 11. – С. 1-4.

6. Irsalievich G. Y. et al. CRYSTAL AND MOLECULAR STRUCTURE OF THE U (VI) DIOXOCOMPLEX WITH BENZOYLHYDROZONE OF SALICYLIC ALDEHYDE //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 276-281.

7. Шарипов Х. Т. и др. КРИСТАЛЛИЧЕСКАЯ И МОЛЕКУЛЯРНАЯ СТРУКТУРА ДИОКСОКОМПЛЕКСА U (VI) С БЕНЗОИЛИГИДРОЗОНОМ САЛИЦИЛОВОГО АЛЬДЕГИДА //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 330-339.

ANALYSIS OF THE MAIN HYDRODYNAMIC REGULARITIES OF THE MICROBURNINGPROCESS IN ORDER TO IDENTIFY THE POSSIBILITIES OF USING BIOGAS FROM CO₂

Abdulazizov A.A., Abdunazarov A.A.

Fergana politechnic institute

Annotation: *This article presents the results of a study of the main hydrodynamic and mass transfer characteristics of a microbubble apparatus on model systems aimed at elucidating the possibility of using microbubble processes to conduct mass transfer processes between biogas and liquid.*


Key words: *microbubbling, hydrocarbons, perfluorocarbon, mass transfer, mass transfer. The mechanism of microbubble formation and the characteristics of membranes used for the microbubbling process*

To date, the process of membrane gas dispersion is mainly carried out on porous glass or ceramic membranes. The main characteristics of the membrane, which should be taken into account when studying the process of microburning, are the type and structure of the surface, porosity, as well as the shape and distribution of pore sizes. These characteristics depend both on the size of the microbubbles formed, and on the pressure and gas content in the membrane contactor [1].

The process of obtaining microbubbles with glass membranes is considered in the works [2]. In these works, porous glass membranes of a special composition, the so-called SPG membranes, were used. As a starting material for the production of the SPG membrane, a mixture Na₂CO₃, CaCO₃, MgO, H₃BO₃, As well as a mixture of Shirasu, which is the source SiO₂ and Al₂O₃. This mixture is melted at 1623 K for 3 hours. After cooling down to 1473 K a glass matrix is formed, consisting of Na₂O — CaO — MgO — B₂O₃ Al₂O₃ — SiO₂, which is given the desired shape - flat or tubular.

Then, the samples are heat treated at 933-953 K for 20 hours. During this process, the phase separation of the homogeneous glass matrix into two phases occurs - one containing acid-soluble oxides Na₂O — CaO — MgO — B₂O₃, other insoluble Al₂O₃— SiO₂. Next, the divided glass matrix is processed 0,5M solution of hydrochloric acid. As a result of the dissolution of oxides Na₂O — CaO — MgO — B₂O₃ a porous membrane structure is formed, the size of the resulting pores being dependent on the heat treatment conditions [3].

A detailed description of the manufacturing process of SPG membranes can be found in.



a)

b)

a) membrane with an average pore size of 3

b) a membrane with an average pore size Of

Figure 1a - Porous structure of glass SPG membranes

Figure 1b - shows the surface images of glass SPG membranes.


As can be seen from the figures, SPG-membranes have sinuous cylindrical pores that form a three-dimensional working structure.

The porosity of such membranes is quite high and lies in the range 0.56-0.58, regardless of the pore size. The contact angle of the surface of the membrane with water is 23° - 27° , which corresponds to the hydrophilic surface.

It can also be noted that on the surface of such membranes there are practically no ridges of roughness (which is explained by the method of their manufacture).

An important feature of SPG membranes is the narrow distribution of their pores in size. Thus, in Figure 2 (a), the integral curves of the pore size distribution for membranes with an average pore diameter of 43, 55, 64 and 85 nm are presented [4]. It can be seen that for all membranes the spread of pore diameters is about ± 20 nm. Figure 2 (b) shows the differential pore size distribution curve for a membrane with an average pore size of 3 μm (a photograph of the surface of this membrane is presented in Figure 1 (a)). Here, one can also see a rather narrow distribution of the pore sizes-a spread of diameters of ± 1 μm .

As noted in [14-16], the size of the bubbles produced during microbubbotation strongly depends on the distribution of pore sizes. Thus, in [5], the dependence of the diameters of the microbubbles formed on the diameter of the membrane pores was studied. As the liquid phase, 0.3 wt. % solution of sodium dodecyl sulfate, the flow rate of which in the membrane tube was 0.7 m/s.



a) Integral distribution curves for membranes with an average pore size of- (a) 43 nm, (b) 55 nm, (c) 64 nm, (d) 85 nm;

b) differential distribution curve for a membrane with an average pore size of 3 μm .

Figure 2 - Distribution of the pore size of SPG membranes

It was found that under these conditions, the size of the microbubbles formed linearly depends on the pore size and for all cases is approximately 8.6 times greater than the mean diameter of the membrane pores. This is also confirmed by the results of. The dependence obtained in.

Reference

1. Biogas plants in Europe // A practical handbook.-Springer, 2007. - 361 p.
2. Barbara Eder, Heinz Schulz. Biogas Praxis /перевод на рус // Биогазовые установки: практическое пособие.-2006.-121p.
3. Дытнерский Ю.И., Брыков В.П., Каграманов Г.Г. Мембранное разделение газов. - М.: Химия, 1991. –344 с.
4. Christensen T., Christensen T.H., Cossu R, Stegmann R. Landfilling of Waste // Biogas (Hardcover). -Publisher: Taylor & Francis; 1st ed edition, 1996.-840p.
5. Concise Encyclopedia of Bioresource Technology.-CRC Press, 2004.-735p.

CHOP ETUVCHI QURILMALAR(PRINTERLAR)NI BO'YOQLARINI ALMASHTIRISHDAN HOSIL BO'LGAN CHIQUINDILAR (TONER) NI ORGANIK KISLOTALAR YORDAMIDA QAYTA ISHLASH.

Bazarov A.A., Barkamoljon V.

Farg'ona politexnika instituti

***Annotatsiya.** Hozirgi kunda hech bir tashkilotlarni yoki ishlab chiqaruvchi korxonalarni kompyuter va chop etuvchi qurilmalarisiz tasavvur etib bolmaydi. Ana shu chop etuvchi qurilmalar insoniyatga foydasi tegishi davomida ma'lum darajada tabiatga ham zarar keltirmoqda. Ushbu maqola hosil bo'lgan chiqindilarni qayta ishlab undan qayta foydalanish to'g'risida.*

***Kalit so'zlar:** chop etuvchi qurilma(printer), toner, akrill, organik kislotalar, aseton, butilasetat, temir qo'sh oksidi, simob, chiqindilar, rang bo'yoqlari, bo'yoqning narxi, arzonlashtirish, tabiat, ekologiya.*

Hozirgi vaqtda chiqindilarni qayta ishlash chiqindilarni boshqarish siyosatida eng muhim chora-tadbirlardan biri hisoblanib kelinmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda chiqindilarni qayta ishlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan joriy yilning 2-fevral kuni chiqindilar bilan ishlash tizimini takomillashtirish va hududlardagi ekologik holatni yaxshilash, "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish bo'yicha 2022-yildagi ustuvor vazifalar yuzasidan maishiy chiqindi to'plash qamrovini **95 %**ga, qayta ishlash hajmini **40 %**ga yetkazish vazifasi qo'yilgan edi.

Yuqoridagidan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda insoniyatni ham ma'naviy ham jismoniy extiyojlarini qondirish uchun juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Bu yo'lda olimlar juda ko'plab ixtiro hamda yangiliklarni tadbiq qilishmoqda. Shunday tadbirlardan biri bu chop etuvchi qurilma (printer) bo'lib, usiz idora ishlarini tasavvur qilib bo'lmaydi. Bilamizki chop etuvchi qurilma (printer) o'z ishini bajarishi uchun unga turli rangdagi bo'yoqlar quyib turish kerak, va bu bo'yoqlarni tugagach almashtirish kerak bo'ladi. Ana shu chop etuvchi qurilmalar(printerlar)ning bo'yoqlarini almashtirishdan hosil bo'lgan chiqindi - toner deyildi. Toner bu tarkibi doimiy bo'lmagan qora rangli kukunsimon modda hisoblanadi. Shu kukunsimon modda suvdagi haroratga chidamli bo'lib tabiatda yoqolishi qiyin modda hisoblanadi. Toner tarkibida akrillar va temir qo'sh oksidi borligi hisobiga biroz magnitlik hossasi mavjud bu esa moddani havoga tarqalishini biroz bo'lsada oldini oladi.

Ammo, ushbu toner changiga tashqi ta'sir ko'rsatilsa osongina havoga ko'tariladi. Bu chang inson organizimi va tabiat uchun zarari katta chunki, uning tarkibida simob kabi zaharli chiqindilar bir sabab bilan havoga ko'tarilsa chang insonni nafas olish azosiga osongina kirib ketadi va nafas olish organida yalliqanishlarni vujudga keltirishi mumkin. Yoki bir inson qoli yoki boshqa azolari orqali bilmasdan ushbu changni oziq -ovqat orqali yoki boshqa bir sabab bilan istemol qilib yuborilsa oshqozon ishlash faoliyatini buzilishiga olib keladi. Shuningdek bu chiqindi o'simliklar va

hayvonot olami uchun ham zarari katta. Chunki ushbu chang o'simlik barglari yuzasiga qoplanib qolsa o'simlikni nobud bo'lishiga olib keladi. Bunga sabab esa, yuqorida aytib o'tilganidek toner suvga juda ham chidamli va uning bu hususiyati o'z navbatida o'simlikdagi moddalar almashinuvi jarayonlarini izidan chiqarib salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Endigi bizning oldimizda turgan asosiy masala bu chiqindini qayta ishlash yo'llarini topish hamda jamiyatga tadbiq qilish. Toner doimiy tarkibli bo'lmaganligi bois uni qaysi erituvchida erishini aniqlash qiyin bo'ladi. Tarkibidagi temir qo'sh oksidi hisobiga noorganik kislotalarda deyarli erimaydi, erigan taqdirda ham kuchli kislotalarda eriydi. Bu vaziyatda organik kislotalarga murojaat etishimizga to'g'ri keladi. Organik kislotalar ichida aseton, butilasetat va shu kabi kislotalar tonerni erita oladi. Organik kislotada erigan toner qora bo'yoqsimon eritma hosil qiladi. Bizning ishimizni asosiy maqsadi va vazifasi ham ana o'sha suyuqlikni ajratib olishdan iborat bo'lib, bundan tashqari, bir qancha vaqtdan buyon ishlatilganda hosil bo'lgan chiqindilarni foydali yo'nalishga yo'naltirishdan iboratdir.

Olingan eritmani ishlatilish sohalariga keladigan bo'lsak. Temir va toshli yuzalarni bo'yashda masalan: yo'l belgilarini. Bu eritma qoplangan yuzasida qatlam hosil qiladi va suv, chang, quyosh nuri kabi tabiiy yemirishlarni oldini oladi. Hossalari jihatdan rang bo'yoqlarni o'rnini bosa oladi. Lekin olingan mahsulotni bo'yoq deb bo'lmaydi, ammo bo'yoqni o'rnini bosa oladi.

Ushbu hulosalardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, maqsad chiqindini sifatli mahsulot holiga keltirish. Asetonda erigan toner albatta bo'yoqsimon bo'ladi lekin sifat jihatidan talabga javob bermaydi. Masalaning yana bir tomoni borki, aseton kamyob modda hisoblanadi. Bu esa mahsulot narxini oshishiga olib keladi. Bizga esa hamyonbob mahsulot olish yo'li kerak. Mahsulot hossalarni kuchaytirish uchun turli qo'shimchalar qo'shish imkoni ham mavjud. Bunda spirt ishlab chiqarishdan hosil bo'lgan qoldiq ancha yordam beradi. Endilikda so'ngi qoshimchani qo'shilsa mahsulot ancha sifatli holga keladi bu qo'shimcha sanoatda ichlab chiqarilgan bo'yoqdan oz miqdorda kerak bo'ladi. Bo'yoq qo'shishdan maqsad ikkala moddalar bir birlarining hossalarni kuchaytirib berishadi.

Mana shu yuqoridagilardan biz zararli chiqindidan foydali mahsulotni olamiz. Eng muhim tomoni juda ham arzon va sifati ham talabga javob beradi. Hech qaydan maxsus sharoit yoki harorat talab etilmaydi. Maqsad chiqindini yo'qotish va bo'yoqning narxini bir necha marotaba arzonlashtirishdan iborat. Albatta insoniyat musaffo holatda tabiat ekologiyasini asrash muqaddas vazivalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. "Органик химия" С. И. Искандаров А.А. Абдусаматов, Р. А. Шоймарданов. Ўқитувчи нашриёти. Тошкент. 1979 йил
2. Ртуть в подземных и поверхностных водах Бухаро-Каршинской нефтегазоносной области АА Базаров - Экономика и социум, 397-401, 2020
3. Study of the Distribution and Physico-Chemical Properties of Deep Groundwater in Some Areas of the Altiaryk and Besharik Districts of the Fergana Region and Their Rational Use IA Sabirovich, AA Bazarov, OM Sodiqovna - Eurasian Journal of Engineering and Technology 5, 120-124, 2022
4. Бухоро-Карши ва ғарбий Сибир нефт ва газ худудларидаги ер ости ва ер усти сувларида симобни тарқалиш қонуниятларини ўрганиш ҳамда уларни қиёслаш АА Базаров - Science and Education 1(3), 86-92 2020
5. Получение нитрата калия методом конверсии О.А. Узакон, ОМУ Мадаминов, АА Базаров... - Universum: химия и биология, 2022
6. Каталитик риформинг қурилмаларидан агфу-этан блоки қурилмасига "қурук газ" узатишда газ таркибидаги суюқ углеводородларни ажратиб олиш схемасини тадбиқ этиш АГ Жумабоев, АА Базаров, ХМ Полвонов - Science and Education, 2020

FARG'ONA XUDUDIDAGI YER OSTI, YER USTI VA OQOVA SUVLARIDAGI SIMOBNI ORGANIK VA NOORGANIK BIRIKMALARIDAN TOZALASHDA INNOVASION USULLARDAN FOYDALANISH

Bazarov A.A.

Farg'ona politexnika instituti

Annotasiya. Bizga ma'lumki, yildan yilga insoniyat ko'payib borgan sari hamda sanoat rivojlanib, yangi-yangi texnologiyalardan foydalanish kuchayganligi tufayli yer usti suvlari kamayib yer osti suvlariga talab ortib bormoqda. Lekin yer osti suvlarida foydali mineral birikmalar bo'lishi bilan birga zaharli birikmalar – xususan, simob kabi toksik minerallar ham uchrashi mumkin. Quyida ana shu simob moddasini yer osti suvlaridan ajratish va ekologik toza suv olish to'g'risida innovasion mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: sanoat, yer usti va yer osti suvlari, simob, organik va noorganik birikmalar, xlor, o'yuvchi natriy, kimyoviy birikmalar, zaharli ximikatlar, metalloorganik birikmalar, sintez qilish, plastik materiallar, qog'ozli massa, to'qimachilik mahsulotlari, kazein yelimlar, mog'or zamburug'lari.

Tabiiyki Farg'ona xududi geologik va gidrogeologik xususiyatiga ko'ra, asosan tog' va qirliklardan iborat [1]. Farg'ona xududiga kirib keluvchi yer usti suvlarning 80 foizdan ortig'i qo'shni Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalaridan asosan, tog'lardagi qorlarni erishi orqali oqib keladi. Ma'lumki, yer osti suvlari tarkibida Na^+ , K^+ , Ca^{2+} , Mg^{2+} , Fe^{2+} kabi qattiq minerallar bilan birga zararli va zaharli minerallar, xususan, qo'rg'oshin, radon, olti valentli xrom, bariy kabi moddalar hamda simobning birikmalari yoki moddalari ham bo'lishi mumkin [2]. Ayniqsa, qo'shni Qirg'iziston orqali oqib keluvchi suvlar tarkibida simob miqdori nisbatan ko'pligi bilan ahamiyat qozonadi. Sababi, bu qo'shni davlat tog'larida simob koni mavjudligi bilan izohlanadi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi bilan transchegaraviy xududlardagi yer osti va yer usti suvlarida simob moddasining miqdori yuqoriligi bilan ifodalanadi. Bundan tashqari, yer osti suvlarining neft mahsulotlari bilan qilgan mineralizasion qatlamlari orasida ham yod, brom, galliy, talliy kabi elementlari qatorida simob miqdorining ruxsat etilgan meyoriy ko'rsatkichdan anchagina yuqoriligi qayd qilinganini ko'rish mumkin. Masalan, Buxoro-Qarshi neft-gaz qatlamlari orasidagi yer osti suvlarida simobning miqdori yuqoriligi bilan ifodalanadi [3-4].

Shuningdek, Buxoro-Qarshi va boshqa xududlardagi neft-gaz qatlamlari orasidagi yer osti suvlarida simobning miqdori yuqoriligiga asosiy sabablardan biri, yer osti darzliklari bilan bog'liqligi qayd etib o'tiladi [5].

Simob va uning birikmalari bilan ifloslangan oqova yoki yer usti va yer osti suvlari yuqorida aytilganidek, qo'shni davlat konlari orqali o'tish bilan birgalikda, o'tgan suvlar yer ostiga sizib kirish orqali yer ostida va tuproqlarda simob miqdorini oshirib yubormoqda. Shuningdek, yer osti suvlarida nisbatan harorat yuqori bo'lganligi sababli turli kimyoviy jarayonlarni tezlashishida ham muhim rol o'ynamoqda [6].

Xlor va o'yuvchi natriy ishlab chiqarish, simobni ishlab chiqaruvchi yoki qayta ishlab chiqaruvchi zavod va sexlarda, simob elektrodleri qo'llaniladigan yoki ishlatiladigan elektroliz jarayonlarida, ba'zi galvanik yoki shunga o'xshash elementlar ishlab chiqarishda, bo'yovchi moddalar ishlab chiqarish va tayyorlashda, qo'mir qazib olishda, issiqlik elektr stansiyalarida hamda simobli katalizatorlar sifatida qo'llovchi sanoatlarda hosil bo'lar ekan.

Yer osti, yer usti yoki sanoat oqava suvlarida simob metali hamda uning noorganik va organik birikmalari bo'lishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda yozilishicha, hozirgi kunga kelib simobning 30 dan ortiq kimyoviy birikmalari mavjud bo'lib, uning noorganik birikmalariga: simob(II) oksidi HgO , simob xloridi (ayrim manbaalarda sulema- deb yuritiladi) HgCl_2 , simob sulfat- HgSO_4 , simob sulfidi (kristallografik nomi Kinovar) - HgS , simob nitrat - $\text{Hg}(\text{NO}_3)_2$, simob tiosianati - $\text{Hg}(\text{NCS})$, simob sianati- $\text{Hg}(\text{OCN})_2$, simob sianidi - $\text{Hg}(\text{CN})_2$ kiradi. Noorganik birikmalarda simob Hg^{2+} ioni zaharli bo'lganligi sababli, uni yaxshi eriydigan hamda oson dissosiyalanadigan tuzlari inson salomatligi uchun xavfli bo'lib, meyoridan ortib ketishi natijasida

quloq og'rig'i, ko'z xiralashi yoki ko'ngil aynishi kabi ko'ngilsiz oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Simobni organik birikmalari zaharli ximikatlar sifatida metalloorganik birikmalarni sintez qilishda, plastik materiallarni, qog'ozli massa, to'qimachilik mahsulotlari bilan bog'liq xolatlarda, kazein yelimlar tayyorlash jarayoni va mog'or zamburug'laridan himoyalashda foydalaniladi. Organik birikmalari juda zaharli bo'lib, uning suv havzalaridagi REMMiqdori 0,005mg/l.ni, baliqchilik xo'jaligi suvlarida 0,00001 mg/l.ni, dengiz suvlarida esa 0,0001 mg/l.ni tashkil etadi.

Simob metali foylanadigan yer osti yoki yer usti hamda oqova suvlar tarkibidan asosan, cho'ktirish yoki filtrlash hisobiga tozalanadi. Filtrdan o'tib ketgan (ba'zan simob shunchalik kichik zarralarga ajraladiki, xatto, u gazlar bilan birikma hosil qilib uchish xususiyatiga ham ega) yoki cho'kib ulgurmagan zarrachalari xlor yoki NaOCl bilan HgCl₂ gacha oksidlanadi. Shundan so'ng, ularni ajratib olish va erkin xlor qoldiqlariga bog'lash maqsadida qaytaruvchi kimyoviy birikmalar (NaHSO₄ yoki Na₂SO₄) qo'shiladi. Natijada hosil bo'lgan simob sulfidni temir xlorid bilan koagullanadi va natriy sulfid yordamida cho'ktirib olinadi [7].

Umuman suv tarkibidan simobni ajratib olish uchun qaytarish usulidan foydalaniladi. Bu yerda qaytaruvchi kimyoviy birikmalar sifatida esa temir sulfidi, natriy gidrosulfid, gidrazin, temir kukunidan foydalaniladi. Suvda erigan simob birikmalarini qiyin eruvchan simob sulfidlariga aylantirib cho'ktirish usuli keng tarqalgan usullardan biri hisoblanadi. Buning uchun yer osti, yer usti yoki oqova suvga dastlab natriy sulfid qo'shiladi. Undan keyin natriy, kaliy, kalsiy va magniy xlorid birikmalri orqali ishlov beriladi. Bunday sharoitda simob sulfidi granula holatida cho'kmaga tushiriladi va vakuum-filtr yoki bo'lmasa filtr presslar yordamida ajratiladi. Suvdagi HgS ning eruvchanlik ko'paytmasi $1,6 \cdot 10^{-52}$ bo'lib, eritmadagi qoldiq konsentrasiyaga mos keladi, u esa $2,5 \cdot 10^{-21}$ mg/l.ga teng. Yer osti, yer usti yoki oqova suvlardagi simobni cho'ktirish usulidan tashqari sorbsion usulda ham tozalanadi. Masalan, oqova suvni tarkibida Zn, Co, Cu, Ni, Hg, Cd metallari bo'lsa bunday suvga Ca(OH) yoki NaOH birikmalarini qo'shish orqali bu metallarning ionlari qiyin eruvchan birikmalar hosil qiladi. Zn, Co, Cu, Hg kabi og'ir metallar ionlari oqova yoki yer osti suvlarida cho'kma hosil qiladi. Hosil bo'lgan cho'kmani esa ajratib olinadi. Ni moddasi esa eritmadan qiyin eruvchi birikma holatida ajratib olinadi. Og'ir metallarni, shu jumladan simob metalini ionlarining gidroksid va sulfidlari barqaror kolloid tizimlar hosil qiladi. Yer osti yoki oqova suvlarning cho'kish jarayonini tezlatish uchun bu suvlarga koagulant yoki flokulant qo'shish tavsiya etiladi [8].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Farg'ona xududidagi yer osti, yer usti va oqova suvlaridagi simobni organik va noorganik birikmalaridan tozalashda yuqorida qayd etib o'tilgan innovasion usullardan foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bazarov A.A. Farg'ona hududining geologik tuzilishini o'rganilganlik darajasi bo'yicha ayrim mulohazalar Фарғона политехника институти илмий-техника журнали. 2022 йил. спец. выпуск. №13. Scientific-technical journal (STJ FerPI, ФарПИ ИТЖ, НТЖ ФерПИ, 2022, Т.26. спец. выпуск №13)

2. Study of the Distribution and Physico-Chemical Properties of Deep Groundwater in Some Areas of the Altiaryk and Besharik Districts of the Fergana Region and Their Rational Use

IA Sabirovich, AA Bazarov, OM Sodiqovna - Eurasian Journal of Engineering and Technology 5, 120-124, 2022

3. Ртуть в подземных и поверхностных водах бухаро-каршинской нефтегазоносной области А.А. Базаров - Экономика и социум, 397-401, 2020

4. Бухоро-Карши ва ғарбий Сибир нефт ва газ худудларидаги ер ости ва ер усти сувларида симобни тарқалиш қонуниятларини ўрганиш ҳамда уларни қиёслаш АА Базаров - Science and Education 1(3),86-92 2020

5. Buxoro-Xiva neftegaz hududi mezo-kaynazoy yotqiziqilarida simobning genezisi Namangan muhandislik-texnologiya institute "Kimyo texnologiya, kimyo va oziq-ovqat sanoatidagi

muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari” mavzusidagi Xalqaro anjumani. 18-19 noyabr. 2022 yil.

6. Farg‘ona artezian havzasining chuqur er osti termal suvlari va ularning ahamiyati. A.A. Bazarov Фарғона политехника институти илмий-техника журнали. 2022 йил. спец.выпуск. №14. Scientific-technical journal (STJ FerPI, ФарПИ ИТЖ, НТЖ ФерПИ, 2022, Т.26. спец.выпуск №14)

7. Каталитик риформинг курилмаларидан агфу-этан блоки курилмасига “курук газ” узатишда газ таркибидаги суюк углеводородларни ажратиб олиш схемасини тадбиқ этиш АГ Жумабоев, АА Базаров, ХМ Полвонов - Science and Education, 2020

8. Оқова сувларни тозалаш технологияси. С.Туробжонов, Т.Турсунов ва Х.Пулатов “Муסיқа” нашриёти, Тошкент -2010 йил

GUMIN KISLOTA TUZLARINI OLISH USULI

Mirzaolimov A.N., Amirov A.O‘.

Fargona politexnika instituti

Annotatsiya: Gumin kislotalarni olish uchun xom ashyo sifatida oldindan maydalangan, diametri 1 mm dan oshmaydigan va $t=145-150$ °C haroratda ishlov berilgan o‘simlik qoldiqlari fraksiyasidan foydalaniladi. Keyinchalik, ishqoriy ekstraktsiya amalga oshiriladi, ekstrakt filtrlanadi va xlorid kislota qo‘shish orqali eritmadan gumin kislotalar cho‘ktiriladi, so‘ngra cho‘kma eritmadan ajratiladi. Gumin kislotalar tuproq tuzilishini yaxshilashda, o‘simliklarning o‘shini tezlashtiruvchi modda, organik-mineral o‘g‘itlar sifatida qo‘llaniladi.

Kalit so‘zlar: Gumin kislota tuzlari, fulvo kislota, o‘simlik qoldiqlari, ishqor, antrasit, kaliy gidroksid, kaliy fulvatlari, ishqoriy ekstrakt, IQ spektr.

Ko‘mir va torfdan gumin kislotalar ishlab chiqarishning bir qancha usullari mavjud. Ushbu usullarning asosiy kamchiliklari qayta tiklanmaydigan yoki qiyin qayta tiklanadigan tabiiy resurslardan xom ashyo sifatida foydalanishdir.

Texnik yechimga eng yaqin usul o‘simlik qoldiqlaridan xom ashyo sifatida foydalanish, yuqori haroratda qayta ishlash, ishqor bilan aralashtirish, sovutish va tuzlarni qo‘shishni o‘z ichiga oladi. Usulning kamchiliklari jarayonning murakkabligi, yuqori harorat sharoitlari (170-210 °C) va jarayonni bosim ostida o‘tkazish zarurligi hisoblanadi [1].

Yuqoridagi usullarda ko‘rsatilgan kamchiliklardan xoli usulni ishlab chiqish umumiy bo‘lgan holatlardan foydalangan holda hal qilinadi. Masalan, o‘simlik qoldiqlarini yuqori haroratda qayta ishlash, kaliy gidroksid eritmasi bilan aralashtirish orqali gumus moddalarini olish usulidir. Xom ashyo sifatida ishlatiladigan o‘simlik bargi qoldiqlari diametri 1 mm dan oshmaydigan fraksiyaga oldindan maydalanadi, so‘ngra $t=145-150$ °C da haroratda ishlov beriladi, ishqoriy ekstraktsiya, ekstraktni filtrlash va cho‘ktirish, xlorid kislota qo‘shish orqali eritmadan gumin kislotalarni cho‘ktirish, so‘ngra eritmadan cho‘kmani ajratish.

Jarayonni soddalashtirish, uni nisbatan oddiyroq sharoitlarda o‘tkazish uchun jarayon umumiy shartlari quyidagicha amalga oshiriladi.

Quruq tok barglari maydalanib $d < 1$ mm fraksiya olinadi. Maydalangan o‘simlik qoldiqlari 150 °C haroratda termik ishlov beriladi. Termik ishlovdan so‘ng modifikatsiyalangan qoldiqlarni 0,1 n. li KOH eritmasi orqali ajratib olinadi. Aralashtirgandan so‘ng to‘q rangli gumatlar va kaliy fulvatlari tutgan ishqoriy eritma tindirish uchun qo‘yiladi va vakuum ostida filtrlanadi. Namunani ishqor bilan qayta ishlash va gumusli moddalarni olish ishqoriy ekstrakt rangi sezilarli darajada tiniqlashguncha davom etadi.

Olingan ekstraktlar yig‘ib olinib, gumin kislotalar cho‘ktiriladi. Buning uchun koagulyatsiyaning birinchi belgilari paydo bo‘lgunga qadar 10% HCl qo‘shiladi. Eritmaning pH qiymati 1-2 oralig‘ida bo‘lishi kerak.

Olingan preparatni fulvik kislotalar va mineral komponentlar aralashmalaridan tozalash uchun 0,1 n kaliy gidroksidda qayta eritiladi va yoqorida ko'rsatilganidek nisbatan suyultirilgan mineral kislota qo'shib cho'ktiriladi. Olingan cho'kma quritiladi.

Yuqori haroratda (150 °C) sodir bo'lgan o'simlik qoldiqlarining oksidlanish jarayoni tuproqdagi organik birikmalarning mikrobiologik oksidlanishiga o'xshaydi. Organik moddalar transformatsiyaga uchrab yuqori molekulyar moddalarga aylanadi va ishqoriy ekstraktsiya yo'li bilan ajratiladi. O'simlik xom ashyosini 1 mm gacha maydalash termik ishlov berish jarayonini va ishqoriy ekstraktsiyani tezlashtirishga yordam beradi. Tanlangan vaqt oraliqlarida olingan gumusli moddalarning molekulyar og'irliklari, elementar tarkibi va boshqa fizik-kimyoviy xossalardagi o'zgarishlar dinamikasini kuzatish mumkin. Termik ishlov berilgan barg qoldiqlaridan ajratilgan gumus moddalarning elementar tarkibi, IQ spektrlari va boshqa fizik-kimyoviy xossalari chirindili tuproqdan ajratilgan gumus moddalar bilan mos keladi.

Termik ishlov berish uchun quruq tok barglari olingan. Ular qayta ishlash uchun $d < 1$ mm fraksiyasigacha maydalangan. Turli xil namunadagi maydalangan o'simlik qoldiqlari quritish shkafida 145 °C haroratda termik modifikatsiyaga uchraydi (mos ravishda 1-namuna 5 daqiqa, 2-namuna 10 daqiqa va 3-namuna 20 daqiqa).

Termik modifikatsiyalangan barglardan 0,1 n li KOH eritmasi orqali gumin kislotalar olindi. Tayyorlangan namunadan totib olib stakangan solinadi va 100 g qismga 600-700 ml miqdorida kaliy ishqori qo'shildi. Eritma aralashtirgandan so'ng tindirish uchun qo'yiladi. Kaliy gumatlari va fulvatlari bo'lgan to'q rangli ishqoriy eritma qog'oz filtri orqali Byuxner voronkasida vakuum ostida filtrlanadi. Namunani ishqor bilan qayta ishlash va gumusli moddalarni ajratib olish ishqoriy ekstrakti sezilarli darajada tiniqlashguncha davom etadi [2].

Olingan komponentlar yig'ilib, gumin kislotalar cho'ktiriladi. Buning uchun koagulyatsiyaning birinchi belgilari paydo bo'lgunga qadar 10% HCl qo'shiladi (suyuqlik shaffofligini yo'qotadi, rangi yanada qo'ng'ir tusga o'tadi). Bunda eritmaning pH qiymati 1-2 oralig'ida bo'lishi kerak.

Hosil bo'lgan gumin kislota preparati odatda fulvo kislotalar aralashmasini, gumus moddalar tarkibiga kiruvchi organik birikmalarni va yuqori kul tarkibni o'z ichiga oladi. Ortiqcha moddalardan tozalash uchun gumin kislota yana 0,1 n kaliy gidroksidda eritiladi. Gumin kislotalarning tozalangan suspenziyasi 3000 ayl/min tezlikda 10 daqiqa davomida sentrafuga qilinadi. Olingan cho'kma quritiladi. O'simlik qoldiqlaridan ajratilgan gumin kislotalarning tarkibini aniqlash uchun biz quyidagi fizik-kimyoviy tahlil usullari o'tkazildi:

Element analizatori CHN-1 yordamida elementar tahlil o'tkazildi. Ma'lumotlar 1-jadvalda keltirilgan. Olingan preparatdagi asosiy elementlarning (C, H, N, O) tarkibi tuproq gumin kislotalarining elementar tarkibiga yaqin keladi.

- IQ spektroskopiya IKS-14 spektrofotometrda amalga oshirildi. Infraqizil spektrlar yaxshi o'rganilgan 700 dan 1750 sm^{-1} gacha bo'lgan diapazonda taqqoslandi. Olingan spektrlarda gumin kislotalarga xos bo'lgan yutilish chiziqlari aniqlandi.

1-Jadval

Gumin kislotalarning elementar tarkibi (mas.%)

Belgilanishi	C	N	H	O
B	56.13	4.85	5.52	33.5
5	55.93	4.83	5.34	33.9
10	55.68	4.78	5.22	34.32
20	55.47	4.7	5.02	34.81
T	53.28	4.2	4.78	37.74

bu erda B - issiqlik bilan ishlov berilmagan barglardan ajratilgan gumin kislotalar; 5, 10, 20 - mos ravishda 5, 10, 20 daqiqa davomida termik ishlov berilgan barglardan ajratilgan gumin kislotalar; T - chirindi tuproqdan ajratilgan gumin kislotalar.

Adabiyotlar

1. Блюмберг Э.А., Зверев А.Н., Вольгемут А.А. «Способ получения гуминовых кислот». Патент 2176631, опубликованный 10.12.2001.

2. Полоскин Р.Б., Поляков Ю.Ю., Гладков О.А. и др. «Способ получения солей гуминовых кислот». Патент №2205166, МПК C05F 11/02, опубликован 27.05.2003

HEAT CAPACITY OF COMPOSITES

Ulmasov A.A.
Fergana Polytechnic Institute


Abstract. *This article discusses ways to improve the durability of composite materials*

Key words: *paint and varnish materials, erosion-resistant coatings, erosion wear, polymer composite materials.*

If the structure of the matrix did not change when the filler was introduced, then the heat capacity of the composite C_V would be the sum of the heat capacities of its components and change linearly with the filler concentration. However, it turned out [1] that the concentration dependences of the heat capacity show a minimum at an average distance between the filler surfaces, $L/d_f - 1 \approx 3$ (see Fig. 1).

Heat capacity is the amount of energy that is expended on the excitation of oscillations when the temperature changes by one degree.

Therefore, a change in heat capacity is a consequence of a change in the spectrum of molecular vibrations. In turn, the spectrum of vibrations depends on the regularity of the structure of the matrix molecules and the perfection of their stacking. If the polymer molecules are as straightened as possible, the atoms in them are stacked regularly, and they do not contain bends (gauche



isomers), the number of their vibrations is limited.

Fig 1. Dependences of the heat capacity of the composite (PDFO matrix , filler segments of glass fibers) on the average distance between their fiber surfaces (in units of diameter).

These are the vibrations of the skeleton of the molecule , the vibrations of the side groups and the skeleton of molecules . Any violations of the regular structure of molecules and their mutual stacking lead to the appearance of new oscillations localized on such violations.

Let us now find out the reason for the appearance of a minimum in the dependences of the heat capacity on the average distance between the filler particles In work investigated the clustering of various types of objects - cracks , nanodefects , corrosion spots , bacteria , etc. d . with an increase in their concentration . It has been established that there is a critical concentration of the considered objects , at which $L/d - 1 \approx 3$ and the components begin to form clusters . Clustering is

energetically favorable to it increases the configurational entropy of the system and decreases the heat capacity .

However, at small distances between filler particles (2–3 filler particle diameters) , the clusters begin to overlap . Overlay leads to their destruction . As a result, the entropy begins to decrease , and the heat capacity begins to increase .

References

1. Sofian N. M., Neagu M. R., Neagu E. Metal Powder-Filled Polyethylene Composites. V. Thermal Properties. // J. Thermoplastic Composite Materials. 2001. Vol. 14. P. 20 -33
2. Arzamasov B. N. Material Science: textbook for technical universities / B. N. Arzamasov [et al.]. - Moscow: Bauman Moscow State Technical University, 2001. - 648 p.
3. Fibrous and dispersed-reinforced composite materials / edited by N. V. Ageev. Moscow : Nauka Publ., 1976, 214 p. (in Russian)
4. Fibrous composite materials / edited by M. X. Shorshorov. Moscow: Mashinostroenie Publ., 1983, 320 p. (in Russian)
5. Fibrous composite materials: translated from English / edited by J. R. R. Tolkien. Wheaton and E. Scala. Moscow: Metallurgiya Publ., 1978, 238 p.s

KINETICS AND ISOTHERM OF Cu^{2+} ION SORPTION ON A NEW SORBENT OBTAINED ON THE BASIS OF VERMICULITE

¹Tursunmuratov O., ²Bekchanov D.

¹Chirchik State Pedagogical University

²National University of Uzbekistan named after Mirzo

Abstract. *This paper presents the results of the study of the sorption of Cu^{2+} ions in artificial solutions to the ion obtained on the basis of vermiculite at 293, 303 and 313 K, the duration of sorption to equilibrium (24 hours) and at different concentrations. The kinetics of the processes were studied, and Langmuir and Freundlich isothermal models were used to represent the adsorption mechanism at equilibrium. The isotherm parameters calculated on the basis of the obtained results are $R^2(0,998-0,9998)$. value was found to be consistent in all isothermal models. According to the Langmuir isotherm model, $q_{max} = 40,161 \text{ mg / g}$, and according to the Freundlich isotherm model, $n = 0,277$. This indicates a high sorption of Cu^{2+} ions into the ionite based on vermiculite.*

Keywords: *Vermiculite, copper ions (Cu^{2+}), adsorbent, CEC, kinetics, Langmuir, Freundlich and isotherm.*

Introduction. It is clear that nowadays, the continuous development of industry in the world and the introduction of advanced technologies are causing the decline in water and air quality. The negative impact of an increase in the concentration of pollutants in the composition of water and air on the ecosystem and human life is steadily increasing. One of the risks from these effects is the presence of heavy metals in the composition of pollutants. These heavy metals pollute industrial wastewater and the environment. Due to their high concentration toxicity, carcinogenic effects occur on humans and animals. Based on the above, it is required to remove pollutants containing heavy metal ions such as Cu, Ag, Ni and Co from wastewater [1]. This is briefly mentioned in this research work.

The continuous development of industry and the introduction of advanced technologies in the world are causing the quality of water and air to decrease. The negative impact of the increase in the concentration of pollutants in water and air on the ecosystem and human life is increasing day by day. One of the most dangerous of these effects is the presence of heavy metals in pollutants. These heavy metals pollute industrial wastewater and the environment. Their high concentration has

a carcinogenic effect on humans and animals due to their toxicity. Based on the above, it is required to remove pollutants containing heavy metal ions such as Cu, Ag, Ni and Co from waste water [1].

Traditional methods for removing heavy metals from aqueous solutions include ion exchange, ultrafiltration, and adsorption. The adsorption method from these methods is affordable, effective even when the concentration of heavy metals is low, is used in wastewater treatment due to its universal nature, sensitivity to toxic substances, the possibility of regeneration.

In recent years, the use of “slyuda” and composite compounds made from them as adsorbents has been giving effective results in order to prevent and eliminate pollution of the environment with organic and inorganic pollutants. Therefore, interest in the use of non-chemical and cheap adsorbents is growing, an example of which is the vermiculite-clay mineral, to which the group of aluminosilicate belongs [4, 5]

Vermiculite is an environmentally friendly product that does not contain heavy metals. It is a 100% natural material and is neutral in relation to alkalis and acids that do not pose a danger to humans, the environment. Vermiculite is not prone to rotting and oxidation organic solvents and is insoluble in water and therefore does not lose its properties over time and has significant relief ($0.065\text{--}0.130\text{ g/cm}^3$) as well as being a very abundant and much cheaper raw material in nature. It can be modified in many ways, resulting in inorganic-organic hybrid materials [6]. One of the unique properties of vermiculite is its delamination at high temperatures due to the loss of water inside the layers. It has a high resistance to chemicals and heat, the interchangeability of cations, the ability to maintain temperature and adsorb water. Vermiculite was also used as a reinforcing material for the production of polymer composites. Vermiculite has a cation exchange capacity, being a type 2:1 layered aluminum silicate mineral that has water molecules and exchange cations in its inter-layer cavity [7, 8].

The inter-layer areas of vermiculite, which are characterized by exchange of ions, adsorption, etc., are considered favorable for chemical reactions. Organic or inorganic species can be introduced into the inter-vermiculite space by physicochemical method, such as ion exchange, adsorption, and intercalation resulting in changes in vermiculite properties [9].

The ability of cation exchange in vermiculites is the result of surface and inter-layer ion exchange processes as well as isomorphic exchange. Such properties associated with high surface areas have been studied as adsorbent materials to remove heavy metal ions from industrial and household waste. The level of the ability of cation exchange of vermiculite will depend on the amount of exchange cations present in the layer and the outer surface. It has a constant negative charge, characteristics of large surface areas, and the sorption ability of cations, such as high cation exchange ability (120-140 mmol/mg) [10,11].

Until now, the properties of vermiculite sorption, its application in wastewater treatment have been widely studied, and the results of the experiment have been studied to make it a suitable adsorbent for the treatment of heavy metals such as Pb(II), Cd(II), Cu(II) and others from wastewater. Vermiculite has been used in aqueous solution as an effective adsorbent for simultaneous adsorption of Cd^{2+} and Pb^{2+} ions, for which it has been modified with the surface active ingredient octylamine and adsorption has been studied [12].

Research materials and methods

In particular, in this article, the kinetics and isotherm of the sorption of Cu^{2+} ions of vermiculite-based ion exchangers in the study of artificial solutions were obtained from ion exchangers with a static exchange capacity of 2.5 mg•eq/g on HCl in an amount of 4 g/l. ions. Solutions of different concentrations, which contained Cu^{2+} and were 0.1, 0.05 0.025 and 0.0125 mol•l⁻¹, were prepared. Sorption of 100 ml of solution at temperatures of 293, 303 and 313 K until reaching equilibrium (up to 24 hours) was studied (with the help of EMC-30PC-UV Spectrophotometer) (Cu^{2+} at 800 nm wavelength).

The CEC value of an ion exchange was calculated as follows:

$$CEC = \frac{100 \cdot k_1 - \frac{100}{10} \cdot k_2 \cdot a}{10 \cdot g}$$

k_1 — $0,1 \times V$ (alkali)/ V (acid) = 0,1 theoretical, k_2 — $0,1 \times V$ (primary acid)/ V (spent alkali)
 a — amount of alkali consumed per sorbed HCl, g — sorbent mass

CEC unit $mg \cdot eq/g$

The amount of sorption was calculated using the following formula:

$$q_e = \frac{(C_0 - C_e)}{m} \times V$$

In order to study the mechanism of adsorption of vermiculite-based ion exchange based on the balance of the sorption process, it was studied whether it fits the Langmuir and Freundlich models:

The Langmuir isotherm model is used to find the q_{max} and K_L values from the C_e/q_e dependence graph by the angle value of the slope of the intersection using the following linear representation [9].

Using the linear representation given below, the Langmuir isotherm model finds the q_{max} and K_L values through the angular value of the intersection slope from C_e dependence graph of C_e/q_e [9].

$$\frac{C_e}{q_e} = \frac{1}{q_e K_L} + \frac{1}{q_{max}} \cdot C_e$$

The linear equation of the Freundlich isotherm model can be expressed in the following formula [13].

$$\log q_e = \log K_F + \left(\frac{1}{n}\right) \log C_e$$

RESULTS AND DISCUSSION

Research

The figure below shows the duration of absorption of copper (II) ions at different times and to the ion exchange obtained on the basis of vermiculite.




Fig. 2. Graph of the time dependence of the absorption of Cu^{2+} ions into an ion exchange obtained on the basis of vermiculite.




Fig. 3. SEM images of vermiculite-based ionite (a) and (b) before Cu (II) adsorption

SEM morphologies of vermiculite-based ionite before and after Cu(II) adsorption are shown (Figure 3). It can be concluded that copper(II) ions were absorbed into the vermiculite-based ionite.

The results of the study of the isotherm of equilibrium state in adsorption processes are presented in the following (a and b) graphs:




Fig. 4 Graphs of Langmuir (a) and Freundlich (b) isotherm models of sorption of Cu²⁺ ions on vermiculite-based ion exchange

Table 1

Absorption isotherm constants of Cu ²⁺ ion				
Langmuir isotherm model	q_{max}	K_L	R_L	R²
293 K	30,3	0,00194	0,1467	0,998
303 K	35,714	0,002	0,1427	0,9991
313 K	40,161	0,00294	0,1044	0,9998
Freundlich isotherm model	1/n	n	K_F	R²
293 K	3,433	0,291	2,5604	0,974
303 K	3,4855	0,287	3,152	0,994
313 K	3,9355	0,254	4,783	0,9825

In summary, in Figure 2 above it can be seen that with an increase in time and concentration, the sorption amount of Cu (II) metal ions to the ion exchange increases. This indicates the absorption of Cu (II) ions into the ion exchange obtained on the basis of vermiculite.

The above table (Table 1) shows that the amount of sorption of Cu(II) metal ions to ion exchange is R²(0.998-0.9998). According to the Langmuir isotherm model $q_{max}=40,161\text{mg/g}$, and the RL value is 0.131 in all studied concentrations, which indicates that the sorption process is favorable. According to Freundlich isotherm model $n=0.277$ absorption was convenient. This

means that Cu^{2+} ions are absorbed into the new ion exchange by chemisorption. This shows the sorption of Cu^{2+} ions to the new ion exchange.

List of used literature:

1. Magdalena Tuchowska, Magdalena Wołowicz, Agnieszka Solinska, Anita Ko'oscielniak and Tomasz Bajda Organo-Modified Vermiculite: Preparation, Characterization, and Sorption of Arsenic Compounds Minerals 2019, №9, pp 483

2. Tursunmuratov O.X., Qutlimuratov N.M. Vermikulit asosida olingan ionitning fizik-kimyoviy xossalari SamDU Scientific Bulletin Samarkand 2020, No. 5. pp 18-22.

3. Хақимхон Галибович Курбанов, Наргиса Нуриллаевна Ахмедова, Наиль Жадитович Сағдиев, Обид Хамзаевич Турсунмуратов, Даврон Жумазарович Бекчанов Модификация гиалуроновой кислоты/ Universum: химия и биология : электрон. научн. журн. 2020. 10-1 (76). Ст 32-36

4. Турсунмуратов О.Х., Кутлимуратов Н. М. ,Бекчанов Д. Ж. , Мухамедиев М.Г. Вермикулит асосида олинган ионитнинг физик-кимёвий хossalari Fardu Scientific News 2021 No. 3 pp. 213-216

5. Qutlimuratov N.M., Tursunmuratov O.X., Bekchanov D.J. Polivinilxlorid plastikati asosidagi anionitning fizik-kimyoviy xossalari. SamDU Scientific Bulletin Samarkand 2020, No. 5. pp 22-26.

6. Мухамедиев М. Г., Хушвактов С.Ю., Жураев М. М. и, Ботиров С. Х., Бекчанов Д. Ж. Кинетика сорбции ионов меди (II) и никеля (II) полиамфолитом на основе поливинилхлорида. Universum 2021, №12 ст 25

7. Davron Bekchanov, Hidetaka Kawakita, Mukhtarjan Mukhamediev, Suyun Khushvaktov, Murod Juraev Sorption of cobalt (II) and chromium (III) ions to nitrogen-and sulfur-containing polyampholyte on the basis of polyvinylchloride. Polymers for Advanced Technologies 2021, №7 pp 2700-2709

8. Н. М. Кутлимуратов поливинилхлорид пластикати ҳамда чиқиндилар асосида олинган анионитга Mn (VII) ионининг сорбция изотермаси Academic Research in Educational Sciences volume 2 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1063-1071

9. Кутлимуратов Н.М., Бекчанов Д.Ж., Мухамедиев М.Г. Изотерма и кинетика сорбции ионов Cu (II) анионитами, на основе поливинилхлорида пластиката и отходов аминов используемых в газоочистке//Universum: химия и биология : электрон. научн. журн. 2021. 8(86).

10. Мухамедиев М.Г., Бекчанов Д.Ж. Новый анионит на основе поливинилхлорида и его применение в промышленной водоподготовке. Журнал прикладной химии. 2019. Т. 92. Вып. 11. Ст. 1401-1407.

11. Тураева Х.Т. Проведение задания реакции поликонденсации кластерным методом. Редакция журнала ««Universum: психология и образование»» сообщает Педагогические науки общая педагогика, история педагогики и образования № 7 (97) июль, 2022 г.

12. С.Ю.Хушвактов, М.М.Жураев, Н.Ж.Сағдиев, Д.Ж.Бекчанов, Сорбция ионов меди (II) и никеля (II) на азот-и серосодержащем полиамфолите. Universum: химия и биология, 2019. Т. Вып. 11-1 (65). Ст.66-70

13. С.Ю.Хушвактов, М.М.Жўраев, Д.Ж.Бекчанов, М.Г.Мухамедиев Поливинилхлорид асосидаги азот ва олтингугурт тутган поликомплексонга оралик металл ионларининг сорбцияси. Journal of Chemistry of Uzbekistan, No. 4, 36-45.

KO'MIR BRIKETLARI OLIISHDA BOG'LOVCHILARNING TASNIFI

Voxidova N.X., Olimjonov A.O.
Farg'ona politexnika instituti

Annotatsiya: Butun dunyoda yildan-yilga aholi sonining ortishi va iqtisodiyotning o'sishi natijasida neft, gaz, ko'mir va boshqa turdagi yoqilg'ilarga bo'lgan ehtiyoj yanada ortib bormoqda. Ushbu yoqilg'ilar ichida ko'mir alohida e'tiborga egadir.

Kalit so'zlar: Ko'mir, hom-ashyo, kuch, yonuvchan, bog'lovchi modda, qattiq modda.


Ko'mir yoqilg'ilari turli sanoat zonalari uchun tejamkor va keng miqyosda foydalanish imkoniyatlariga ega bo'lgan hom-ashyo hisoblanadi. Ko'mir har doim ham talab etiladigan normalarga javob bermaydi. Bunga ko'mirning tashqi kuchlar ta'siri natijasida maydalanib, mexanik mustahkamligining yo'qotilishi misol bo'la oladi. Shuning uchun hosil bo'lgan ko'mir mayda bo'laklarining yonuvchanligini oshirish uchun bog'lovchi moddalar yordamida mahsus qurilmalarda briketlash katta ahamiyatga ega [1].

Bog'lovchi va qattiq jism o'rtasidagi biriktiruvchanlikni belgilash uchun yopishtiruvchi moddalarning biriktiruvchanligi muximdir, bu bog'lovchilarning bosim mostida oson yopishish qobiliyatini tavsiflaydi. Birlashtiruvchi moddalarning maksimal yopishqoqligi shishasimon holatdan elastik holatga o'tishida namoyon bo'ladi. Bog'lovchi qattiq moddalar orasidagi kontaktlarning intensivligiga qarab, ularning delaminatsiyasi quyidagi xolatlar bilan tavsiflanishi mumkin: yopishtiruvchi uzilish qat'iy ravishda fazalar chegarasi bo'ylab sodir bo'ladi; yopishqoq uzilish adezin bo'ylab sodir bo'ladi; avtogeziv - yorilish qattiq zarrachalarning yopishgan joyida sodir bo'ladi, uning yuzasi bog'lovchi bilan qoplangan; aralash-yorilish bir vaqtning o'zida fazalar va fazalar chegarasida birlashish kuchlarining buzilishi bilan sodir bo'ladi. Yopishqoq bo'shliq, interfeysdagi yopishtiruvchi va substrat o'rtasidagi o'zaro ta'sir kuchlari yopishqoq va avtogeziv quvvatdan sezilarli darajada past bo'lgan hollarda qayd etiladi. Qattiq zarrachalarni qoplaydigan yopishtiruvchi plyonkalar orasidagi o'ta zaif bog'lanish holatlarida avtogeziv yorilish mumkin, bu juda qattiqlashtirilgan bog'lovchilarga xosdir. Yopishqoq va avtogeziv yorilish turlari kam uchraydi. Yopishqoqning kuchi past bo'lgan hollarda, odatda, yopishqoq turdagi yorilish amalga oshiriladi. Ko'p hollarda - aralash turdagi xolatga bo'shliqdir. Adezyon va bog'lanishning ko'p qirrali hodisalarini tushuntirish uchun adgezyonning bir qancha alohida nazariyalari (adsorbsiya, diffuziya, elektr, elektrorelaksatsiya, mexanik va boshqalar) mavjud[2].

Shuning uchun ko'mir kukunlaridan briketlar tayyorlashda bog'lovchi sifatida natriy silikatning suvdagi eritmasidan (suyuq shisha) foydalanish tanlangan mahalliy bog'lovchilarning samaradorligini standart (nazorat) bilan solishtirish imkonini beradi.

1-rasmda olinadigan briketlarga tavsiya etilayotgan bog'lovchilar qo'shilganda ular mexanik mustahkamligining o'zgarishi tasvirlangan. Nazorat qilinayotgan bog'lovchi modda sifatida konsentratsiyasi 5% li natriy silikatning suvdagi aralashmasidan foydalanildi.

1-rasmdan ko'rinadiki, bog'lovchi moddalar gossipol smolasi 15% gacha va piva bardasi 20% gacha qo'shilganda yuqori mutahkamlikdagi ko'mir briketlari hosil bo'ladi. Bog'lovchilarning ko'mir briketi mexanik mustahkamligi ta'siriga ko'ra quyidagi kamayish tartibida quyidagicha o'zgaradi: natriy silikatni 5% li suvdagi aralashmasi > gossipol smolasi > piva bardasi.



1-rasm. Olinadigan ko'mir briketi mexanik mustahkamligining bog'lovchi moddalar miqdoriga bog'liq o'zgarishi: 1 – natriy silikatni 5% li suvdagi aralashmasi; 2 – gossipol smolasi; 3 – piva bardasi

Ma'lumki, birlashtirish ikki o'xshash bo'lmagan suyuqlik yoki qattiq jismlar yuzasi o'rtasida sodir bo'ladigan molekulyar o'zaro ta'sirlar natijasida amalga oshiriladi. U aloqa qiluvchi jismlarning (fazalarning) sirt qatlamida joylashgan molekularning yopishish kuchlari bilan aniqlanadi. Bu kuchlar adgezyon kuchlari deyiladi. Birinchi bosqichda yopishqoq o'zaro ta'sirlar suyuq birlashtiruvchi qattiq jismning yuzasiga samarali tarqalishi bilan bog'liq bo'ladi. Namlash - suyuqlik va qattiq fazalar molekulari orasidagi tortishish kuchlari ta'sirida suyuq birlashtiruvchining qattiq sirt ustida tarqalishidir. Bunda suyuq jismning qattiq sirtida adsorbsiyasi bilan bog'liq, ikkinchi jismning o'z-o'zidan yo'qolishi va interfeys paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Qattiq suyuqlikning namlanuvchanligini amaliy aniqlash uchun sirt tarangligi va namlanish burchagi qiymatlari qo'llaniladi [3].

Bog'lovchi va qattiq jism o'rtasidagi birlashtiruvchanlikni belgilash uchun yopishtiruvchi moddalarning birlashtiruvchanligi muximdir, bu bog'lovchilarning bosim ostida oson yopishish qobiliyatini tavsiflaydi. Birlashtiruvchi moddalarning maksimal yopishqoqligi shishasimon holatdan elastik holatga o'tishida namoyon bo'ladi. Bog'lovchi qattiq moddalar orasidagi kontaktlarning intensivligiga qarab, ularning delaminatsiyasi quyidagi xolatlar bilan tavsiflanishi mumkin: yopishtiruvchi uzilish qat'iy ravishda fazalar chegarasi bo'ylab sodir bo'ladi; yopishqoq uzilish adezin bo'ylab sodir bo'ladi; avtogeziv - yorilish qattiq zarrachalarning yopishgan joyida sodir bo'ladi, uning yuzasi bog'lovchi bilan qoplangan; aralash-yorilish bir vaqtning o'zida fazalar va fazalar chegarasida birlashish kuchlarining buzilishi bilan sodir bo'ladi. Yopishqoq bo'shliq, interfeysdagi yopishtiruvchi va substrat o'rtasidagi o'zaro ta'sir kuchlari yopishqoq va avtogeziv quvvatdan sezilarli darajada past bo'lgan hollarda qayd etiladi. Qattiq zarrachalarni qoplaydigan yopishtiruvchi plyonkalar orasidagi o'ta zaif bog'lanish holatlarida avtogeziv yorilish mumkin, bu juda qattiqlashtirilgan bog'lovchilarga xosdir. Yopishqoq va avtogeziv yorilish turlari kam uchraydi. Yopishqoqning kuchi past bo'lgan hollarda, odatda, yopishqoq turdagi yorilish amalga oshiriladi. Ko'p hollarda - aralash turdagi xolatga bo'shliqdir. Adezyon va bog'lanishning ko'p qirrali hodisalarini tushuntirish uchun adgezyonning bir qancha alohida nazariyalari (adsorbsiya, diffuziya, elektr, elektrorelaksatsiya, mexanik va boshqalar) mavjud[4].

Yopishqoq birikmaning mustahkamligi ko'p jihatdan bog'lovchiga bog'liq, ya'ni, yopishqoqlik hajmidagi molekulararo o'zaro ta'sirlarning intensivligini tavsiflovchi va bog'lovchining mustahkamligini oshirib beruvchi bo'lib xizmat qiladigan kogeziya funksiyasidir. Bog'lovchining birikish kuchi W_k bilan belgilanadi. $W_k - 1 \text{ sm}^2$ kesimli yopishtiruvchi ustunni ikki qismga ajratish uchun sarflangan energiya hisoblanadi. Kogeziya ishi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$W_k = 2 \cdot \sigma_j g.$$

Bu erda birlashtiruvchi tashqi yuklarning strukturaviy-kimyoviy xususiyatlariga bog'liq bo'lib, uning statik charchashiga olib keladi. Bundan tashqari, kogeziyaga harorat-vaqt omillari, qatlam qalinligi, shuningdek, sirt faol moddalar (sirt faol moddalar), to'ldiruvchi moddalari va suvning mavjudligi ta'sir qiladi. Haroratning oshishi bog'lovchilarning birlashishini keskin pasaytiradi[5]. Haroratning 20 dan 80 ° C gacha ko'tarilishi yog' bog'lovchilarining birikishini taxminan 8 marta kamaytiradi. Quvvatning pasayishi, birinchi navbatda, kimyoviy bog'lanishlarning uzilishiga olib keladigan termal tebranishlarning energiyasi bilan bog'liq. Haroratning pasayishi bilan yopishqoqlik kuchayadi, chunki yopishqoq ichidagi molekulararo o'zaro ta'sir kuchayadi. Yupqa plyonkalarda birikish maksimal bo'ladi. Qalinlashuv bog'lovchi zanjir molekularining orientatsiya tartibini kuchaytiradi. Ikki qatlamni yopishtiruvchi ichidagi tarkibni siljitish uchun ko'proq energiya sarflash kerak. Katta hajmdagi fazali qalin plyonkalarda ichki va sirt qatlamlarining mustahkamlik xususiyatlari deyarli tengdir. Shuning uchun ichki siljish uchun kamroq energiya talab qilinadi. Birikish molekula ichidagi kogeziya kuchlari, molekularning shakli va uzunligi, yopishtiruvchi tuzilishi va sirt faol moddalar mavjudligi bilan belgilanadi. Birlashtiruvchi moddalarning birikishi zanjirli suv molekulari orasidagi bo'shliqqa kirib borishi salbiy ta'sir qiladi. Bo'shliqlar to'ldirilib, suv siqilish ta'siriga ega bo'lsa molekular orasidagi tortishish kuchlari zaiflashadi. Yopishqoq plyonkaning suv bilan haddan tashqari to'yinganligi uning to'liq erishiga olib kelishi mumkin.

Ko'mir briketlarining sifat ko'rsatkichlari ularni ishlab chiqarish texnologik parametrlariga bog'liqligini o'rganish ularning mustahkamligi va ekologik xavfsizligini oshirish imkonini beradi[6].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хакимов, А. А. (2022). Технология Получения Качественных Брикетов С Использованием Горючих Вяжущих Компонентов. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 3(6), 459-463.
2. Хакимов, А., Voxidova, N., & Rajabov, B. (2021). Analysis of collection of coal brickets to remove toxic gas. *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 1(5), 85-90.
3. Хакимов, А., Voxidova, N., Rustamov, N., & Madaminov, U. (2021). Analysis of coal bricket strength dependence on humidity. *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 1(5), 79-84.
4. Хакимов, А., Voxidova, N., Rajabova, N., & Mullajonova, M. (2021). The diligence of drying coal powder in the process of coal bricket manufacturing. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, 1(5), 64-71.
5. Хакимов, А., Voxidova, N., & Хужахонов, Z. (2021). Analysis of main indicators of agricultural press in the process of coal powder bricketing. *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 1(5), 72-78.
6. Akhmedovich, K. A. (2021). The Diligence of Drying the Coal Dust in the Process of Obtainig the Coal Brickets. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*, 1(5), 111-115.
7. Хакимов, А., & Vohidova, N. (2021). Relevance of the choice of binders for coal briquettes. *Scientific progress*, 2(8), 181-188.
8. Хакимов, А. А. (2021). Определение показателей качества угольного брикета. *Universum: химия и биология*, (5-2 (83)), 40-44.
9. Ахунбаев, А. А., Ражабова, Н. Р., & Вохидова, Н. Х. (2020). Исследование гидродинамики роторной сушилки с быстровращающимся ротором. *Экономика и социум*, (12-1), 392-396.
10. Хакимов, А. А., Вохидова, Н. Х., & Нажимов, Қ. Кўмир брикети ишлаб чиқаришнинг янги технологиясини яратиш. *Ўзбекистон республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги Заҳириддин Муҳаммад Бобур номидаги Андижон давлат университети*, 264.
11. Хакимов, А. А. (2020). Связующее для угольного брикета и влияние его на дисперсный состав. *Universum: химия и биология*, (6 (72)), 81-84.

KO'MIR BRIKETLARI OLIHDA ORGANIK VA NOORGANIK BOG'LOVCHILARNING TAXLILI

Xakimov A.A., Raximov K.M.

Farg'ona politexnika instituti

Annotatsiya: Ko'mir briketlarini ishlab chiqarishda muhim tarkibiy qismlardan biri bog'lovchi moddalar bo'lib, ular quyidagilardan iborat: bentonitli gil tuproq, kraxmal, suyuq shisha, gossipol smolasi, pivo bardasi va boshqalar.

Kalit so'zlar: Ko'mir, briket, ekologik muxit, kuch, yonuvchan, bog'lovchi modda, smola.

Hozirda bu chiqindilar shahar chiqindixonasiga olib ketilib, ular tashlangan joydagi ekologik muxitni yomonlashtirmoqda. Buni inobatga olib, olingan ko'mir briketlari uchun bu chiqindilardan bog'lovchi sifatida foydalanish imkoniyatlarini o'rganib chiqdik.

Respublika yog'-moy korxonalarida esa distillyatsiya jarayonida smola kub qoldig'i sifatida distillyatsion qurilmada yig'iladi. Bu chiqindi quyidagi tarkibga ega: yog' kislotalari (40% gacha), sovun (10% gacha), smola va uning hosilalari (5% gacha), kul miqdori (2% gacha) va qolgani yengil uchuvchan moddalar hisoblanadi. Ushbu yuqorida nomi keltirilgan moddalardan ko'mir


briktlari olishda biriktiruvchi sifatida foydalanish, olinadigan yoqilg'ining ma'lum darajada issiqlik berishi va mexanik mustahkamligini oshiradi [1].

Hozirda bu chiqindilar shahar chiqindixonasiga olib ketilib, ular tashlangan joydagi ekologik muxitni yomonlashtirmoqda. Buni inobatga olib, olingan ko'mir briktlari uchun bu chiqindilardan bog'lovchi sifatida foydalanish imkoniyatlarini o'rganib chiqdik.

Amalda, ko'mir maydalarini bog'lovchi sifatida foydalanish uchun zarur bo'lgan natriy silikat miqdorini hisoblashda, uning eritmasining zichligi qo'llaniladi, ammo natriy silikatning kimyoviy tarkibining murakkabligini hisobga olgan holda, bu qiymat har doim ham uning natriy ioni konsentratsiyasini etarli darajada aks ettirmaydi. Ikkinchisi ko'mir briktlarini ishlab chiqarish uchun nazariy jihatdan zarur bo'lgan gidroksid miqdorini hisoblashda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Ushbu eritmaning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda polikremne kislotalar hosil bo'ladi, ular ko'mir maydalaridan olingan briktlarga bog'langanda adsorbsion xususiyatlarni namoyon qiladi [2].

Biz bog'lovchi qo'shish miqdoriga bog'liq holda olingan ko'mir briktlarining yonish xaroratiga ta'sirini o'rgandik (1-rasm).




1-rasm. Olingan ko'mir briktlarining birlashtiruvchi moddalar miqdoriga qarab kalorifik qiymatining o'zgarishi: natriy silikatning 1-5% suvdagi eritmasi; 2-gossipol smolasi; 3 - piva bardasi

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, hosil bo'lgan ko'mir briktlarining eng yuqori kaloriyali qiymati 15% gacha gossipol smolasi va 20% gacha piva bardasi qo'shish orqali hosil bo'ldi. Natriy silikatning 5% suvdagi eritmasidan foydalangan holda nazorat namunasi hosil bo'lgan ko'mir briktlarining kaloriya qiymatini deyarli o'zgartirmaydi.


Olingan yuqori g'ovakdorlikdagi ko'mir briktlarining issiqlik berishi va unga qo'shilgan organik aralashmalarning maksimal yonishini oshirish zarur. Shuning uchun olinadigan ko'mir brikti g'ovakliligining qo'shiladigan moddalar miqdoriga bog'liqligini o'rgandik Olingan yuqori g'ovakdorlikdagi ko'mir briktlarining issiqlik berishi va unga qo'shilgan organik aralashmalarning maksimal yonishini oshirish zarur. Shuning uchun olinadigan ko'mir brikti g'ovakliligining qo'shiladigan moddalar miqdoriga bog'liqligini o'rgandik (2-rasm).

2-rasmdan ko'rinadiki, piva bardasini 20% gacha qo'shilishi brikt g'ovakliligini 11 dan 15% gacha oshiradi, gossipol smolasini qo'shilishi esa 11 dan 13% gacha va nazorat qilinayotgan aralashma 5% li natriy silikatning suvdagi eritmasi qo'shilganda 11 dan 12% gacha g'ovaklar ortishi kuzatildi.



2-rasm. Olinadigan ko‘mir briketi g‘ovakligining bog‘lovchi modda miqdoriga bog‘liq o‘zgarishi: 1 – natriy silikatni 5% li suvdagi aralashmasi; 2 – gossipol smolasi; 3 – piva bardasi

3-rasmda ko‘mir briketlari uchun olingan bog‘lovchi moddalar miqdoriga qarab uchuvchan moddalar unumining o‘zgarishlarni ko‘rsatadi.



3-rasm. Bog‘lovchi moddalar miqdoriga qarab ko‘mir briketlaridan olingan uchuvchi moddalar unumining o‘zgarishi: natriy silikatning 1-5% suvdagi eritmasi; 2-gossipol smolasi; 3 – piva bardasi

3-rasmdan ko‘rinib turibdiki, bog‘lovchining tarkibi va miqdori hosil bo‘lgan ko‘mir briketlarining uchuvchi moddalarining chiqishiga sezilarli darajada ta‘sir qiladi. Amaldagi bog‘lovchilardan eng ko‘p uchuvchi moddalar gossipol smolasidan foydalanganda hosil bo‘ladi (2-egri chiziq) va aksincha, eng kam miqdori natriy silikatning 5% suvdagi eritmasidan foydalanganda hosil bo‘ladi (1-egri chiziq) [3].

Ma‘lumki, bog‘lovchilar yordamida ko‘mir briketlarini ishlab chiqarishning yangi usulini yaratish bir vaqtning o‘zida barcha kerakli talablarga ideal tarzda javob beradigan yangi turdagi bog‘lovchini tanlashni o‘z ichiga oladi. Kerakli bog‘lovchining arzonligi, aglomeratsiyalangan yoqilg‘ining kalorifik qiymatini oshirish qobiliyati va briketning yuqori mexanik mustahkamligini ta‘minlash muhim ahamiyatga ega. Biz tomonimizdan bog‘lovchi sifatida tavsiya qiladigan mahalliy sanoat chiqindilari bunday ko‘rsatkichlarni ta‘minlab beradi. Barda - etil spirti ishlab chiqarish sanoatining chiqindisidir. Suyuqlik (suspensiya) och jigarrang rangdagi yoqimsiz nordon hidga ega va 6 - 7% qattiq moddalarni o‘z ichiga oladi. Spirtli ichimliklar ishlab chiqaruvchi korxonalarda 13-15 litr bardadan 1 litr spirt olinadi, qolgani esa chiqindi hisoblanadi. Barda atrof-muhitni ifloslantiruvchi chiqindilardan biri bo‘lib, ularni tozalanmasdan suv havzalariga yoki kanalizatsiyaga tashlash taqiqlanadi [4].

Tajribamizda bardali briketlarni ko‘mir kukuni bilan aralastirgandan so‘ng quritish jarayonida nordon, o‘tkir xossalari yo‘qoldi, briketlarni yoqishda esa bunday yoqimsiz hidlar kuzatilmadi. Spirt bardali briketlar kimyoviy tarkibi xom ashyo bazasiga qarab o‘zgaradi [5].

Bog'lovchi va qo'shimchalar bilan ko'mir briketlari strukturasi shakllantirishning ilmiy asoslari elimlar (yopishtiruvchi moddalar) yordamida sochiluvchan qattiq materiallarni birlashtirish turlaridan biri sifatida ko'rib chiqilishimiz kerak. Aralashma alohida aloqa zarralarini o'zaro bog'lash strukturasi shakllanish asosini o'zaro tartibga soluvchi va o'z-o'zidan sodir bo'ladigan jarayonlar tashkil qiladi hamda birlashtirish va yopishtirishni aniqlaydi va yig'adi. Birlashtirish jarayonining dastlabki bosqichi sifatida yopishqoqlik qattiq jismning (substrat) yuzasida tashkil qilgan yopishqoq plyonka hosil bo'lishi bilan bog'liq. Adgezyon bog'lovchining yopishqoq suyuqlik (ba'zan suyuq) holati bilan tavsiflanadi. Keyingi jarayonlar birlashtiruvchining maksimal quvvatini oshirishga (tiklanishiga) olib keladi. Natijada, birlashtiruvchi bilan qoplangan ajratilgan qattiq zarralar briketga birlashtiriladi (yopishtiriladi). Yelim va taglikning birlashtirishi va yelimlanishi natijasida hosil bo'lgan har qanday ko'p fazali aralashmaning mustahkamligi adgezyon, substrat va kogeziya bilan tavsiflanadi [6].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хакимов, А. А. (2022). Технология Получения Качественных Брикетов С Использованием Горючих Вяжущих Компонентов. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 3(6), 459-463.
2. Hakimov, A., Voxidova, N., & Rajabov, B. (2021). Analysis of collection of coal brickets to remove toxic gas. *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 1(5), 85-90.
3. Hakimov, A., Voxidova, N., Rustamov, N., & Madaminov, U. (2021). Analysis of coal bricket strength dependence on humidity. *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 1(5), 79-84.
4. Hakimov, A., Voxidova, N., Rajabova, N., & Mullajonova, M. (2021). The diligence of drying coal powder in the process of coal bricket manufacturing. *Barqarorlik va Yetakchi Tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 1(5), 64-71.
5. Hakimov, A., Voxidova, N., & Xujaxonov, Z. (2021). Analysis of main indicators of agricultural press in the process of coal powder bricketing. *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 1(5), 72-78.
6. Akhmedovich, K. A. (2021). The Diligence of Drying the Coal Dust in the Process of Obtaining the Coal Brickets. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*, 1(5), 111-115.

OXSIDLANGAN ANGREN QO'NG'IR KO'MIRDAN GUMATLI O'G'ITLAR OLIISH TEKNOLOGIYASI

Mirzaolimov A.N.

Fargona politexnika instituti

Annotatsiya: Gumin kislotalar - tabiiy mahsulotlar (torf, qo'ng'ir ko'mir, toshko'mir va boshqalar) dan ishqorlarning suvdagi eritmasi yordamida ajratib olinadigan organik moddalardir. Tabiatda o'simlik qoldiqlaridan yoki toshko'mir va boshqa organik mahsulotlarning oksidlanishi natijasida hosil bo'ladi. Torf xiliga, shuningdek, uning chirish darajasiga qarab gumin kislotalar har xil miqdorda uchraydi.

Kalit so'zlar: Gumin kislota, fulvo kislota, qo'ng'ir ko'mir, torf, antrasit, plastifikatorlar, kaliy gidroksid.

Gumin kislotalar - tabiiy mahsulotlar (torf, qo'ng'ir ko'mir, toshko'mir va boshqalar) dan ishqorlarning suvdagi eritmasi yordamida ajratib olinadigan organik moddalardir. Cho'kmay, eritmada qolgan organik moddalar fulvokislotalar deb ataladi. Cho'kkan gumin kislotalardan spirtida eriydigan gimatomelan kislotalar hamda erimaydigan qoldiq — gumus kislotalar ajratib olinadi. Kimyoviy tuzilishiga ko'ra Gumin kislotalar yuqori molekulyar (mol. m. 1300—1500) kondensirlangan aromatik birikmalar bo'lib, ularda fenol gidroksillari, karboksil, karbonil va

atsetoguruhlar, oddiy efir bog'lari va boshqalar borligi aniqlangan. Elementar tarkibi: 50—70% S, 4-6% N, 25-35% O.

Gumin va fulvo kislotalar keng ko'lamli biologik ta'sirga ega, shu bilan birga ulardan foydalanish mutlaqo xavfsizdir, chunki ular ekologik jihatdan qulaydir. 1960-yillarning boshidan gumin kislotalarning hayvonlarga ta'siri o'rganilib, ko'plab ilmiy ishlar olib borilgan. Ma'lum bo'lishicha, ular tananing salbiy ekologik omillarga chidamliligini sezilarli darajada oshiradi [1].

Ishlab chiqarishni rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishlaridan biri oziq-ovqat ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligidir, chunki butun mamlakat aholisining turmush darajasi ushbu sanoatning rivojlanish darajasiga bog'liq.

O'simliklarning oziqlanishi, tuproq xususiyatlarini yaxshilash va natijada hosilni oshirish uchun turli xil o'g'itlar va ozuqaviy qo'shimchalar qo'llaniladi. Bunday qo'shimchalardan biri gumatlar - gumus tarkibli maddalarning bir qismi, gumiylar kislotalarning tuzlaridir.

Gumus tarkibli moddalarni ishlab chiqarish uchun xom ashyo sifatida qo'ng'ir ko'mir, toshko'mir va torf ishlatiladi.

Qo'ng'ir ko'mir va torfdan gumatlarni olishning turli usullari mavjud. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Xom ashyoni mineral kislotalar bilan ishlov berish orqali kaliy gumatlarini ajratib olish usuli [2].

2. Qo'ng'ir ko'mirni havo kislorodi bilan oksidlash, maydalash va keyinchalik oksidlangan ko'mirdan KOH ning suvli eritmasi bilan reaksiya massasini 2 soat davomida 80 °C da doimiy aralashtirish orqali kaliy gumatlarini olish usuli. Suyuq faza kaliy gumati eritmasi shaklida ajratiladi va eritma bug'lanadi [3].

3. Qo'ng'ir ko'mirni KOH ning suvli eritmasi bilan to'yintirish orqali kaliy gumatini olish usuli [4].

4. Torfdan mineral komponentlar asosidagi gumus birikmalarini olish usuli: torf ozonlangan havo bilan oksidlovchi - gidrolitik degradatsiyaga uchraydi, keyin mineral komponentlar bilan almashtiriladi [4].

Bu usullar ancha samarali, lekin ular nisbatan past darajada gumusli moddalar unumdorligiga ega (25% dan kam) murakkab va ko'p energiya talab qiladi.

Taklif qilinayotgan texnologiya bo'yicha xom ashyo sifatida oksidlangan ko'mir, ya'ni kislorod va namlik ta'siri natijasida o'z xususiyatlarini o'zgartirgan, keyingi foydalanish uchun mos bo'lmagan ko'mirlardir. Shaxtalar va karerlarni o'zlashtirish jarayonida bunday ko'mirlar yuqori tog' jinslari bilan birga chiqindi deb hisoblanib, chiqindi poligonlariga olib ketiladi. Bunday ko'mirlar poligonlarda nafaqat yuzlab gektar unumdor tuproqlarni egallaydi, balki atmosferani ifloslantirib, yong'in chiqishiga sabab bo'ladi.


Ko'p vaqtlardan beri bunday ko'mirlarda gumus moddalarining miqdori boshqa ko'mirlarga nisbatan yuqori ekanligi hisobga olinmagan (1-jadval). Zamonaviy usullar ko'mirdan o'rtacha 25% gumatlarni olish imkonini beradi, bu texnologiya esa gumus moddalarning unumdorligini 40% yoki undan ko'proqqa oshiradi.

1-jadval

Turli navli ko'mirlarning asosiy ko'rsatkichlarini taqqoslash

	Oksidlangan ko'mir	qo'ng'ir ko'mir	Toshko'mir	antrasit
Gumus moddalarining hosil bo'lish miqdori, %	40 % dan ko'p	30 %	25 %	25 % dan kam

Usulning mohiyati maydalangan ko'mirni reaktorda suv bug'lari bilan dastlabki ishlov berish va harorat ta'sirida kaliy gidroksid eritmasi bilan suyultirishdan iborat.



Gumin kislotasi olish qurilmasining umumiy texnologik sxemasi

1. Drobilka; 2. Qabul qiluvchi bunker; 3. Elevator; 4. Bunker; 5. Dozator;
 6.1, 6.2, 6.3, 6.4 –Aralashtirgich; 7.1, 7.2 – Sentrafuga; 8, 9, 10 – Sig'im;
 11.1, 11.2 – Adsorberlar; H-1,2 – Markazdan qochma nasos.

Shunday qilib, dastlabki komponentning bir xil massasidan, oksidlangan ko'mirlardan foydalanganda qo'ng'ir va toshko'mirlarga qaraganda bizga kerak bo'lgandan ikki baravar ko'p mahsulot beradi. Natijada oksidlangan ko'mirdan foydalanish tufayli nafaqat xom ashyo tannarxi kamaytiriladi, balki tog'-kon sanoati korxonalarining chiqindi poligonlari hajmi ham kamayadi.

Ushbu texnologiya qishloq xo'jaligida tuproq unumdorligini oshirish, chorvachilik, tog'-kon sanoati (tuproqni tiklash va himoya qilish), kimyo sanoatida (plastifikatorlar sifatida) foydalanish mumkin.

Adabiyotlar

1. Попов А. И. Гуминовые вещества: свойства, строение, образование. СПб.: Изд-во С.-Петербур. ун-та, 2004. — 248 с.
2. Носенко В.С. «Химия твердого топлива», 1996, №1, с. 51-57.
3. Кулаков В.Н. «Гуминовые удобрения спасут русское поле». Тула, «Пересвет», 1992, с. 32-39.
4. Реутов В.А. Использование бурых углей Днепропетровского бассейна в качестве сырья для производства гуминовых удобрений в степной зоне УССР. В кн. Гуминовые удобрения, 1962, часть 2, с.453.

MAHALLIY XOM ASHYO ASOSIDA XO'JAIKON OSH TUZIDAN NATRIY GIPOXLORIT ISHLAB CHIQRISH BO'YICHA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH MUAMMOLARI

Abduraxmonov S.T.
 Termiz davlat universiteti

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yilning 23 avgust kuni "Kimyo sanoati rivojlanishining 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Dasturi to'g'risida"gi qarorni imzolani, unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Geologiya, yoqilg'i-energetika kompleksi, kimyo, neft-kimyo va metallurgiya sanoati masalalari kompleksi rahbari, «O'zkimyosanoat» AJ va uning tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlar, O'zbekiston Respublikasining Investitsiya bo'yicha davlat qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Tashqi savdo vazirligi va boshqa manfaatdor vazirliklar hamda idoralar rahbarlariga dasturda belgilangan vazifalarning bajarilishi bo'yicha shaxsiy mas'uliyat yuklandi. Kimyo sanoatidagi yetakchi korxonalar xarajatlarini tuzilmasining tahlil qilinishi asosida, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini 2018 yilda «Navoiyazot» AJda 7,3 foiz, «Farg'onaazot» AJda – 11,1 foiz va «Ammofos-Maksam» AJda – 5,2 foizga kamaytirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar kompleksi ishlab chiqildi. Bundan tashqari, kimyo


sanoati rivojlanishining 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Dasturini amalga oshirish bo'yicha Ishchi guruhi tashkil etildi [1].

O'zbekiston Respublikasining Investitsiyalar bo'yicha Davlat qo'mitasi va «O'zkimyosanoat»ga xorijiy banklar hamda xalqaro moliya institutlaridan kreditlarni jalb etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish vazifasi topshirildi. Moliya vazirligi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi va «O'zkimyosanoat» AJ tashkilotlariga 2017 yil 1 sentabrdan boshlab kimyoviy mahsulotlar uchun e'lon qilingan narxni shakllantirishda ishlab chiqarish xarajatlarining 10,0 foizigacha bo'lgan rentabellikni yaratishni nazarda tutish vazifasi topshirildi. 2022 yil 1 yanvariga qadar «O'zkimyosanoat» AJ tarkibiga kiradigan tashkilotlar, istisno tariqasida, Respublikada tegishli akkreditatsiyalangan sinov laboratoriyalari mavjud bo'lmagan taqdirda, import qilinuvchi asbob-uskunalar, xom-ashyo va materiallarni majburiy sertifikatlash jarayonidan ozod etildi [1].


Bu qarori, shuningdek, ishlab chiqarish va OAJ "O'zkimyosanoat" korxonalarining moliyaviy barqarorligini barqarorlashtirish ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tomonidan tasdiqlangan 2017-2021 yillar uchun kimyo sanoati rivojlanishi dasturining maqsad va prognoz parametrlarini so'zsiz amalga oshirish muvofiqlashtirishni ta'minlashga alohida etibor qaratilgan. Xususan tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ham ustuvor vazifalardan biri qilib qo'yilgan. Shuni aytib o'tish kerakki bizning zaminimizda Mendeleyev davriy sistemasidagi deyarli barcha elementlar olimlarimiz tomonidan aniqlangan. Shu qatorda tabiiy tuz konlaridan ham samarali foydalanib kelinmoqda. O'zbekistonda kaliyning tuzlari Qashqadaryo viloyatidagi Tubokat, Surxondaryo viloyatidagi Xo'jaikon konlaridan qazib olinadi. Tosh tuzlari esa (natriy xlorid) Xo'jaikon, Tubokat, Borsakelmas, Boybichakon, Oqqal'a konlardan qazib olinadi. Shu jumladan Xo'jaikon osh tuz zaxiralari 50 mln. tonna bo'lib, mamlakatimiz aholisi uchun yiliga bionorma bo'yicha 125-130 ming tonna osh tuzi talabiga ko'ra 200 yilga etadi [1].

Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida joylashgan Xo'jaikon osh tuzi koni shunisi bilan qimmatliki, birinchidan kimyoviy tarkibi NaCl ionlariga 96-97% gacha to'yingan, bu osh tuziga qo'yiladigan talablarga ko'ra a'lo ko'rsatgich, ikkinchidan tarkibi juda ham toza, yonida katta gips zaxiralari, Govurdak oltingugurtlari bo'lishiga qaramasdan tuz tarkibida begona aralashmalar uchramaydi, uchinchidan zahira xali yosh o'suvchi, to'rtinchidan xom ashyo er sirtida joylashgan qo'shimcha texnik qurilmalardan foydalanishga zarurat yo'q [2].


Biz Xo'jaikon osh tuzidan natriy gipoxloritni ajratib olishda elektroliz jarayoni uchun vohada quyosh nuri yaxshi tushganligi sababli, quyosh energiyasidan foydalanishni taklif qilamiz va shu bilan birgalikda, elektroliz dan ajralib chiqadigan vodorod gazini yig'ib generatorga uzatib undan ham elektr energiyasini olish imkoni bo'ladi. Natriy gipoxloritni ishlab chiqarishdan maqsad, ekologiya va atrof muhitga salbiy ta'sir o'tkazayotgan chiqindilarni dezinfeksiya qilish va shuningdek ko'p qavatli uylardan, korxonalar va zavodlardan chiqadigan oqava suvlarni yre osti suvlarini iflos qilmasdan turib ularni qayta tozalab keyin chiqarib yuborishdan iborat. Loyihaning asosiy yangiligi ham shundan iboratdir. Bu jarayonda quyoshdan kelayotgan nurlar kremniydan tayyorlangan quyosh batareyada elektr energiyaga aylanadi. Hosil bo'lgan tok elektroliz uchun moslashtiriladi. Sanoatda natriy xlorid va kaliy xlorid tuzlari suvdagi eritmalarining elektrolizi natijasida juda toza xlor olinadi. Bundan tashqari muhim mahsulotlar vodorod va ishqor ham hosil bo'ladi. Xlor ishlab chiqarishning elektrokimyoviy usuli 1890 yildan beri qo'llaniladi. Osh tuzining suvdagi eritmasida dissotsiatsiya natijasida 4 xil ion mavjud bo'ladi.



Eritmadan elektr toki o'tkazilganda katod tomon H^+ va Na^+ anod tomon Cl^- va OH^- harakat qiladi. Elektrokimyoviy kuchlanish qatoriga ko'ra birinchi navbatda razryadlanish potentsiali eng kichik bo'lgan ion razryadlanadi. Osh tuzining neytral eritmasida qattiq katodda Na^+ razryadlanish normal potentsiali -2,71 v (K^+ uchun -2,92 v), vodorodning esa shu sharoitda qaytar ajralib chiqish potentsiali -0,415 v ga teng. Shuning ychyn NaCl ning neytral eritmalarining elektrolizida qattiq katodda faqat vodorod ionlari razryadlanadi. $\text{H}^+ + 2\text{e}^- \rightarrow 2\text{H}$ $2\text{H} \rightarrow \text{H}_2$ (katod jarayoni) ya'ni, neytral muhitda suvning qaytarilish ustun turadi:




Vodorodni ajralib chiqishi suvning dissotsiyalanishi muvozanatini buzadi va suvning yana yangi miqdorlari dissotsiyalanadi (ko'p marotabali dissotsiatsiya). Na^+ natriy ionlari katodda faqat quyidagi holatda razryadlanishi mumkin: eritmada ularning konsentratsiyasi shunday yuqori bo'lishi kerakki, bunda ularning razryadlanish potentsiali vodorod potentsiali, ya'ni $-0,415$ v ga teng bo'lsin, eritmada qolgan OH^- Na^+ bilan katod yonida ishqor hosil qiladi.



va NaCl bilan birgalikda vannadan chiqariladi va tozalanadi. Anodda Cl^- razryadlanib, Cl_2 gazi hosil bo'ladi. $2\text{Cl}^- - 2e^- \rightarrow 2\text{Cl}$ $2\text{Cl} \rightarrow \text{Cl}_2$ (anod jarayoni).


Anodlar inert va faol bo'lishi mumkin. Faol anodlar elektroliz vaqtida oksidlanadi, inert anodlar o'zgarmaydi. Inert anodlarga grafit, ko'mir, platinadan yasalgan elektrodlar kiradi. Elektroliz natijasida olinadigan mahsulotlar toza bo'lishi uchun katod va anod oraliqlarini ajratish kerak. Buning uchun diafragma qo'llaniladi va filtrlovchi vertikal diafragma elektrolizyorlar ishlatiladi. Elektrolizyorning anod sohasiga nay orqali uzluksiz osh tuzining konsentrlangan eritmasi (305-310gr) kiritiladi. Elektrolit doimiy ravishda anod sohasidan diafragma teshiklari (kovaklari) orqali katod sohaga o'tib boradi. Katod sohasidagi vanna tubidagi nay orqali ishqor va parchalanmagan osh tuzidan iborat bo'lgan suyuqlik chiqarilib turadi. NaOH mikdori 100-300 gr, NaCl -180-200 gr. Gorizontallik diafragma elektroliz vannalarida hosil bo'lgan ishqor konsentratsiyasi 120-130 gr ga teng. Ishqor konsentratsiyasi yuqori (650-700 gr) va sifati toza (osh tuzi bilan aralashmagan) bo'lishi uchun suyuq katodli elektrolizyorlar qo'llash mumkin bo'lgan. Simob katodda ajralib chiqayotgan natriy, simob bilan amalgama hosil qiladi. $\text{Na}^+ + e^- + \text{nHg} \rightarrow \text{Na} \cdot \text{nHg}$ (katod jarayoni va vanna tubida ishqor hosil bo'lmaydi. Natriy amalgamasi hosil qilgan Na^+ simob katodda razryadlanish potentsiali $-1,2$ v (osh tuzining suvli eritmalarida bu potentsial $-2,71$ v) bo'lgani uchun u oson razryadlanadi. Hosil bo'lgan natriy amalgamasi elektrizyorning ikkinchi qismiga yuboriladi va suv bilan reaksiyaga kirishadi.



Ajralib chiqqan simob nasos yordamida elektrolizyorni yuqori qismiga ko'tariladi va katod vazifasini bajaradi. Garchan bu usulda juda toza va konsentrlangan ishqor eritmasi hosil bo'lsa ham, uning qo'llanilishi taqiqlab qo'yilgan, chunki simob ekologik xavfsiz bo'lmaydi. Dunyodagi hamma rivojlangan davlatlar ishqor ishlab chiqarishda membrana usuliga o'tgan. Membrana usulida asbest kartonli diafragma o'rniga issiq ishqor va xlorga chidamli bo'lgan, ishqor ta'sirida yemirilmaydigan, ftortutgan polimerlardan yasalgan membranalar ishlatiladi. Membranalar kation almashuvchi bo'lib, anod sohasidan katod sohasiga faqat Na^+ tashib beradi, va Cl^- o'tkazmaydi. Shu sababli hosil bo'lgan ishqor sifati yuqori bo'ladi.


Dunyoda birinchi bo'lib Yaponiy a firmalari (Asaxi kasay) bunday membranali moslamalarni ishga tushirdilar va 1983 yilga kelib osh tuzi eritmasidan ishqor, Cl_2 va H_2 ishlab chiqaradigan hamma firmalari bu usulga o'tdi. Elektrolizyordagi diafragma vazifasini bajaruvchi parda kation almashuvchi sulfo- ($-\text{SO}_3\text{H}$) va karboksil ($-\text{COOH}$) guruhlar tutgan ftorpolimerlardan iborat. Ftropolimerlarga tetraftoretlenning sopolimerlari kiradi va ularning makromolekularida yuqorida keltirilgan kationalmashuvchi guruhlar tarqalgan bo'ladi. Kationalmashuvchi membrana pardali elektrolizyor sxemasi albomda keltirilgan.

Elektrolizyorning katod va anod sohalari KAM -kation almashuvchi membrana pardasi bilan ajratilgan. Anod oraliriga NaCl ning tuyingan eritmasi (namakob) berilib, anodda Cl^- ionlarini elektrokimyoviy oksidlanishi kuzatiladi. Katod oralig'iga suv berilib, katodda suvning elektrokimyoviy qaytarilishi natijasida H_2 va OH^- ionlari hosil bo'ladi.




Kation almashuvchi membrana orqali katod oralig'iga o'tgan Na^+ bilan OH^- hosil bo'lgan ishqor eritmasi katod oralig'idan chiqib ketadi. Ishqor konsentrlangan bo'lib osh tuzi bilan ifloslanmagan. Sanoatda qo'llanib kelgan asbest diafragma qattiq katodli va suyuq katodli (simob) elektrolizyorlarni membrana pardali elektrolizyorlar arzonligi va elektr tokini 20-35% kamroq sarf qilishi tufayli siqib chiqardi. Bundan tashqari bu texnologik jarayon ekologik zararsizligi bilan

alohida muhimdir. Yuqorida elektrolizdan qanday foydalanish haqida keng to'xtalib utildi. Endi esa elektrolizyorga tozalangan natriy xlorid va distillangan suv solinib elektroliz qilinganda katodda vodorod anodda xlor ajralib chiqadi. Eritmada natriy gidroksid qoladi.



Ajralib chiqqan vodoroddan ekologik toza yoqilg'i sifatida foydalanib elektr energiyasini quyosh bo'lmaganda ham hosil qilish imkoniyatini beradi. Elektrolizyordagi natriy gidroksid eritmasiga ajralib chiqqan xlor yuborilsa natriy gipoxlorit va natriy xlorid aralashmasi hosil bo'ladi:



Hosil bo'lgan aralashma tarkibidan natriy gipoxlorit ajratib olingach yana natriy xloridni xom ashyo sifatida ishlatib, chiqindisiz texnologiya bilan ishlash imkoniyatini yaratadi. Ishlab chiqarish unumi elektoliz jarayoniga, boshlang'ich moddalar konsentrsiyasiga, tok kuchiga, katod va anod tarkibiga bog'liqdir. Bunday xususiyatli modda ekologik jihatdan toza va ishlab chiqarishdan 20-30 % miqdorida elektr energiyasini tejash imkonini beradi va iqtisodiy samaradorligi yuqori bo'ladi. Bunday texnologiyalarni chet-eldan jalb qilgan holda olib kelinib amalga oshirilsa avzalligi ancha ortadi. Natriy gipoxlorit eritmasida gipoxlorit kislotaga borligi uning kuchli dezinfeksiyalovchi va sayqallash xususiyatlarini ochib beradi. Natriy gipoxlorit eng yuqori bakteritsid faoliyat neytral muhitda ko'rsatiladi [2].

Natriy gipoxlorit qo'llanilish sohalari juda keng: Kimyo sanoatida oqartirish, suv va hovuz ichimlik suvi dezinfektsiyalash uchun; Engil sanoatda mato sayqallash va oqartirish uchun; Oziq-ovqat va maishiy chiqindilar bilan ifloslangan hududlarni dezinfeksiya qilish; Suv baliqchilik, suv havzalarini dezinfeksiya qilish uchun; Sog'liqni saqlash muassasalari, umumiy ovqatlanish bo'yicha turli xil tovarlarni mikroba va bakteriyalardan zararsizlantirishda; Ichimlik suv dezinfeksiya, chiqindi suvlarni tozalashda foydalaniladi. Natriy gipoxlorit turli xil materiallar ustida juda kuchli o'yuvchi ta'siri bor. Bu oldindan ko'rib chiqilgan bo'lib, bu uning yuqori oksidlanish xususiyatlari bilan bog'liq. Shuning uchun, zarur suv tozalash zavodlarida dezinfeksiya sifatida foydalanish mumkin. Natriy gipoxlorit boshqa dezinfeksiyalovchi vositalarga qaraganda ancha samarali hisoblanadi Uni barcha sohalarda keng qo'llash mumkin [1].

Bu esa kelajakda viloyatimizda 2017-2021 yillarga mo'ljallangan rejaga ko'ra yengil sanoat sohasi, "O'zbekcharmpoyabzali" uyushmasi tomonidan teri xomashyosini qayta ishlaydigan yirik korxonalar, oziq-ovqat sanoatini, baliqchilikni rivojlantirishda keng ishlatiladi. Bundan tashqari mahalliy xom ashyolarni o'zlashtirish, qo'shimcha ish o'rinlarini yaratishga, aholi bandligini ta'minlash, iqtisodiy ko'rsatkichlarimizni yuksalishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yilning 23 avgust kuni "Kimyo sanoati rivojlanishining 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Dasturi to'g'risida"gi qaror

2. Q. Ahmerov A. Jalilov R. Sayfutdinov "Umumiy va anorganik kimyo" Toshkent "O'zbekiston" -2002.

3. N.A. Parpiyev, X.R. Raximov, Muftaxov "Anorganik kimyo" Toshkent "O'zbekiston"

3. O.YA. Neyland Organicheskaya ximiya. M.: «Viysshaya shkola». 1990.

4. Konareya B.N. Lyuboznatpechym kimyo haqida: Noorganik kimyo. - 2-nashr, qayta ko'rib chiqilgan. - M.: Kimyo, 1984.

5. Lidin R. A., Andreeva L. L., Molochko V. A. Noorganik qo'llanma. kimyo. - M.: Kimyo, 1987.

6. Hyun J. Noorganik kimyo: moddaning tuzilishi va reaktivlik: TRANS. ingliz tilidan. / B. D. Stepina, R. A. Lidina. - M.: Kimyo, 1987.

SANOAT CHANGLARNING DISPERS TARKIBINI TAJRIBAVIY ANIQLASH

Ergashev N.A., Saydaliyev Y.Yu.

Farg'ona politexnika instituti

Annotatsiya: Maqolada "Kvarts" AJ shisha bo'yumlari ishlab chiqarish jarayonida kvarts qumi changi, kalsiyli texnik soda changi va dolomit changlariga ishlov berishda hosil bo'ladigan

sanoat changlarining disperstarkibi elak va mikroskopik analizlar yordamida aniqlash natijalari tavsiya etilgan.

Kalit soʻzlar: changlanish, kalsiyli texnik soda, dolomit, kvars qumi, analiz, elakli, mikroskopik, zarralar, oʻlchamlar

Ishlab chiqarish korxonalarida texnologik jarayonlarda hosil boʻladigan turli holatdagi gazsimon, suyuq yoki qattiq changli gazlarning xossalarini aniq bilish ularni ushlab qolish yoki neytrallash usulini toʻgʻri tanlash, chang tozalash samaradorligini oshirish va energiya tejamkor konstruksiyadagi changli gazlarni tozalash apparatlarini yaratishning muhim omili hisoblanadi. Bu esa oʻz navbatida ishlab chiqarish korxonalaridan chiqayotgan changli gazlarning hosil boʻlish sabablari va ularning turlarini tahlil qilishni talab etadi. Biz tomonimizdan taklif etilgan hoʻl usulda changli gazlarni tozalovchi apparatda ish rejimlari tahlilini oʻtkazish hamda tozalash samaradorligini aniqlash uchun model materiali sifatida **“Kvarts” AJ** ning sexlaridan chiqayotgan mineral chang namunalari tanlandi. Chang analizi tahlilini oʻtkazish uslublari koʻrib chiqildi va asosiy uslublar taqqoslash uchun oʻrganildi [1,2].

Quyidagi asosiy uslublarni changlar dispers tarkibini aniqlashda qoʻllash mumkin:

-sedimentometriya – bu usulda gazsimon yoki suyuqlik muhitidagi chang zarralari choʻktirib fraksiyalarga ajratiladi;

-mikroskopik tahlil – bu usulda chang zarralarining fraksiya boʻyicha optik yoki elektron mikroskop yordamida shakli, oʻlchami va maʼlum fraksiyadagi miqdori aniqlanadi;

-markazdan qochma separatsiyalash usuli – bunda changli gaz maxsus apparatda markazdan qochma kuch taʼsirida fraksiyalarga ajratiladi.

-turli oʻlchamdagi laboratoriya elaklari yordamida ketma-ket elakdan oʻtkazish yoʻli bilan chang zarralarini fraksiyaga ajratish usuli. Laboratoriya elagi yordamida tahlil qilish usuli tarkibida 100 mkm dan kichikroq oʻlchamdagi zarraning miqdori 10% dan ortiq boʻlmagan changlarda qoʻllanadi.

Changlarni dispers tarkibini aniqlashda yuqorida koʻrib oʻtilgan uslublardan mikroskopik tahlil hamda turli oʻlchamdagi laboratoriya elaklari yordamida ketma-ket elakdan oʻtkazish yoʻli bilan chang zarralarini fraksiyaga ajratish usullari tanlandi.

Birinchi bosqichda tanlangan changlar LM-2E markali tuyish apparatsining laboratoriya modelida 7 daqiqa davomida tuyildi, hamda RETSCH-DIN-ISO 3310/1 markali saralovchi elak apparatining laboratoriya modelida 4 daqiqa davomida 5 bosqichli saralashdan oʻtkazildi. Elak setkalarining teshigi oʻlchami 5, 20, 40, 63, 100 mkm gacha tanlandi. Olingan natijalar asosida changlar foizlar hisobida fraksiyalarga ajratildi. Quyida tanlangan chang namunalari kimyoviy hossalari, ishlab chiqarish sharoitidagi koʻrsatkichlari hamda olingan laboratoriya analizi natijalari keltirilgan.

Kalsiyli texnik soda Na_2CO_3 KTS - qurilish oynasi hamda shisha buyumlari ishlab chiqarish jarayonida qoʻshimcha maxsulot sifatida GOST5100-85 boʻyicha A va B markalari ishlatiladi. Maxsulotning massaviy ulushi mahsulot turiga qarab 1 tonna xom ashyoga 261-300 kg gachani tashkil etadi. Granulometrik sostavi 0,25 mm (25 mkm) dan oshib ketmasligi kerak. Asosiy chang manbayi sodani shixtaga qoʻshishdan oldingi quritish jarayonida hosil boʻladi.

Laboratoriya analizi natijalari shuni koʻrsatdiki, tuyilgan kalsiyli texnik soda changi 1÷5 mkm gacha 23 %, 5÷20 mkm gacha 66 %, 20÷40 mkm gacha 9 %, 40÷63 mkm gacha 2 %, 63÷100 mkm gacha 0 % ni tashkil qilmoqda. Kalsiyli texnik soda KTS changining mikroskopik xususiyatiga koʻra suyuqlik (suv) da toʻliq yutiladi.

Dolomit - qurilish oynasi va shisha buyumlari hamda olovbardosh gʻisht ishlab chiqarish jarayonida asosiy va qoʻshimcha mahsulot sifatida GOST 23672-79 boʻyicha DK-19-0,05, DK-19-0,10, DK-18-0,25, DK-18-0,40, DK-20-0,10 markalari ishlatiladi. Xomashyoning massaviy ulushi mahsulot turiga qarab 1 tonna xom ashyoga 139÷247 kg gachani tashkil etadi. Granulometrik tarkibi 0,05 mm (5 mkm) dan oshib ketmasligi kerak. Asosiy chang manbayi shisha buyumlari ishlab chiqarishda MVP-1, MVP-2 pechlarida (shixta tarkibida), qurilish oynasi ishlab chiqarishda

MVP-3 pechida (shixta tarkibida), olovbardosh g'isht ishlab chiqarishda tegirmon, sito-burat va transportirovka qilishda hosil bo'ladi.

Laboratoriya analizi natijalari shuni ko'rsatdiki, tuyilgan dolomit changi 1÷5 mkm gacha 28 %, 5÷20 mkm gacha 60 %, 20÷40 mkm gacha 10 %, 40÷63 mkm gacha 2 %, 63÷100 mkm gacha 0 % ni tashkil qilmoqda. Dolomit changining gikroskopik xususiyatiga ko'ra suyuqlik (suv) da to'liq yutiladi.

Kvars qumi - qurilish oynasi hamda shisha buyumlari ishlab chiqarish jarayonida asosiy maxsulot sifatida GOST 22551-77 (O'zbekiston, G'azalkent) va GOST 22551-77 (GOK Tojikiston) bo'yicha OOVs-010-V, OOVs-010-V, VS-050-2, S-070-1, S-070-2, B-100-1, B-100-2, PB-150-1, PB-150-2, PS-250 markalari ishlatiladi. Xomashyoning umumiy ulushi mahsulot turiga qarab 1 tonnaga 845÷882 kg gachani tashkil etadi. Granulometrik tarkibi 0,05-0,10 mm (5÷10 mkm) dan oshib ketmasligi kerak. Asosiy chang manbayi kvars qumini va boshqa muhsulot shixtalarini pechga yuklash va pishirish pechida hosil bo'ladi.

Laboratoriya analizi natijalari shuni ko'rsatdiki, tuyilgan kvars qumi changi 1÷5 mkm gacha 22 %, 5÷20 mkm gacha 55 %, 20÷40 mkm gacha 12%, 40÷63 mkm gacha 8 %, 63÷100 mkm gacha 3 % ni tashkil qilmoqda. 1-jadvalda kalsiyli texnik soda KTS, dolomit va kvars qumi changlarining fraksiyalar bo'yicha miqdorlari keltirilgan.


1-jadval

Fraksiyani o'lchami, mkm	Kalsiyli texnik soda KTS	Dolomit	Kvars qumi
	Fraksiya ulushi, %	Fraksiya ulushi, %	Fraksiya ulushi, %
1÷5	23	28	22
5÷20	66	60	55
20÷40	9	10	12
40÷63	2	2	8
63÷100	0	0	3

Kvars qumi changining gikroskopik xususiyatiga ko'ra suyuqlik (suv) da to'liq yutiladi.

Ikkinchi bosqichda mineral changlarning dispers tarkibini aniqlash uchun optik mikroskopiya usulidan foydalanildi. (Zarrachalarning biologik mikroskopdagi bunday analizi $\pm 1,5$ % nisbiy xato beradi. O'lchamlarning o'rtacha qiymatga keltirish $\pm 3,4$ % nisbiy xatolik beradi). Optik mikroskopiya usulida har bir mineral chang namunalarning mikrofoto suratlari olinadi. Dispers chang o'lchamlarini aniqlash uchun soch tolasidan foydalaniladi hamda foizlarda fraksiyalarga ajratiladi. (Soch tolasining o'rtacha median o'lchami 40÷60 mkm deb qabul qilindi).

Namuna uchun tanlangan changda aglomeratlar hosil bo'lishini oldini olish uchun dispers muhit suv bilan aralashtirildi. Suratga olish DSM-310 markali kamera va Langdorpssstengweg-1603201 markali CM001-CYANS biologik mikroskopda amalga oshirildi. Suratlarga ishlov berish EXM da bajarildi. Mikroskopning kattalirishi 400 barobar bo'lganda mineral changlarining o'lchami 1÷100 mkm oralig'idagi foizlari soch tolasiga taqqoslangan holda aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. Sanoat changlarning CM001-CYANS mikroskopida 400 martta kattalashgan holatdagi ko‘rinishi:

a) kalsiyli texnik soda KTS; b) dolomit; v) kvars qumi.

Elak analizi hamda mikroskopiya usuli orasidagi laboratoriya analizi hatoligi 7 % ni tashkil etdi. Demak, ho‘l usulda ishlovchi apparatda eksperimental tadqiqotlar olib borishda maydalangan zarrachalarning o‘rtacha arifmetik qiymati kalsiyli texnik soda changi uchun $\delta_{50}=10$ mkm, dolomit changi uchun $\delta_{50}=8,5$ mkm va kvars qumi changi uchun esa $\delta_{50}=15$ mkm deb qabul qilish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dmitriev A.V., Kalimullin I.R., Nikolaev N.I. Perspektivny ispolzovaniya apparatov pryamotchno-vixrevogo tipa dlya ochistki krupnotonnajnyx gazovyx vybrosov promyshlennyx predpriyatij. Izv. VUZov. Xim. i xim. Texn., 2010, № 3S. 125-127.
2. Valdberg A.Yu., Nikolaykina N.E. Protsessi i apparaty zashity okrujayushchey sredy.- Moskva.: “Drofa”, 2008-239 str.
3. Shilyaev M.I., Shilyaev A.M., Griщенко Ye.P. Metody rascheta ryulelovitelij. Uchebnoe posobie. Tomsk: TGASU, 2006.-385 s.
4. Kouzov P.A. i dr. Ochistka ot pyli gazov i vozduxa v ximicheskoy promyshlennosti. L.: Ximiya, 1982. -256 s.

SIGNIFICANCE OF MICROELEMENTS IN PROTECTION AGAINST FUNGAL BACTERIAL DISEASES

Akramjonov A.A., Ikromova M.

Ferghana Polytechnic institute.

Abstract: *Earth on the face population number increase village economy from crops high result to receive Demand is enough Such to the result reach mineral fertilizers for and different kind of to diseases against fighter preparations to apply Demand is enough Current in the day village economy crops autumn in wheat rust and sift the flour disease fruity in the trees while bacterial burn, calmaraz, hole spotting and fungal from diseases injury cases observed. If this diseases with own on time if not fought 70 % yield loss can. Of these come came out without village economy crops for fungal bacterial diseases with complex effect doer and in the composition food substances with enriched the product present reach through to the problem solve can*

Base words: *Zambrug's, various different diseases, bacterial diseases, liquid fertilizers, copper, iron, various trace elements, squid, hole stain , flour , bacterial burn.*

To date, cases of fungal bacterial diseases affecting mainly wheat, pear, apple and quince trees are widely observed. It is becoming one of the most dangerous diseases in crops and fruit trees. Because if these diseases are not dealt with, they cause the loss of 70% of the crop. The disease kills fruiting buds, stems and branches, reduces fruit yield, and in most cases causes the death of the crop. A liquid usually oozes from the affected part of the tree. The first symptoms are

the burning of fruit flowers, leaves and stem tissue, often turning black and curling the tips of the branches.

Four factors are responsible for the disease:

1. Harmful bacterial spores - they are spread by wind and rain, or by insects. During the flowering period, when bees are pollinating fruit flowers, if bacterial spores are present on the flowers, the disease is more likely to spread.

2. Disease-prone crops and trees: susceptibility to disease.

3. Favorable weather temperatures: The disease spreads and develops at temperatures above 16°C. The most favorable conditions are daytime temperature between 24-29°C and night temperature above 13°C.

4. Air humidity: Air humidity should not be higher than 70% so that the disease does not develop. Wet, warm spring conditions are very dangerous because they provide a very favorable opportunity for the development of the disease.

So fungal bacterial diseases are observed in crops in spring. Because there is a lack of micro and macroelements in the crops. The lack of these substances leads to a decrease in the resistance of plants to various diseases. Because of this, they are prone to diseases. To prevent this, it is effective to use preparations that can have a complex effect on plants through leaves and roots. Because when applied through the leaves, the drug is completely absorbed by the plant. Some losses occur when used through the root. But this does not mean that rooting is ineffective. The role of micronutrients in the exchange of substances in the formation of capillary vessels in the root artofidafi is incomparable. Therefore, it is necessary to contain micronutrients in the macro-fertilizers used. Let's dwell a little on the elements necessary for the plant.

Nowadays, as a result of the improvement of existing production networks with the development of technology, the need for cheap and high-performance chemicals for agricultural crops is increasing. In recent years, a lot of work has been done in our republic to increase the yield of winter wheat and obtain high-quality grain products. But that's it with one in line grain farming in development one series problems there is Including autumn steam fields rust diseases and a stranger herbs (especially wild with oats, ryegrass, chakamig). contamination observed , as a result the majority farmer in farms autumn wheat productivity decrease , the year deficit with completion is being observed .

Stranger herbs village economy crops 20% productivity and from him more reduces, yields quality worsens, various of diseases development reason will be soil and the field to ecology defect delivers and to them against to fight for big expenses Demand will be done . Stranger to the grass against fight basis agricultural engineer events organize this is measures using plant 30-50% of the area is alien from herbs cleaning can if chemical with methods (herbicides). together take when you go efficiency by 85-95% is enough However, herbicides in application, their standards in defining, applying methods recommendation in doing, of course, economic and ecological aspects account get need.

Regulators and herbicides modern crops Cultivation of technologies important structural is part of Plants protection doer chemical substances as new active substances search and of compounds chemical structure and heterocyclic of compounds biological activity dependence learning important and current is a task now used bride liquid and from mineral fertilizers to pests against in application used will come. Our farmers by cotton and fields urea suspension with processing given they are going. This is the wire to growth and to pests against him self the effect gives. Contains micro elekents held for example in the grass spring months use as a result trees in the body diseases from new to get excited against efficient tool being service does.

Copper is necessary for the formation of chlorophyll in crops, participates in the absorption of carbon dioxide and photosynthesis. Copper actively participates in the production of proteins in grain, increases the amount of starch in potato roots, sugar in root crops, oils in oilseeds, ascorbic acid and sugar in berry and fruit plants, and acts as a catalyst in plant respiration. It balances the movement of water in the crop, participates in the formation of cell walls, and is an important

substance for flowering and seeding. Protects against fungal and bacterial diseases around seeds and roots. It prevents the occurrence of diseases in the plant.

With a lack of copper in plants, growth and flowering are delayed, chlorosis, loss of turgor and wilting are observed. In cereal crops with acute copper deficiency, the tips of the leaves turn white, the ears do not develop, in fruit trees, the top dries up, and the plants may become fruitless.

Nitrogen is the key to a good crop and is one of the most important nutrients. Regulates the growth of green mass. Determines the level of productivity. Symptoms of nitrogen starvation are the slow growth of plants and the appearance of pale green and even yellow-green leaf color due to the disruption of chlorophyll formation processes.

Zinc - ensures good accumulation of green mass and resistance to stress (it increases the resistance of plants to drought, heat and cold). A lack of zinc leads to a violation of cell division, narrow, spiral leaves are formed in plants. The color of the tissue between the veins changes and they are distinguished by a clear green net.

Phosphorus is one of the main nutrients for plants - a source of energy. Phosphorus deficiency inhibits the development of seeds and delays ripening, leading to a decrease in yield and deterioration of quality. Plants with a deficiency of phosphorus slow down their growth dramatically, the leaves (first along the edges, then over the entire surface) have a gray-green, purple or red-purple color.

The reasons for delaying the production of micronutrient fertilizers include: Copper, zinc, cobalt, nickel, molybdenum, manganese, boron and other micronutrient raw materials, which are cheap and have opportunities for use, are not fully explored, the lack of annual data on the mobile forms of micronutrients in the soil, scientific and technological insufficient development, insufficient information on the state of micronutrients in the production of complex fertilizers and recommendations on the rational application of micronutrients to the soil [24].

In the production of mineral fertilizers, the use of various wastes and products of non-ferrous metallurgy containing trace elements, sour effluents, spent catalysts and other types of secondary products is one of the important problems.

BAYagodin's research work focuses on the study of environmental problems in the use of fertilizers, in particular, the use of micronutrient industrial and household waste in plant science [1-2; pp. 24-26].

It is known from experiments that the efficiency of mineral salts of trace elements is lower than that of their chelated compounds. It has been found out from many experiments that micronutrient complexes (chelates) can increase the productivity of agricultural crops even when used 2-10 times less than the amount of micronutrient salts.

Chelates of microelements are easily absorbed by plants compared to inorganic salts (sulfates, carbonates, etc.), chelates based on lignins are 4 times easier, and those based on citrates are 6-8 times easier. Plants absorb them much better and efficiently, because the simple salts of trace elements react with each other in the soil and form hard-to-be-absorbed compounds. Chelates do not react in this way, and also do not combine with the soil. As a result, 30-40% of simple micronutrients are absorbed by plants, while chelated micronutrients are absorbed by 90% and more [3;4].

The use of microelement-retaining products as a raw material base is one of the most important issues today. However, the physico-chemical principles of microfertilizer production and microfertilizer production technologies, as well as methods of converting micronutrient salts and secondary raw materials into a complex form and attaching them to macrofertilizers, are not widely covered in the cited literature.

In conclusion, it can be said that one of the important problems of the present day is obtaining a product that can increase tolerance to various diseases in the form of fertilizers containing microelements. It can also be said that micronutrient products are not fully studied and the lack of cheap raw materials is a problem on a large scale.

USED BOOKS

1. Market overview of magnesium raw materials (magnesite and brucite) and magnesium powders and SNG. Izd. 3-e, do- polnennoe i pererabotannoe. - Moscow, 2011. - 133 p. www . Infomine.ru.

2. Bobokulova O.S., Melikulova G.E., Sidikov A.S., Usmanov I.I., Mirzakulov Kh.Ch. Issledovanie protsessa polucheniya chloride magnesium iz rapy ozer Karaumbet i Barsakelmes // Khimicheskaya promyshlennost. - St. Petersburg, 2016. Vol. 93. No. 3. S. 110-118.

3. A.S.Tursunov, Z.A.Khamrakulov, D.A.Ergashev. Issledovanie protsessov filtratsii pri poluchenii chloratsoderzhashchii defoliant iz dolomita. Universum: Technicheskie nauki: electronic. nauchn. journal. October 2018 g. Moscow. No. 10 (55).

4. D.A.Ergashev, A.N.Mirzaolimov, S.B.Mukhammedov, Sh.Sh.Khamdamova. Poluchenie khloridov kaltsia i magna iz dolomita mestrojdeniya " Navbakhor " // Universum: Teknicheskie nauki: elektron. nauchn. journal. February, 2019 g. Moscow. No. 11 (68).

THERMAL EXPANSION COEFFICIENT OF COMPOSITES

Ulmasov A.A.

Fergana Polytechnic Institute

Abstract: In this article, ways to increase the durability of composite materials were considered.

Key words : composite materials, paints and varnishes, erosion -resistant coatings, erosion wear, polymer composite materials.

Boundary layers have a significant effect not only on strength and wear rate during friction, but also on the thermal properties of composites. Let's consider this question in more detail. On all concentration dependences of the thermal expansion coefficient (TEC) β , regardless of the type and size of fillers (powders or fiber segments), a minimum is observed , then its value increases , reaches a maximum, and decreases again (Fig . 1).




Fig.1. Dependence of the volume value of CTE of the composite based on PDPO on the volume concentration CV of filler particles: 1 – Cu (powder); 2 - Al (powder), 3 - segments of glass fibers; 4 - segments of carbon fibers.

Let us calculate β of the composite, the filler in which is copper powder, according to the equation:

$$\beta = \beta_m(1 - C_{vol}) + \beta_f \tilde{N}_{vol}$$

where β_m and β_f are the CTE of the matrix and filler, respectively, and C_{vol} is the concentration. From fig. It can be seen from Fig. 2 that the CTE value calculated from this equation is much larger than the measured one and decreases linearly with the filler concentration. Let us estimate the thickness of such layers. To this end, let us construct the dependences of the CTE on the average distance between the surfaces of the filler particles L . We will assume that the powder particles have the form of spheres. In this case, the value of L can be estimated:




Fig. 2. Comparison of calculated (1) according to equation (3.7) and experimental (2) and dependences of the CTE of the composite on the concentration of copper powder.

Thus, the decrease in the CTE of the composite is not associated only with an increase in the proportion of filler with a small CTE, but has a different nature. Apparently, it is due to the formation of boundary layers of the matrix around the filler particles.

CONCLUSION

The interaction between the matrix and filler leads to the formation of "boundary layers" between them, the mechanical and thermal properties of which are different from those of the matrix and filler. The thickness of such layers reaches hundreds of microns, and already at low filler concentrations they have a significant effect on the mechanical and thermal properties of the composites.

References:

1. Tekce H. S., Kumlutas D., Tavman I.H. Effect of Particle Shape on Thermal Conductivity of Copper Reinforced Polymer Composites. // J. Reinforced Plastics and Composites. 2007. Vol. 26. P. 113 – 121.
2. Arzamasov B. N. Material Science: textbook for technical universities / B. N. Arzamasov [et al.]. - Moscow: Bauman Moscow State Technical University, 2001. - 648 p.
3. Fibrous and dispersed-reinforced composite materials / edited by N. V. Ageev. Moscow : Nauka Publ., 1976, 214 p. (in Russian)

VERMIKULIT ASOSIDA OLINGAN IONITGA Ni²⁺ IONLARINING SORBSIYA KINETIKASI VA IZOTERMASI

¹Tursunmuratov O.X., ²Bekchanov D.J.

¹Chirchiq davlat pedagogika universiteti

²Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Vermikulit asosida olingan ionitga sun‘iy eritmalaridagi Ni²⁺ ionlarining sorbsiyasi 293, 303 va 313 K haroratda, sorbsiya davomiyligi muvozanat holatigacha (24-soat) va turli konsentrasiyalarda o‘rganish natijalari keltirilgan. Jarayonlarning kinetikasi o‘rganildi, muvozanat holatidagi adsorbsiya mexanizmini ifodalash uchun Lengmyur va Freyndlix izoterma modellaridan foydalanildi. Olingan natijalar asosida hisoblab topilgan izoterma parametrlari $R^2(0,99883-0,9995)$ qiymati barcha izoterma modellarida mos kelganligi aniqlandi. Lengmyur izoterma modeli bo‘yicha $q_{max} = 48,78$ mg/g, Freyndlix izoterma modeli bo‘yicha $n=0,3052$ kelib chiqdi.

Kalit so‘zlar: Vermikulit, nikel ionlari(Ni²⁺), SAS, kinetika, Lengmyur, Freyndlix va izoterma.

So‘ngi o‘n yilliklar davomida sanoat korxonalaridan chiqayotgan chiqindi suv tarkibidagi og‘ir va zaharli metall ionlarini ajratib olishning an‘anaviy usullarini iqtisodiy jihatdan qimmatligi

haqida havotirlar paydo bo'la boshladi. Shuningdek gidrometallurgiya usulida metallarni ajratib olish davomida hosil bo'lgan texnologik eritmalar tarkibida ko'pgina rangli va og'ir metall ionlari mavjud. Ayniqsa Ni^{2+} , Cu^{2+} , Co^{2+} , Cr^{3+} , Pb^{2+} , Zn^{2+} kabi ionlarning bunday suvlardagi konsentrasiyalarining oshishi atrof muhitga zararli ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun oqava suvlar tarkibidagi metall ionlarini ajratib olishda, suvlarni tuzsizlantirishda va oqova suvlarini zaharli ionlardan tozalash uchun eng keng qo'llaniladigan, iqtisodiy jixatdan arzon va samarali bo'lgan usuli ionitlar ishtirokida ion almashinish usulidir [1,2].

Ion almashinuvchi materiallar bu turli sun'iy va texnologik eritmalaridan ionlarini ajratib oladigan va erimaydigan moddalardir. Texnologik eritmalaridan tuzni tozalash vaqtida suvning ikkilamchi ifloslanishi bilan bog'liq ko'plab muammolarni samarali hal qilishda eng ko'p ishlatiladi. Ion almashinuvchi materiallar sifatida ko'lab moddalar ishlatiladi. Sulardan biri alyuminosilikatlar guruhida mansub vermikulit ta'biy mineralidir. Vermikulit ekologik toza mahsulot bo'lib, tarkibida og'ir metallar mavjud emas. U 100% tabiiy material bo'lib, odamlar, atrof-muhit uchun xavf tug'dirmaydigan ishqorlar va kislotalarga nisbatan neytraldir. Vermikulit chirishga va oksidlanishga moyil emas organik erituvchilar va suvda erimaydi va shuning uchun vaqt o'tishi bilan o'z xususiyatlarini yo'qotmaydi va sezilarli darajada yengillikka ega ($0,065-0,130 \text{ g/sm}^3$) hamda tabiatda juda ko'p va ancha arzon xamashyodir [3].

Turli ilmiy ishlarda vermikulitning adsorbsion qobiliyati og'ir metallarga nisbatan eritmaning pH ga bog'liqligi va adsorbsion sig'im eritmaning pH darajasi oshish sababi ko'rsatilgan. Vermikulitning adsorbsion kuchiga haroratning og'ir metallarga ($Mn(II)$, $Cd(II)$, $Cu(II)$, $Pb(II)$, $Ni(II)$, $Zn(II)$, $Co(II)$, $Cr(III)$, $Fe(II)$, $Al(III)$, $Ca(II)$ va $Mg(II)$) nisbatan ta'siri o'rganilgan [4].

Ushbu maqolada, vermikulit asosida olingan ionit Ni^{2+} ionlarinig sorbsiyasining kinetikasi va izotermasi sun'iy eritmalarida o'rganishda statik almashuv sig'imi HCl bo'yicha $2,5 \text{ mg}\cdot\text{ekv/g}$ bo'lgan ionitdan 4 g/l miqdorda olindi, unga Ni^{2+} ionlari saqlagan $0,01$, $0,0125$, $0,025$ va $0,05 \text{ mol}\cdot\text{l}^{-1}$ bo'lgan har xil konsentratsiyali eritmalar tayyorlandi. 100 ml 293 , 303 va 313 K haroratlarda, muvozanatga kelguncha (24 soatgacha) sorbsiyasi o'rganildi. (EMC-30PC-UV Spectrophotometr yordamida) (Ni^{2+} 720 nm to'lqin uzunlikda) [5].

Ionitning CAC qiymati quyidagicha hisoblandi:

$$CAC_{ionit} = \frac{100 \cdot k_1 - \frac{100}{10} \cdot k_2 \cdot a}{10 \cdot g}$$

k_1 — $0,1 \times V$ (ishqor) / V (kislota) = $0,1$ nazariy, k_2 — $0,1 \times V$ (dastlabki kislota) / V (sarflangan ishqor)

a — sorbsiyalangan HCl ga sarflangan ishqor hajmi, g — sorbent massasi

CAC birligi $\text{mg}\cdot\text{ekv/g}$

Sorbsiya miqdori esa quyidagi formula orqali hisoblandi [6]:

$$q_s = \frac{(C_0 - C_e)}{m} \times V$$

Vermikulit asosida olingan ionitning sorbsiya jarayonining muvozanati asosida adsorbsiya mexanizmini o'rganish uchun Lengmyur va Freyndlix modellariga mos kelishi o'rganildi:


Lengmyur izotermasi modeli quyidagi keltirilgan chiziqli ko'rinishidan foydalanib, q_{\max} va K_L qiymatlarini C/q_e ning C_e bog'liqlik grafigidan kesishish qiyaligining burchak qiymati orqali topiladi.

$$\frac{C_e}{q_e} = \frac{1}{q_s K_L} + \frac{1}{q_{\max}} \cdot C_e$$

Freyndlix izoterma modeli modelning chiziqli tenglamasini quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin [7].


$$\log q_s = \log K_F + \left(\frac{1}{n}\right) \log C_e$$

Quyidagi rasmda Vermikulit asosida olingan ionitga nikel(II) ionlarining turli vaqtlarda va yutilish davomiyligi keltirilgan.



1-rasm. Vermikulit asosida olingan ionitga Ni²⁺ ionlarining yutilishining vaqtga bog'liqligi grafigi.

Adsorbsiya jarayonlaridagi muvozanat holatidagi izotermasini o'rganish natijalari quyidagi (a va b) grafikda keltirilgan:



2-rasm Vermikulit asosida olingan ionitga Ni²⁺ ionlari sorbsiyasining Lengmyur(a) va Freyndlix(b) izoterma modellari grafiklari.

1-jadval

Ni ²⁺ ionining yutilish izotermasi konstantalari				
Lengmyur izoterma modeli	q _{max}	K _L	R _L	R ²
293 K	35,08772	0,001154	0,123398	0,99883
303 K	40,81633	0,00178	0,08429	0,9994
313 K	48,78049	0,00186	0,081638	0,9995
Freyndlix izoterma modeli	1/n	n	K _F	R ²
293 K	3,944773	0,2535	5,026897	0,9767
303 K	3,962122	0,2523	4,304275	0,9597
313 K	3,27654	0,3052	2,222286	0,9648

Xulosa qilib aytganda yuqoridagi 2-rasmda ko‘rinadiki vaqt va konsentratsiya ortishi bilan Ni(II) metall ionlarining ionitga sorbsiya miqdori ortib borganligini ko‘rish mumkin. Bu esa Ni(II) ionlarining Vermikulit asosida olingan ionitga yutilishidan dalolat beradi.

Yuqoridagi jadval(1-jadval)da ko‘rinadiki Ni(II) metall ionlarining ionitga sorbsiya miqdori $R^2(0,99883-0,9995)$. Lengmyur izoterma modeli bo‘yicha $q_{max}=48,78$ mg/g, R_L qiymatining barcha o‘rganilgan konsentratsiyalarida 0,123398 ega ekanligi sorbsiya jarayoni qulay bo‘lganligidan dalolat beradi. Freyndlix izoterma modeli bo‘yicha $n=0,3052$ sorbsiya qulay bo‘lgan. Bu esa yangi ionitga Ni²⁺ ionlarini kimyoviy sorbsiyaga orqali yutilganligini bildiradi. Bu esa yangi ionitga Ni²⁺ ionlarini sorbsiyalashini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Tursunmuratov O.X., Qutlimuratov N.M. Vermikulit asosida olingan ionitning fizik-kimyoviy xossalari SamDU ilmiy axborotnoma Samarqand 2020, № 5. 18-22 bet.

2. Турсунмуратов О.Х., Кутлимуратов Н. М., Бекчанов Д. Ж., Мухамедиев М.Г. Вермикулит асосида олинган ионитнинг физик-кимёвий хоссалари Фарду илмий хабарлар 2021-йил № 3 213-216 б.

3. Хакимхон Галибович Курбанов, Наргиса Нуриллаевна Ахмедова, Наиль Жадитович Сагдиев, Обид Хамзаевич Турсунмуратов, Даврон Жумазарович Бекчанов Модификация гиалуроновой кислоты/ Universum: химия и биология : электрон. научн. журн. 2020. 10-1 (76). Ст 32-36

4. Мухамедиев М. Г., Хушвактов С.Ю., Жураев М. М. и, Ботиров С. Х., Бекчанов Д. Ж. Кинетика сорбции ионов меди (II) и никеля (II) полиамфолитом на основе поливинилхлорида. Universum 2021, №12 ст 25.

5. Davron Bekchanov, Hidetaka Kawakita, Mukhtarjan Mukhamediev, Suyun Khushvaktov, Murod Juraev Sorption of cobalt (II) and chromium (III) ions to nitrogen-and sulfur-containing polyampholyte on the basis of polyvinylchloride. Polymers for Advanced Technologies 2021, №7 pp 2700-2709

6. Кутлимуратов Н.М., Бекчанов Д.Ж., Мухамедиев М.Г. Изотерма и кинетика сорбции ионов Cu (II) анионитами, на основе поливинилхлорида пластика и отходов аминов используемых в газоочистке//Universum: химия и биология : электрон. научн. журн. 2021. 8(86).

7. Хушвактов С.Ю., Жураев М.М., Муртозакулов М.Р., Бекчанов Д.Ж., Мухамедиев М.Г. [Сорбция ионов свинца \(II\) нового поликомплесона содержащий amino-и сульфогруппы](#)/ Universum: химия и биология : электрон. научн. журн. 2022. 9(48).

XLORATLAR ASOSIDA DEFOLIANTLAR OLISH

Omonbaeva G.B.

Farg‘ona politexnika instituti

Annotasiya: Mahalliy xom ashyolar asosida import o‘rnini bosuvchi, yuqori samaradorli defoliantlarni yaratish va ularni qishloq xo‘jaligida qo‘llash hozirgi kunning muhim amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu muammoni hal etishning samarali yo‘llaridan biri Navbahor koni dolomitlarini parchalab olingan xom ashyolarni qo‘llab, yangi kalsiy- magniy xloratli defoliant olish texnologiyasi yaratildi.

Kalit so‘zlar: defoliant, qishloq xo‘jaligi, magniy xlorat, bishofit, sho‘rsuv, pachkamir, xlorid kislota, kalsiy-magniy xloratli defoliant, texnologiya.

Hozirgi vaqtda asosiy xlorat saqlovchi defoliantlarga – natriy xlorat, kalsiy xlorat va magniy xlorat kiradi.

Natriy xloratini kimyoviy va elektrokimyoviy usullarda olish mumkin. Kimyoviy usulda ohakli sut yoki ishqorlar eritmasini xlorlash va olingan aralashmani qayta ishlab, xlorat birikmalarini olish mumkin.

Natriy xloridning konsentrlangan eritmalarini elektroliz qilish jarayonida natriy xlorati elektrolizning birinchi mahsulotlarni elektrokimyoviy oksidlanishi natijasida yoki ularning eritmadagi kimyoviy reaksiyalari natijasida hosil bo'ladi.

Hozirgi kunda "Farg'onazot" OAJda suyuq holdagi magniy xlorat defolianti olish yo'lga qo'yilgan. Ushbu texnologiyada natriy xloridni pulpadan filtrlash yo'li orqali ajratish ko'zda tutilgan bo'lib, konversiya jarayoni suvli muhitda magniy xlorid eritmasiga natriy xlorat eritmasi qo'shib, 90°C haroratda olib boriladi.

Suyuq holdagi magniy xlorat defolianti och sarg'ish rangli, xidsiz suyulik bo'lib, tarkibida oz miqdorda cho'kmalar mavjud. Suvda yaxshi eriydi, uchuvchan emas. Tarkibida 36,0% magniy xlorat, 9,0% gacha natriy va magniy xloridlari, 55% gacha suv bor. Eritilganda tiniq rangli gomogen eritma hosil qiladi. Suyuq defoliantning pH ko'rsatkichi 6,83; zichligi 1,450-1,515 g/sm³; kinematik qovushqoqligi 20°C haroratda 3,214-3,511 mm²/s ni tashkil qiladi. Kristallanish harorati +15,3°C.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti xodimlari tomonidan magniy xlorat defoliantini defoliasiyalash xossalarini yaxshilash maqsadida "Super – XMD j" defolianti tavsiya qilingan bo'lib, ta'sir etuvchi moddasi magniy xlorati va "Hosil" preparatidir. «Super – XMD j» sarf me'yori quyidagicha magniy xlorat defolianti 6,5-7 l/ga + 25 ml.

Shunday qilib paxtachilikda keng tarqalgan noorganik defoliant-desikantlar magniy xlorat va kalsiy xlorat – xlorid ishlab chiqarish sanoatda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ularni defoliantlar – desikantlar sifatida foydalanish borasida katta tajriba yig'ilgan, natijada ularning afzalliklari bilan bir qatorda salbiy tomonlari ham aniqlangan. Xloratlarning ijobiy xususiyatlariga issiqqonlilar uchun zarari kamligi va arzonligidadir. Kamchiliklariga esa preparat sarfining ekilish maydon yuzasi birligiga yuqoriligi, ayniqsa desikant sifatida foydalanishda va ularni o'simlikka qattiq ta'siridir.

Defoliasiya uchun xloratlarni yakka holda ishlatish o'simlikni juda quritvoradi, natijada yosh chanoqlar shikastlanadi, hosildorlik kamayadi, paxta tolasi sifati pasayadi, yosh novdalar kuyib ketadi, hosil beruvchi ko'raklar shikastlanadi.

Magniy, kalsiy natriy xloratlari aralashmasi azotli (karbamid), azotli fosforli o'g'itlar bilan birgalikda qo'llanilganda alohida olingan xloratlarga nisbatan samaraliroq ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib defoliantlar aralashmasini fiziologik faol moddalarni defoliantlar bilan birgalikda foydalanish asosiy preparat ta'sirini tezlashtiradi va kuchaytiradi, bir qatorda defoliantlar sarf me'yorini pasaytiradi va g'o'zaga ular ta'sirini xarakterini o'zgartiradi.

Yuqorida bayon etilgan adabiyotlar taxliligiga asosan aytib o'tish kerakki, bu yo'nalishda kompleks ta'sir etuvchi defoliantlar yaratish muammosi juda dolzarb hisoblanadi.

Shunday qilib, keng tarqalgan noorganik defoliantlarni ishlab chiqarish sanoatda keng yo'lga qo'yilgan. Lekin mavjud assortimentlar qishloq xo'jaligini zamonaviy talablarini qanoatlantirmaydi. Xlor tutuvchi va rodanidli defoliantlarning asosiy kamchiligi ularning yuqori defoliasiyalash aktivligi, o'simliklarga «qattiq» ta'siri oqibatida barglarning qurishi ko'saklarning zararlanishi, hosildorlikni kamayishi, tola sifatini yomonlashuvi, yosh nihollarning kuyishi bilan kuzatiladi. Xloratlarning defoliasiyalash aktivligini oshirish, ta'sir ko'lamini yaxshilash qo'shimchalar qo'shish va aralashmalar qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Kalsiy, natriy xloratlarining azot va azot-fosfor o'g'itlari aralashmalarining defoliasiya effektivligi, alohida olingan xloratlarga nisbatan yaxshiroqligi aniqlandi.

Bundan xulosa chiqarish mumkinki, demak defoliasiya uchun preparat va turli azot, oltingugurt-fosfor tutuvchi birikmalar birgalikda asosiy preparatning ta'sirini kuchaytiradi. Bunda defoliantlar sarf normasini kamaytirish, ularning o'simliklarga ta'sirini ijobiy tomonga o'zgartirishga erishish mumkin.

Zamonaviy tasavvurlarga asosan barglarning to'kilishidagi gormonal regulyasiyasida etilen defoliyasiya jarayonining asosiy endogen aktivlashtiruvchisi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda defoliantlarga ajratuvchi qatlamlarning hosil bo'lishi ikkinchi fazasi sezgirligi farqlari belgilangan.

Agar defoliantlarning antiauskini effekti kuchsiz bo'lsa birinchidan ularni o'simliklarni o'stiruvchi reguliyator qo'shib kuchaytirish mumkin.

Ikkinchidan, defoliantlar o'simliklardagi indoliluksus kislotasi ta'sirini aktiv ingibirlash, lekin endogen etilenning xosil bo'lishiga kuchsiz ta'sir etsa, unga aktiv etilen xosil qiluvchi stimulyator qo'shish kerak.

Metall ionini bilan bog'langan donor atomini soni metallning koordinatsion sonini deb yuritiladi. Yuqoridagi kompleksni platinaning koordinatsion sonini 4 ga, $[\text{Co}(\text{NH}_3)_6]^{3+}$ da esa kobaltning koordinatsion sonini 6 ga teng. Ba'zi metallarning ionlari doimiy koordinatsion songa ega bo'ladi. Uch valentli xrom bilan kobaltning koordinatsion sonini 6 ga, ikki valentli platinaniki 4 ga tengligi aniqlangan. Koordinatsion sonini ko'pincha 4 va 6 ga teng bo'ladi. Bu son metall ionini katta kichikligi va uni o'rab turgan ligandlarga ham bog'liq bo'ladi. Ligandlar yirik bo'lganda, ular metall ionini atrofida kamroq to'plana oladi. Markaziy atomiga birikkan manfiy zaryad metall tashuvchi ligandlar ham koordinatsion sonining kamayishiga sabab bo'ladi. $[\text{Ni}(\text{K}_2\text{H}_3)_6]^{2+}$ kompleksida nikel (II) - ionini atrofida ammiakning 6 ta neytral molekulasini to'plansa $[\text{NC}_4]^{2-}$ kompleksiga 4 ta manfiy zaryadlangan xlorid ionini yig'iladi. To'rt koordinatsion sonli komplekslar tetraedrik yoki tekis kvadrat, olti koordinatsion sonlari esa oktaedrik geometrik tuzilishga ega bo'ladi [1].

Kompleks birikmalarning barqarorligi anchagina omillarga bog'liq. Bunday birikmalarda tashqi va ichki doiralarning barqarorligi har xil bo'ladi. Tashqi doiradagi kompleks ion elektrostatik kuchlari orqali bog'lanib, suvli eritmalarda oson ajraladi. Bunday parchalanish birlamchi dissotsilanish deyiladi va u kuchli elektronlari kabi to'liq o'tadi. Ichki sferada bo'lgan ligandlar markaziy atom bilan ancha kuchli bog'langan bo'lib, kam darajada ajraladi. Kompleks birikmaning ichki sferasidagi parchalanish ikkilamchi dissotsilanish deb yuritiladi.

Ikkilamchi dissotsilanish kompleks zarracha, markaziy ion va ligandlar orasida muvozanat vujudga kelgandagina mavjud bola oladi. Misol tariqasida $[\text{Ag}(\text{NH}_3)_2]^+$, ni olaylik. Uning ionlarga dissotsilanishi barcha kuchsiz elektrolitlari kabi massalari ta'siri qonuniga bo'ysunadi hamda muvozanat kompleks konstantasi yoki beqarorlik konstantasi deyiladi. Kompleksning beqarorlik konstantasi tur kompleks ionlari uchun har xil qiymatga ega bo'lib, kompleksning qanchalik barqarorligini bildiradi. Keyingi vaqtlarda kompleks birikmalar mustahkamligini tavsiflashda beqarorlik konstantasining aksi bo'lgan kattalikni - barqarorlik konstantasi deb atash taklif qi- lindi. Barqarorlik konstantasi markaziy atom bilan ligandlarga ko'p jihatdan bog'liqligi amalda isbotlangan. Markaziy ionlari kuchsiz qutblantirish xususiyatiga ega komplekslarda (ishqoriy va ishqoriy-yer metallarda) barqarorlik markaziy ion bilan ligandlar orasidagi elektrostatik birikishning kuchayishi orqali ortishi aniqlangan bo'lib, markaziy ion va ligandlar zaryadi yuqori hamda ularning radiusi kam bo'lganda kompleksning barqarorligi yuqori bo'ladi. Bunday kationlar $[\text{NH}_4]^+$, $[\text{K}(\text{MgCl}_3)]^+$ tarkibida kichik davr elementlari kislorod, azot $[\text{K}(\text{AlH}_4)]^+$, $[\text{K}(\text{AlF}_4)]^+$ va F ionlari bor ligandlar bilan birmuncha barqarorroq bo'lgan komplekslar hosil qiladi.

Platina oilasi metallari hosil qilgan kationlar, simob, kumush va oltin ionlari (bular qutblanish kuchli namoyon bo'ladi va markaziy atom bilan ligandlar orasidagi bog'lanish kovalent bog'lanishga yaqin) yengil qutblanuvchi ligandlar bilan hosil qilgan komplekslari birmuncha barqaror bo'ladi. Bularga tarkibida fosfor va oltingugurt atomlari, J ionlari bor ligandlari misol bo'la oladi. O'z ligandlarini tez almashtira oladigan komplekslar labil, qiyin almashtiruvchilari esa inter komplekslar deb yuritiladi. Labil va inertkomplekslar orasidagi farq vujudga keluvchi muvozanatning holati bilan emas, balki aksincha, ligandlar almashingandagi reaksiya natijasida hosil bo'ladigan muvozanat tezligi bilan belgilanadi.

Kompleks birikmalarning asosiy qismi metalning markaziy ioni bilan ligand anioni yoki qutblangan molekula orasidagi elektrostatik tortishuv hisobiga vujudga keladi deb qaraladi. Tortishuv kuchlari bilan bir qatorda bir xil zaryadlangan ligandlar orasida elektrostatik itarilish kuchlari ham mavjud bo‘ladi. Natijada minimal potensial energiyaga ega bo‘lgan barqaror atomlar (ionlar) gruppachasi vujudga keladi [2].

Donor-akseptor bog‘lanishning hosil bo‘lishida komplekslarda s- va p-orbitallar bilan bir qatorda, d-orbitallar ham qatnashishi mumkin. Bunda valent bog‘lar nazariyasiga ko‘ra gibridlanishda d-orbitallar ishtirok etadi. Shunday qilib, komplekslar hosil bo‘lishida sp , sp^2 , sp^3 , sp^2d va sp^3d -gibridlanish hollari uchraydi. Bunda komplekslar tegishli trigonal, tetraedrik yassi kvadrat va oktaedrik tuzilishga ega bo‘ladi.

Valent bog‘lar usuli kompleks birikmalarning ma‘lum koordinatsion sonlari hamda geometrik shakllarini tushuntirib beradi, shuningdek, komplekslarning reaksiyaga kirishish-kirishmasligini oldindan aytib berishga ham imkon beradi. Biroq valent bog‘lar usuli komplekslarning optik xossalari, ulardagi bog‘lanishning barqarorligini miqdoriy jihatdan ifodalash va stereo kimyo masalalarini analiz qilishda birmuncha o‘zgarish qiliadi [3].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Axmerov Q., Jalilov A., Sayfuddinov R., Akbarov A., Turobjonov S. "Umumiy va anorganik kimyo" T. 2017 O‘zbekiston. Darslik. 188-197-betlar.
2. Axmerov Q., Jalilov A., Sayfutdinov R. "Umumiy va anorganik kimyo" T. 2006 O‘zbekiston. (Lotin alifbosida). Darslik.
3. Axmerov Q., Jalilov A., Sayfutdinov R. «Umumiy va noorganik kimyo» T.2002-yil Ma’ruzalar kursi. O‘quv qo‘llanma .

KOMPLEKS BIRIKMALARNING SINFLANISHI MAVZUSINI “KLASTER” GRAFIK ORGANAYZERI ASOSIDA TUSHUNTIRISH

Abdisamatov E.D., Abdisamatova O.A., Jo‘raboyev A.A., Husanov O.H., Ergasheva M.J.
Farg‘ona politexnika instituti

***Annotatsiya:** Ushbu tezisda kompleks birikmalar tarkibidagi ligandlar tabiatiga, kompleks ionning zaryadiga, ligandlar dentantligiga ko‘ra sinflanishini talabalarga “Klaster” grafik organayzeri asosida tushuntirish ko‘rsatib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** kompleks birikmalar, gidratlar, ammiakatlar, metallaming karbonillari, gidroksokomplekslar, asidokomplekslar, aralash komplekslar, kation, anion, neytral.*

Bugungi kunda taraqqiyotimizning yangi bosqichida mamlakatimizda tabiiy fanlarini oliy ta‘lim muassasalarida o‘qitishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bunga sabab jahon bo‘ylab yuz berayotgan global o‘zgarishlar barcha fanlar singari aniq fanlarni ilmiy jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga bo‘lgan intilishning natijasidir. Jumladan, kimyo fanini o‘qitishda dars beruvchi pedagog-o‘qituvchilar o‘qitishning xilma-xil usullaridan o‘rinli ravishda foydalana olishlari, talab-yoshlarga yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali dars jarayonlarini tashkillash, pedagogik texnologiya metodlarining umumiy va xususiy tamoyillaridan xabardor bo‘lish nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa hozirgi kunda talabalarning sifatli bilim olishi uchun muammoli va interfaol ta‘lim texnologiyalaridan foydalanmay turib o‘qitishning umuman imkoni yo‘q. SHunday ekan kimyo fanini o‘qitishda grafik organayzerlardan foydalanish dolzarb hisoblanadi. Quyida kompleks birikmalarning sinflanishi mavzusini “Klaster” grafik organayzeri asosida tushuntirish usulini ko‘rib chiqamiz. Bunda dars beruvchi dastlab “Klaster” grafik organayzeri va uni qo‘llash to‘g‘risida ma‘lumot beradi.

“KLASTER” grafik organayzeri

“Klaster” (g‘uncha, to‘plam, bog‘lam) grafik organayzeri puxta o‘ylangan strategiya bo‘lib, uni o‘quvchi (tinglovchi va kursant)lar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlarda qo‘llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirish, ular o‘rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

Grafik organayzerdan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi:

Nimani o‘ylagan bo‘lsangiz, uni qog‘ozga yozing! Fikringizning sifati haqida o‘vlab o‘tirmav. shunchaki vozib boring!

YOzuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e‘tibor bermang!

Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko‘proq yangi g‘oyalarni ilgari surish. ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik. bog‘liqlikni ko‘rsating!

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmagunicha, yozishdan to‘xtamang! Agar ma‘lum muddat o‘ylay olmasangiz, u holda qog‘ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang! Bu

“Klaster” grafik organayzeri to‘g‘risiga talabalarda tasavvur hosil bo‘lgandan so‘ng, o‘qituvchi dars mazmun-mohiyatini yoritib beradi.

I. Kompleks birikmalar tarkibidagi ligandlar tabiatiga ko‘ra sinflanadi:

1. Molekular monodentant ligandlar saqlagan komplekslar. Bunday turdagi kompleks birikmalarga quyidagilar kiradi:

- gidratlar** — ligand vazifasini faqat suv molekullari bajaradi (akva-komplekslar). Masalan: $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})_4]\text{Cl}_2$, $[\text{Cr}(\text{H}_2\text{O})_6]\text{Cl}_3$;
- ammiakatlar** — ligand vazifasini faqat ammiak molekulasi bajaradi. Masalan: $[\text{Ag}(\text{NH}_3)_2]\text{Cl}$, $[\text{Cu}(\text{NH}_3)_4]\text{SO}_4$;
- metallaming karbonillari** — ligand vazifasini uglerod monooksid bajaradi: $[\text{Fe}(\text{CO})_5]$, $[\text{V}(\text{CO})_6]$.

2. Ligand vazifasini ionlar yoki kislota qoldiqlari (anionlar) bajaruvchi asidokomplekslar:

- gidroksokomplekslar** — ligand vazifasini gidroksil guruh bajaradi. Masalan: $[\text{Al}(\text{OH})_6]\text{Cl}_3$, $[\text{Zn}(\text{OH})_4]\text{Cl}_2$;
- asidokomplekslar** — ligand vazifasini kislota qoldiqlari bajaradi. Masalan: $\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$, $\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]$, $\text{K}[\text{Ag}(\text{NO}_2)_2]$.

Kompleks birikmalar kislota qoldig‘i tabiatiga ko‘ra ham sinflanadi:

Ftorokomplekslar — $\text{K}_2[\text{BeF}_4]$, $\text{Na}_3[\text{AlF}_6]$,

Sianokomplekslar — $\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]$.

- aralash komplekslar** — bir nechta har xil ligandlar tutgan kompleks birikmalar. Masalan: $[\text{Pt}(\text{NH}_3)_2\text{Cl}_2]$, $[\text{Co}(\text{NH}_3)_4\text{Cl}_2]\text{Cl}$.


II. Kompleks birikmalar kompleks ionning zaryadiga ko‘ra ham sinflanadi.

Agar kompleks ion zaryadi musbat bo‘lsa - kation kompleks: $[\text{Ag}(\text{NH}_3)_2]\text{Cl}$, $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})_4]\text{SO}_4$.

Agar kompleks ion zaryadi manfiy bo‘lsa — anion kompleks: $\text{Na}_3[\text{Co}(\text{NO}_2)_6]$, $\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$.

Agar kompleks ion zaryadsiz bo‘lsa — neytral kompleks: $[\text{Pt}(\text{NH}_3)_2\text{Cl}_2]$.

III. Polidentant ligandlardan hosil bo‘lgan halqali kompleks birikmalar (xelat komplekslar). Masalan, aminosirka kislota Cu (II) bilan hosil qilgan kompleks birikmasi:






Odatda markaziy atom bilan ligandlar orasida kimyoviy bog‘ donor-akseptor mexanizmida amalga oshadi. Bunday birikmalarda ligandlar bo‘linmagan elektron jufti saqlagani uchun elektron juft donori, markaziy atom esa bu elektronlarni joylashishi uchun bo‘sh orbitalga ega bo‘lgani uchun elektron juft akseptori vazifasini bajaradi.

Ligandlar markaziy atom bilan bir nechta bog‘ orqali bog‘lanishi mumkin. Ligandlarning markaziy atom atrofida egallay oladigan koordinatsions nuqtalar soni uning dentantligi yoki koordinatsions sig‘imi deyiladi.

Ligandlar dentantligiga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi.

1. Bir dentantli ligandlar — markaziy atom atrofida 1 ta koordinatsions nuqtani egallaydi, yoki markaziy ion bilan ligand bitta bog‘ bilan bog‘langan. Bularga bir zaryadli kislota qoldiqlari (Cl^- , I^- , F^- , NO_3^- , NO_2^-) neytral molekular (H_2O , NH_3) hamda gidroksid ion OH^- misol bo‘ladi.
2. Ikki dentantli ligandlar — markaziy atom atrofida 2 ta koordinatsions nuqtani egallaydi yoki markaziy atom bilan ligand 2 ta bog‘ bilan bog‘langan. Ikki dentantli ligandlarga SO_4^{2-} , $\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$ ionlari, etilendiamin molekulari va boshqalar misol bo‘ladi.
3. Uch va ko‘pdentantli ligandlar — markaziy atom atrofida 3 ta va undan ko‘p koordinatsions nuqtalarni egallaydi, yoki markaziy atom bilan ligandlar 3 ta va undan ortiq bog‘ bilan bog‘langan. Uch dentantli ligandlarga dietilenucham in — $\text{H}_2\text{NCH}_2\text{CH}_2\text{NHCH}_2\text{CH}_2\text{NH}_2$, to‘rt dentantli ligandlarga etilendiamindiatsetat — $\text{HOOCCH}_2\text{NHCH}_2\text{CH}_2\text{NHCH}_2\text{COOH}$ va ko‘p dentantli ligandlarga




misol bo‘la oladi.

Ikki, uch va ko‘pdentantli ligandlar halqali xelat kompleks birikmalarni hosil qiladi. Bunday birikmalar metallxelatlar, jarayon esa xelatlanish jarayoni deyiladi.

Kompleks birikmalar tarkibida metall xelatlar bo‘lishi kompleks birikmalarning barqarorligini oshiradi. Buni L.A.CHugaevning halqalar qoidasi quyidagicha ta’riflaydi: metallxelat hosil qilishda ishtirok etadigan atomlar soni 5 yoki 6 ga teng bo‘lganda eng katta barqarorlikka ega bo‘lgan komplekslar hosil bo‘ladi.

Grafik organayzer yordamida o‘quvchi (tinglovchi)lar topshiriq bo‘yicha fikrlarini klaster (mayda, alohida qismlar) tarzida quyidagicha ifodalaydi:



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Киселев Ю. М. Химия координационных соединений. – 2014.
2. Садикова М. И., Шухратовна Қ. С. КООРДИНАЦИОН БИРИКМАЛАР НАЗАРИЯСИ // MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2022. – Т. 2. – №. 17. – С. 63-67.
3. Olimho'jayeva T. Bioanorganik va fizkolloid kimyo. – 2005.
4. Kurbonova M. E. KIMYO MASHG'ULOTLARINI KLASTER GRAFIKA MISOLLARI YORDAMIDA TASHKIL ETISH // Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 9. – С. 246-253.

KOMPOZISION POLIMER MATERIALARDAN YASALGAN KATTA O'LCHAMDAGI REZERVUARLARNING IQTISODIY SAMARADORLIK HISOBI

Abduraximov A.A., Qudratov O.S., Toshkentboyeva A.S.

Farg'ona politexnika instituti

Annotatsiya: kompozitsion polimer materialardan yasalgan katta o'lchamdagi rezervuarlarning iqtisodiy samaradorlik hisobi

Kalit so'zlar: kompozitsion polimer materiallar, polimer kompozitsion materiallarini iqtisodiy samaradorligi, pestitsidlar, gerbitsidlar, politelin.

Demokratik jamiyatning mustaqil davlatining rivojlanishi ilmiy - texnik taraqqiyot asosida amalga oshirilishi kerak. Bu, boshqa narsalar qatori, ishlab chiqarilgan va ishlatiladigan kompozitsion materiallarning sifat darajasi bilan belgilanadi, sanoatda texnika va texnologiyaning mukammalligi

Paxtachilikda ishlatiladigan kimyoviy ishlov berish mashinalari shu maqsadda paxta ekish paytida pestitsidlar, gerbitsidlar va boshqalarni kiritishga, shuningdek, paxtani defoliatsiya qilish bo'yicha ishlarni bajarishga imkon beradi.

Biroq, paxta etishtirish texnologiyasi uchun zarur bo'lgan bunday agressiv texnologik vositalardan foydalanish qishloq xo'jaligi mashinalarida korroziyaga qarshi kurashish va ehtiyot qismlarni yaratish vazifasini qo'yadi! kimyoviy chidamli materiallar. Ushbu vazifa, ayniqsa, o'simliklarni kimyoviy qayta ishlash mashinalarining tanklari uchun juda muhimdir va kompozitsion polimer materiallardan tayyorlangan tankda ishlatiladigan yuqori qotishma qimmatbaho po'latlar mashinalarning og'irligi va narxini pasaytiradi, ularning chidamliligi va ishonchliligini oshiradi va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar yuqori bo'ladi.

Paxtani kimyoviy qayta ishlash mashinalarining pestitsidlari uchun tanklarni ishlatish, ishlab chiqarish va o'rnatish sharoitlarining o'ziga xos xususiyati, ushbu texnikani takomillashtirish zarurati eng samarali material, ishlab chiqarish texnologiyasi, kompozit polimerlardan tanklarni ishlab chiqarish uskunalarini ishlab chiqish bo'yicha muhim ilmiy - texnik vazifani ilgari surdi. material bu O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti uchun juda dolzarb muammo [1].

Polimer kompozitsion materiallarning zamonaviy rivojlanish darajasi past va yuqori haroratlarda, agressiv va abraziv muhit bosimlarida ekstremal sharoitlarda ishlaydigan noyob materiallarni yaratishga imkon beradi. Shu bilan birga, ularga asoslangan kompozitsiyaning mavjud polimer materiallari termoplastik polimerlar va mahalliy xom ashyolarga asoslangan korroziyaga chidamli strukturaviy materiallardan mahsulotlar va ehtiyot qismlarni ishlab chiqarish uchun samarali texnologiya yo'qligi sababli mashina agregatlarining ishchi organlarida hali keng qo'llanilmaydi. [2]

Iqtisodiy samarani hisoblash milliy iqtisodiyotda yangi texnologiyalardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash metodologiyasiga muvofiq amalga oshirildi, yillik iqtisodiy samarani aniqlash asosiy va yangi texnologiyalar uchun joriy xarajatlarni taqqoslashga asoslangan edi. Yuqoridagi xarajatlar normativ foyda tannarxining yig'indisidir:

$$Z=C+E_k*K$$

Bu erda **Z** -ishlab chiqarish(ish) birligiga kamaytirilgan xarajatlar, so'm.

S -ishlab chiqarish(ish) birligining tannarxi, so ' m.

E_k -ishlab chiqarish fondlariga xos kapital qo 'yilmalar, so' m.

K -kapital qo'yilmalar samaradorligining normativ koeffitsienti

Yangi uskunaning iqtisodiy samaradorligini baholashga etarli yondashuvni ta'minlash uchun hisob - kitoblarda kapital qo'yilmalarning iqtisodiy samaradorligining yagona me'yoriy koeffitsienti **E_n** -0,15 ishlatilgan

Metall va polietilen tanklarni ishlab chiqarish xarajatlari quyidagi formula bo'yicha aniqlandi

$$E=(Z_1- Z_1)*A_2$$

Bu erda **E** -yillik iqtisodiy samara, so'm

Z₁- Z₂- bazaviy va yangi texnika yordamida ishlab chiqarilgan mahsulot(ish)birligiga kamaytirilgan xarajatlar, so ' m;

A₂-hisob-kitob yilida tabiiy birliklarda yangi uskunalar yordamida ishlab chiqarishning yillik hajmi.

Hisoblash uchun quyidagi xarajatlar tarkibi qabul qilinadi (C_v и C_n)

- transport xarajatlarini hisobga olgan holda xom ashyo va materiallar;

- asosiy va qo'shimcha ish haqi;

- uskunalar uchun amortizatsiya ajratmalari-uskunalar uchun xarajatlar;

- energiya xarajatlari.

- uskunalarni ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari

10400 dona almashtirishning kutilayotgan iqtisodiy samarasi.paxta kimyoviy ishlov berishda foydalaniladigan kompozit polimer materiallardan tayyorlangan tanklar uchun metall rezervuarlar 212,771 mln. so'mni tashkil etadi. 212,771 mln so 'mdan 16,5% miqdorida rag' batlantirish jamg

'armasiga ajratmalar olib tashlangan holda haqiqiy iqtisodiy samarasi 177,66 mln so' mni tashkil etadi.

Metall tanklarni plastmassaga almashtirishning iqtisodiy samarasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$E=(C_1+0,15Q_1)-(C_2+0,15Q_2)$$

C_1 ; C_2 - metall va polimer rezervuarlarining qiymati mos ravishda mln so' m;

Q_1 va Q_2 - metall va plastmassa rezervuarlarini ishlab chiqarish uskunalarning qiymati mos ravishda mln so' mni tashkil etadi.

C_1 - tenglamadan aniqlaymiz

$$C_1=(C_M+Z+A+O+P_T+E_{EN}+S) \text{ mln.so'm}$$

Bu yerda C_M -sarflanadigan materialning qiymati, mln so' m;

Z -ish haqi, mln so' m;

A-amortizatsiya ajratmalari, mln so' m;

O-uskunalar narxi;

P_T -joriy ta'mirlash xarajatlari;

E_{EN} -elektr energiyasi sarfi, mln, so' m;

S-texnik xizmat ko'rsatish va xizmat ko'rsatish, mln so' m.

10400 dona ishlab chiqarish xarajatlari. metall tanklar:

$S_M = 273640000$ sum;

Z= 32 100 000 so'm;

A= 5885000 so' m;

O =944000 so' m;

$P_T = 5575000$ so' m;

$E_{EN} = 525 000$ so'm.

S =829000 so' m

Bu yerdan

$C_1=(273,64 + 32,1 + 5,885 + 1,944 + 5,575 + 13,525 + 0,829) = 333,5$ mln so' m. Metall tankni chiqarish uchun uskunaning narxi

$Q_1 = 49338000$ so'mga teng

$$C_1 + 0,15 * Q_1 = 335,5 + 0,15 * 49,338 = 340,9 \text{ mln so' m}$$

$$C_1 + 0,15 * Q_1 = 340,9 \text{ mln so' m.}$$

10400 dona ishlab chiqarishda. plastik tanklar xarajatlar tengdir

$C_2 (83,604 + 12,445 + 4,6 + 4,397 + 8,93 + 3,384 + 0,77) = 118,133$ mln, so' m

$C_2 + 0,15 * Q_2 = 118,133 + 0,15 * 66,642 = 128,129$ mln so' m.

Kutilayotgan yillik iqtisodiy ta'sir

$E = 340,9 - 128,129 = 212,771$ mln so' m. yiliga 10400 dona ishlab chiqariladi plastik tanklar.

Iqtisodiy ta'sirning 15,6% rag'batlantirish fondiga mo'ljallangan, ya'ni sof kutilayotgan iqtisodiy ta'sir tengdir

$$E_{ch} = E - 0,156 * E = 212,771 - 35,1 = 177,66 \text{ mln so' m.}$$

$$E_{ch} = 177,66177,66 \text{ mln so' m}$$

Sho'rtan gaz-kimyoy majmuasi polietilenidan oqilona va samarali foydalanish, shubhasiz, ilmiy va amaliy qiziqish uyg'otadi. Tanklar ishlab chiqarish uchun mos kompozitsion materiallar ishlab chiqarishda polietilenning alohida navlarini qo'llash bog'lovchi xom ashyo bazasini kengaytirishga qaratilgan keng istiqbollarni ochib beradi va shu bilan korxonalarining uzluksiz ishlashini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. S.S.Negmatov, A.G.Abduraxmonov PCM dan sanoat uskunalarini ishlab chiqish, aylanma qoliplash usullari. Respublika universitetlararo ilmiy-texnikaviy konferensiyasi. 2009 yil

2. S.S.Negmatov, A.G.Abduraxmonov PCMni aylanma qoliplashning texnologik jarayoni. Respublika universitetlararo ilmiy-texnik konferensiyasi. 2009 yil

KOORDINATSION BIRIKMALARNI O'QITISH METODIKASI

Xaydarov A.A., Abdullajonov X., Xomidova O.I., Maxammatov B.B.

Farg'ona politexnika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada kompleks birikmalar mavzusini o'qitishning interaktiv usullari ifodalangan bo'lib, interaktiv usulda mavzuni boshqa fanlar bilan umumlashgan holda o'qitishdan iborat. Shuningdek kompleks birikmalarni sanoatdagi ahamiyati, olinishi, xillari va nomlanishi bo'yicha dars mashg'ulotlarda qo'llanishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Kompleks, koordinatsion, ligandlar, markaziy atom, element, donor-akseptor, tashqi va ichki sfera, atom va ionlar.


Kimyo fanida o'qitiladigan barcha mavzular kabi kompleks birikmalar mavzusini o'qitish ham o'z ahamiyatiga ega. Biz ushbu maqola orqali koordinatsion birikmalar mavzusini interaktiv usulda o'qitish usulini taklif etmoqdamiz, chunki interaktiv usulda o'qitish mavzuni biologiy va fizika fanlari bilan umumlashgan holda tashkil etish, talabalarni mavzuga bo'lgan e'tiborini oshirish va koordinatsion birikmalar sohasini rivojlantirishga sabab bo'ladi degan umiddamiz.

Kompleks birikmalar haqidagi ta'limotini Verner tomonidan yaratilgan nazariya asosida izohlab berilgan: *Kompleks birikmalar tarkibidagi elementlarning qo'shimcha valentliklar hosil qilish hisobiga hosil bo'lib, bu elementlar maksimal darajada kimyoviy bog'lar hosil qiladi shuningdek markaziy atom yo'naluvchanlik xususiyatiga ega bo'ladi.*

Mavzuni o'qitish jarayonida kristall akvokomplekslar kristallogidratlar hosil bo'lishi ayrim tuzlarning suvdagi eritmalarini bug'latilish orqali amalga oshiriladi. Masalan mis kuporosi $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$ qishloq xo'jalik sohasida tuproqni mis ionlari bilan to'ydirishda mineral o'g'it sifatida ahamiyatga ega ekanligi mis elementi mikroelement sifatida o'simlikni o'sish va rivojlanishida muhim kimyoviy element bo'lib, uning yetishmasligi hosildorlikni kamayishiga olib kelishga shuningdek uning me'yorida ortishi ham o'z navbatda zararli holatlarni keltirib chiqarishi aytib boriladi. Shuningdek mis kuporosi suvni tozalash tuproq tarkibidagi zarar kuranda hashorarlarga qarshi kurashda ham o'z ahamiyatiga ega bo'lgan kimyoviy birikmalardan biridir.

Qishloq xo'jalik sohasida ham kompleks o'g'it ishlab chiqarish koordinatsion birikmalarga asoslanmoqda.

Kimyo sanoatida oltin, kumush va mis metallari olish gidrometallurgiya usuliga asoslanadi:[1]



Tibbiyot sohasida kompleks birikmalarning ahamiyati bebaho deb eslatib o'tish, talabalarning koordinatsion birikmalarga bo'lgan e'tiborini oshiradi, chunki tibbiyotda qo'llaniladigan inson organizimi uchun zarur bo'lgan vitaminlar, turli dori - darmon vositalari kompleks birikmalar holda bo'lishligi ularning mavzuni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Masalan, Zn birikmalari ta'm bilishda, yod, kaliy, kremniy, selen va rux birikmalari saratonni davolashda, revmatizmida- kalsiy kremniy va rux, yod, kaliy va magniy – yurak artemiyasida, quvasizlikda – yod, kalsiy, magniy va fosfor, o'pka kasalligida- mis birikmalari, vitaminlar ham kompleks birikmalar holda bo'lib, masalan, B gurux vitaminlarda Co metali (kobolamin) organizmda moddalar almashnuvida asosiy vazifani bajaradi.


Kompleks birikmalar sanoatda metallarni himoyalashda galvanik qoplamalar hosil qilib, metallarni korroziyadan saqlayda ham o'z ahamiyatiga ega.[2]

Biologik jarayonlarida ham koordinatsion birikmalarning o'rni muhim. Xlorofill, gemoglobin, enzimlar koordinatsion birikmalar sinfiga mansub. Ko'pgina dorivor moddalar (koamid, ferramid va boshqalar), tarkibi ham kobalt, temir ionlarining nikotinamid bilan birikmasi koordinatsion birikmalar hisoblanadi. Vitaminlarning ko'pchiligi koordinatsion birikmalar holda bo'ladi.

Endi koordinatsion birikmalarni o'qitishga to'xtalsak tarkibida murakkab – “kompleks” ion tutgan birikmalar kompleks birikmalar deyiladi. Yangi kimyoviy bog' hosil qilmasdan yoki yangi elektron jufti yuzaga kelmasdan oddiy molekullardan murakkab molekullar hosil bo'lishi kompleks birikmalarni yuzaga keltiradi. Kompleks birikmalarda olingan va berilgan elektronlarning soniga qarab valentlikni bilib bo'lmaydi. Kompleks birikmalar 2 ta polyar molekullarni o'zaro ta'siridan hosil bo'ladi.[3]

Kompleks birikmalar tarkibiga ko'ra: ichki va tashqi sferalardan, ular markaziy atom va uni qurshab turgan ligandlardan tashkil topadi. Kompleks tarkibidagi markaziy atom bilan bog'langan ligandlar soni markaziy atomning koordinatsion soni deb ataladi. Masalan, $K_4[Fe(CN)_6]$, $[Ti(CO)_7]$ va $[Cu(NH_3)_4]SO_4$ da markaziy atomlarning koordinatsion birikmalar 6, 7 va 4 ga teng .


Markaziy atom sifatida davriy sistemasining katta davrlari o'rtasidagi (oralik) elementlar (Ti, V, Mn, Fe, So, Ni, Si, Zn, Zr, Nb, Mo, Tc, Ru, Rh, Pd, Ag, Cd, Hf, Ta, W, Re, Os, Ir, Pt, Au, Hg, nodir yer elementlari, aktinoidlar), ba'zi metallmaslar, masalan, B, P, Si ishtirok etadi, kislotalarning anionlari (Cl^- , Br^- , S^{2-} , WO_4^{2-} , SO_4^{2-} , PO_4^{3-} , va boshqalar), shuningdek, O, N, P, S, Se, S atomlariga ega bo'lgan neytral organik va anorganik molekullar hamda radikallar ligandlar bo'lib qatnashishi mumkin. Koordinatsion bog'lar hosil bo'lishida markaziy atomning bo'sh orbitallari hisobiga akseptor, ligandlar donorlik xususiyatiga ega bo'lib qo'shimcha bog'lar hosil qiladi. Ularni quydagi tenglamalar orqali hosil bo'lishini ko'rish mumkin:




Bu tenglamalarda Cu va Fe atomlarining bo'sh (vakant) orbitallar hisobiga akseptorlik xususiyatlarini, N atomining taqsimlanmagan juft elektronlari donorlik xususiyatini nomoyon qilish hisobiga markaziy atom bilan ligandlar hosil bo'ladi.

Kompleks birikmalarni nomlash.


1. Ionlarni nomlashda birinchi navbatda kation, undan keyin anion ataladi.




2. Ligandlarni nomlashda avval “anion” so'ngra “neytral ionlar” va undan keyin “kationlar” omi ataladi:



3. Ligandlar sonini ifodalovchi qo'shimchalar. Oddiy ligandlar sonini ifodalashda di, tri, tetra, penta, geks qo'shimchalar ishlatiladi.



4. Markaziy ionning oksidlanish darajasini nomlashda markaziy ionning oksidlanish darajasi qavs ichida lotincha raqamlar bilan ifodalanadi:



Koordinatsion birikmalarni o'qitish yuqorida aytib otilganday injiner texnologlarning kelgusidagi ish faoliyatlarida muhim ahamiyat kasb etadi.[4]

Koordinatsion birikmalar mavzusini interaktiv usullar bilan o'qitish talabalarni mavzu bo'yicha qiziqishlarini oshirishda va kelgusidagi kasbiy maxoratlarida ham o'z ahamiyatiga ega deb bilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.
2. M.L. Glinka "Umumiy kimyo" darslik kimyo-1988
3. M.M.Abdulhayeva, O'.M.Mardonov "Kimyo" daeslik.2006
4. N.C.Axmetov "Общая и неорганическая химия" Москва-2000
5. X.R.Rahimov Anorganik ximiya Toshkent 1984 - yil
6. Сайдазимов М. С., Хайдаров А. А., Абсарова Д. К. Способы получения анионных поверхностно-активных веществ из неионогенных //Universum: технические науки. – 2020. – №. 12-4 (81). – С. 40-44.
7. Хамракулова М. Х. и др. Исследование процесса нейтрализации экстракционного хлопкового масла //Universum: технические науки. – 2019. – №. 11-1 (68). – С. 75-77.
8. Хайдаров А. А., Абдуллаева М. А. Математический подход к решениям задач на практических занятиях по химии //Universum: психология и образование. – 2020. – №. 7 (73). – С. 8-11.
9. Нишанов М. Ф., Хайдаров А. А., Мирзаев Д. М. Значение изучения среды раствора при профессиональной подготовке студентов направления «Пищевая технология» //Universum: технические науки. – 2020. – №. 10-2 (79). – С. 92-94.
10. Нишонов М. и др. Инновационный подход к обучению курса «химия» в направлении «технология пищевых продуктов» //Universum: технические науки. – 2019. – №. 12-2 (69). – С. 33-36.
11. Хайдаров А. А. Инновационный подход к обучению курса «Химия» В направлении «технология пищевых продуктов» //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 598-606.
12. Хайдаров А. А. Инновационный подход к обучению курса «Химия» В направлении «Технология пищевых продуктов». – 2022.
13. Хайдаров А. А. Инновационные методы преподавания химии в технических высших учебных заведениях //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 5. – С. 364-371.

KORDINATSION BIRIKMALAR SINTEZI VA ULARNING ISHLATILISHI.

No'monov M.A., Jo'rayev A.I., Ismoilov Sh.Sh.

Farg'ona politexnika instituti.

***Annotatsiya:** Maqolada kimyo fanidan kompleks birikmalar mavzusini tushintirish uchun nazariy manbalar hamda koordinatsion birikmalar olishdagi sintez usullar va koordinatsion birikmalar ishlatilishi haqida ma'lumotlar yortilgan.*

***Kalit so'zlar.** markaziy atom, tashqi sfera, kislota kompleks birikmalar, muvozanatli, genealogik sintezlar, ligandlar sonini, ferment, tuz kompleks birikmalar.*

Anorganik kimyo kursida o'quvchilar tanishib chiqqan birikmalarning tarkibini *stexiometrik* qonuniyatlar asosida tushunish qiyin emas. Deyarli hamma metalli ionlari ishtirokida hosil boladigan *koordinatsion* birikmalar Koordinatsion zarracha (ichki sfera) markaziy atom, ligandlar soni, ularning zaryadlari qiymatiga qarab kation, anion yoki neytral holatda bo'lishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan platina birikmalarida ammiak va xlor ionlari birikmalarning ligandlari bo'lib, barcha birikmalarda markaziy atomning oksidlanish darajasi +4 ga, koordinatsion son

qiymati hamma birikmalarda 6 ga teng. Ichki sfera (koordinatsion zarracha) zaryadi esa (yuqoridagi birikmalarda tegishli ravishda +4, +3, +2, +1 va 0) oddiy, sizga ma'lum bolgan usulda hisoblanadi:

Kordinatsion birikmalarni o'rganishda yanada bilimlarni oshirish uchun o'yinli texnologiyalardan foydalanilsa o'quvchilarni qiziqtirish va o'rganilgan bilimlarini takrorlash, xotirasida qolishida ijobiy natija beradi.

Ushbu maqolada charxpalak texnologiyasidan unumli foydalanilgan. Ushbu texnologiya o'quvchilarni o'tilgan mavzularni esga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berishga va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan.

Koordinatsion birikmalar olishda quyidagi sintez usullaridan foydalaniladi:

- 1) muvozanatli
- 2) genealogik sintezlar.

Muvozanatlar sintezda asosiy rolni termodinamik munosabatlar bajaradi. Bunda «mahsulotlar» energetik manfaat jihatidan dastlabki moddalardan ko'ra afzalroq bo'lishi kerak. Bunda reaksiyalarning mexanizmi ikkinchi darajali hisoblanadi, Ba'zan «mahsulotlarning» tuzilishi dastlabki moddalarning tuzilishidan umuman boshqacha bo'lishi mumkin. Muvozanatli sintezni olib borish uchun quyidagi shartlarga rioya qilish kerak.

Koordinatsion birikma hosil bo'lish muvozanat jarayonini ta'minlash uchun zaruriy harorat va boshqa sharoitlar tanlash;

Muvozanatni mahsulotlar hosil bo'lish tomoniga qarata siljitish choralarini izlash;

Zaruriyat bo'lsa, dastlabki moddalar energiyasini imkoni boricha oshirish;

Agar koordinatsion birikma hosil qilish jarayoni mahsulotni saqlash mumkin bo'lmagan sharoitda amalga oshirilgan bo'lsa, «muvozanatni yaxlatish» usuli tanlanadi.

Genealogik sintezda mahsulotning tuzilishi dastlabki moddalar tuzilishiga o'xshash bo'ladi. Bunda reaksiya mexanizmi muhim ahamiyatga ega.

Bu holda ham mahsulotning energetik jihatdan afzalligi imkoni boricha o'z kuchini saqlab qoladi. U yoki bu elementning koordinatsion birikma hosil qilish qobiliyati o'sha element atomining sirtqi elektron qavati tuzilishiga va uning davriy sistemadagi o'rniga bog'liq bo'lib, koordinatsion birikma hosil qiluvchilar jumlasiga asosan sirtqi qavatda yetarli darajada bo'sh orbitallari bo'lgan metall ionlar kiradi. Koordinatsion birikma hosil qiluvchi zarracha elektron juftining akseptori vazifasini bajaradi. Agar markaziy atom kimyoviy bog'lanishda o'zining bo'sh s- orbitallari bilan ishtirok etsa, bu holda faqat σ (sigma) – bog'lanish, agar bo'sh r – orbitallar ham qatnashsa, σ - va π - bog'lanishlar yuzaga keladi (u r-, d- yoki f – orbitallari bilan ishtirok etganida ham σ - va π - bog'lanishlar kelib chiqadi). 1893 yilda A.Verner kompleks birikmalarning tuzilishi haqida yangi nazariya yaratdi. Bu nazariya quyidagi uch banddan iborat:

ayrim elementlar o'zining asosiy valentliklaridan tashqari, yana qo'shimcha valentlik namoyon qila oladi;

har qaysi element o'zining asosiy va qo'shimcha valentligini to'yintirishga intiladi;


markaziy atomning qo'shimcha valentligi fazoda ma'lum yo'nalishga ega bo'ladi.

Vernerning fikricha birinchi tartibdagi birikmalar asosiy valentlik hisobiga, koordinatsion birikmalar esa qo'shimcha valentlik hisobiga hosil bo'ladi. Masalan, $PtCl_4$ bilan KCl birikib, $PtCl_4 \cdot 2KCl$ ni hosil qilganida Pt va Cl ionlari o'zlarining asosiy valentligidan tashqari yana qo'shimcha valentlik namoyon qiladi: bu yerda, tutuash chiziqlar asosiy valentlikni, uzlukli chiziqlar qo'shimcha valentlikni ko'rsatadi. Hozirgi zamon termini bilan aytganda asosiy valentlik elementning ayni birikmadagi oksidlanish darajasini, qo'shimcha valentlik esa uning koordinatsion sonini ko'rsatdi. $PtCl_4 \cdot 2KCl$ da platinaning asosiy valentligi 4 ga, qo'shimcha valentligi 6 ga tengdir. Koordinatsion birikmadagi markaziy atom bilan bevosita birikkan ligandlar orasidagi barcha bog'lanishlar soni markaziy atomning koordinatsion soni deb ataladi. Koordinatsion birikmada markaziy atom bilan ligandlar orasidagi barcha bog'lanishlar bir xil kuchga ega bo'ladi. U yoki bu elementning koordinatsion birikma hosil qilish qobiliyati o'sha element atomining sirtqi elektron qavati tuzilishiga va uning davriy sistemadagi o'rniga bog'liq bo'lib, koordinatsion


birikma hosil qiluvchilar jumlasiga asosan sirtqi qavatda yetarli darajada bo'sh orbitallari bo'lgan metall ionlar kiradi. Koordinatsion birikma hosil qiluvchi zarracha elektron juftining akseptori vazifasini bajaradi. Agar markaziy atom kimyoviy bog'lanishda o'zining bo'sh s- orbitallari bilan ishtirok etsa, bu holda faqat σ (sigma) – bog'lanish, agar bo'sh r – orbitallar ham qatnasha, σ - va π - bog'lanishlar yuzaga keladi (σ , - p -, d - yoki f – orbitallari bilan ishtirok etganida ham σ - va π - bog'lanishlar kelib chiqadi).

Kompleks tuzlarni ishlatilishi.

1. Ionlarni aniqlash uchun analitik kimyoda ishlatiladi. Masalan, Fe^{2+} , Fe^{3+} , Ni^{2+} va Co^{3+} ionlarni bor-yo'qligini quyidagi reaksiyalar yordamida aniqlanadi:




Kuchsiz ishqoriy muhitga ega bo'lgan nikel (II)- sulfat eritmasiga 3-4 tomchi dimetilglioksim qo'shilganda ko'k, qizil kristall hosil bo'ladi:




Bu reaksiya Chugaev reaksiyasi nomi bilan yuritiladi.


2. Ba'zi metallarni (lantanoidlarni) bir-biridan ajratish va yuqori darajada toza metallar (oltin, kumush va xokazolar) olish uchun kompleks birikmalardan foydalaniladi. Masalan, kvarts va qumdan oltin ajratib olishda ko'pincha oltinning natriy tsianid bilan kompleks tuz hosil qilishidan foydalaniladi. Chunki oltin kislorod ishtirokida NaCN bilan suvda yaxshi eriydigan kompleks hosil qiladi:



Eritmaga o'tgan kompleks tarkibidagi oltinni rux yordamida erkin holda ajratib olish mumkin:



3. Kompleks birikmalardan bo'yoq moddalar sifatida foydalaniladi. Tarkibida temir tuzlari bo'lgan zangori bo'yoq 1704 yilda Disbax tomonidan qoramol qonini potash (K_2CO_3) bilan qizdirish natijasida hosil qilingan:



zangori bo'yoq Bu modda lak bilan aralashtirib ishlatiladi. Hozirgi vaqtda xrom, kobalt va misning organik moddalar bilan hosil qilgan bo'yoqlari ko'p ishlatilmoqda.

4. Kompleks birikmalar o'simlik va hayvonot olami hayotida muhim rol o'ynaydi. Uzoq vaqt moboynda o'simlik, hayvonot hamda inson organizmlarida kimyoviy jihatdan faol biologik sistemalar bunyodga kelgan. Bularning ko'pchiligini metalloorganik birikmalar tashkil qiladi. Tirik organizmlarda uchraydigan eng sodda komplekslar-metallarning aminokislotalar bilan hosil qilgan komplekslaridan iborat. Ular tarkibidagi aminokislota - ikki dentatli ligand vazifasini bajaradi. Shuning uchun bu komplekslarni besh a'zoli xelatlar shaklida yozish mumkin:

Bu xildagi komplekslarning barqarorligi metall tabiatiga qarab quyidagi tartibda o'zgaradi:



Bu komplekslarda organizmning boshqa murakkab birikmalarixlorofill va gemoglobin hosil bo'ladi. Vitaminlarning ba'zilar kompleks birikmalar tarkibiga kiradi. Ular tirik organizm hayotida muhim ahamiyatga ega. Akademik A.Grinberg tashabbusi va prof. Azizov rahbarligida Toshkentda biologik jihatdan aktiv komplekslar o'rganishga kirishganlar. Ligandlar sifatida aminokislotalar, markaziy sifatida kobalt, temir, rux kabi oraliq metallardan foydalanilgan. Hosil qilingan moddalarning ko'pchiligi tibbiyot uchun katta ahamiyatga ega dorilardir. Masalan, nikotin kislota (vitamin PP) va kobalt (II) xloriddan hosil qilingan modda «koamid» va $[\text{Pt}(\text{NH}_3)_2\text{Cl}_2]$ tarkibli kompleks birikma saraton kasalligining davolashda zaruriy dori sifatida ishlatiladi. 5. Metall – fermentlar (enzimlar). Fermentlar tirik organizmda sodir bo'ladigan kimyoviy reaksiyalarni tezlashtiruvchi biologik katalizatorlardir. Hozirgacha ma'lum bo'lgan fermentlar soni 2000 dan ortiq. Ularning hammasi oqsil tabiatli va boshqa turdagi moddalar kofemerlardan tarkib topgan o'zaro kimyoviy bog'larsiz birlashgan kompleksdan iboratdir. Fermentlardan unumli va tanlab

ta'sir qilish xususiyati yuqori, ularda sharoitga qarab aktivligi o'zgaruvchan xususiyatlar mavjud. Fermentlar ta'sir qiladigan modda (substrat)larning kimyoviy o'zgarishi oddiy reaksiyalarga nisbatan 108 -1012 marta tezlashishi mumkin. Fermentlarning tanlab ta'sir etishning odam so'lak bezida ishlab chiqariladigan amilaza organizmda kraxmal glikogen va ularga yaqin bo'lgan polisaridlarning gidroliz reaksiyalarini tezlashtirishda, xujayralarda polisaxaridlarning yig'ilishini ta'minlaydi. Lekin bu ferment saxarozani parchalanishiga ta'sir etmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2006 yil
2. M.E.Musayeva, G.T.Boymurodova, A.K.Otaboyev, D.T.Pulatova, M.J.Abdullayeva. Aniq va tabiiy fanlar ta'limi jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlar. Toshkent-2016.
3. G.A. Ixtiyarova, D.J.Bekchanov. M.Sh. Ahadov. Kimyoni o'qitishda zamonaviy texnologiyalar. Toshkent-2020.

KORDINATSION BIRIKMALAR TURLARI VA NOMLANISHINI "CHARXPALAK" TEXNOLOGIYASI YORDAMIDA O'QITISH

k.f.n. dots, Mirsalimova S.R., ass No'monov M.A.,

Farg'ona politexnika instituti.

Annotatsiya. Maqolada kimyo fanidan kompleks birikmalar mavzusini tushintirish uchun nazariy manbaalar hamda yangi pedogogik texnologiyalar yordamida dars jarayonlarini tashkil etish bo'yicha interfaol pedagogik texnologiyalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar. markaziy atom, tashqi sfera, Kislota kompleks birikmalar, "charxpalak" metodi, ligandlar sonini, tuz kompleks birikmalar.

Anorganik kimyo kursida o'quvchilar tanishib chiqqan birikmalarning tarkibini *stexiometrik* qonuniyatlar asosida tushunish qiyin emas. Deyarli hamma metali ionlari ishtirokida hosil boladigan *koordinatsion* birikmalar Sizga tanish bo'lgan birikmalarga nisbatan murakkab tarkib va turli-tuman xossalari bilan ajralib turadi. Masalan, $PtCl_4$ ning ammiak bilah hosil qiladigan birikmajari $[Pt(NH_3)_6]Cl_4$, $[Pt(NH_3)_5Cl]Cl_3$, $[Pt(NH_3)_4Cl_2]Cl_2$, $[Pt(NH_3)_3Cl_3]Cl$ va $[Pt(NH_3)_2Cl_4]$ tarkibga ega bo'lib, ular suvda eritilganda turli miqdorda ionlar hosil boladi.

Bunday moddalar formulalarida metali ioni (Pt^{4+}) *markaziy atom* va uning atrofida *ligandlar deb* ataladigan zarrachalar (molekula, ion yoki boshqalar) koordinatsiyalangan bo'ladi.

Markaziy atom va uning ligandlari birgalikda koordinatsion birikmaning *ichki sferasida*, undan tashqarida esa *tashqi sfera* zarrachalari (kationlar, anionlar yoki molekulalar) joylashadi.

Ligandlar soni ayni koordinatsion birikmadagi markaziy atomning *koordinatsion sonini aks* ettiradi. Ularning soni 2-12 chegarasida bo'ladi.

Koordinatsion son qiymati markaziy atomning valentligiga qarab o'zgaradi. Markaziy atom va ligandlar hosil qilgan birikmalarning xossalari boshlang'ich moddalarnikidan farq qiladi. Koordinatsion birikmalar stexiometriyasi murakkab bolsa ham, undagi zarrachalarning oksidlanish darajalari yig'indisi nolga teng boladi. Shu bilan birga koordinatsion ion zaryadi bilan markaziy atom zaryadlari har doim ham bir xil bo'lavermaydi.

Koordinatsion zarracha (ichki sfera) markaziy atom, ligandlar soni, ularning zaryadlari qiymatiga qarab kation, anion yoki neytral holatda bo'lishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan platina birikmalarida ammiak va xlor ionlari birikmalarning ligandlari bo'lib, barcha birikmalarda markaziy atomning oksidlanish darajasi +4 ga, koordinatsion son qiymati hamma birikmalarda 6 ga teng. Ichki sfera (koordinatsion zarracha) zaryadi esa (yuqoridagi birikmalarda tegishli ravishda +4, +3, +2, +1 va 0) oddiy, sizga ma'lum bolgan usulda hisoblanadi:

Kordinatsion birikmalarni o'rganishda yanada bilimlarni oshirish uchun o'yinli texnologiyalardan foydalanilsa o'quvchilarni qiziqtirish va o'rganilgan bilimlarini takrorlash, xotirasida qolishida ijobiy natija beradi.

Ushbu maqolada charxpalak texnologiyasidan unumli foydalanilgan. Ushbu texnologiya o'quvchilarni o'tilgan mavzularni esga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berishga va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qiska vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan.

Texnologiyaning maqsadi o'quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarini baholash. yakka va guruhlarda ishlashga. boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, ko'p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o'rgatish.

Texnologiyaning qo'llanilishi: texnologiya o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida dars boshlanishi yoki dars oxirida yoki o'quv predmetining biron bir bo'limi tugallanganda, o'tilgan mavzularni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o'tkazish uchun mo'ljallangan. Ushbu texnologiyani mashg'ulot jarayonida yoki uning bir qismida yakka, kichik guruh va jamoa shaklida tashkil etish mumkin.

Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar: tarqatma materiallar, rangli qalam (yoki marker)lar.

Mashg'ulotni tashkil etishda reja bo'yicha belgilangan mavzu hamda o'qituvchining qo'ygan maqsadi asosida (tekshirish, mustahkamlash, baholash) tarqatma materiallar (agar yakka tartibda o'tkazish mo'ljallangan bo'lsa, guruh o'quvchilari soniga, agar kichik guruhlarda o'tkazish belgilangan bulsa, u holda guruhlar soniga qarab tarqatma materiallar) tayyorlanadi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

1. O'quvchilarni guruhlarga ajratish.
2. O'quvchi mashg'ulotni o'tkazishga qo'yilgan talablar va qoidalar bilan tanishtirish.
3. Tarqatma materiallarni guruh a'zolariga tarqatish.
4. Guruh a'zolari tomonidan yakka holda mustaqil ravishda tarqatma materiallardagi vazifalar bajariladi.
5. Har bir guruh a'zosi o'zi ishlagan tarqatma materialining o'ng burchagiga guruh raqamini yozadi, chap burchagiga esa o'zining biron-bir belgisini chizib qo'yadi.
6. Vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlarga «charxpalak aylanmasi» yo'nalishida almashtiriladi.
7. Yangi guruh a'zolari tomonidan berilgan materiallar o'rganiladi va o'zgartirishlar kiritiladi.
8. Jamoalar tomonidan o'rganilgan va o'zgartirishlar kiritilgan materiallar yana yuqorida eslatilgan yo'nalish bo'yicha guruhlararo almashtiriladi (ushbu jarayon guruhlar soniga qarab davom ettiriladi).
9. Materiallarni oxirgi almashinishdan so'ng har bir guruh va har bir guruh a'zosi o'zlari ilk bor to'ldirgan materiallarini (guruh raqami va o'zlari qo'ygan belgilari asosida tanlab oladilar).
10. Har bir guruh a'zosining o'zlari belgilagan javoblariga boshqa guruh a'zolarining tuzatishlarini taqqoslaydilar va tahlil qiladilar.
11. O'qituvchining tarqatma materialda berilgan vazifalarini o'qiydi va jamoa bilan birgalikda to'g'ri javoblarni belgilaydi.
12. Har bir o'quvchi to'g'ri javob bilan belgilangan javoblar farqlarini aniqlaydilar, kerakli ballni to'playdilar va o'z-o'zini baholaydilar.

Izoh: tarqatma materialda o'quvchilar belgilagan to'g'ri javoblar bilan o'qituvchi hamkorligida aniqlangan to'g'ri javoblarning farqi 55 foizdan yuqori bo'lsa, o'quvchi ushbu o'quv materialini o'zlashtirgan, undan kam bo'lsa o'zlashtira olmaganligini bildiradi. O'quvchilar o'z baholari yoki ballarini belgilab olishgach, o'qituvchi vazifa bajarilgan qog'ozlarni yig'ib oladi va ballarni guruh jurnaliga ko'chirib qo'yadi.

Koordinatsion birikmalar turlari:

Koordinatsion birikmalar turlari kislotalar, asoslar, tuzlar, ba'zilar esa neytral (noelektrolit) va boshqa xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

Quyida bir necha misollar keltiramiz:

- Kislota kompleks birikmalar:
H₄[Fe(CN)₆], H₂[BeF₄], H[BF₄], H[PF₆], H₂[SiF₆];
- Asosli kompleks birikmalar:
[Cu(NH₃)₄](OH)₂, [Ag(NH₃)₂]OH, [Ni(NH₃)₆](OH)₂;
- Tuz kompleks birikmalar:
K₃[AlF₆], Na₄[PtCl₆], K₃[Fe(CN)₆], K₄[Fe(CN)₆];
- Noelektrolit kompleks birikmalar:
[Pt(NH₃)₂Cl₂], [Pt(NH₃)₂Cl₄], [Ni(CO)₄];
- Gidroksibirikmalar:
Na[Be(OH)₄], K₃[Al(OH)₆], Na₂[Sn(OH)₆]
- Aralash kompleks birikmalar:
[Pt(NH₃)₄Cl₂]SO₄, [Co(NH₃)₂Cl]NO₃, [Pt(NH₃)₄(H₂O)₂]Cl₄

Quyida «Charxpalak» texnologiyasidan foydalangan holda – Koordinatsion birikmalarning eng muhim sinflari mavzusida mashgʻulot oʻtkazish uchun zarur boʻlgan materialni taqdim etamiz.

1-jadval

№	Modda formulari	Kompleks birikmalar sinflari					
		Kislota kompleks birikmalar	Asosli kompleks birikmalar	Tuz kompleks birikmalar	Noelektrolit kompleks birikmalar	Gidroksi kompleks birikmalar	Aralash kompleks birikmalar
1	H[BF ₄]	+					
2	[Cu(NH ₃) ₄](OH) ₂		+				
3	K ₄ [Fe(CN) ₆]			+			
4	[Pt(NH ₃) ₄ (H ₂ O) ₂]Cl ₄						+
5	Na[Be(OH) ₄]					+	
6	H ₂ [SiF ₆]	+					
7	[Ni(CO) ₄]				+		+
8	Na ₄ [PtCl ₆]			+			
9	Na[Be(OH) ₄]					+	
10	[Ag(NH ₃) ₂]OH		+				

Koordinatsion birikmalar nomenklaturasi

Koordinatsion birikmalar nomenklaturasining asosi oddiy moddalarnikiga oʻxshash. Nazariy va amaliy kimyoning xalqaro birlashmasi (IYUPAK) tavsiya etgan qoidalari qisqacha quyidagilardan iborat:

1. Oldin kation, oxirida anion nomi aytiladi.
2. Ligandlarni nomlash tartibi quyidagicha boʻladi: oldin manfiy zaryadlisi, keyin neytral holdagisi, oxirida esa musbat zaryadli ligandlar nomlanadi (ularni har birining chegarasida oldin soddalari, keyin murakkablariga oʻtiladi).
3. Kislota qoldigʻi nomiga O harfi qoʻshiladi.
4. Markaziy atomning oksidlanish darajasini uning nomidan keyin qavs ichida rim raqami bilan yoziladi.
5. Ligandlar sonini yunoncha raqamlar orqali ifodalanadi. Kompleks ion nomi bitta soʻz holida yoziladi.

Quyida bir necha misollar keltiramiz:

[Ag(NH₃)₂]Cl — diamminkumush(I) xlorid;

K₂[CuCl₄] — kaliy tetraxloromis(II);

[Cr(NH₃)₆]Cl₃ — geksamminxrom(III) xlorid;

$K_2[Pt(NO_2)_2Cl_2]$ — kaliy dixlorodinitroplatina(II);
 $[Pt(NH_3)_4NO_2Br](NO_3)_2$ — bromonitrotetraamminplatina(IV) nitrat;
 $K_4[Ni(CN)_4]$ — kaliy tetratsianonikel (0);
 $K_2[Be(OH)_4]$ — kaliy tetragidroksoberrillat(II).

Quyida «Charxpalak» texnologiyasidan foydalangan holda – Koordinatsion birikmalarning nomlanishi mavzusida mashgʻulot oʻtkazish uchun zarur boʻlgan materialni taqdim etamiz.

2-jadval

№	Modda formulari	Kompleks birikmalar sinflari					
		$[Ag(NH_3)_2]Cl$	$K_2[CuCl_4]$	$[Cr(NH_3)_6]Cl_3$	$K_2[Pt(NO_2)_2Cl_2]$	$K_2[Be(OH)_4]$	$K_4[Ni(CN)_4]$
1	Kaliy tetragidroksoberrillat(II)					+	
2	Kaliy tetraaxloromis(II)		+				
3	Kaliy tetratsianonikel (0)						+
4	Diamminkumush(I) xlorid	+					
5	Kaliy dixlorodinitroplatina(II)				+		
6	Geksaamminxrom(III) xlorid			+			

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Azizxoʻjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2006 yil
2. M.E.Musayeva, G.T.Boymurodova, A.K.Otaboyev, D.T.Pulatova, M.J.Abdullayeva. Aniq va tabiiy fanlar taʼlimi jarayonida qoʻllaniladigan interfaol metodlar. Toshkent-2016.
3. G.A. Ixtiyarova, D.J.Bekchanov. M.Sh. Ahadov. Kimyoni oʻqitishda zamonaviy texnologiyalar. Toshkent-2020.

KORDINATSION BIRIKMALARNING TURLARI VA IZOMERYASINI INTEFAOL METODLAR ASOSIDA OʻQITISH.

Ibragimov F.A.

Fargʻona politexnika instituti.

Annotatsiya: Maqolada taʼlim samaradorligini oshirish maqsadida oʻquv jarayoniga zamonaviy interfaol metodlardan foydalanib kimyo fanidan kompleks birikmalar mavzusini tushintirish toʻgʻrisida fikr yuritilib, keng qamrovli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit soʻzlar: markaziy atom, tashqi sfera, koordinatsiya, izomeriya, “rotatsiya” metodi, ligandlar sonini, elektron juftlar.

Koordinatsion birikmalar koordinatsion komplekslar, kompleks birikmalar yoki oddiygina komplekslar deb ham ataladi. Koordinatsion (murakkab) birikmalar anorganik kimyoning katta sinfiga mansub boʻlib, ular neytral yoki zaryadlangan zarrachalar shaklida ham noorganik, ham organik birikmalarni oʻz ichiga olishi mumkin. Ularning koʻpligi boʻyicha ular organik birikmalardan keyin ikkinchi oʻrinda turadi. Koordinatsiya deganda bir yoki bir nechta ion yoki molekullarga bir yoki bir nechta ion yoki molekula qoʻshilishi natijasida hosil boʻlgan har qanday birikma tushuniladi.

Koordinatsion birikmalarning muhim xususiyati shundaki, ligandlar deb ataladigan elektron juft donorlar va elektron juft qabul qiluvchilar, metall atomlari yoki ionlari oʻrtasida koordinatali aloqalar hosil boʻladi. Metallga berilgan elektron juftlar soni uning koordinatsion raqami deb

ataladi. Koordinatsiya raqamlari 3, 5, 7 yoki 8 bo'lgan ko'plab komplekslar mavjud bo'lsa-da, aksariyat komplekslar 2, 4 yoki 6 koordinatsiya raqamlarini ko'rsatadi.

Liganddan metall ioniga bir juft elektron berilishi uchun juft elektronni qabul qilish uchun metall ionida bo'sh orbital bo'lishi kerak. Bu holat kovalent bog'lanishlar hosil bo'ladigan holatdan ancha farq qiladi, chunki u holda bog'lovchi juftlikdagi bitta elektron bog'langan atomlarning har biridan keladi. Koordinatali aloqalarning shakllanishi bilan bog'liq ravishda tavsiflanishi kerak bo'lgan birinchi omillardan biri bu metallda qanday turdagi orbitallar mavjudligini ko'rishdir.

Agar metall ioni Zn^{2+} bo'lsa, elektron konfiguratsiyasi $3d^{10}$. Shuning uchun, 4s va 4p orbitallari bo'sh va to'rtta bo'sh sp^3 gibrid orbitallar to'plamini berish uchun gibridlanishi mumkin. Ushbu gibrid orbitallar to'plami ligandlar tomonidan berilgan to'rt juft elektronni tetraedr burchaklari tomon yo'naltirishi mumkin edi. Shunga ko'ra, $[Zn(NH_3)_4]^{2+}$ tetraedral bo'lishini kutish kerak va bu to'g'ri.

1893 yilda Alfred Verner $CoCl_3 \cdot 6NH_3$, $CoCl_3 \cdot 4NH_3$, $PtCl_2 \cdot 2NH_3$ va $Fe(CN)_3 \cdot 3KCN$ kabi komplekslarning mavjudligini tushuntirish nazariyasini taklif qildi. U metall ionining ikki xil valentlikka ega ekanligini taxmin qilishdan boshladi. Birinchisi, birlamchi valentlik, metall zaryadini muvozanatlashtiradigan manfiy guruhlar tomonidan qondiriladi. Masalan, $CoCl_3 \cdot 6NH_3$ da kobaltning +3 valentligi uchta Cl^- ioni bilan qanoatlaniriladi. Ikkilamchi valentlik odatda soni bo'yicha o'ziga xos bo'lgan boshqa guruhlarini bog'lash uchun ishlatiladi.

Yuqoridagi holatda oltita NH_3 molekulasi kobaltning ikkilamchi valentligini qondiradi, shuning uchun kobaltning koordinatsion soni 6 ga teng. NH_3 molekularining to'g'ridan-to'g'ri kobalt ioni bilan bog'lanishi natijasida formula endi $[Co(NH_3)_6]Cl_3$ sifatida yoziladi, bu yerda kvadrat qavslar metallni o'z ichiga olgan haqiqiy kompleksni va unga bevosita bog'langan ligandlarni aniqlash uchun ishlatiladi.

Koordinatsion birikmalarni o'rganishda yanada bilimlarni oshirish uchun o'yinli texnologiyalardan foydalanilsa o'quvchilarni qiziqtirish va o'rganilgan bilimlarini takrorlash, xotirasida qolishida ijobiy natija beradi.

Ushbu maqolada rotatsiya metodidan unumli foydalanilgan. Ushbu metodika o'quvchilarni o'tilgan mavzularni esga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berishga va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan.

Koordinatsion birikmalar turlari:

Koordinatsion birikmalar turlari kislota, asos, tuz, ba'zilar esa neytral (noelektrolit) va boshqa xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

Quyida bir necha misollar keltiramiz:

- Kislota kompleks birikmalar:
 $H_4[Fe(CN)_6]$, $H_2[BeF_4]$, $H[BF_4]$, $H[PF_6]$, $H_2[SiF_6]$;
- Asosli kompleks birikmalar:
 $[Cu(NH_3)_4](OH)_2$, $[Ag(NH_3)_2]OH$, $[Ni(NH_3)_6](OH)_2$;
- Tuz kompleks birikmalar:
 $K_3[AlF_6]$, $Na_4[PtCl_6]$, $K_3[Fe(CN)_6]$, $K_4[Fe(CN)_6]$;
- Noelektrolit kompleks birikmalar:
 $[Pt(NH_3)_2Cl_2]$, $[Pt(NH_3)_2Cl_4]$, $[Ni(CO)_4]$;
- Hidroksibirikmalar:
 $Na[Be(OH)_4]$, $K_3[Al(OH)_6]$, $Na_2[Sn(OH)_6]$
- Aralash kompleks birikmalar:
 $[Pt(NH_3)_4Cl_2]SO_4$, $[Co(NH_3)_2Cl]NO_3$, $[Pt(NH_3)_4(H_2O)_2]Cl_4$

Koordinatsion birikmalarda izomeriya hodisasi.

Bu xususiyat organik birikmalardagi kabi keng tarqalgan. Izomerlar xossalariining tadqiqoti. birikmalarning geometrik tuzilishini aniqlashga imkon beradi.

Izomeriya turlari o'ndan ortiq, biz ularning ba'zilariga to'xtalamiz.

1. *Geometrik izomeriya* tekis kvadrat yoki oktaedr shakliga ega bo'lgan koordinatsion birikmalarda uchraydi. Koordinatsion soni 4 ga teng bo'lgan birikmalarda 4 ta ligand ikki xil tabiatli bo'lganda yuzaga kelib chiqadi, ular kvadrat tekislikda ikki xil *sis-* va *trans-* izomerlar holida joylashadi.

2. *Ko'zgu izomeriya* eng kamida ikkita bidentat ligandga (masalan, En, oksalat kislota anioni, aminokislotalar va shularga o'xshashlar) ega bo'lgan oktaedrik va tetraedrik birikmalarga xos bo'ladi. Bu izomerlar bir-biridan fizik va kimyoviy, xossalari bilan farq qiladi. Tetraedr tuzilishiga ega bo'lgan koordinatsion birikmalar bunday izomeriyaga ega bo'lmaydi.

3. *Ionlanish izomeriyasi* birikmadagi ichki va tashqi sferadagi ionlar o'zaro o'rin almashinishi natijasida yuzaga kelib chiqadi. Masalan, $[\text{Co}(\text{NH}_3)_5\text{Br}]\text{SO}_4$ va $[\text{Co}(\text{NH}_3)_5\text{SO}_4]\text{Br}$ larni birinchisining eritmasi Ba^{2+} ioni tutgan modda eritmasi bilan aralashtirilganda BaSO_4 cho'kmasi, ikkinchisi esa kumush nitrat bilan oq cho'kma, hosil qiladi. Bu moddalarning eruvchanligi, ular kristallarining rangi va kimyoviy xossalari farq kuzatiladi.

4. *Koordinatsion izomeriya* kation va anion tabiatli ichki sferalardan tashkil topgan birikmalarda kuzatiladi. Masalan, tarkibi $[\text{Cu}(\text{NH}_3)_4]\text{SO}_4$ va $\text{K}_2[\text{PtCl}_4]$ bo'lgan to'yingan eritmalarini aralashtirilganda $[\text{Cu}(\text{NH}_3)_4][\text{PtCl}_4]$ tarkibli birikmani cho'kma holida (uning eruvchanligi boshlangich moddalarnikidan kichik bo'lishi sababli) ajratib olish mumkin. Unga izomer bo'lgan $[\text{CuCl}_4][\text{Pt}(\text{NH}_3)_4]$ birikma mavjud.

5. *Gidrat izomeriya* ichki va tashqi sferada suv molekularining turlicha taqsimlanishi natijasida yuzaga kelib chiqadi. Masalan, ko'k-binafsha rangli $[\text{Cr}(\text{H}_2\text{O})_6]\text{Cl}_3$ dan to'q-yashil rangli $[\text{Cr}(\text{H}_2\text{O})_5\text{Cl}]\text{Cl}_2 \cdot \text{H}_2\text{O}$ va undan och-yashil rangli $[\text{Cr}(\text{H}_2\text{O})_4\text{Cl}_2]\text{Cl} \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ga o'tishda moddalarning faqat ranglarigina emas, ular dissotsilanganda hosil bo'ladigan koordinatsion ionlar zaryadi va dissotsilangan xlor ionlari miqdori turlicha bo'ladi.

6. *Koordinatsion polimeriyaga* misol sifatida *sis-* va *trans-* izomerlarga ega bo'lgan $[\text{Pt}(\text{NH}_3)_2\text{Cl}_2]$ uchun uning dimerlari $[\text{Pt}(\text{NH}_3)_3\text{Si}][\text{Pt}(\text{NH}_3)\text{Cl}_3]$ va trimer $[\text{Pt}(\text{NH}_3)_3\text{Cl}]_2 \cdot [\text{PtCl}_4]$ larni keltirish mumkin.

7. Tuz izomeriyasi ichki sferadagi murakkab ligandlar bir-biridan farq qiluvchi donor atomlari orqali markaziy atom bilan koordinatsiyalangan hollarda kuzatiladi.

8. Elektron izomeriya tarkibi bir xil bo'lgan birikmalarda markaziy atomning oksidlanish darajasi farq qilishi natijasida moddalar xossasi ham turlicha bo'ladi. Tarkibi $[\text{Co}(\text{NH}_3)_5\text{NO}]\text{Cl}_2$ bo'lgan ikkita birikma — biri paramagnit xususiyatga ega bo'lib, rangi qora tusli, ikkinchisi esa qizil rangli diamagnit xususiyatga ega.

Talabalar yangi mavzularni o'zlashtirish uchun ma'ruza mashg'ulotlarida nazariy olgan bilimlarini o'zaro savol-javob yoki munozara tarzida yanada mustahkamlashlari uchun amaliy mashg'ulot darslarida bir nechta metodlardan foydalanish mumkin. Quyida keltirilgan rotatsiya metodi bunga misol bo'la oladi.

ROTATSIYA METODI

Bu metod mashg'ulot mavzuni har bir kichik guruh alohida-alohida muhokama qilib chiqishi, yozganlarini butun guruh jamoa bo'lib tahlil qilib ko'rishi uchun qo'llaniladi va quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

-dars mavzusi bo'yicha nomerlangan topshiriqlar (masalan, rejadagi mavzuchalar) plakatlariga yozilib doskaga osib qo'yiladi;

-topshiriqlar soni uchta bo'lsa, talaba-o'quvchilar ham shuncha kichik guruhlariga ajratiladi va guruhchalar nomerlanadi;

-kichik guruhlar o'zlarining nomerlariga mos nomerdagi topshiriqni va uni bajarishda foydalaniladigan yozma ma'lumotlar paketini oladi;

Namuna: - Koordinatsion birikmalarning turlari va izomeriyasini mavzusi yuzasidan rotatsiya metodi

Geometrik izomeriya

Izomeriya haqida _____

Asosiy farqlari _____

Fizik kimyoviy xossalari _____

Izomerlanish turlari _____

Ko'zgu izomeriya

Izomeriya haqida _____

Asosiy farqlari _____

Fizik kimyoviy xossalari _____

Izomerlanish turlari _____

Ionlanish izomeriyasi

Izomeriya haqida _____
Asosiy farqlari _____
Fizik kimyoviy xossalari _____
Izomerlanish turlari _____

Koordinatsion izomeriya

Izomeriya haqida _____
Asosiy farqlari _____
Fizik kimyoviy xossalari _____
Izomerlanish turlari _____

-kichik guruhlar o'zlariga taqdim etilgan materiallarni hamkorlikda o'rganishib topshiriqqa javoblarini yozishadi;

-javoblar kichik guruhdagi husnixati chiroyli bir talaba-o'quvchi tomonidan yoziladi;

-topshiriqlarga yozilgan javoblar varog'i, ma'lumotlar paketi kichik guruhlararo almashtiriladi va qo'shimchalar qilinadi, biroq javoblarning takrorlanishiga yo'l qo'yilmaydi;

-javoblar qaysi kichik guruhniki ekanligi ajralib turishi uchun ularga har xil rangdagi flamasterlardan foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek kichik guruhlar nomerlanib, ular o'zlarining javoblarini shu nomer ostida yozishlari ham mumkin;

-javoblar yozilgan varoqlar doskaga osilgan plakatlarga yopishtirilib, o'qituvchi ishtirokida muhokama qilinadi, umumlashtiriladi va to'g'ri javoblar daftarlarga yozib olinadi;

-to'g'ri va mukammal javoblar soniga qarab talaba-o'quvchilar rag'batlantiriladi va baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2006 yil
2. M.E.Musayeva, G.T.Boymurodova, A.K.Otaboyev, D.T.Pulatova, M.J.Abdullayeva. Aniq va tabiiy fanlar ta'limi jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlar. Toshkent-2016.
3. G.A. Ixtiyarova, D.J.Bekchanov. M.Sh. Ahadov. Kimyoni o'qitishda zamonaviy texnologiyalar. Toshkent-2020.

KREDIT MODUL TIZIMINI QOLLASH DAVR TALABI.

k.f.n., dots ¹Ergashev I.M., ²ass Ergashova Sh.I., kat.o'qit. ¹Mamirzayev M.A.,

¹Samarqand davlat universiteti,

²Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti.

Annotatsiya: Mazkur ish oily ta'lim tizimida o'qitishning samaradorligini oshirish, malakali kadrlar tayyorlashda kredit-modul tiziminining mohiyati va imkoniyatlarini ko'rsatishga bag'ishlandi.

Kalit so'zlar: reyting, kompleks birikma, modul, kredit, mustaqil ta'lim, mehnat bozori, inson omili.

Malakali kadrlarni tayyorlash, ularni mehnat bozori talablariga muvofiq raqobatdoshligini oshirish, ijodiy fikrlaydigan mutaxassislarni yetishtirish oliy o'quv yurtlarida yo'lga qo'yilgan ta'lim berish jarayoni bilan chambarchas bog'liq. Bilimning shakllanishi esa bevosita ta'lim tizimiga borib taqaladi. Ta'lim tizimi samaradorligini o'qituvchi saviyasi, talaba ehtiyoji, o'quv adabiyotlari mazmuni hamda mustaqil ta'limni shakllantirishga qaratilgan infratuzilma ta'minlab beradi.

2019 yilning 8 oktyabrida "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" davlatimiz rahbarining Farmoni [1] imzolandi. Ushbu muhim hujjatda 2030 yilga qadar respublikadagi barcha oliy ta'lim muassasasi (OTM)ning

85 foizi, jumladan, 2020/2021 o'quv yilining o'zida 33 ta oliy ta'lim dargohini kredit-modul tizimiga o'tkazish ko'rsatib o'tildi. Ushbu muhim hujjatda "respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar reytingining birinchi 1 000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalarida ro'yxatiga kiritish va oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish" belgilab berildi.

Kredit-modul tizimi — ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Bunda ikkita asosiy masalaga: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash va talabalar bilimni reyting asosida baholash ahamiyat beriladi.

Bunda turli darsi mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o'qib-o'rganish, ta'limga yangicha muno-sabatda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishdan iboratdir. Mazkur tizim talabaning kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo'naltirilgan [2]. Modul turli fanlar hamda kurslar o'rganiladigan o'quv rejasining bir qismi bo'lib, talabalarda ma'lum bir bilim va ko'nikma hosil qilish, tahliliy-mantiqiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo'lishiga qaratilgan bir nechta fanlar majmui hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil qiladi, jonli, video hamda audio ma'ruzalar o'qiydi, talabaning faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi.

Talaba mutaxassis bo'lib shakllanishi uchun nafaqat axborotlar, balki ularni qayta ishlash, amaliyotga joriy qila olish malakasiga ega bo'lishi talab etiladi. Modul asosida o'qitish tizimida talabalar bilimi, malakasi hamda ko'nikmasini baholashda reyting baholash tizimidan foydalaniladi. Unda talabaning barcha o'quv faoliyati, ya'ni auditoriya va auditoriyadan tashqarida olgan, o'zlashtirgan bilimlari ball berish orqali baholanadi.

Kredit esa talabaning alohida ta'lim yo'nalishi yoki dasturi bo'yicha fanlarni o'qib o'rganishi va o'zlashtirishi uchun sarflangan o'quv yuklamasining (vaqtning) o'lchov birligidir. Kredit - talabaning me'yoriy hujjat bilan belgilangan, odatda bir hafta davomida auditoriyada va mustaqil ravishda ta'lim olishi uchun ajratilgan minimal vaqt o'lchovidir. Talabaga kredit ma'lum bir fandan belgilangan topshiriqlarni bajarib, yakuniy imtihondan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng beriladi.

Har bir talaba kelajakda tanlagan yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha diplomga ega bo'lishi uchun kreditlarni yig'ib borishi lozim. To'plangan kredit talabaga butun o'zining malakasini oshirib borish yoki qo'shimcha oliy ma'lumot olishiga xizmat qilib boraveradi.

Kredit texnologiyasi ta'lim oluvchilarga ishchi o'quv rejaga kiritilgan tanlov fanlarini, professor-o'qituvchilarni tanlash, bu orqali individual o'quv rejasini shakllantirishda bevosita ishtirok etish huquqini beradi. Bu tizim bilan o'qish va o'quv dasturlarini o'zlashtirish talabalarga o'quv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirish, uning sifatini nazorat qilish, ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish uchun imkoniyat yaratib beradi [3].

Kredit to'plash o'lchovining kiritilishi talabaga katta erkinlik berish bilan bir qatorda, kelajakda tanlagan sohasining raqobatbardosh mutaxassisi bo'lib yetishishi uchun akademik jarayonni mustaqil rejalashtirish imkonini ham taqdim etadi.

Kredit-modul tizimining joriy etilishi o'qituvchi va talabaning hamkorlikda ishlashida muhim omil hisoblanadi. Modulli ta'limda pedagog tinglovchining o'zlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi, maslahat beradi, tekshiradi. Talaba esa yo'naltirilgan ob'ekt tomon mustaqil harakat qiladi. Eng katta urg'u ham talabalarning mustaqil ta'lim olishiga qaratiladi.

O'quv jarayonida mustaqil ta'lim olishning ahamiyati ortadi va bu kelajakda mutaxassislarining mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi hamda faolligini oshi-rishga olib keladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, modulli o'qitish tizimi bilan o'qituvchi nafaqat axborot beruvchi va nazorat qiluvchi, balki maslahatchi hamda muvofiqlashtiruvchilik vazifalarini ham bajaradi. Pedagogik jarayonda o'qituvchining yetakchilik roli saqlab qolinadi.

Amaldagi o'qitish tartibidan farqli o'laroq, kredit tizimida majburiy fanlardan tashqari tanlov fanlari ham talabaning individual dars jadvaliga kiritiladi. Talabalar o'qishdan haydalmaydi yoki kursdan-kursga qoldirilmaydi. qaysi fandan belgilangan kreditlarni to'play olmasa, faqat o'sha

fanning o'zidan qayta imtihon topshiradi, xolos. Oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom esa belgilangan kreditlar to'plagandan so'ng beriladi.

Rivojlangan xorijiy davlatlarning barcha OTMda ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklar to'g'risidagi hamma ma'lumotlar, xususan, o'quv rejasida aks etgan fanlarning qisqacha sillabusi, fanlar kesimida dars mashg'ulotlarini olib boradigan professor-o'qituvchilar, mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan qisqacha talablar, ya'ni qanday nazariy, amaliy bilim, ma'lumotlar universitetlarning rasmiy veb-saytida ochiq-oydin e'lon qilingan bo'ladi.

Mazkur tizimning oliy ta'limga joriy qilinishi o'qitish sifatini oshirish, shaffoflikni ta'minlash, korrupsiyaga barham berish, ta'lim oluvchining haqiqiy bilimini yuzaga chiqarish va talabaning mustaqil o'qib-o'rganib, o'z ustida ishlashiga zamin yaratadi [4]. Bitta universitetda olingan kreditlar ikkinchisida hisobga olinadi hamda talabalar kredit yo'qotmasdan bir universitetdan boshqasiga o'tishi mumkin.

Ta'limning kredit tizimi talabalar almashinuvini oshiradi. Mehnat bozori talabiga mos kadrlarni tayyorlanmasa, raqobatda o'z o'rnimizni, mavqeimizni yo'qotishimiz muqarrardir. Chunki, barcha rivojlangan mamlakatlarning oliy ta'lim muassasalari ushbu yo'ldan yurib, yuqori natijalarni qo'lga kiritmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yilning 8 oktabridagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5349-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909 –son Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. Vazirlar Mahkamasining 31.12.2020 yildagi «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 824-son qarori

4. [https://xs.uz/uz/post/kredit-modul-tizimiga-otish-nima-uchun-kerak, maqsad, mohiyat va afzallik.](https://xs.uz/uz/post/kredit-modul-tizimiga-otish-nima-uchun-kerak-maqсад-mohiyat-va-afzallik)

KOMPLEKS BIRIKMALAR YOKI MIS KUPOROSINI LABORATORIYA USULIDA OLISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI TALABALARGA TUSHUNCHA BERISH

Bazarov A.A., Axmedova N.X.

Farg'ona politexnika instituti

Annotatsiya: *Hozirgi kunga kelib ko'plab mamlakatlarda er osti va er usti foydali qazilmalar zahiralari kundan kunga kamayib, tugab bormoqda. Ana shularni oldini olish maqsadida tabiiy moddalarni o'rnini bosishi uchun yoki uni analogini topish uchun rivojlangan davlatlarda sun'iy moddalar yoki foydali mahsulotlar etishtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shuning uchun sun'iy ravishda mis kuporosi olishni laboratoriya usulida ko'rsatib beriladi. Ba bu bilan talabalar dunyoqarashini sun'iy kristall yoki modda olish orqali tabiiy konlar o'rnini qoplash mumkin ekan"- degan tushuncha hosil bo'ladi*

Kalit so'zlar: *suv, muz, osh tuzi (NaCl), mis kuporosi (CuSO₄·5H₂O) tuzlar, to'yingan eritmalar, chiroyli kristallar, kristall hosil bo'lishi, bug'lar, sovib qotishi, turli shakl, vulqon krateri, mayda oltingugurt, nashatir*

Bizga ma'lum-ki, oddiy sharoitda kristallarning suyuqlikdan hosil bo'lishiga, suvning yaxlab muzga aylanishi, osh tuzi (NaCl), mis kuporosi (CuSO₄·5H₂O) va boshqa tuzlarning to'yingan eritmalaridan ham shu tuzlarning chiroyli kristallarini olish mumkin. Suv bug'laridan ham kristall hosil bo'lishi mumkin. Suv bug'larining sovib qotishi natijasida derazalarda turli shakldagi muz kristallchalari vujudga kelgani kabi vulqon otildandan so'ng, ajralib chiqqan gazlar

ham sovib qotishdan vulqon krateri devorlarida mayda oltingugurt, nashatir va boshqa minerallarning kristallarini ham paydo qiladi.

Mis sulfat, mis kuporosi yoki to'tiyoyisi, CuSO_4 — aslida tiniq kristall modda. Suyuqlanish harorati esa 200°C ni, zichligi $3,603 \text{ g/sm}^3$ ni tashkil etadi. Mis kuporosi qizdirilganda (650°C atrofida) parchalanadi va: $2\text{CuSO}_4 = 2\text{CuO} + 2\text{SO}_2 + \text{O}_2$ larga ajraladi. Bu modda suvda yaxshi eriydi. Suvli eritmalaridan $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$ — mis kuporosi kristallanadi (rangi och ko'k), u 105°C dan yuqori temperaturada ikki molekula suv yo'qotib $\text{CuSO}_4 \cdot 3\text{H}_2\text{O}$ (zangori rang)ga, 150°C da monogidrat $\text{CuSO}_4 \cdot \text{H}_2\text{O}$ ga aylanadi. 250°C da deyarli butunlay suvsizlanadi. Tabiatda xalkantit $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$ minerali holida uchraydi. Bu mineraldan bo'yoqlar tayyorlashda, qishloq xo'jaligida zararkunandalarga va o'simlik kasalliklariga qarshi kurashishda, ko'nychilikda, galvanik elementlarda ishlatishda foydalaniladi. Mis (1)sulfat Cu_2SO_4 ham ma'lum. Och kulrang kristall, zichligi $3,605 \text{ g/sm}^3$. 200°C dan yuqorida CuO va CuSO_4 gacha oksidlanadi. Suvli eritmada Cu va CuSO_4 ga parchalanadi. Kuchli qaytaruvchi; Cu_2O bilan $(\text{CH}_3)_2\text{SO}_4$ da o'zaro ta'sir ettirib olinadi.

Kristall olishning eng oson yo'li kristallarni oddiy to'yingan eritmada o'stirish hisoblanadi. Eritmaning to'yinganini aniqlash ham murakkab emas. Aniq hajmdagi erituvchida muayyan harorat va bosimda qattiq jismlar eriy boshlaydi (to'yinmagan eritma). Shuni esda tutish kerakki, erish ma'lum me'yorga yetgandan so'ng to'xtaydi. Bu esa to'yingan eritma hosil bo'lganligidan dalolat beradi. Bunday eritma isitilib, unga yana o'sha qattiq jism solinsa, erish ma'lum vaqtgacha davom etib, suyuqlikda shu eriyotgan moddaning mayda kristallar kurtaklari sekin astalik bilan paydo bo'la boshlaydi. Bu holat eritmaning o'ta to'yinganligidan dalolat beradi. Agar kristallchalarning cho'kmaga tushishi y'ani stakan tubiga tushishi tezlashsa, yaxshi va mukammal shakllangan kristallar hosil bo'la olmaydi. Shuni e'tiborga olib to'yingan eritmani o'ta to'yinganga o'tkazish, ya'ni kristallanish jarayonini ehtiyotlik bilan sekin - asta olib borish zarur.


MUXOKAMA: Eritmadagi zarrachalarning miqdori ko'paygan sari yoki harakatlarining sekinlashishi natijasida zarrachalar bir - birlari bilan birikishib, avval maydaroq ko'zga ko'rinmaydigan kristallchalar y'ani «kurtakchalar» hosil qiladi. Keyinchalik esa ular o'sib yiriklashib, ko'zga ko'rinadigan yirikroq kristallarga aylanadi. Mana shularni laboratoriya sharoitida suvli eritmada sun'iy kristallar olish misolida ko'rishimiz mumkin. Uning uchun dastavval kristallni hosil qilish zaruriyati tug'ilgan tuzni y'ani mis kuporosi ($\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$)ni, havonchada yanchilib maydalanadi, yoki tayyor maydalangan moddasi topiladida undan kerakli miqdorini tarozida tortib olinadi. Tayyorlangan tuzni maxsus stakanga solib, kerakli miqdorda qaynatilgan suv quyiladi. Tuz va suv solingan stakanning og'zi yumaloq yoki to'rtburchak shakldagi oyna yoki qog'oz bo'lakchasi bilan yaxshilab berkitilib, tuzning erishini tezlashtirish maqsadida qizdiriladi. Yoki oldindan qaynatib tayyorlab qo'yilgan 100°C li suvdan foydalaniladi. Shunday usul bilan tayyorlangan eritma soviganidan so'ng, y'ani uni $30\text{-}35^\circ\text{C}$ haroratgacha tushirilgandan so'ng, filtr qog'ozidan o'tkaziladi. Undan o'tgan suyuqlikni tagi keng, baland bo'lmagan kristallizator – mahsus shisha yoki boshqa idishga quyiladi. Kristallizatorida eritma bug'lanib, asta – sekin soviydi. Uning shakli va sathining kattaligi sovish jarayonini tezlashtiradi. Kristallizatorida turib eritmaning bug'lanishi va sovishi natijasida avval to'yingan, so'ng o'ta to'yingan eritma yuzaga keladi. Shu bilan bir qatorda kristallizatorida mayda kristall zarrachalari cho'kmaga tusha boshlaydi hamda vaqt o'tishi bilan kattalasha boshlaydi. Ma'lum vaqtdan keyin yangidan eritma tayyorlanib boshqa kristallizatorga quyish lozim. Oldingi kristallizatoridan yaxshi rivojlangan eng yirik bitta kristallni olib, ikkinchi kristallizatoridagi eritma ichiga tushurib hajmi kamaygandan so'ng, uni yangilash lozim. Eski eritmani to'kib, uning o'rniga yangi tayyorlanganini qo'yish, bitta yoki bir nechta kristallarni olib yangi eritmaga tushirib qo'yish maqsadga muvofiq. Shunday qilib bir necha marta takrorlansa, kristall o'sadi va kattalashadi. Bundan tashqari yirik, yaxshi shakllangan kristallar vujudga kelishi uchun eritma tagida, cho'kma holida yotgan kristallni har kuni ag'darib pastki tomonini yuqoriga qaratib qo'yish yoki bu kristallni ham ipga bog'lab osib qo'yish kerak. Shundan so'ng kristall kattalashadi.

Xulosa:

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi kunga kelib dunyoda foydali qazilmalar yoki tabiiy zahiralari yildan yilga kamayib, tugab bormoqda, ayrim mamlakatlarda esa ba'zi konlar mutlaqo tugab bo'lgan. Mana shunday salbiy oqibatlarni oldini olish maqsadida rivojlangan mamlakatlarda, xususan, Germaniya, AQSh, Yaponiya, Koreya kabi ayrim mamlakatlarda tabiiy foydali qazilmalarni o'rnini bosa oladigan sun'iy kristall yoki foydali moddalar olinmoqda. Masalan, Yaponiya davlatida esa 1985 yildan boshlab tabiiy uglerod mahsulotlaridan sun'iy olmoslar olib kelinmoqda. Shuningdek, olimlarning izlanishlari natijasida texnikaning qiyin muammolarini hal qilishda ishlatilayotgan, ajoyib xususiyatli kristallar olinmoqda. Bulardan, tarkibiga xrom aralashgan korund (rubin) samariy aralashgan flyorit, samariy, tuliy, disproziy elementlari aralashgan grossulyar kristallari lazer nurlari manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Bu nurlar tibbiyotda, kosmik kemalar bilan aloqa o'rnatishda kata ahamiyat kasb etmoqda. Bundan tashqari metallarning va qotishmalarning sifatleri ularning sovib kristallanish (qotish) sharoitiga, ular tarkibidagi metall atomlarining o'zaro birikish xususiyatlariga ham bog'liq bo'lib, shuning uchun domna pechkalarida suyultirilgan metallni kristallanishi metalshunoslarni qanchalik qiziqtirsa, tabiiy kristallarning paydo bo'lishi, o'sishi ham kristallshunoslarni, mineraloglarni va ximik-texnologlarni shunchalik qiziqtiradi. Yuqoridagi, mis kuporosidan kristall olish ham talabalarni nazariy bilimlarini boyitadi hamda ularda yangi sun'iy kristall yaratishga qiziqishini kuchaytiradi.



1-rasm. Stakanda mis kuporosi o'stirilmoqda kuporosi



2-rasm. Laboratoriya sharoitida olingan Mis kuporosi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Zaxidov K.S. Kristallografiya. Toshkent – O'zbekiston .2003yil
2. O.Q. Qushmurodov, A.Z. Umarov, X. D. Ishbaev. Kristallografiya. Toshkent -2004yil.
3. Ртуть в подземных и поверхностных водах бухаро-каршинской нефтегазоносной области АА Базаров - Экономика и социум, 397-401, 2020
4. Study of the Distribution and Physico-Chemical Properties of Deep Groundwater in Some Areas of the Altiaryk and Besharik Districts of the Fergana Region and Their Rational Use
IA Sabirovich, AA Bazarov, OM Sodiqovna - Eurasian Journal of Engineering and Technology 5, 120-124, 2022
5. Бухоро-Карши ва ғарбий Сибир нефт ва газ худудларидаги ер ости ва ер усти сувларида симобни тарқалиш қонуниятларини ўрганиш ҳамда уларни қиёслаш
АА Базаров - Science and Education 1(3),86-92 2020
6. Получение нитрата калия методом конверсии
О.А. Узиков, ОМУ Мадаминов, АА Базаров... - Universum: химия и биология, 2022
7. Катализатор риформинг курилмаларидан агфу-этан блоки курилмасига “куруқ газ” узатишда газ таркибидаги суюқ углеводородларни ажратиш олиш схемасини тадбиқ этиш
АГ Жумабоев, АА Базаров, ХМ Полвонов - Science and Education, 2020

ON THE ISSUES OF TRAINING CHEMISTRY TEACHERS IN MODERN UNIVERSITIES

PhD Kurpayanidi K.I., Professor of the Russian Academy of Natural Sciences,

Abstract: *In connection with the development of pedagogical and information technologies and the implementation of the concept of educational standards of a new generation, the teaching of disciplines of the natural science cycle in higher educational institutions has recently acquired special importance. The article presents some approaches to creating an effective system of training chemistry teachers in higher educational institutions.*

Keywords: *competencies, methodology, educational process, pedagogical education, chemical education.*

The modern educational space in the Republic of Uzbekistan exists in the conditions of a continuous and accelerating process of accumulation, refinement, deepening and expansion of knowledge; at the same time, the means of delivering information to consumers are intensively developing. Achievements in the field of information and knowledge have led to the fact that an information society is beginning to form in the world, with new standards of life, work and recreation, respectively, and with new demands and requirements for the education system.

Modern trends in pedagogical education indicate changes in the system of training future chemistry teachers in the system of higher educational institutions [1]. Changes occur in the field of expanding specialized knowledge, assessing the quality of teacher training, the formation of professionally significant skills and determining the means and ways to improve them in teaching. The process of teaching chemistry in the system of higher educational institutions is constantly being improved. Today, there is a need to acquire knowledge of economics, law, innovation management, computer, environmental «literacy» when teaching chemistry, which ensures the success of training a competent chemistry teacher in the global labor market. However, as many authors note, the situation in Uzbekistan is complicated by the fact that the low level of development of intellectual capabilities of students does not allow for the qualitative preparation of a future competent chemistry teacher, including a chemical profile. The developed intellectual capabilities of students have an independent value not only during the period of study at a pedagogical university, but also during the period of future professional activity at an industrial enterprise.

The need to develop the intellectual capabilities of students in the educational environment of a technical university is also increasing because the qualitative characteristics of applicants – the «product» of a secondary school entering higher technical educational institutions have changed. According to international studies of the PISA, applicants for the most part do not know how to carefully read the chemical text, clearly answer questions, interpret chemical information, use practical skills, students lack spatial imagination, they are unable to find examples of chemical phenomena close to reality, etc. [2,3]. Discrepancy between the results of school education and teaching practice the higher education institutions are so large that the technical university today is not able to prepare a competent chemistry teacher qualitatively.

Thus, the development of students' intellectual capabilities is the first task of high-quality training of a future competent chemistry teacher in a technical university. At the same time, the improvement of chemistry teaching is impossible without the organization of a holistic process of intellectual development, which allows students to penetrate into the essence of the material being studied, accumulate experience of mental activity and use the knowledge gained as a means of further development [4].

Information and methodological competence in teaching chemistry at the university performs the following educational functions:

1) adaptive-corrective – the ability to adequately respond to the processes of informatization of society and education and timely adjust the technologies of teaching the subject taking into account these processes;

2) stimulating-developing – stimulating interest in performing professional activities in the new conditions of the information society and informatization of education;

3) creative – the formation of the experience of creative activity in the independent production of new methodological ideas, methods, forms and technologies of training;

4) normative- evaluative - the ability to adequately assess modern requirements for the subject and object of training; content, methods, forms and technologies of training.

Information and methodological competence accumulate and structures all groups of professional and pedagogical competencies and manifests itself in the ability to perform a variety of professional functions based on the integration of information, methodological and subject competencies. Therefore, its features are multifunctional, accumulative and self-organized [5].

We believe that one of the possible ways to form the information and methodological competence of a future chemistry teacher is to ensure the functioning of the didactic system at the university, the function of which is the organization, management and ordering of all components of the learning process related to the informatization of chemical and pedagogical education. Methodological foundations of the system of formation of information and methodological competence of a chemistry teacher at a pedagogical university.

Being aware of the fact that the success of the functioning of the system significantly depends on the effectiveness of other systems (information training systems, special chemical training, methodical training of a chemistry teacher). We take as a basis the program-target principle, which implies the pedagogical integration of all disciplines of the curriculum with respect to the ultimate goals of studying at the university.

Therefore, the achievement of the ultimate goal of developing the information and methodological competence of a chemistry teacher is carried out through the achievement of many intermediate (interdisciplinary and interdisciplinary) goals.

Thus, each department participating in the training of a chemistry teacher (psychological and pedagogical departments, departments of special disciplines, Department of Methodology, Department of Computer Science and Information Technology) should provide its own contribution to the development of information and methodological competence of a chemistry teacher.

The system of formation of information and methodological competence of a future chemistry teacher at a pedagogical university allows you to launch the process of integrating disciplines of various blocks and cycles, ensuring the organic integrity of the professional training system, aimed at creating conditions for the development and formation of information and methodological competence of a specialist.

The principles of construction and functioning of the system of formation of information and methodological competence of a chemistry teacher are: the principle of humanization of education, continuity, pedagogical expediency and non-antagonistic application, compliance of teaching technologies with modern educational models, the principle of activity orientation of education, intellectual tension, professional and pedagogical orientation, integration of disciplines, fundamentalization of education, computerization and informatization, etc.

In conclusion, it should be noted that teaching chemistry at a pedagogical university should take into account the contradictions that have arisen: between the increasing requirements for the quality of chemical knowledge and skills of future specialists and the low level of development of intellectual capabilities of a modern student; between the need to obtain fundamental chemical knowledge and the established practice of teaching chemistry in higher educational institutions, in which the development of intellectual capabilities is not purposefully carried out; between the natural needs of students in the development of intellectual capabilities and the lack of methods of organizing the process at a pedagogical university, the weak use of the developing functions of chemical disciplines in its educational space.

References

1. Быстряков, В. П. (2016). Учебная литература по химии для университетов: какой ей быть. In *Актуальные проблемы химического образования в средней и высшей школе* (pp. 200-202).
2. Bunnett, J. F. (1988). The place of research in chemical training and chemical education. *Journal of Chemical Education*, 65(9), 774.

3. Busta, L., & Russo, S. E. (2020). Enhancing interdisciplinary and systems thinking with an integrative plant chemistry module applied in diverse undergraduate course settings. *Journal of chemical education*, 97(12), 4406-4413.
4. Ixtiyarova, G., Ahadov, M., Haydarova, C., & Ishmanova, Z. (2022, June). Aspects of modernization of chemistry education in the process of continuous education (in the example of the latest advances in information technology). In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 060022). AIP Publishing LLC.
5. Liliyasi, S., Amsad, L. N., & Wahyudi, A. (2021). Innovative chemistry education: an alternative course models in the disruption era. In *Journal of Physics: Conference Series* (Vol. 1731, No. 1, p. 012023). IOP Publishing.

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF MENTAL DEVELOPMENT OF PRIMARY CLASS STUDENTS.

¹Ergasheva M.I., ²Ergasheva Z.B.

¹FerPI, Fergana city

²FerSU, Fergana city

Annotation: *This article describes the specific features of the mental development of primary school students.*

Keywords: *Mental development, speech, thinking, ability, individual interest, why? how? scientific adventures, techniques, curtains, domestic animals, demonstration methods.*

INTRODUCTION.

Today, it is required to educate intellectually developed and talented young people who will serve for the development and prosperity of our country. Therefore, without perfecting the educational process, it is impossible to form the youth required by the society.

It is known that the periods of growth, development and formation of any person cannot be realized without educational activities. Mental development and education are closely related activities. The fundamental reform of the education system is the demand of the current period, changes in the education system, improvement of the curriculum, organization of problem classes are aimed at the improvement of education. If the student does not show activity in the educational process, the implemented activities will not give the intended result. It is also important to teach students to work independently in the educational process. In the course of education, they get acquainted with various requirements for schoolchildren. He is psychologically prepared to master the sciences.

In their psyche, the skills and abilities to acquire knowledge develop sufficiently. The main activity of primary school students is reading. Educational activities create new conditions for the development of speech, thinking and abilities of the child. After coming to school, the child changes to a new system of relationships with others from a psychological point of view. He wants to radically change his life, submit to new obligations, educational activity requirements, every day

begins to feel like going to school. The fact that the family members are interested in the achievements of the child's educational activities, as well as controlling him, the new form of attitude towards him is the basis for the change of attitude towards himself, to fully feel that his social status has changed. Through all the opportunities in the educational process, the scope of their knowledge acquisition expands, their interests increase, the ability to creative research develops, the activity of thinking, independence increases, and the use of mental potential becomes possible.

will come. They are devoted to everything and have the opportunity to carefully distinguish between them, generalize, draw conclusions. As soon as the child steps into school, creating opportunities and conditions for his/her own mental development through attitudes and requirements towards him/her, imposes a great sense of responsibility on the family and school education system. It is an important task of the present day to develop mature morally decent

people. It is known that in order to start the work of forming the personality of students in an exemplary way, it is appropriate to first determine the extent to which their character traits have been formed. It is impossible to deal with each student one-on-one without determining how they have mastered moral concepts.

Elementary school students are prone to believable external impressions. As noted by our great omens, a person's character is formed more than anything else in the first years of his life, and the qualities that appear in him during this period become a person's second nature. The primary responsibility for the formation of high moral norms falls on the teacher of the primary school, since it is the second nature of a person to combine natural feelings and qualities. In this period of the child, every word, every action of the teacher has an effect, the criterion of truth for him that performs its function. Because students strongly believe in teachers. They listen to his opinions. They are described seriously in their pedagogical sophistication. They always follow the requirements. They strive to complete the tasks given by him. At this time, it is for the teacher to influence the morale of the teachers, to support their positive feelings and good intentions, and the people around them encourage them to help. To learn to think correctly, to refrain from inappropriate behavior and to listen to music, to explain to them the sense of duty, to discuss with them the books read and the shows seen. It is of particular importance that the teacher conducts meaningful conversations with the students and brings them into the world of wonders and leads them to activism.

It is known that many pedagogues find it difficult to assess the intellectual development of students, and as a result of this, an important factor that should be taken into account in the educational process is allegedly left aside in their work.

First of all, it should be noted that the level of intellectual development of students is not determined only by their ability to acquire theoretical or practical knowledge or the presence of knowledge. The level of mental development of the student is the development of thought processes, the ability to distinguish between the important and the basic ones of the educational material, the ability to transfer the acquired knowledge or the acquired and mastered skills to other activities, the ability to apply various theoretical knowledge in practice, independent thinking. , is determined by several signs, such as the ability to draw conclusions.

The content, form, and structure of third-grade students' opinions and opinions on manners differ from those of opinions. This is due to the fact that the scope of their life experience is wider, and there are also differences in the way of revealing the essence of the problem, different approaches to things, and the difference depending on the characteristics of the age period.

CONCLUSION

In order for students of I-III grades to find the content of moral concepts, it is necessary to first distinguish the important signs of each concept and find generalizing secondary signs.

References

1. Mirzaboevich, M. E. (2021). Using Maple Programs in Higher Mathematics. Triangle Problem Constructed on Vectors in Space. *Central Asian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences*, 2(11), 44-50.
2. Ergashev, M. I., Nasirjanov, S. I., & Mamasoliev, J. J. (2022). Effective use of existing tire pressure monitoring and control systems at road transport enterprises in Uzbekistan. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 3(03), 39-49.
3. Mirzaboyevich, M. E. (2022). Using the Maple System to Evaluate the Efficiency of a Regression Model. *Central Asian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences*, 3(5), 7-13.
4. Ergashev, M. I. (2022). Analysis of the operation process of cars equipped with an engine with a gas cylinder supply system. *Academic research in educational sciences*, 3(6), 503-508.
5. Mirzakarimov, E. M. (2022). Using the maple system to evaluate the effectiveness of the regression model. *Eurasian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences*, 2(3), 27-33.

6. Mirzaboyevich, M. E. (2022). Using the Maple System in Selecting an Efficient Model for the Analysis of Experimental Results. *Central Asian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences*, 3(5), 14-27.
7. Ergashev, M. I., & Uraimjanov, S. Z. (2022). Management of the tire wear process of the "black box" type at road transport enterprises. *Academic research in educational sciences*, 3(5), 285-289.
8. Ergashev, M. I., Abdullaakhatov, E. A., & Khametov, Z. M. (2022). Application of gas cylinder equipment to the system of internal combustion engines in Uzbekistan. *Academic research in educational sciences*, 3(5), 1112-1119.

TALABALARNING O'QISHGA QIZIQISHLARINI OSHIRISHDA VATANIMIZ OLIMLARINING ILM-FANNI RIVOJLANTRISHGA QO'SHGAN XISSLARINI TARG'IBOT QILISHNING AHAMIYATINI OSHIRISH

dots., Sadullayev X.M., Hamidullayev Sh.H.
Farg'ona politexnika Instituti

***Annotatsiya:** maqolada ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarining bilim olishga qiziqishlarini oshirish maqsadida sohalar bo'yicha taniqli mutaxassisliklar, olimlar, ilm-fan namoyondalari hayoti, ijodi, ijtimoiy ahvoli va ish faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni ommalashtirish, keng targ'ib qilish omilidan foydalanishning ahamiyati yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** o'qish, o'rganish, faollik, ilm-fan arboblari, jamiyatdagi obro'-e'tibori, ibrat olish, kashfiyotlar, ixtirolar, renessans, islohotlar samarasi.*

Bugungi kunda ta'lim muassasalari talabalarining o'qish, o'rganishga bo'lgan faolliklarini oshirish eng dolzarb masalalardan bo'lib, bu yo'nalishda qator hayirli ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin, ilm-fan arboblari fidoyilarining vatanimiz ravnaqiga qo'shayotgan xissalari, ularning jamiyatdagi obro'-e'tibori talabalarining ulardan ibrat olishi, ular erishgan va erishayotgan yuksak cho'qqilarni zabt etishga intilishi uchun yetarli darajada omil bo'la olmayotganligi ham sir emas.

Oliy ta'lim muassasasida tahsil olayotgan ko'plab talabalar afsuski, o'zlari tanlagan sohaning dunyo tan olgan olimlari nomlarini, ularning asarlarini ham yaxshi bilmasliklari bor haqiqat.

Talabalarining Muso al-Xorazmiy (753-850), Ahmad Farg'oniy (798-865), Abu Nasr Forobiy (873-950), Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Abu Ali ibn Sino (980-1037), Qozizoda Rumiy (1364-1437), Mirzo Ulug'bek (1394-1449), Ali Qushchi (1403-1474), kabi jahon tamadduniga ulkan xissa qo'shgan olimlar;

Hakim at-Termiziy (753-869), Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810-870), Abu Iso Muhammad at-Termiziy (824-892), Imom Moturudiy (850-945), Ahmad Yassaviy (1041-1167), Mahmud az-Zamahshariy (1075-1144), Burxoniddin Marg'inoniy (1123-1197), Baxouddin Naqishband (1318-1389) kabi islom dini allomalari,

Mahmud Qo'shg'ariy, Yusuf Hos Hojib, Ahmad Yassaviy (XI-XII asrlar), Alisher Navoiy (1441-1501), Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) kabi shoir va yozuvchilar to'g'risida ko'plab ma'lumotlar bo'lishiga qaramasdan bugungi kunda faoliyat olib borayotgan ilm-fan jonkuyarlari ijodi, hayoti va faoliyati yetarlicha yoritilmayotganligi achinarli holatdir.

Mustaqil O'zbekistonimiz Fanlar Akademiyasida, Ilmiy-tadqiqot institutlarida, Oliy ta'lim muassasalarida, xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida samarali faoliyat ko'rsatib, el-yurt hurmat-e'tiboriga sazovor bo'layotgan olimlar hayot yo'li va ish faoliyati, asarlari, ilm-fanga qo'shayotgan xissalari, yashash sharoitlarini yorituvchi asarlarni boyitish, ommaviy axborot vositalari orqali keng targ'ib qilish, ular yaratayotgan kashfiyotlar, ixtirolar, yangiliklarni darslik va o'quv qo'llanmalariga kiritish, olimlarning jamiyatdagi obro'-etibori va nufuzini oshirishga qaratilgan tizimli mehaxizmni ishlab chiqish vaqti yetdi.

Tabarruk diyorumizda kamol topgan ulug' muxaddislar, fozilu-fuzalolarning nomini butun dunyoda yaxshi bilishadi. Ular bilan nafaqat faxrlanish, balki ularing boy ilmiy, merosini tadqiq va

targ'ib qilish qanchalik dolzarb bo'lsa, hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan olimlarimiz haqida keng targ'ibot ishlarini yuritish ham muhim burchimizdir.

Davlatimiz rahbari "Ilm-fan bilan shug'illanish, yangi kashfiyotlar va ixtirolar qilish igna bilan quduq qazishdek gap. Shunday ekan, bu mashaqqatli sohada fidokorona mehnat qilayotgan olimlarimiz mehnati tahsin va rag'batga munosib" deganlarida ilm-fan namoyondalarini qadrlash, ularga e'tiborni kuchaytirishni nazarda tutgan edilar. Aks holda, yosh avlod ongiga "o'qib nima bo'larding?!" degan mafkura singib qolish havfi mavjuddir. Ilmga rag'batning susayishi jamiyatimizda diplom uchun o'qiydiganlar qatlamining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Ilm qadrlanmagan joyda taraqqiyot bo'lmaydi.

Mintaqamiz xududida kuzatilgan har ikki renessans davrida ham ilm nihoyatda qadrlanganligini tarixdan bilamiz. Sharq Uyg'onish davri (IX-XII asrlar)da yurtimizdan yuzlab buyuk allomalar, qomusiy bilim sohiblari, dunyoga mashxur mutafakkirlar yetishib chiqqan. Ular o'z aqlu-zakovatlari, ilmiy asarlari va erishgan natijalari bilan umum bashariyat taraqqiyotiga beqiyos katta hissa qo'shganlar. XIV-XVI asrlardagi ikkinchi renessans davrida ham hokimiyat haqiqiy ilm-fan rivoji uchun katta va qulay sharoit yaratib bergan. Buyuk Amir Temurning "Temur tuzuklari"da "Kimning aql shijoatini sinov tarozusida tortib ko'rib, boshqalarnikidan ortiqroqligini bilsam, uni tarbiyamga olib, amirlik darajasiga kotarar edim. So'ngra korsatgan xizmatlariga yarasha martabasini oshirib borardim" deb yozilganligi ham ibratlidir. Keying yillarda ilm ahliga e'tibor va rag'bat bosqichma-bosqich oshirib borilmoqda. Bu albatta o'z mevasini berishi muqarrar.

Xalqaro Nobel mukofoti laureate, AQSHning Shimoliy Karolina Universiteti professori, kimyogar olim Aziz Sanjar: "Ilm-fanga yo'naltirilgan sarmoya va e'tibor albatta o'z samarasini beradi. O'zbekistonga yaqin yillar ichida ilm fanning beqiyos rivojlanishiga, bu yerdan dunyoga dovuq soladigan olimlar yetishib chiqishiga ishonaman"-deganda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar kelajagiga ishonchini ifoda etgan edi.

